



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLІГІ
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VАЗІRLІГІ
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



**“YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA
MADANIY ISLOHOTLARNI AMALGA
OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN
TO'PLAMI**

Toshkent-2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**“Yangi O'zbekiston taraqqiyotida
madaniy islohotlarni amalga oshirishning
dolzarb masalalari” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

MATERIALLARI TO'PLAMI

2025-yil 16-aprel

UO'K 316.422:008(575.1)
KBK 71.0(50')
X 72

Mas'ul muharrir:

*Ikromov Sayfullo – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasi mudiri, dotsent*

Tahrir kengashi a'zosi:

*Mo'minmirzo Xolmo'minov – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti “Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasi dotsenti v.v.b*

Xolmo'minov, Mo'minmirzo.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami [Matn]: to‘plam / M. Xolmo'minov. – Toshkent: «Donishmand ziyosi», 2025. – 392 bet.

Mazkur to‘plamda 2025-yil 16-aprel kuni bo‘lib o‘tgan “Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan.

To‘plamda madaniyat va san’at muassasalarining asosiy ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy yo‘nalishlari, zamонавиқ педагогик texnologiyalar yordamida o‘qitish tajribalarini qamrab olgan maqolalar taqdim etilgan.

Ushbu to‘plamdan madaniyat va san’at muassasalari, jumladan, madaniyat markazlari, konsert tashkilotlari, san’at saroylari, ta’lim muassasalari, musiqa va san’atga ixtisoslashgan mакtablar; madaniyat va san’at sohasi vakillari, olyi ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va bakalavrлar hamda mazkur sohaning muammolariga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

To‘plamga kiritilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar masulligi belgilangan.

*Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
professor*

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrli hamkasblar!

Avvalo, barchangizni 15-aprel “Madaniyat va san’at xodimlari kuni” munosabati bilan chin yurakdan samimi muborakbody etaman!

Sir emaski, Yangi O'zbekiston madaniyati va san'ati bugun munosib ravishda rivojlanib, jahon hamjamiyatining e'tibori-yu e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Buning tag zamirida muhtaram Yurtboshimiz tomonidan sohaga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, xalqimizning mehr-muhabbati hamda bugun kasb bayramlarini nishonlayotgan soha xodimlarining fidokorona xizmatlari mujassam, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Barchangizga ma'lumki, har bir sohaning kelgusi tarqqiyoti uning ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etilganiga, nazariy jihatning mukammalligiga chambarchas bog'liq hisoblanadi.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanini tashkil etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham aynan Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy tadqiq etish va oldimizda turgan ulkan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari borasida fikr almashtish, provardida esa, soha taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan taklif va tavsiyalar berishdir.

Jamiyatda ro'y berayotgan olamshumul tarixiy kunlarda barcha sohalar qatori, madaniyat va san'at sohasining Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni, ta'siri va ahamiyati qanday bo'ladi, madaniyat va san'at muassasalari xodimlarining mas'uliyati, burchi va asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi, biz o'z faoliyatimizni qay yo'sinda tashkil qilishimiz kerak, mamlakat taraqqiyotiga qanday ulushimiz va

qaysi xizmatlarimiz bilan hissa qo'shamiz? Bugungi anjumanda shu savollarga qoniqarli javob bera olsak, maqsadimizga yetgan bo'lamiz. Zeroki, bu savollar bizni timmay izlanishga va doimo yangilikka intilishga chorlaydi.

Yana bir jihatni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda institutimizda joriy etilgan an'anaga muvofiq har bir anjuman oldidan uning to'plami nashr etilmoqda. Bugun ham konferensiya maqlolalari to'plam sifatida nashr etildi.

Bugungi to'plamdan 60 dan ortiq tadqiqotchilarining sohaga oid ma'ruzalar o'rinni olgan bo'lib, ularda madaniyatimizning bugungi va kelgusi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga oid qarashlar jamlangan. Umid qilamizki, bu to'plam kelgusida tadqiqotchilar uchun muhim manbara aylanadi hamda o'z o'quvchisini topadi. Konferensiya ma'ruzalarini to'plam sifatida nashr etar ekanmiz, avvalo, uni tadqiqotchilar uchun foydali adabiyotga aylanishini maqsad qilganmiz.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ishiga muvafaqqiyat tilayman.

E'tiborlaringiz uchun rahmat!

IJTIMOIY HAMKORLIK VA BIRLIK: MILLIY-LOKAL VA GLOBAL JIHATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Viktor Alimasov,
falsafa fanlari doktori,
O'zDSMI professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy hamkorlik va birlik fenomenining milliy-lokal va global jihatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, konsolidatsiya funksiyasining ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ideologik konfrontatsiya, ijtimoiy hamkorlik, mehnat jamoalari, manfaatlar guruhlari, oila, etnik uyushmalar, ixtiyoriy assotsiatsiyalar, ijodiy uyushmalar.

Аннотация. В данной статье социально-философски анализируются особенности феномена социальной солидарности и равенства, раскрывается значение его функции консолидации.

Ключевые слова: Идеологическое противостояние, социальное сотрудничество, трудовые коллективы, группы интересов, семья, национальные объединения, добровольные объединения, творческие объединения.

Abstrakt. This article provides a socio-philosophical analysis of the features of the phenomenon of social solidarity and equality, and reveals the significance of its consolidation function.

Keywords: Ideological confrontation, social cooperation, labor collectives, interest groups, family, ethnic associations, voluntary associations, creative associations.

Muammoning qo‘yilishi. XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan globallashuv va demokratik qadriyatlarning keng tarqalishi, inson huquq va erkinliklarining milliy-ijtimoiy taraqqiyot mezoni sifatida e’tirof etilishi, ayniqsa kommunistik mafkuraning inqirozga uchrashi davlatlar, tuzumlar va etnomadaniyatlar o‘rtasida ochiq dialog,

tajriba almashish va integratsiya imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ideologik konfrontatsiyani ijtimoiy hamkorlik va birlik prinsipi bilan almashtirish xalqaro munosabatlarning barcha aktorlari tomonidan obyektiv zarurat, global taraqqiyot kafolati sifatida tan olina boshladi. Faylasuflar, siyosatshunoslar va futurologlar kelajak modelini yaratishga tushishdi. Ming afsuski, bu pozitiv jarayon uzoqqa cho‘zilmadi, 2020-yil 31-yanvarda Angliyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi, Angliya bilan Irlandiya o‘rtasidagi nizolar, Fransiyada Elzas avtonomiyasi (“Elsass frei”) va Yangi Kaledoniyaning mustaqil bo‘lish uchun 2018, 2020, 2021-yillarda referendumlar o‘tkazishi, Italiya va Germaniyada neofashistlar harakatlarining, Polsha, Pribaltika va Ukrainada neonatsionalizming kuchayishi, AQSH va NATOGa a’zo davlatlarning militaristik siyosati, Rossiya bilan Ukraina (aslida Rossiya bilan NATO) o‘rtasida boshlangan urush, pirovard natijada, ijtimoiy hamkorlik va birlik g‘oyasini chekkaga surib qo‘ydi. Dunyoning barcha qit’alarida davlatlararo to‘qnashuvlar, u yoki bu ko‘rinishda, ro‘y berib, amerikacha gegemonizm, g‘arb istayotgan yevropotsentrizm amalda zaif, nuqsonli va xalqlar manfaatlariga mos kelmasligini ko‘rsatmoqda. Monopolyar borliq inqiroz ostonasida turibdi, BMT bugun ijtimoiy hamkorlik va birlikni ta’minlashga qodir emas, milliy davlatlar esa global jarayonlarda ishtirot etish huquqiga ega ekanini tobora keng e’lon qilmoqda. Bu,o‘z navbatida, turli muammolarni, shu jumladan, nizolarni ham keltirib chiqaradi. Ularning davlatlararo to‘qnashuvlarga aylanmasligi uchun ham milliy-lokal, ham global miqyosda ijtimoiy hamkorlik va birlikning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish, uni barcha xalqaro birlashmalar, milliy davlatlar faoliyatiga joriy etish darkor.

Muammoning ishlanganligi. Kishilar ijtimoiy hamkorlik va birlik zarurligini qadimdayoq anglab yetganlar. Taniqli etnograf E.B.Taylor to‘plagan manbalar ko‘rsatadiki, ilk odamlar yovvoyi tabiatdan o‘zini himoya qilish, tur sifatida o‘zini saqlab qolish uchun animistik an‘analar va marosimlarni o‘ylab topgan. Bu ana‘analar va marosimlar qabilani, urug‘ni birlashishga yetaklagan. (1).

Totemizmni tadqiq qilgan Dj.Dj. Frezer, Klod Levi Stross, J. Mak Lennon, E.Dyurkgeym, G.Ramble, O. Kot, L.Volk, N.Y.Marr,

S.N. Bikovskiy, D.K.Zelenin, A.M.Zolotaryov, S.P.Tolstov kabi tадиқотчилар о‘ргangan totemizm esa qabilani, urug‘ni ma’lum bir simvollar atrofida uyushishga, birgalikda yashashga o‘rgatgan (Qarang: 2; 3; 4; 5; 6). Yuz-yuz million yillar davomida shakllanib kishilar, etnoslar ongiga singib, to hanuzgacha yashab kelgan ayrim animistik va totemistik tasavvurlar keyinchalik “yirik diniy-ruhiy birlik asosi” bo‘lgan monoteizmni, hatto biz ulug‘laydigan ilm-fanni shakllantiradi. Magiya, din va ilm-fanni bir qatorga qo‘ygan D.D.Frezer ularning hammasi ”nazariy tafakkur mevalaridir” degan xulosaga keladi (3, 666-bet). Zamonaviy ilmiy qarashlar ijtimoiy hamkorlik va birlikka qanday xizmat qilayotgan bo‘lsa, ilk diniy tasavvurlar va mono-teizm ham uning alohida fenomen sifatida shakllanishiga, mustah-kamlashga shunday hissa qo‘shib keladi.

Ijtimoiy hamkorlik va birlikning falsafiy-ekzistensional mohiyati. Kishilik jamiyatni va sivilizatsiyaning sotsiogenezisi, evolyusiysi va tarixiy-madaniy voqelik sifatida shakllanishi ijtimoiy hamkorlik hamda birlik fenomeniga borib taqaladi. Qadimiy urf-odatlar va animistik-an’analarni o‘rgangan mashhur etnograf E.B.Taylorning ta’kidlashicha, ibridoiy davrdayoq kishilar ma’lum bir tasavvurlar, animistik- va totemistik qarashlar, sodda, primitiv diniy an’analar atrofida qavm, urug‘ va to‘da bo‘lib yashashga intilganlar.

Ijtimoiy hamkorlik va birlik ning ushbu ilk ko‘rinishi insoniyat hayotida chuqur iz qoldirgan. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, turli etnik birliklari va konglemeratlarning yuzaga kelishi, fransuz sotsiologik va faylasufi E.Dyurkgeymning aytishicha “mehnatning taqsimlanishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy korporatsiya va assotsiatsiyalar” sotsium taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarga aylandi (4, 134–142-betlar). Falsafiy-ekzistensional nuqtai nazardan ijtimoiy hamkorlik va birlik fenomeni kishilar va jamoalarning, guruhlarning integratsiyalashuvi, kooperatsiyalashuvi ifodasıdir. Mazzkur kooperatsiyaning ijtimoiy zarurat sifatida kelishini falsafada avvalo Platon “Davlat” asarida keng ochib bergen. Uning fikricha, davlat, oila, boshqarish, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid jarayonlar, urush, kishilararo munosabatlarni ma’lum bir tizimlarga ega. Bu tizimlar esa

kishilarning, etnoslarning ijtimoiy hamkorligi va birligi tufayli davlatga, oilaga va boshqa assosiatsiyaga aylangan (5, 268–274-betlar).

Ijtimoiy hamkorlik va birlik sotsium taraqqiyotning ham mahsuli, ham sharti edi. Sotsium va jamiyat haqidagi har qanday fikr, mulo-haza ulardagi tub jihatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hamkorlik va birlikka taalluqli bo‘lgan kooperatsiyalar, assotsiatsiya va institutlariga murojaat etishdan boshlanadi. Shuning uchun ushbu ijtimoiy hamkorlik va birlik tizimlarini quyidagi ekzistensial voqeliklar orqali ochib berish mumkin:

- mehnat jamoalari;
- manfaatlar guruhlari;
- oila;
- etnik uyushmalar;
- ixtiyoriy assotsiatsiyalar;
- ijodiy uyushmalar;
- o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
- global va transmilliy tashkilotlar.

Mehnat jamoalari falsafiy-ekzistensional voqelik sifatida aholining moddiy va ma’naviy boyliklar, iste’mol tovarlari va xizmat turлariga bo‘lgan extiyojlarini qondirishga qaratilgan ishchi-xizmatchilardan iborat ijtimoiy birlikdir.

Bugun mehnat taqsimoti shu darajada rang-baranglashganki, uni birlashtirmay mehnat taqsimotidan kutilayotgan natijaga erishish qiyin. Mehnat taqsimoti sotsium taraqqiyoti uchun qanchalik zarur bo‘lsa, uni birlashtirish, kooperatsiyalash ham shunchalik zarurdir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, “mehnat taqsimoti – bu mehnat faoliyatining bir tomonidir, xolos. U ayrim xodimlari va ular guruhlaring umumiy mehnat jarayonidagi ayrim ishchilar mehnatini birlashtirishni talab qiladi. Barcha darajada o‘zaro bog‘langan mehnat jarayonlarida ayrim ijrochilarning ish o‘rinlaridan tortib butun– butun korxonalar, kichik tarmoqlar va xalq xo‘jaligining o‘zaro bog‘langan tarmoqlarigacha birlashtirishni taqozo etadi” (4, 22–23-b.). Mehnat jamoalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish shunday ijtimoiy zaruratki, biror sotsium uni hisobga olmay yoki uni chetlab o‘tolmaydi. Mehnat aso-

sidagi ijtimoiy hamkorlik va birlik butun infratuzilmalar faoliyatiga va munosabatlarga ta'sir etadi. Sotsium qolgan ijtimoiy hamkorlik va birlikni chegaralab qo'yishi yoki faoliyati yo'nalishini o'zgartirishi, hatto taqiqlab qo'yishi mumkin, ammo u mehnat jamoalariga bunday munosabatda bo'la olmaydi. Mehnat munosabatlaridagi turg'unlik yoki inqiroz shu zahoti sotsium rivojiga ta'sir etadi.

Mehnat jamoalarini mehnat taqsimoti va iqtisodiy hayotdagi talab-larga muvofiq tashkil etiladi yoki yuzaga keladi. Demak, u ma'lum bir iqtisodiy talablar va qonunlarga muvofiq shakllanadi. Ba'zan tad-birkor ochgan oshxona mehnat jamoasi tadbirkor tashabbusining hosilasi bo'lib ko'rindi, agar ushbu ishxonaga iste'molchilar kelmasa, u pirovard natijada bankrotga uchraydi, berkildi.

Manfaatlar guruhi deganda ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa ma'naviy manfaatlarni qondirish maqsadida tug'iladigan uyushmalar nazarda tutiladi. Shunday guruhlarga fuqarolik jamiyatni institutlari – siyosiy partiyalar, fraksiyalar, nodavlat tashkilotlari kabilar kiradi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlik va birlikning haqiqiy jarchilari sifatida aholini konsolidatsiyalashtirish siyosatini olib boradi. Masalan, siyosiy partiyalar plyuralizm tarafдорлари va o'zining siyosiy manfaatlarini himoya qiluvchi guruhlardan sifatida kelsa ham, jamiyat hayotida tamtaroqlikka emas, birlashishga xizmat qiladi

Manfaatlar guruhi ijtimoiy hamkorlik va birlikka ham rang-ba-ranglik olib kiradi, kishilarni o'zi manfaatlari uchun kurashganida umumiyy taraqqiyot manfaatlari ham borligini ular esiga solib turadi. Manfaatlar guruhi umumiyy manfaatlarga zid kelishi, ularni rad etishi mumkin emas. Manfaatlar rang-barangligi ziddiyatlarga, antagonistik kurashlarga emas, balki umumiyy manfaatlar atrofida hamkorlikka olib kelishi darkor. Demokratiya ba'zan manfaatlarni ziddiyatlarga olib kelishi, hatto destruktiv guruhlarni paydo qilishi mumkin. Ijtimoiy-siyosiy kurashlar tarixi ko'rsatadiki, manfaatlar guruhi radikal talablar bilan chiqsa, tuzumni kuch bilan o'zgartirish g'oyasiga ergashsa, ular destruktiv ta'sir etadi. Shuning uchun davlat bunday kuchlar yuzaga kelishini oldindan faraz qilishi, ularni konstruktiv hamkorlikka undash chora-tadbirlari ko'rishi kerak.

Oila ijtimoiy hamkorlik va birlik fenomeniga ibratli misoldir. Oila genezidayoq ikki jins – erkak va ayol biofiziologik, ma’naviy-ruhiy hamkorligiga qurilgan institut sifatida shakllangan. Falsafa fanlari doktori R.Zoirovning ta’kidlashicha, oila mikrojamiyat sifatida quyidagi jihatlar va tizimlariga ega: oila subyektlari (er-xotin); oila a’zolari (oilaviy munosabatlarda qatnashuvchilar); oila demografiyasi (oilada farzand ko‘rish, ko‘payish tizimi); oilaviy huquq (o‘zi fuqarolik huquqiga ega kishilar); oila iqtisodiyoti (oila xo‘jaligi, mulki); oila mavqeい (ijtimoiy makondagi o‘rni, obro‘sii); oila dinamikasi (oiladagi o‘zgarishlar, siljishlar); avlodlararo munosabatlar (5, 25-bet).

Oila institutida gi ijtimoiy hamkorlik va birlikni o‘z paytida Platon davlat hayotiga kechirishni istagan edi. Bu bejiz emas, aynan oiladagi bir birini qo‘llab-quvvatlash, ahillik va ittifoq keng miqyosdagi davlat instituti uchun namuna, taqlid obyekti vazifasini o‘tashi mumkin. Ayniqsa oiladagi hamjihatlikning sotsioemotsional jihatlarini o‘rganish, undagi mavqe va mollarning funksiyalarini boshqarish institutlariga tadbiq etish jamiyatda ijtimoiy hamkorlik va birlikni mustahkamlash uchun zarur. Biroq zamonaviy oila institutiga tashqi omillar (oila huquqi, sotsionormativ talablar, urf-odatlar, ijtimoiy muhit, qarindosh-urug‘lar, ommaviy kommunikatsiya vositalari), depersonizatsiyalash jarayonlari ham ta’sir etayotganini unutib bo‘lmaydi (6, 57–58-betlar).

Qanday bo‘lmasin, oilaning barqaror institut sifatida saqlanib keelayotgani undagi ijtimoiy hamkorlik va birlik mexanizmlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Etnik uyushmalar polietnik makon, turli konglemeratlar va ko‘pmillatli davlatlarda yuzaga keladigan, o‘zi etnomadaniyati va etnoxususiyatlari asrab qolishga qaratilgan ijtimoiy birlklardir. Hatto milliy davlat ichidagi etnik birlikka ham etnik uyushma sifatida qarash mumkin.

Etnik uyushmalar o‘zining milliy madaniyati va etnoxususiyatlari saqlab qolish, ularni assimilyatsiyalashuvdan asrash, milliy hamkorlik va birlik an‘analariga muvofiq yashash kabilarni nazarda tutadi. Masalan, O‘zbekiston bugun ana shunday etnik uyushmalar-

ning soni 136 dan ziyod va ular o‘zining milliy madaniy markazlariga birlashgan.

Ixtiyoriy assotsiatsiyalarga O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi, Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston futbol federatsiyasi, O‘zbekiston advokatlar palatasi kabilar kiradi. Bu assotsiatsiyalar professional qiziqishlariga muvofiq birlashgan bo‘lsa-da, jamiyatdagi muammolarni, ayniqsa fuqarolar duch kelayotgan aniq muammolarni hal etishda yordamlashishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ular sotsiumda ijtimoiy hamkorlik va birlikni shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Ijodiy uyushmalarga O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi, O‘zbekiston badiiy akademiyasi, maqomchilar, baxshichilar, raqsni sevuvchilar, amaliy san’at bilan shug‘ullanuvchilar, ilmiy-texnik ijod bilan qiziquivchilar to‘garaklari kabilar kiradi. Ular rang-barang, har bir guruhning u yoki bu ma’naviy qiziqishiga qarab tug‘iladigan, ijodning biror turi bilan shug‘ullanuvchi kishilar uyushmalaridir. Ular sotsiumdagi ijtimoiy hamkorlik va birlikni mustahkamlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Badiiy ijodning ta’siri ushbu uyushmalar faoliyati va tadbiralarini ham badiiy-emotsional, ekspressiv-ekzistensional voqelikka aylantiradi. Badiiy ijod sotsial funksiyasiga muvofiq auditoriya ongi, ruhi va emotsiyasiga qaratilgan, keng psixologik ta’sir imkoniyatlari ga ega ekzistensional vositadir (7, 11–13-betlar). Shuning uchun ijodiy uyushmalar sotsiumda ijtimoiy hamkorlik va birlikni mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

Ijodiy uyushmalar ixtiyoriy tarzda tuziladi, shu bois ularni ba’zan ixtiyoriy uyushmalar tizimiga kiritishadi. Biz uchun muhim jihat ularning sotsium hayotiga, kishilararo munosabatlarga badiiy-ekzistensional imkoniyatlari bilan ta’sir etib, ijtimoiy hamkorlik va birlikni.

Mustahkalashning eng ta’sirchan vositasi sifatida kelganidir.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari deganda mahalliy aholi tomonidan o‘z ehtiyojlarini qondirish, yon-atrofni ko‘kalamzorlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uyushtirish, fuqarolarni jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga jalb etish maqsadida tuziladigan ijtimoiy bir-

liklardir. Ushbu ijtimoiy birliklar siyosiy funksiyalariga ko‘ra fuqalarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirishga xizmat qiladi, bu vazifa sotsiumdagi ijtimoiy hamkorlik va birlik fenomeni bilan uzviy bog‘liqdir. Siyosiy madaniyat va faollik ham, ijtimoiy hamkorlik va birlik ham sotsiumda barqarorlik, hamkorlik va ittifoq bo‘lishidan manfaatdordir. Ijtimoiy-ekzistensional mohiyatiga ko‘ra, siyosiy madaniyat va ijtimoiy hamkorlik sotsiumdagi munosabatlarni jamiyat taraqqiyoti tomon yo‘naltirishga, bu borada fuqarolar tashabbusi va faolligidan foydalanishga xizmat qiladi. Shunday ekan, o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy hokimiyatni, aholi tashabbuslari va faolligini ijtimoiy ahillik, farovonlik, bir birini qo‘llab quvvatlash, mehr-oqibatli bo‘lish qadriyatlarini shakllantirishga yo‘naltiradi.

Global va transmilliy uyushmalar xalqaro aloqalarning kengayishi, integratsiya va globallashuv jarayonlarining ifodasidir. Ularaga BMT, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro sog‘likni saqlash tashkiloti, Mustaqil davrlar hamkorligi kabilalar kiradi. Ushbu transmilliy uyushmalarning bosh vazifasi xalqlar va davlatlar o‘rtasida global hamkorlik va birlikni mustahkamlashdir. Bundan mavzumizning global-ekzistensional ahamiyati kelib chiqadi.

Xullas, ijtimoiy hamkorlik va birlik tor kishilararo, guruhlararo ittifoqni, ahillikni shakllantirishdan tortib to xalqlararo, davlatlararo ittifoqni, birlikni, ya’ni global-ekzistensional hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi fenomendir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Тайлов Э.Б. Первобытная культура. – Москва: Политиздат, 1989.
2. Дюркгейм Э. О разделении труда. – Москва: Экономика, 1992.
3. Платон. Государство. – Москва: ACT, 2022.
4. Qarang: Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Zoirov R. Oilada avlodlararo munosabatlarni mustahkamlash masalalari (ijtimoiy-falsafiy yondashuv). – Qarshi: Nasaf, 2019.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abdusalom Umarov,

Sotsiologiya fanlari doktori, professor

Doston Xamidov,

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti stajyor-tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqola madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy holatini tahlil qiladi va uning takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqadi. Maqolada madaniyat va san'at sohasi kadrlarining hozirgi ta'lim tizimi, mavjud muammolar va innovatsion yondashuvlar bataffsil o'rganilgan. O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning tajribalari asosida kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish uchun takliflar berilgan. Maqola, shuningdek, madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlashda davlat va xususiy sektor o'rtaсидаги hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, kreativ va innovatsion yondashuvlarni qo'llash kabi strategik yo'nalishlarni ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari madaniyat va san'at sohasi bo'yicha ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalashda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash, san'at sohasida ta'lim, kadrlar tayyorlash tizimi, innovatsion ta'lim metodlari, madaniy ta'limni rivojlantirish, xalqaro tajriba

Аннотация. Данная статья анализирует современное состояние системы подготовки кадров в сфере культуры и искусства и разрабатывает пути её совершенствования. В статье подробно изучены текущая система образования кадров в сфере культуры и искусства, существующие проблемы и инновационные подходы. На основе опыта Узбекистана и других стран представлены предложения по повышению эффективности системы подготовки кадров. Также в статье обозначены стратегические направления, такие как развитие сотрудничества

между государственным и частным секторами в подготовке кадров, обучение специалистов, соответствующих международным стандартам, применение креативных и инновационных подходов. Результаты исследования могут быть полезны в процессе модернизации образовательных программ в сфере культуры и искусства.

Ключевые слова: подготовка кадров в сфере культуры, образование в области искусства, система подготовки кадров, инновационные методы обучения, развитие культурного образования, международный опыт.

Abstract. This article analyzes the current state of the personnel training system in the field of culture and art, and develops ways to improve it. The paper provides a detailed examination of the current education system for specialists in the cultural and artistic sectors, existing challenges, and innovative approaches. Based on the experiences of Uzbekistan and other countries, the article offers proposals to increase the effectiveness of training systems. It also outlines strategic directions such as developing cooperation between the public and private sectors in training professionals, preparing specialists in accordance with international standards, and applying creative and innovative approaches. The results of the research may be useful in the modernization of educational processes in the fields of culture and art.

Keywords: personnel training in the field of culture, art education, training system, innovative teaching methods, development of cultural education, international experience.

Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash dolzarb masalalardan biridir, chunki bu soha jamiyatning ma'naviy va estetik taraqqiyotiga, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston, xususan, madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga katta ahamiyat bermoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlar va san'at sohasidagi yangilanishlar ushbu soha mu-taxassislarini tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishni talab

qiladi. Shuningdek, texnologik inqilob, globalizatsiya va zamonaviy madaniy jarayonlar kadrlar tayyorlash tizimining yangilanishini, innovatsion metodlarni joriy etishni va xalqaro tajriba bilan tanishishni talab etmoqda.

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasida mutaxassislarini tayyorlashdagi mavjud muammolar va ularning hal qilinishi kerak bo'lgan dolzARB masalalari jamiyatda o'z aksini topmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sohaning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro miqyosda tan olinadigan sifatli mutaxassislarini tayyorlash zaruratinini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari davlat siyosatining muhim yo'naliшlaridan biri bo'lib, ular madaniy va san'at jarayonlarini tartibga solish, bu sohada kadrlar tayyorlashni takomillashtirish va jamiyatda madaniyatning o'rnni mustahkamlashga qaratilgan. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda 26-maydagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda 2-fevraldag'i PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" Qonuni orqali O'zbekistonning san'ati va madaniyatini xalqaro miqyosda tanitish, madaniyat diplomatiyasini rivojlantirish va san'at sohasidagi xalqaro aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning san'ati va madaniyatini dunyoga tanitish uchun turli festivallar, ko'rgazmalar va madaniy tadbirlar tashkil etiladi. Shuningdek, san'at va madaniyat bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, madaniyat almashinuvi va madaniy diplomatiyani rivojlantirish masalalari ko'rilgan.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan Prezident farmonlari va qarorlari mamlakatning madaniy rivojlanshini yanada chuqurlashtirish, san'at va madaniyatning jamiyatdagi

o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu islohotlar san’at va madaniyatga oid kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish, madaniy merosni saqlash va dunyo miqyosida tanitishni ta’minlash, yosh san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda O‘zbekistonning madaniyatini targ‘ib qilish kabi muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur ilmiy maqola madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash tizimining takomillashtirilishi zaruratini asoslab beradi va bu soha bo‘yicha ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda dolzarb bo‘lgan tavsiyalarni ishlab chiqadi. Maqolada kadrlar tayyorlash tizimining mustahkamlanishi, yangi pedagogik texnologiyalar va innovation metodlarni joriy etish, xalqaro tajribaga asoslangan yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish masalalari ko‘tariladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, madaniyat va san’at sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ilg‘or metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasiga oid amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda bu sohada bir qator islohotlar amalga oshirildi, ular madaniyat va san’at sohasining rivojlanishiga, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashishiga, hamda san’at va madaniyatga davlat tomonidan yanada ko‘proqe’tibor qaratilishiga sabab bo‘ldi.

Quyida O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasiga oid amalga oshirilgan ba’zi muhim islohotlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim tizimini yangilash va zamonaviylashtirish

O‘qituvchilar va san’at mutaxassislarini tayyorlash: O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Ta’lim dasturlari yangilandi, xalqaro tajriba asosida yangi pedagogik yondashuvlar joriy etildi. Shu bilan birga, san’at ta’limi bo‘yicha akademik o‘quv dasturlari rivojlantirildi va ta’lim jarayonida amaliyotning o‘rni oshirildi.

Yoshlarni san'at sohasiga jalg qilish: Madaniyat va san'atga nisbatan yoshlarda qiziqishni oshirish maqsadida turli musobaqalar, festivallar, va san'atning turli sohalariga oid tadbirlar tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yosh san'atkorlarga yaratib berilgan imkoniyatlar va stipendiyalar san'atga oid ta'lif tizimini rivojlantirishga yordam berdi.

2. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish

Madaniy merosni himoya qilish: O'zbekistonda madaniy merosni saqlashga katta ahamiyat berilmoqda. Respublikada tarixiy yodgorliklar, arxitektura yodgorliklarini qayta tiklash va konservatsiya qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarga start berildi. Bu jarayonlar milliy madaniyatni, san'atni va an'anaviy qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Madaniy merosni xalqaro miqyosda tanitish: O'zbekistonda UNESCO bilan hamkorlikda madaniy meros ob'ektlarini xalqaro miqyosda tanitish va ularga e'tibor qaratish choralar ko'rilib. O'zbekistonning qadimi shaharlarini, arxitektura yodgorliklarini va boshqa madaniy meros ob'ektlarini saqlashga oid dasturlar ishlab chiqildi.

3. Madaniyat va san'at sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish

Raqamli san'at va madaniyatni rivojlantirish: San'at va madaniyatni raqamlashtirish bo'yicha yangi tashabbuslar amalga oshirildi. Madaniyat va san'at sohasida zamонавиу texnologiyalar, jumladan, internet, multimedia va raqamli platformalar orqali yosh san'atkorlar va madaniyat arboblari o'z faoliyatini kengroq auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Virtual va onlayn ta'lif: Ta'lif sohasidagi raqamli islohotlar madaniyat va san'at sohasida ham davom etmoqda. Onlayn kurslar, san'at va madaniyatga oid virtual ko'rgazmalar va ta'lif resurslari joriy etildi. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida madaniy va san'at ta'lifining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

4. Madaniyat sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish

San'at va madaniyat akademiyalarining tashkil etilishi: O'zbekistonda san'at va madaniyat sohasida kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun alohida akademiyalar tashkil qilindi. Ular san'at ta'limi, madaniyat va san'atning turli sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik: Madaniyat va san'at sohasidagi kadrlar tayyorlashda xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston xalqaro madaniy va san'at ta'limi tizimlariga integratsiya qilinishi maqsadida ko'plab tashqi hamkorlik dasturlarini amalga oshirmoqda.

5. Madaniyat va san'atning ijtimoiy ahamiyatini oshirish

Madaniy tadbirlarni tashkil etish: Madaniyat va san'atga bo'lgan jamoatchilik e'tiborini oshirish maqsadida keng ko'lamli madaniy tadbirlar, festival va ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda. O'zbekistonning san'at va madaniyatni keng targ'ib qilish, shu bilan birga, yoshlarni madaniy va san'atiy faoliyatlarga jalb qilishga qaratilgan ko'plab dasturlar mavjud.

San'atning jamiyatdagi o'rni: O'zbekiston hukumati madaniyat va san'atni jamiyatni ma'naviy rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqmoqda va bu sohada o'quv kurslari va ilmiy-tadqiqot ishlari orqali san'at va madaniyatning jamiyatdagi o'rnnini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning madaniy va san'at salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan islohotlar nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga, balki xalqaro maydonda O'zbekistonning imijini mustahkamlashga ham yordam beradi. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatda bu sohaning rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Maqola madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirishni muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifa sifatida ko'rib chiqadi, bu esa nafaqat sohaning o'zini rivojlantirishga, balki dav-

latning ma’naviy va madaniy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviylashtirilishi madaniyat va san’atga oid faoliyatni yanada samarali tashkil qilish, ta’lim tizimining sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashishga imkon yaratadi.

Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashga oid ilmiy izlanishlar jahonda keng tarqalgan bo‘lib, har bir mamlakatda o‘ziga xos yondashuvlar mavjud. Madaniyat va san’at ta’limining rivojlanishiga oid izlanishlar, asosan, ta’lim metodikasi, o‘quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar va kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan.(1-jadval)

I-jadval

Kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yo‘llari

№	Yo‘nalishlar	Amaliy chora-tadbirlar	Natijalar
1	Ta’lim sifatini oshirish	Zamonaviy dasturlar joriy etish, xalqaro tajribani o‘rganish	Malakali mutaxassislar tayyorlash, sohaga innovatsion yondashuv
2	O‘qituvchilar malakasini oshirish	Ustoz-shogird tizimini rivojlantirish, chet el stajirovkalari	Samaradorlikning oshishi, yangi usullarni qo‘llash
3	Texnologiyalarni joriy etish	Virtual va kengaytirilgan realitet (VR/AR) asosida darsliklar ishlab chiqish	O‘quv jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishi
4	Hamkorlikni kuchaytirish	Madaniyat va san’at muassasalari bilan shartnomalar tuzish (teatrler, galereyalar, etc.)	Talabalar uchun amaliy maydon yaratish, ish bilan ta’minlash
5	Qo‘srimcha grantlar va stipendiyalar	Iqtidorli talabalar uchun moliyaviy ko‘mak dasturlari	Sohaga jalb qilinadigan talabalar sonining oshishi

Ilmiy maqolada hozirgi kunda mavjud bo‘lgan muammolarni va unga qaratilgan yechimlar tahlil qilishimiz mumkin.

Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy tahlili: Ushbu maqola madaniyat va san'at sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimining mavjud holatini va uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Madaniyat va san'at kadrlarini tayyorlash tizimining tizimli o'r ganilishi, uning struktura va funksiyalariga yangicha yondashuvni keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlashda innovatsion metodlarning qo'llanilishi: Ilmiy ishda madaniyat va san'at sohasida ta'lim jarayonini takomillashtirishda innovatsion metodlar, jumladan, kreativ pedagogik yondashuvlar, digital ta'lim platformalari, va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'llari ilgari surilgan. Bu yangilik kadrlar tayyorlash jarayonini yangilash va zamonaviy talablar bilan moslashtirishni ta'minlaydi.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish: Kadrlar tayyorlash tizimining takomillashtirilishiga doir yangi yondashuvda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, madaniyat va san'at sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlashda samarali modelni ishlab chiqish taklif qilinadi. Bu yangilik, mavjud tizimdagи bo'shlqnı to'ldirib, amaliyotga yaqin ta'limni rivojlantirishga imkon beradi.

Xalqaro tajriba asosida kadrlar tayyorlashda strategik tavsiyalar: O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning tajribasini solishtirish orqali kadrlar tayyorlashning xalqaro standartlarga moslashish yo'llari ishlab chiqilgan. Bu, o'z navbatida, mamlakatda madaniyat va san'at sohasidagi ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

Muammo: Ta'lim tizimining eskirganligi va moslashuvchanlikning yo'qligi. *Yechim:* Madaniyat va san'at sohasida ta'lim tizimini zamonaviylashtirish zarur. O'quv dasturlarini yangilash, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv va onlayn ta'lim platformalarini faol qo'llash orqali ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish mumkin.

Muammo: Madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislarning ijtimoiy va iqtisodiy holati.

Yechim: Madaniyat va san'at mutaxassislarning mehnat bozorigagi o'rni va ijtimoiy holatini yaxshilash uchun ularning kasbiy salo-

hiyatini oshirish zarur. Bundan tashqari, san'at va madaniyat sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda davlat va xususiy sektor o'rtafiga samarali hamkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, va malakali mutaxassislar uchun rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqish kerak.

Muammo: Innovatsion yondashuvlarning etishmasligi va qadimgi uslublarga qarshi qarshilik.

Yechim: Madaniyat va san'at sohasidagi kadrlar tayyorlashda innovatsion va kreativ metodlarni tatbiq etish kerak. Buning uchun o'qituvchilar va mutaxassislar uchun yangicha pedagogik metodlar va texnologiyalarni o'rgatish, shuningdek, madaniyat sohasida kreativ ishlarga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Muammo: Xalqaro tajriba yetishmasligi va kadrlar tayyorlashning global standartlarga mos bo'lmasligi.

Yechim: Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimining xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash uchun xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, talabalarning xalqaro tajribaga ega bo'lishini ta'minlash, va o'qitish dasturlarini global talablar asosida yangilash zarur.

Muammo: Madaniyat va san'at kadrlarini tayyorlashda amaliy tajribaning yetishmasligi.

Yechim: Amaliyotga asoslangan ta'limni rivojlantirish va mutaxassislarning o'z sohasidagi tajribasini oshirish zarur. O'quv dasturlarini ishlab chiqishda amaliyotning katta o'rni bo'lishi, shuningdek, soha mutaxassislarini ish joylarida malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash kerak.

Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mavjud muammolarni hal qilish va yangi yondashuvlar orqali amalga oshirilishi kerak. Kadrlar tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektor o'rtafiga hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro tajribaga asoslangan innovatsion metodlarni tatbiq etish bu sohada samarali o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 20.01.2021-yildagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. Abdullayeva M. Zamonaviy madaniyat muassasalarida kadrlar malakasini oshirish: xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun takliflar. Toshkent: *Ijtimoiy fanlar jurnalı*, 2022. 4(12), 45–58.
3. Karimov J. San'at ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning psixologik jihatlari". *Pedagogika va psixologiya*, Toshkent: 2021. 3(7), 112–125.
4. Smith, A. *Cultural Policy and Workforce Development: Global Trends*. Routledge. N. 2020, 112–123 page.
5. O'zbekiston Madaniyat vazirligining "2020–2023-yillardagi kadrlar tayyorlash bo'yicha hisoboti".
6. UNESCO Institute for Statistics. 2023. *Global Education Monitoring Report: Arts and Culture Sector*.
7. O'zbekiston Milliy kutubxonasi. www.natlib.uz – "Madaniyat sohasidagi kadrlar tayyorlash tarixi" arxivi.
8. Canva. www.canva.com – Infografika va jadvallar yaratish uchun platforma.
9. Hasanov, R. *Madaniyat menejmenti: nazariya va amaliyot*. Toshkent: 2019. Sharq nashriyoti.
10. To'rayev B. *San'at ta'limi metodikasi*. – Toshkent: 2020. Akademnashr. 67–68-b.

ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ МУЗЕЯХ

Манзура Юлдашева,
*профессор Государственного института
искусств и культуры Узбекистана*

Аннотация. В современном мире цифровые технологии играют ключевую роль в продвижении культурных и образовательных учреждений. Музеи, как хранители истории и искусства, активно используют онлайн-инструменты для расширения возможностей, посещения посетителей и повышения интереса к своим экспозициям.

Ключевые слова: музей, цифровой маркетинг, интернет-пространство, социальные сети, коммуникация.

FEATURES OF DIGITALIZATION IN MODERN MUSEUMS

Manzura Yuldasheva,
*professor at the State Institute
of Arts and Culture of Uzbekistan*

Annotation. In today's world, digital technologies play a key role in promoting cultural and educational institutions. Museums, as custodians of history and art, actively use online tools to expand opportunities, visit visitors, and increase interest in their exhibits.

Keywords: museum, digital marketing, Internet space, social networks, communication.

Сегодня в жизни каждого современного человека Интернет играет довольно важную роль. Повсеместное движение общества к цифровизации привело к тому, что компании из различных профессиональных сфер начали внедрять в систему коммуника-

ций digital-коммуникации и развивать цифровой маркетинг. Подобные тенденции коснулись и учреждений культуры, в частности, музейных организаций. Музей, как и любая другая организация, осуществляющая свою деятельность в условиях рыночной среды, зависит от степени погруженности в цифровое пространство и от качества взаимодействия с целевой аудиторией в данном пространстве. С развитием технологий музеям приходится искать пути привлечения и сохранения аудитории в условиях остройшей конкуренции. Ведь сегодня, чтобы развлечься человеку, даже не надо выходить из дома. Кроме того, работа в цифровом пространстве позволяет таргетировать аудиторию, а значит, сделать продвижения более эффективным. Именно поэтому актуальным становится вопрос о продвижении музея в цифровом пространстве.

Процесс цифровизации характеризуется тем, что ключевым фактором производства становится цифровая информация, что позволяет повысить эффективность различных видов производства, технологий, процесса реализации и потребления товаров и услуг. Можно выделить два уровня цифровизации: первичный, который предполагает наличие и доступность сервисов, и вторичный, означающий интенсивность и характер использования существующей инфраструктуры. Так, с позиции «первичной» цифровизации, с учетом современных реалий и тенденций Узбекистан также начал переход к цифровизации. Утверждена стратегия «Цифровой Узбекистан 2030». В данную стратегию вошло более 220 приоритетных проектов, предусматривающих совершенствование системы электронного правительства, развитие отечественного рынка программных продуктов и информационных технологий.

Как привлечь аудиторию и повысить посещаемость организаций культуры? Этот вопрос сегодня волнует все культурные учреждения нашей страны, и музеи не стали исключением. Сейчас, когда музеи решают дилемму баланса между культурой и коммерцией, данная проблема более актуальна. На сегодняшний

день в большинстве узбекистанских музеев бюджет формируется в соответствии с Законом О музеях Республики Узбекистан 12.09.2008 г. № ЗРУ-177. Ключевым фактором в формировании внебюджетных доходов музея остается посещаемость музеев аудиторией. Именно поэтому проблема привлечения новой аудитории и сохранение интереса постоянной лояльной публики для музеев является особенно актуальной. Целью данной статьи стало стремление выявить и систематизировать способы продвижения музея в цифровом пространстве.

Цифровизация музеев Узбекистана — это долгосрочный процесс, который требует соблюдения современных технологий и комплексного подхода. Однако уже сейчас можно увидеть значительные шаги в этом направлении. С вызовами времени достаточно успешно справляются крупные национальные музеи. Что же до небольших традиционных областных музеев, то они заметно проигрывают в конкуренции за зрительское внимание из-за отсутствия достаточного финансового обеспечения и, вследствие этого, отходят на периферию культурно-досугового рынка.

В мире, где ведущую роль играют цифровые технологии, становится актуальным продвижение музеиных институций в Интернет-пространстве. Многие музеи только начинают заниматься продвижением в цифровом пространстве, сталкиваясь со многими проблемами и накоплением опыта. Целью статьи стало стремление раскрыть возможности инструментов digital-маркетинга и понять, как их можно применить для увеличения аудитории музея и продвижения его в цифровом пространстве.

В подобной ситуации сотрудникам музея приходится «выходить» за пределы реальных стен музея в цифровое пространство, используя инструменты Интернет-маркетинга. В систему digital-маркетинга входит вся деятельность музея в онлайн-пространстве: презентация и продвижение бренда музея в социальных сетях, e-mail маркетинг, публикация партнёрских материалов в различных онлайн-изданиях, ведение официального сайта, проектирование мультимедийных Интернет-проектов и раз-

работка концепции различных интерактивных экскурсионных маршрутов, игровых программ для официального мобильного приложения музея.

Особенности цифровизации в современных музеях:

Цифровизация в современных музеях — это не просто тренд, а необходимость, позволяющая расширить доступ к экспонатам, улучшить взаимодействие с посетителями и повысить эффективность работы музеев. Вот основные особенности этого процесса:

1. Виртуальные и дополненные реальности (VR и AR)

Создание виртуальных туров по музеям (например, Google Arts & Culture). Использование AR-приложений, которые дополняют реальность, показывая утраченные фрагменты экспонатов или воссоздавая исторические сцены. Примеры: Лувр предлагает виртуальные экскурсии, а Эрмитаж тестирует AR-приложения для изучения произведений искусства.

2. Цифровые коллекции и онлайн-доступ. Музеи активно оцифровывают свои фонды и создают виртуальные каталоги. Позволяют исследователям и любителям искусства изучать экспонаты из любой точки мира. Например, Британский музей выложил в открытый доступ более 4 млн оцифрованных объектов.

3. Интерактивные технологии и мультимедийные экспозиции. Использование сенсорных экранов, интерактивных стендов, 3D-моделей для более глубокого изучения экспонатов. Гологramмы и проекционные технологии создают эффект погружения в исторические эпохи. Пример: музей Ван Гога в Амстердаме применяет мультимедийные инсталляции, где картины ожидают.

4. Искусственный интеллект и анализ данных. ИИ помогает музеям анализировать поведение посетителей, персонализировать контент и рекомендовать интересные экспонаты. Автоматический перевод и голосовые ассистенты делают музеи доступными для международной аудитории. Пример: Национальный музей искусств Каталонии использует ИИ для автоматического распознавания и описания экспонатов.

5. NFT и блокчейн в музее. NFT-технологии помогают подтверждать подлинность цифровых копий произведений искусства и привлекать новую аудиторию. Блокчейн используется для защиты авторских прав и ведения цифровых архивов. Пример: Эрмитаж в 2021 году продал цифровые версии картин Леонардо да Винчи и Клода Моне в виде NFT.

6. Геймификация и образовательные проекты. Разработка игровых приложений, связанных с музеиными экспонатами, чтобы привлечь молодежь.

Квесты, интерактивные экскурсии, AR-карты делают посещение музея увлекательным. Пример: Лондонский музей естественной истории создал мобильное приложение с игровыми элементами.

7. Автоматизация и умные технологии. Чат-боты для справки и бронирования билетов. Бесконтактные технологии оплаты и входа в музей. Сенсоры для подсчёта посетителей и регулирования потоков внутри музея.

Цифровизация меняет музеи, делая их более доступными, интерактивными и привлекательными для новых поколений. При этом главная задача – сохранить баланс между традиционной музейной экспозицией и инновационными технологиями.

Добиться лояльности от посетителей музея поможет своеевременное взаимодействие. Важно показывать не только богатство музеиных фондов, но и вовлекать посетителей с помощью различных конкурсов, опросов, викторин, которые вы можете проводить на различных площадках[4].

Джаспер Виссер, признанный амстердамский агент изменений и инноватор в сфере культуры и искусства, написавший статью «Музеи в период социальных и технологических изменений» утверждает, что любому музею, который хочет наладить коммуникацию с современной аудиторией, необходимо выстроить свою работу в рамках интегрированной медиа стратегии. Виссер выделяет три уровня взаимодействия с аудиторией, на

каждом из этих уровней можно использовать инструменты цифрового маркетинга:

- официальный сайт (онлайн-коллекция или виртуальный музей, электронная коммерция, встроенный блог или другой информационно-развлекательный контент);
- социальные сети, сторонние порталы, мобильные приложения;
- партнёрские материалы СМИ [1].

Расширяющаяся база технических инструментов для создания контента, активная и интересующаяся аудитория, которая существует в сети, и расширение списка возможных площадок для коммуникации со зрителем должны помочь небольшим традиционным музеям стать открытыми и выйти на новый уровень взаимодействия с посетителями. Главное – концептуальный подход к процессу планирования, проработки сценария и технической реализации коммуникационной стратегии музея.

В настоящее время актуальность приобретают исследования, касающиеся влияния цифровых технологий на образ жизни и досуговые предпочтения, а также на выбор предложений в сфере культуры и развлечений. Безусловно, многие предприятия сферы услуг используют современные цифровые технологии для повышения своей конкурентоспособности на рынке. Технологические инновации помогают учреждениям культуры стать более привлекательными для потребителей, предлагая новые возможности культурно-досуговой деятельности.

Продвижение музея в цифровом пространстве – это комплексная работа, включающая сайт, соцсети, контент-маркетинг, рекламу и партнерство. Чем активнее музей использует онлайн-инструменты, тем больше у него возможностей привлечь новых посетителей и укрепить свой бренд в культурной среде.

Важно помнить: цифровой маркетинг – это не разовое действие, а постоянный процесс. Интерактив, креатив и регулярное обновление контента помогают сделать музей популярным и востребованным в цифровую эпоху.

Список литературы

1. Виссер Дж. «Музеи в период социальных и технологических изменений». URL: <https://themuseumofthefuture.com/2014/04/18/museums-in-times-of-social-and-technological-change/>.
2. Макушева О.Н., Туманова Е.А. Особенности маркетинга учреждений культуры // Молодой ученый. – 2018. – № 46. – С. 376–378.
3. Музалёва О.В. Менеджмент в современном музее / О.В. Музалёва. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2019. – № 13 (251). – С. 123-124. – URL: <https://moluch.ru/archive/251/57554/>.
4. Юлдашева М.Б. // Kutubxona.uz – 2022. № 1. С.19-23. www.kutubxona.uz.

TEATRLAR FAOLIYATIDA MARKETING

Dilafruz Yusupaliyeva,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at menejmenti”
kafedrasи professor v.b,
siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatrлar faoliyatida marketingning ahamiyati, uning san'at sohasidagi o'rni tahlil qilinadi. Teatrлarning muvaffaqiyatli rivojlanishida marketing xizmatlarni ilgari surish, homiyilar bilan hamkorlikni boshqarish kabi vazifalar muhokama qilinadi. Shuningdek, marketingning teatr uchun qanday yangi imkoniyatlar ochishi va hozirgi kundagi zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: teatr marketingi, tomoshabinlar, teatr menejmenti, teatrning moliyaviy barqarorligi, madaniy xizmatlar.

МАРКЕТИНГ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЕАТРОВ

Аннотация: В данной статье анализируется значение маркетинга в деятельности театров и его роль в сфере искусства. Рассматриваются задачи маркетинга, такие как продвижение услуг, управление сотрудничеством с партнерами и спонсорами, которые способствуют успешному развитию театров. Также подчеркивается, какие новые возможности открывает маркетинг для театров и его актуальность в современном мире.

Ключевые слова: театральный маркетинг, зрители, театральное управление, финансовая стабильность театра, культурные услуги.

MARKETING IN THE ACTIVITIES OF THEATERS

Abstract: This article analyzes the importance of marketing in theater activities and its role in the field of art. It discusses the tasks of marketing, such as promoting services and managing partnerships and sponsorships, which contribute to the successful development of theaters. Additionally, it highlights the new opportunities marketing opens up for theaters and its relevance in the modern world.

Keywords: theater marketing, audience, theater management, financial stability of theaters, cultural services.

Teatr sahnasi ijtimoiy muammolar, jamiyatdagi o‘zgarishlar va yoshlarning kundalik hayotini aks ettiradigan ijodiy bir maydon bo‘lib, bu jarayon orqali yoshlarga o‘z fikrlarini ifoda etish imkonini beradi. Teatr tomoshabinlarni faollikka chaqiradi, muammolarni muhokama qilishga undaydi va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, teatr yoshlarni jamiyatdagi faoliyatga jalb qilishga, ular bilan muloqot o‘rnatish va ularning ijtimoiy muammolar haqida fikr almashishga imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda 2017-yilga qadar davlat teatrlari soni 37 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda 41 taga yetdi. 2015–2016-yillarda 3 ta teatr rekonstruksiya qilingan bo‘lsa, 2016–2023-yillarda 11 ta teatr mu-kammal ta’mirlandi va qayta jihozlandi. Davlat teatrlari tomonidan 2017-yilda mahalliy gastrollar 15 ta, xorijiy gastrollar 7 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 28 ta xorijiy va 160 ta mahalliy gastrol safarlari amalga oshirilgan. 2017-yilda teatrlarda davlat buyurtmasi asosida atiga 3 ta asarga mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2018–2022-yillar davomida jami 70 ta asarga davlat buyurtmasi asosida mablag‘lar yo‘naltirildi. Xususan, 2022-yilda 40 ta asar uchun 15 mlrd so‘mlik, 2023-yilning o‘tgan davrida 23 ta asar uchun 6 mlrd so‘mlik davlat buyurtmalari berilgan.

2017-yilga qadar teatrlar repertuarida tarixiy asarlar soni 35 tani tashkil etgan, hozirgi kunda 2024-yili 55 tadan ortiq. Teatrlarga tomoshabinlar tashrifi yillik rejaning 70 foizni tashkil etgan bo‘lsa,

2018–2022-yillar davomida yillik tashrifflar 3 mlndan oshib, 94 foiz-gacha yuqorilab, yillik yangi sahnalashtiriladigan spektakllar soni 110 tadan 126 taga yetkazilgani barchamizni xursand qilishi muqarrar. Shuningdek, teatrlarning ilmiy salohiyati va nufuzi ortganligi inobatga olinib, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatriga akademik, O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatriga milliy unvoni va yaqindagina Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriiga “Akademik” maqomi berilgani soha xodimlarning uzlusiz sa'y-harakatlari va mehnatlarining samarasidir.

2016–2024-yillarda bir qator teatrlar yangidan tashkil etildi va mavjudlarining sifatli va to‘laqonli faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, Navoiy va Namangan viloyatlarida qo‘g‘irchoq teatrlari faoliyati yangidan yo‘lga qo‘yildi. Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri, Jizzax viloyati qo‘g‘irchoq teatri binolari yangidan qurildi. Jizzax, Sirdaryo viloyatlari musiqali drama teatrlari binolarida rekonstruksiya, O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri, Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri, “Diyord” yoshlari eksperimental teatr-studiyasida mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlari olib borildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma’naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir” – deya yangi O‘zbekiston madaniy hayotida yangi tarakqiyot davrini boshlab bergen edi. Teatrlar faoliyatini yaxshilash uchun bildirilgan har qanday ijodiy va ijobiy takliflar qo‘llab-quvvatlandi¹.

Marketing – barcha soha va yo‘nalishlarda bo‘lgani singari madaniyat sohasida ham anchagina yangi tushuncha, nazarimizda. Ayniqsa, madaniyat va san’at sohasida kimgadir mazkur tushuncha yoqmasligi, tabiiy hol. “Teatr san’ati g‘isht zavodi yoki kiyim-kechak fabrikasi emaski, unda ishlab chiqariladigan mahsulotni bozorga chiqarib sotsang”, deyilganini ancha vaqtдан beri eshitib kelamiz. “Ommanning estetik talabi, uning ma’naviyatini pul bilan o‘lchash mumkin emas”,

¹ Qolqanatov A. Teatrlar taraqqiyoti tashabbusnomasi// konf. 2024: Ekonomika i nauka v sovremennom mire. razvitiye novix vozmojnostey. Qarang: <https://wosjournals.com/index.php/ruconf/article/view/359>

deyilishida ham asoslar yetarli. Haqiqatan, azaldan teatr oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa va zimmasidagi “yuk” – ishlab chiqarayotgan mahsuloti (spektakl) jamoaviy badiiy ijod mahsuli orqali kishilik jamiyatini ezzulik va yaxshilikka chaqirish, uning ma’naviy va ma’rifiy tafakkurini charxlash, yuksaltirish hisoblanadi. Aslida, yuqorida aytgan marketing, teatr san’atiga marketing tadqiqotlarini joriy etish, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib mahsulot (asarlar) yaratish G‘arb davlatlari, AQSH va Osiyoning ko‘plab davlatlarida allaqachon iziga tushib bo‘lgan. Ammo xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, madaniyati va san’ati, turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari singari hech qaysi millatnikiga o‘xshamagan qadariyatlari borki, shularni e’tiborga olib, G‘arb yoki Osiyodagi davlatlar tajriba-sini ko‘r-ko‘rona tadbiq etishga haqqimiz yo‘q.

Ularni o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini chuqur tahlil qilishimiz, tadbiq etmoqchi bo‘lgan jihatlar borasidagi takliflarimizni xalqimiz, keng jamoatchilik talabi va ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqishimiz maqsadga muvofiq. Teatr san’ati va umuman, san’at sohasiga bozor munosabatlari, marketing va menejment singari zamnaviy iqtisodiyot yuritish iboralarini qo‘llash, ayniqsa mazkur sohaga tadbiq etish borasida fikrlarimiz bilan o‘rtoqlashmoqchimiz. Zotan, yillar davomida shakllangan boshqaruv va teatr mahsulotini taqdim etish usullari, tan olish kerak, bugun biroz zamondan orqada qolayotgandek. Negaki, axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi o‘n yil orasida shiddatli o‘zgarishi va rivojlanishi aksariyat sohalar ning faoliyatini butunlay qayta ko‘rib chiqish, ish uslublarini o‘zgartirishga majbur qildi.

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish quvvatlarini bir biridan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniy-gumanitar aloqalar, madaniy almashinuv, san’at sohasi shu o‘rinda eng zaif va himoyaga muhtoj yo‘nalish ekani ayon haqiqat. Yuqoridagilardan kelib chiqib, marketing borasida tadqiqotlar va ular natijalarini teatr san’ati sohasiga joriy etish davr talabi. Bugungi sharoitda teatrlar faoliyatining asosiy rivojlanish, muvaffaqiyat bilan faoliyat olib borishi uchun bir qancha

jihatlarni ko‘rib chiqamiz. Bularga: teatr-tomosha muassasaning joylashgan o‘rni; teatr rahbariyatining boshqarishdagi tajriba va malakasi, iste’dodi, zamonaviy menejment sirlaridan qanchalik voqifligi; axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, xususan, internet tarmog‘idan unumli va samarali foydalana olishi; reklama-targ‘ibot ishlarini oqilona yurita bilishi singari qator talablarga javob berishi kabilarni keltirish mumkin².

Hozirgi kunda madaniyat sohasida marketing texnologiyalarining qo‘llab-quvvatlamaslik holati mavjud bo‘lishi mumkin emas. Chunki ular ishlab chiqarilgan mahsulotlarga doimiy qiziqish uyg‘otish, teatr ishlab chiqarish xizmatlariga nisbatan ijobiy fikr va munosabatlarni shakllantirish, san’atning turli ifodalari haqida auditorianing kayfiyati va munosabatini baholashga qodir bo‘lgan marketing faoliyati bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Shuning uchun marketingning san’at va madaniyat sohasini rivojlantirishdagi ta’siri har qachongidan ham talabgir va dolzarb bo‘lib bormoqda. Marketingni teatr sohasida qo‘llash o‘ziga xos jihatlarga ega: mahsulot (tovar) turli xizmatlardir. Tomoshabin pul mablag‘lari evaziga moddiy boyliklar emas, balki emotsiyal va estetik zavq, ta’lim va madaniy o‘yin-kulgi ehtiyojlarini qondirishni oladi. Teatr xizmatlariga narxlar keng diapazonda talabga qarab o‘zgarmaydi, madaniyat tashkilotlariga davlat byudjeti tomonidan qo‘llab-quvvatlash tufayli esa, teatr xizmati “joyga bog‘langan”. Mahsulot iste’molchiga yetkazilmaydi, aksincha tomoshabin teatrga kelishi kerak.

Madaniy taklifning faqat kichik qismi joylarda harakatlanshi mumkin. Shu sababli, “promotion” (targ‘ibot) teatr tashkilotlari uchun marketing vositasi bo‘lib qoladi. Ba’zi teatrlar shu davrda o‘zining muvaffaqiyatli yashash va rivojlanishining asosiy omili sifatida faol marketingni tanladilar, bu esa o‘tish davrida zarur bo‘lgan omil hisoblanadi. Hozirgi kunda teatr marketingining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

² Andakulov A. Teatr – tomoshabin bilan tirik// gaz. Jamiyat № 51-52 (777). – Toshkent.: Sharq. 2021.

- tomoshabinlar ehtiyojlarini tahlil qilish;
- tomoshabinlar tarkibini prognoz qilish;
- doimiy iste'molchilar doirasini saqlab qolish;
- teatr xizmatini (mahsulotini) ilgari surish;
- teatr xizmatiga bo'lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish;
- aniqlangan iste'molchi segmentlariga muvofiq repertuar tuzilmasini shakllantirish;
- daromad olish.

San'at sohasida marketing texnologiyalari nafaqat ommaviy o'yin-kulgi mahsulotlariga moslashtirilgan mahsulotlarni amalga oshirish holatlarida qo'llaniladi. Yuqori san'at asarlari yoki klassik musiqa konsertlari ham marketingni sinchkovlik bilan tayyorlagan holda iste'molchiga yetib boradi. Teatr marketingi bo'yicha mutaxassis, mavjud san'at mahsulotida bir qarashda ko'rinxaydigan tomonlar va parametrlarni aniqlashi kerak. Bu esa potentsial tomoshabin uchun "foydarlar"ni tashkil qilishga yordam beradi. Teatrning barcha faoliyati tomoshabinga bog'liq, chunki u – ijodiy jarayondagi zarur bo'lgan bog'lanish, kommunikativ ta'sir obyekti va uzatilayotgan qadriyatlar hamda g'oyalar manzili, shuningdek teatr faoliyatining moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbaidir. Shunday qilib, teatr o'zingning asosiy maqsadlariga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarishi kerak, shuningdek, tomoshabinlar bilan kerakli darajada o'zarlo aloqani ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni ham bajarishi lozim. Marketing texnologiyalarini hisobga olgan holda faoliyat yuritadigan madaniyat tashkiloti iste'molchilar va jamiyat uchun yanada qiziqarliroq bo'ladi³.

Teatr muassasalari marketing xizmati respublikamizda yangi tashkil etilayotgan yo'naliish hisoblangani bois, hamma uchun bir xil retsepti bo'lmasligini yana bir marta ta'kidlash o'rinni. Marketing xizmati yangicha sharoitda ish boshlashi va teatr moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo'shishi uchun tomoshabinlarning yoshi,

³ Канашук Т.Н. Маркетинг в сфере театрального искусства. Омский научный вестник. 2013(2 (116)):94-6.

jinsi, ularning teatrda uzoq yoki yaqinroqda istoqomat qilishi, bo‘sh vaqtining bor-yo‘qligi, bo‘sh vaqtini qay tarzda o‘tkazishni ma’qul ko‘rishi, teatr san’atiga munosabatiga alohida e’tibor qaratishi lozim. Buning uchun har bir teatr tomoshabini orasida o‘ziga xos so‘rov-noma tashkil etishi (buni qog‘oz shaklida yoki internetdagi rasmiy sahifasi, ijtimoiy tarmoqlarda) o‘tkazishi mumkin⁴.

Teatr san’ati sohasida marketing taddiqotlarining dolzarbliji bir qator sabablar bilan belgilanadi. Hozirgi kunda teatrning muvaffaqiyatlari faoliyati ko‘plab omillarga bog‘liq: teatr xizmatlari bozorida joylashuvi; teatrni boshqarish darajasi, rahbarlar tarkibining mahorati, tajribasi va talanti. Faqat o‘zi teatr mavjud bo‘lib turgan bozor sharoitlarini va talabni real baholay oladi, tomoshabinlarni yo‘qotishga olib kelmaydigan narxlarni belgilay oladi. Bozor sharoitida madaniyat sohasidagi marketingning asosiy xususiyati uning uch yo‘nalishining uyg‘unlashuvidir. Potentsial iste’molchilarни jalb qilishdan tashqari, homiyalar bilan munosabatlarni boshqarish, reputatsiya yaratish va tashkilotning ichki menejment tizimini tashkil etishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Teatrga tomoshabinlarni jalb qilishga qaratilgan marketing siyosatiga xos bo‘lgan xususiyat — teatr tashkilotining xarakatlarining bir qismini o‘z zimmalariga olishga qiziqish bildiradigan hamkorlarni izlashdir.

Shuningdek, teatrda qo‘llaniladigan marketing konsepsiysi samarali reklama faoliyatini va teatrning iste’molchilar ko‘zidagi muayyan imidjini yaratishni o‘z ichiga olishi kerak. Marketing xizmati teatrning mustaqil tuzilma bo‘limi bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri teatr rahbariga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilikka, buyruq va ko‘rsatmalarga, tasdiqlangan ish rejalarini asosida harakat qiladi.

Teatr va tomoshabin o‘rtasida mustahkam aloqaning yo‘qligi, bu maskanlarning muxlislar bilan hamisha gavjum bo‘lmagani, chipta narxlarining arzonligi (yurtimizda teatr chiptalari narxi o‘rtacha 25-

⁴ Andakulov A. Teatr – tomoshabin bilan tirik// gaz. Jamiyat № 51-52 (777). – Toshkent.: Sharq. 2021.

30 ming so‘m atrofida) va xaridorgir emasligi yana bir jihatda – teatrلarga sarflanayotgan mablag‘ o‘zini qoplamasligida ham yaqqol ko‘rinadi. Teatrلarga davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ o‘zini qoplaydimi? Yo‘q. Masalan, birgina 2024-yilda davlat teatrlariga barcha xarajatlar uchun 227,4 milliard so‘m ajratilgan. Mazkur teatrlar tomonidan spektakllar namoyishi orqali 21,6 milliard so‘m mablag‘, shuningdek, servis xizmatlari ko‘rsatish orqali 392 million so‘m qo‘shimcha mablag‘ olingan.

Agar barcha teatrlar 100 foiz qamrov bilan ishlasa, ya’ni har bir spektaklda zal tomoshabinlar bilan to‘lsa, chiptalar sotuvidan 100 milliard so‘m atrofida mablag‘ olish mumkin. Ana endi, bu 100 milliard so‘mni yuqoridagi 21,6 milliard so‘m bilan taqqoslab, teatrlarimizdagi tomoshabin qamrovi darajasini o‘zingiz hisoblab ko‘rsangiz bo‘ladi. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi ma’lumotiga ko‘ra, ayni vaqtida markaziy tele va radiokanalarda bu yo‘nalishda “Spektakl”, “Milliy teatr”, “Teatr mikrofon oldida”, “Radiospektakl”, “Radioteatr” singari dasturlar bor.

Birgina “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining “Milliy teatr” dasturi orqali 2024-yilda 88 nomdagi spektakl 206 marta efirga uzatilgan. “O‘zbekiston” radiosidagi “Radioteatr” va “Mahalla” radiosidagi “Teatr mikrofon oldida” dasturlarining har biri yil davomida 200 tadan spektaklni efirga bergen. Ayni paytda, O‘zbekiston MTRK televiedeniye arxiv fondida 111 ta, radio arxiv fondida 200 ta, jami 311 ta spektakl mavjud bo‘lib, ularning umumiyligi hajmi 344 soatni tashkil qiladi. Lekin yana bir jihatni aytib o‘tish zarur. 300 dan ziyod mazkur spektakllarning barchasi avval yozib olingan asarlar hisoblanadi. 2024-yilda markaziy tele va radiokanallar orqali faqat birgina asar – Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrida qo‘yilgan “Osmon hamma gapni eshitadi” nomli hajmi 1 soatu 27 daqiqalik spektakl yozib olingan va efirga uzatilgan, xolos.

Holbuki, poytaxtimizda 15 ga yaqin nomdor teatrlar faoliyat yuritadi va ular sahnalashtirayotgan asarlar orasida televiedeniye va radio

uchun yozib olib qo‘ysa arziydigani spektakllar talaygina. Bu borada ayni shu yo‘nalishga ixtisoslashgan “Kinoteatr” telekanali alohida e’tibor qaratса, maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qolqanatov A. Teatrlar taraqqiyoti tashabbusnomasi// konf. 2024: Экономика и наука в современном мире. Развитие новых возможностей. Qarang: <https://wosjournals.com/index.php/ruconf/article/view/359>
2. Andakulov A. Teatr – tomoshabin bilan tirik// gaz. Jamiyat № 51-52 (777). – Toshkent: Sharq. 2021.
3. Канащук Т.Н. Маркетинг в сфере театрального искусства. Омский научный вестник. 2013(2 (116)): 94-6.
4. Andakulov A. Teatr – tomoshabin bilan tirik// gaz. Jamiyat № 51-52 (777). – Toshkent: Sharq. 2021.
5. Bo‘riboyev I. Teatr: u hozir ham ibratxonami?// gaz. Jadid № 3(55). – Toshkent: Sharq. 2025. 8-b.

⁵ Bo‘riboyev I. Teatr: u hozir ham ibratxonami?// gaz. Jadid № 3(55). – Toshkent.: Sharq. 2025. 8 b.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA QADRIYAT VA XARAKTER UYG'UNLIGI MASALASI

Munisa Mavru洛va,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc)*

Annotatsiya: maqolada milliy qadriyatlar va milliy xarakterning shakllanish evolyusiyasi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan. Milliy xarakterning eng muhim komponentlari sifatida tarbiya, insonning ijtimoiylashuvi, bu jarayonda milliy qadriyatlarning o'rni sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida o'r ganiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlatning barpo etilishi jarayonida milliy qadriyatlar va milliy xarakterning yangi mazmun bilan boyib borishi bo'yicha fikrlar bildiriladi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida insondagi ijtimoiylik, ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik, vijdon amri bilan yashash, milliy qadriyatlarga suyanish, qat'iy milliy xarakterdan iborat hodisalar bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: milliy, qadriyat, o'zlik, xarakter, ijtimoiy, mentalitet, maqsad, jarayon, Yangi O'zbekiston, axloq, tarbiya, ijtimoiy davlat, ijtimoiy xarakter, shakllanish.

Qadriyat har bir xalqning buguni, kelajakdagi orzu-tililishlari, taraqqiyot talablariga ma'naviy-ruhiy kuch beradigan, millatni millat sifatida muntazam ravishda qadrini oshirib boradigan g'oya va tushunchalarga ozuqa beradigan fenomen hodisadir.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi milliy xarakterning yuzaga kelishi bilan bevosita bog'liq. Paydo bo'lish va shakllanish nuqtai nazaridan ustuvorlik milliy qadriyatlar tarafida bo'ladi. Chunki, milliy qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy omillar natijasida shakllansa, milliy xarakterning yuzaga kelishi juda uzoq davom etadigan ijtimoiy-ruhiy holatdir.

Inson xarakteridagi xususiyatlarning to‘rt tizimi mavjud:

- 1) jamoaga, guruhga, ayrim insonga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlар (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar);
- 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlар (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas’uliyat yoki mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lish va boshqalar);
- 3) narsa va ashylarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlар (ozodalik va ifloslik, narsalarga ayab yoki ayamasdan yondoshuv va boshqalar);
- 4) insonning o‘z o‘ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlар (izzatnafslik, shuxratparastlik, mag‘rurlik, kalondimog‘lik, kamtarinlik va boshqalar).

Ma’lumki, o‘zbek xalqi asosan ikki yirik etnik ildizdan tashkil topgan. Bu ildizlarning har ikkisi ham bu hududda avtoxton asosga ega. Birinchi ildiz mazkur hududda qadimdan yashab kelayotgan tub joyli o‘troq ajodolarimiz bo‘lsa, ikkinchisi bu hududda qadimdan yashab kelayotgan chorvador saklar hamda ona vatanimizning shimaliy-sharqiy tevarak-atroflaridan turli davrlarda kirib kelgan chorvador prototurkiy elat va qavmlardan iborat. Har ikkala asosiy ildizlarning qorishuvi natijasi sifatida dastlab o‘zbek xalqi, keyinroq o‘zbek millati paydo bo‘lgan.

O‘zbek milliy harakteriga xos yana bir oliyanob fazilat uning turkiy ildizi bilan bog‘liqdir. Turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, matonat va lafz halolligi, bag‘rikenglik, sahovatpeshalik va hojatbarorlik kabi xislatlarimizda o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bu fazilatlar ayniqsa, xalqimizning to‘y-tomoshalarga o‘ta o‘chligida, o‘zi yemay yillar damomida yig‘ib-terib elga dasturxon yozishdan zavq-shavq olishida, aza va yo‘qlov marosimlarini uyushgan holda o‘tkazishda, bola tug‘ilishidan tortib to matom marosimimizgacha bo‘lgan barcha tadbirlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo‘lib turishi kabi qadriyatlarimiz va udumlarimizda kuzatiladi.

Milliy qadriyatlarning muhim, uzviy qismi sifatida xarakter, jumladan, milliy xarakter har bir xalqning mavjudlik belgisi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shundan darak beradiki, har bir xalqning shu jamiyatda is-tiqomat qilayotgan barcha fuqarolari uchun umumiy bo‘lgan ko‘plab sifatlari bor. Ammo, bu u yoki bu millat orasida xarakter nuqtai na-zaridan bir-biridan farq qiluvchi shaxslar bo‘lishi mumkinligini ham inkor etmaydi.

Shu ma’noda, turfa xarakterli kishilarni har bir millat orasida uch-ratish mumkin. Yana shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, milliy harakter umumiy ma’noda yaxlit bo‘lib, uning mavjudlik mud-dati uzoq davom etsada, biroq u o‘zgarmas emas. Jamiyatda sodir bo‘ladigan jiddiy tarixiy o‘zgarishlar, tarixiy voqealar, turli inqiloblar natijasida milliy xarakterning ayrim jihatlari transformasiya bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchilar milliy qadriyatlarning muhim komponenti sifatida milliy xarakterning shakllanishini turli omillarga bog‘lab o‘rganadilar. Masalan, ko‘pchilik, asosan, O‘zbekistonlik olimlar o‘zbek milliy xarakterining shakllanishi, uni tobora qat’iyashib borish jarayonini milliy tariximiz, xalqimizning o‘troq turmush tarzi, hududimizning tirkchilik uchun haddan tashqari qulayligi kabi sifatlar bilan bog‘-laydilar.

Ayni paytda, ba’zi tadqiqotchilar bu masalani asosan geografik omillar bilan ham bog‘lab o‘rganadilar. Masalan, fransuz mutafakkiri Sharl de Monteskye (1689–1775) bu masalada, ya’ni, shaxs xarak-terining shakllanishida geografik omilning uchta: iqlim, tuproq, joy relyefini alohida o‘rganadi.

Mustaqillik yillari ayni paytda, milliy qadriyatlarning muhim aso-si sifatida milliy xarakterning ham shakllanish davri bo‘ldi. Bu yil-larda endi, O‘zbekiston jamiyatida sovet mustabid tuzumi davridagi kabi itoatgo‘ylik, birov larga ergashuvchanlik kabi sifatlar asta-sekin yo‘qola bordi. Xalqimiz endi o‘z taqdirini o‘zi belgilay boshladi. Boshqacha aytganda, o‘z tarixiy taqdirini o‘zi belgilashdan iborat ruhiy kayfiyat yuzaga kela boshladi.

Ma’lumki, inson xarakteri o‘z o‘zidan shakllanmaydi. Uning uchun esa, inson o‘z hayotiy maqsadlariga ega bo‘lishi lozim. Kishi-lar qaramlik davrida o‘zgacha fikrlash, o‘z oldiga mustaqil maqsad

qo‘yish, ushbu maqsadga erishish uchun erkin faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Chunki, uning bunday xatti-harakatla-ri “katta aka” tomonidan boshqarib boriladi, har bir faoliyat kuchli nazorat ostida bo‘ladi. Insonning o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanishi, o‘zini o‘zi namoyon qilish istagi faqat uning erkinligi ta’minlangan jamiyatdagina sodir bo‘lishi mumkin.

Bu narsani “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari natijasida ham bilib olsa bo‘ladi. 2017-yilda o‘tkazilgan shunday so‘rovnoma natijalariga ko‘ra respondentlarning 95,1 foizi, ya’ni, mutloq ko‘pchiligi o‘zlarini uchun muhim hayotiy yo‘nalishlar hisoblanuvchi muayyan maqsadlari borligini bayon etganlar.

Bugungi dunyoning tobora globallashib borishi azal-azaldan ijtimoiylashgan o‘zbek xalqining mazkur jarayonni yanada chuqlashuviga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Odamlarda internetdan foydalanish madaniyatining sustligi, ijtimoiy tarmoqlar domiga tushib qolishi esa ayrim yoshlарimizda millatimizga xos bo‘lgan jamoaviylik o‘rniga individualistik qarashlar, samimiylik, mehribonlik xislatlari o‘rniga qo‘pollik, dag‘allik, agressivlik sifatlarini shakllantirmoqda.

Bular esa, milliy xarakterda xudbinlikning kuchayishi, o‘zaro munosabatlarni inkor etish, milliy qadriyat, urf-odatlarni unutish, ayrim hollarda kosmopolitik (dunyo fuqarosi, vatansizlik) dunyoqarashiga da’vo qilish kabi salbiy illatlarni yuzaga keltirmoqda. Ana shunday yoshlarda kitob o‘qish fenomeni yo‘qolib bormoqda, ular badiiy adabiyotni to‘g‘ridan – to‘g‘ri inkor etmoqdalar, tevarak-atrofda bo‘layotgan voqeа-hodisalarni mushohada qilish, idrok etish, o‘zini ongli ravishda anglash jarayonidan chetda qolmoqdalar.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ijtimoiy davlatni barpo etishning o‘ziga xos paradoks holatlari ham yuzaga kelmoqda. Masa-лан, ijtimoiylashmagan shaxsda, yuqorida ta’kidlangani kabi, tafakkur ojizligi, nosog‘lom ma’naviy ehtiyoj, xudbinlik, hayotga yengil munosabatda bo‘lish, iste’molchilik kayfiyatları, “olomon odam” sifatlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy xarakterning shakllanishida bugun biz uchun juda zarur bo‘layotgan faol inson va jamiyat a’zolaridagi ijtimoiy faollik, faol

fuqarolik pozisiyasining shakllanganlik masalasi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Faol inson faqat o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida tunu kun timmay harakat qilgan emas, ayni paytda, o‘z maqsad – muddaolarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg‘unlantira olgan insonlardir.

Faol fuqarolik pozisiyasiga ega shaxsda milliy xarakterning shakllanishi tizimli ravishda yuz beradi. Bunday shaxsning muhim ko‘rinishlaridan biri – bu mamlakat va jahonda sodir bo‘layotgan voqeа – hodisalarga xolis javob berish va ularga munosabat bildira olish ko‘nikmasining shakllanganlik masalasidir. Ijtimoiy tarmoqlar, Internet tizimi bugun barchani o‘z domiga tortib, xohlagan material, axborot bilan “mast” qilmoqda. “Feyk”, ya’ni, yolg‘on axborot tarqatish, uning natijasida odamlarni turli hayoliy o‘ylarga kirib ketishiga erishish, virtual dunyoning cheksiz sarhadlarida kishilarning o‘zini o‘zi idora eta olmasligini ta’minlash orqali turli siyosiy, mafkuraviy, g‘oyaviy maqsadlarga erishishga bo‘lgan bugungi harakat sog‘lom jamoatchilikni chuqur tashvishga solmoqda.

Ana shunday sharoitda har bir shaxsning faol fuqarolik pozisiyasi juda zarur. Bunday pozisiya jamiyatni bugungi axborot makonidagi ma’naviy, g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilishning, shu asnoda, milliy xarakter shakllanishining muhim vositasi hisoblanadi. Insondagi faol fuqarolik pozisiyasi shaxsdan qat’iyatlikni talab qiladi. Qat’iyatlilik – shaxs xarakterining eng muhim komponenti bo‘lib, u har bir insonda jamiyatda yuz berayotgan barcha sohalardagi tub o‘zgarishlarga xolis baho berish ko‘nikmasi, bo‘lar-bo‘lmas, ilmiy jihatdan asoslanmagan, hayot tajribasida sinovdan o‘tmagan xulosalarga suyanmaslik, o‘z fikrini har qanday sharoitda himoya qila olishdan iborat maslakdir.

Shunday qilib, bugungi O‘zbekistonda milliy qadriyatlarning muhim komponenti sifatida milliy xarakterimiz yangicha sifatlar bilan boyib bormoqda. O‘zbek milliy xarakteri o‘zbek xalqining etnik jihatdan shakllanishi barobarida yuzaga keldi. Undagi yuksak inson-parvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik kabi sifatlar xalqimiz milliy xarakterining eng oliy ko‘rinishlaridir.

ZAMONAVIY TOMOSHABIN VA TEATRNING FUNKSIONAL TIZIMI

Muqaddas Axmetjanova,

“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”

kafedrasi professori v.b.,

falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada teatr va tomoshabinning o‘zaro munosabatlari masalalari, teatrning funksional tizimi, tomoshabin madaniyatini shakllantirishda sahna san’atining o‘rnini, oxirgi yillarda teatr sohasida olib borilayotgan innovatsion izlanishlar; tajriba-lar; yangi g‘oya va loyihalarning hayotga tatbiq etilishiga qaratilgan ishlar mohiyati tahlil qilingan.

Calit so‘zlar: teatr, san’at, tomoshabin, qadriyat, tafakkur, modernizatsiya, ideologiya, innovatsion tendansiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы взаимоотношений театра и зрителя, функциональная система театра, роль сценического искусства в формировании зрительской культуры, инновационные исследования, проводимые в последние годы в сфере театра; опыт, характер работы, направленной на реализацию новых идей и проектов.

Ключевые слова: театр, искусство, зритель, ценность, мышление, модернизация, идеология, инновационные тенденции.

Annotation: This article analyzes the issues of the relationship between the theater and the audience, the functional system of the theater; the role of performing arts in the formation of spectator culture, innovative research conducted in recent years in the field of theater, experience, the nature of work aimed at the implementation of new ideas and projects.

Keywords: theater, art, audience, value, thinking, modernization, ideology, innovative trends.

Ijtimoiy hayotning dinamik xususiyati, har bir davrda san’at sohasidagi izlanishlar oldiga o‘z talablarini qo‘yadi. Bu talablar bevosita teatr san’atiga ham taalluqli va uning funksional tizimini aniqlashtirishga undaydi. Yangi davr talablaridan kelib chiqib teatrning funksional tizimini quyidagilarga klassifikatsiya qilishimiz mumkin:

- badiiy-estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi, estetik did tarbiyasi);
- ijtimoiy borliqqa munosabat tarbiyasi, estetik idealni shakllantirish);
- ma’rifiy (etnostenetik tajribalarni targ‘ib etish, badiiy ijodga oid yangi usullarni ommalashtirish, tarixiy va ilmiy qarashlarni yoyish, turmush tarzini ifoda etish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish);
- rekreatsiya va dam olish (bo‘s sh vaqtini uyuştirish, ko‘ngil ochish tomoshalarini tashkil etish);
- kommunikatsiya (muloqot uyuştirish, axborotlar tarqatish, dialog);
- ideologiya(davlat strategiyasini qo‘llab quvvatlash, miliy g‘oya va mafkurani targ‘ib etish, gumanistik qarashlarni yoyish;
- badiiy ijod (badiiy ijod va san’at bilan shug‘ullanish, asar yaratish ko‘nikmasini shakllantirish).

San’at asarining ahamiyati va badiiy qimmati tomoshabinlarning ongiga, dunyoqarashiga ko‘rsatgan ta’siriga qarab baholanadi, qadrlanadi yoki rad etiladi. Binobarin, shu ta’siri orqali san’atkor jamiyat badiiy madaniyati rivojiga va recipient tomoshabin ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sadi [1, 137–138-betlar]⁶. Teatr san’ati vakillari nafosat, oljanoblik, ezulikka undovchi sahna olamini yaratish ekanlar, ijod mahsullari – spektakllarning shaxs, tomoshabin ongiga ta’sirini, ularning jamiyat strategik maqsadlariga muvofiqligini nazarda tutadilar. Spektakllar predmeti va ob’ektini ijtimoiy hayot muammolari, umumjamiyat manfaatlari, jamiyat a’zolarining o‘y-fikrlari va dilini qamragan qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib tanlaydilar. Chunki, «teatr kulgi va yig‘i maktabi, erkin minbar. Odamlar u erdan

⁶ Abdullaeva M. Sahna mahorati maktabi. Toshkent: Chashma print, 2011; Xoliqu-lova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonyiy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. 137–138-b.

turib eskirgan, soxta mafkura va ma’naviyatni fosh etishi, uni masxara qilishi, jonli misollar bilan inson qalbi, his-tuyg‘ularini namoyon eta olishi mumkin. Agar teatr kulgi yoki yig‘i yordamida jamiyatning tomir urishini sezmasa, tarix nafasini aks ettirmasa, o‘z xalqining dardu alamlarini, jonajon yurtining go‘zal manzaralarini, milliy ruhiyatini anglab etmasa, uni «teatr» deb atashga arzimaydi. Bunday maskan «ko‘ngilxushlik bilan vaqt o‘tkazuvchi joy» deyishdan bosh-qaga arzimaydi» [2, 136-b.]⁷. Buni Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish mavzulari, g‘oyalari mujassam asarlarni sahnaga olib chiqishga intilayotgan teatrlarimiz tajribalari ham tasdiqlaydi.

Zamonaviy tomoshabin madaniyat va ijtimoiy hayotdan yaxshi xabardor. U istagan axborotni internetdan topa oladi va o‘z fikrini bildira oladi. Ushbu xabardorlik bir tomondan teatr uchun zarur, faol tomoshabinga aylantiradi, ikkinchi tomondan u tanqidchi, opponent tarzida keltirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan zamonaviy teatr san’ati har tomonlama axborotlar olgan muxlis, tomoshabinga duch kelmoqda. Aslida teatr hech qachon mutlaq befarq tomoshabinni nazarda tutmagan, hatto tasodifan teatrga kelgan kishi ham aktyorlar hayoti, ijodi haqida bir nimani biladi, ayta oladi [3, 260, 287, 364-betlar]. Haqiqatan ham, san’at ma’naviy tarbiyasi shaxsni, tomoshabinni yaratishga, bunyod etishga, ijod qilishga undashida namoyon bo‘ladi. Bunda san’at avvalo, shaxsning his-tuyg‘ulariga va shu orqali ongiga, dunyoqarashiga, kelajak xatti-harakatlari va amallariga ta’sir etadi.

Teatrlarning chinakam san’at asarlari yaratishi o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, bu jamiyatda badiiy ijod uchun yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari sahna ijodkorlarining ahil-inoqlikda mehnat qilishi, truppada asl iste’dodlarning jamlanishi, san’at dargohining zamonaviy moddiy-texnik imkoniyatlar bilan ta’minlanganligi singari ko‘plab omillarga bog‘liqdir. Qisqacha aytganda, badiiy jihatdan yaxlit, tomoshabin e’tiborini tortadigan, uning o‘ziga xos dunyosini o‘zgartirib yuboradigan spektakllar yaratish uchun teatr-

⁷ Mahmud J. Shoир teatr haqida. //Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2016. – №6. – B. 136.

larda badiiy-ijodiy muhit hukmron bo‘lishi zarur. «Teatrning asosi – uning muhiti. Aktyorlarning o‘zaro munosabati, kuchli rejissura, rassom, pardozlovchi, libos ustasi va boshqa sahna ishchilari uning muhitini tashkil etadi» [4, 41-bet].

Keyingi yillarda teatrlarda ijtimoiy voqeа bo‘ladigan spektakllar ning nisbatan kamligi, ayrim yirik teatr dargohlarida bosh rejissyor va direktorlarning o‘rtasida ayrim kelishmovchiliklarning yuzaga kelayotganligi, aktyorlarining ijtimoiy tarmoqlar orqali videomurojaatlar bilan chiqishlar qilayotgani mazkur e’tirozlarda haqiqatan ham jon borligini ko‘rsatadi. Ammo, masalaga bir tomonlama qarash, faqat tanqid qiluvchi tomonni yoqlash to‘g‘ri emas. Agar ana shunday tanqidchilarning aksariyati aslida kim ekanligi bilan qiziqsak, ularning ko‘pchiligi ijodda unchalik omadi kelmagan, salohiyati va mahorati haminqadar aktyorlar qo‘lidan to‘laqonli spektakl sahna lashtirish kelmaydigan rejissyorlar, o‘z vazifasini sidqidildan bajarish o‘rniga to‘y va boshqa marosimlardan ortmaydigan, o‘zi teatrning bosh rejissyori bo‘la turib moddiy mablag‘ ilinjida goh suratga olish maydonlarida, goh san’at kollejiyu litseyda dars berayotgan, teatrni esa oxirgi o‘ringa tushirib qo‘yanlar, yoki «asar»lari sahna lashtirilmagan «dramaturglar» tashkil etayotganini bilish unchalik qiyin ish emas. Aslida teatrlar direktorlari ham, bosh rejissyor va sahnalashtiruvchi rejissyorlar ham, bosh rassomlardan tortib truppa boshliqlarigacha sohani ich-ichidan chuqr bilishlari, badiiy-ijodiy jarayonlarni chuqr tushunishlari, ijodkor psixologiyasi, san’at menjimenti va marketingi to‘g‘risida etarli bilimga ega bo‘lishlari, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qila bilishlari va albatta fidoyilik namunalarini ko‘rsatmoqlari talab etiladi. Aksincha, teatr truppalarini olib borayotgan izlanishlar ko‘zlangan natijani bermaydi. Jamoada norozilik, mayda gap, boshboshdoqlik avj oladi. Bunday jamoadan iste’dodlarning boshqa teatrlarga o‘tib ketishi, dramaturglar pesalarini taqdim etmasliklari, tomoshabinlar tashrifi kamayishi kuzatiladi. Ming afsuski, bugungi zamонавиу texnologiyalar rivojlangan davrda teatrlarning ichida, ijodkorlar o‘rtasida ro‘y berayotgan turli kelishmovchiliklar, gap-so‘zlar ijtimoiy tarmoqlarga chiqib ketib, butun

san'at ixlosmandlariga ma'lum bo'lmoqda. «Uydagi sirning ko'-chaga chiqishi» o'z navbatida tomoshabin nazarida san'at ahlining obro'-e'tibori, oxir-oqibat san'atdek yuksak pardalarda tilga olinadigan sohaning mavqeい pasayishiga olib kelmoqda. Bu bir tomondan, teatrlar direktorlarining boshqaruv mahorati etishmasligi, faoliyatida adolat, halollik va bag'rikenglik tamoyillarining sustlashayotganidan, ikkinchi tomondan ijodkorlarda mahorat va fidoyilik etishmayotganligidan dalolat beradi.

Sh.Rizayev yozadi: «... o'tgan asrning 80-yillar adog'i, 90-yillar boshlarida «Yosh gvardiya» teatri respublikaning sahna san'ati markaziga aylanib, deyarli barcha ijodiy kuchlarni o'ziga jalb etardi. Nazarimda, buning boisi keyinroq yaqqol anglandi. Shu davrlar bu teatrda ma'muriy rahbarlikda ham, ijodiy-tashkiliy yo'nalishda ham mutloq muvofiqlik hukm surar, direktor bosh rejissyorini, bosh rejissyor Bahodir Yo'ldoshev esa direktor Abdulahad Abdullaevni tushunar, hurmat qilar, maslahatlashar, ikki tomonlama to'liq erkinlik asosida muvofiqlashgan boshqaruv muhiti hukmron edi. Abdullah akaning rahbarlik tajribasi, bilimi, malakasi va ijodiy muhitni ta'minlay bilish salohiyati, o'zining ijodkor tabiatini, kerak o'rinda juda mulohozakorligi – barchasi birgalikda boshqa teatrtdagi bir necha yillik malomat va nizo-ziddiyatlardan keyin rejissyor Bahodir Yo'ldoshev iste'dodi va san'atining yana namoyon bo'lishi, rivojlanishi, nomi yanada tanilib, dovruq qozonishi uchun zarur omillardan biri bo'ldi» [5, 77–78-betlar]. Demak, samarali boshqaruv birinchidan, san'atkorning ochilmagan ijodiy quvvati namoyon bo'lishiga imkon yaratgan, ikkinchidan, «Qora kamar», «Faridun», «Paranji sirlari», «Iskandar» (barchasi B.Yo'ldoshev rejissyorligida) kabi badiiy jihatdan mukammal asarlarning yuzaga kelishiga sharoit tug'dirgan.

Keyingi yillarda paydo bo'lgan axborot-kommunikatsiya imkoniyatlari borgan sari teatr san'ati faoliyatiga ham kreativ yondashishni, ilg'or fikrlashni, jahonda kechayotgan badiiy-estetik jarayonlardan, ijodiy yangiliklardan xabardorlikni, tomoshabin bilan muloqot qilishning innovatsion usullarini izlashga undamoqda. «Teatrلаримиздаги инноватсиya ко'проq ularning tashkiliy-uslubiy, tomoshalarni

namoyish etish tarzi, sahnalarning zamonaviy yoritish vositalari bilan jihozlanishida ko‘rinmoqda» [6, 32–33-betlar]. To‘g‘ri, teatrлarda moddiy poydevor, texnikalar yangilanishi yangi spektaklar yaratish imkoniyatlarini oshiradi. Ammo texnika, avvalo ko‘makchi vosita, inson boshqaruvidagi uskunadir. Teatrлarni chet ellardan texnikalar sotib olib zamonaviylashtirish mumkin, lekin fikrlash texnologiyasi, ijodiy usul va uslublar yangilanmasa, har qanday yangi texnika teatr san‘atini taraqqiy ettirishga qodir bo‘lmaydi. Innovatsiya avvalo, badiiy-estetik ongda ro‘y berishi, so‘ngra shakllangan ilg‘or fikr va yangi g‘oyalar sahnaga ko‘chirilishi kerak.

Bugun badiiy ixtirolarga moyil iste’dodlarni izlab topish, ularning eksperimentlar o‘tkazishiga sharoitlar yaratib berish darkor. Aksincha, barpo etilgan binolar, o‘rnatilgan dekorativ uskunalar «xo‘jako‘rsin»ga, yaratilgan spektakllar «mendan ketguncha, egasiga etguncha» qabilida bo‘lib qolaveradi.

Bugun o‘zbek jamiyati ijtimoiy-madaniy tafakkuridagi yalovbar-dorlik adiblarda ham emas, faylasuflarda ham emas. Jurnalistik faoliyat doirasida bloger tomoshabinlar, faol shaxslar ilg‘or fikrlari bilan ko‘pchilikning e’tiboriga tushmoqda. Aynan ular xalqning tanqidiy tafakkuri o‘sishiga, juda ko‘plab ijtimoiy-ma’naviy muammolarga jamoatchilik e’tiborini qaratishga erishmoqda. Demokratik jamiyat, adolatli davlat xususidagi ijtimoiy ongingin shakllanishiga, amaldor-larning xalq bilan hisoblashib ishlashiga erishishga munosib oz bo‘lmsa-da, hissa qo‘shishmoqda.

Xolisona aytganda, bugun ijodning barcha sohalarida ustoz-shogirdlik an’analari inqirozga uchradi. Bu o‘rinda individuallikni innovatsiya atovchi fikrning salbiy tomoni ko‘zga tashlanadi. Demak, innovatsiya mudom ijobjiy hodisa bo‘lavermaydi. Yosh ijodkorlar ning faoliyatiga jonkuyarlik bilan yondashib, jo‘yali fikr bildiradigan, to‘g‘ri badiiy-estetik yo‘lga boshlaydigan oqsoqol dramaturglar, rejisyorlar, aktyorlar, sahna musavvirlari qolmadi. Bir paytlari Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Shukur Burxonov, Olim Xo‘jaev, Mashrab Boboev, Georgiy Brimlar yoshlarning boshini silagani, o‘z tajribalari ni o‘rgatgani, o‘zlaridan katta ijodiy maktab qoldirgani xususidagi

hikoyalar bugun xuddi ertakdek aytildi, yoziladi, o‘qiladi. Ammo ular qoldirgan avlod o‘zidan keyingi yoshlarga haqqoniy ustozlik qilayotgani, o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashayotgani xususida xolis, ijobjiy fikr bildirish qiyin.

Bugun ijod erkinligidan foydalanib, ko‘ngli tusagan “nimarsa”-sini ommaga e’lon qilayotganlar, “asar”larini ko‘tarib to‘rt tomonga yugurayotganlar bilishlari kerakki, ular badiiy ijod jarayonida qanchalik erkin, mustaqil bo‘lsalar, resipient tomoshabinlar ham nimani qabul qilish yoki rad etishda, nimani tomosha qilish yoxud qilmaslikda shu qadar erkindirlar. Bugun badiiy yaxlitlikdan yiroq, yuksak axloq va badiiy didga begona bo‘lgan ijod mahsulini taqdim etish orqali faqat ko‘pchilikning e’tiroziga va kulgisiga sabab bo‘lish mumkin. Chunki: “hayvoniy mayllarni qitiqlovchi beparda tomoshalarni san’at asari sifatida taklif qilish teatrni estetik go‘zallikdan mosuvo etadi” [7, 137-bet].

Eng yomoni hozirgi delitantlarning o‘zlarini professionallikdan ancha uzoqdaligini ochiq-oydin tan olishlari hammasidan o‘tib tushadi. Ularning mukammallikka intilmasliklaridan hayratga tushasan. Bu surbetlik, o‘zidan ketish, butun jamiyatni bir tiyinga olmaslikmi, degan savollar qurshovida o‘yga tolasan. Eng achinarlisi, yuksak ijodiy prinsiplarga amal qilmaydiganlar har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, televidenie, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini piar, reklama qilib, xalqning nazarida turishga harakat qilishmoqda, ming afsuski, ko‘pincha ular o‘z maqsadlariga erishib, yosh avlodni o‘z ortidan ergashtirishga muvaffaq ham bo‘lmoqda [8.]. Haqiqatan ham, bunday paytda Mannon Uyg‘ur bisotidagi bittagina shimi yirtilib, yamalib, uvadasi chiqqandan keyin nima qilarini bilmay, shiorlar yozilgan qip-qizil alvondan kiyim tiktilib, teatrga – ishga kelgani, o‘rniga rolini almashtiruvchi dublyori yo‘qligi uchun qizchasingning o‘ligi ustidan turib kelib, rol ijro etib, so‘ng hamkasblarini ta‘ziyadan ogoh etib ketgan Obid Jalilovlarning [5. 77-78-b.] fidoyiligi, o‘z kasbiga sadoqati bugun san’atni pul, obro‘, unvon orttirish manbasiga aylantirgan, sahnada ming harakat qilmasin xatti-harakatlari, nigohida, yuzi-ko‘zida bazmlardagi engil-yelpilikning, professionallikning yaqiniga ham

ham yo‘lamaydigan delitantlikning nuqsi urib turadi. Buni ziyrak, ko‘p narsalardan xabardor zamonaviy tomoshabin albatta sezib turadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Sahna mahorati maktabi. Toshkent: Chashma print, 2011; Xoliqulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
2. Mahmud J. Shoir teatr haqida. // Jahon adabiyoti. – Toshkent: 2016. – №6.
3. Эфрос А. Профессия: режиссёр. – М.: Искусство, 1979.
4. Abdumajid H. Olis yulduzlar shu’lasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2014. 2-kitob.
5. Rizayev Sh. Iztirob san’ati: adabiyot, teatr, kino, musiqa... – Toshkent: Yangi asr avlod, 2013.
6. Muxtorov E. “Eski machit” teatri tomoshalari. // San’at. – Toshkent, 2002.
7. Bruk, Piter. Rejissyor – Marsda ham rejissyor. // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2016. – №10.
8. <https://everyday.uz/showbusiness/5653-news.html>; <https://dar-yo.uz/k/2016/04/18/>

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI MENEJMENTI

To‘rabek Fayziyev,

O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: Maqolada art-menejment tushunchasi ko‘rib chiqiladi. Madaniy-hordiq sektori va ijodiy sanoatni rivojlantirishda kreativ menejmentning o‘rnii bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: art-menejment, madaniyat va san’at menejmenti, madaniy mahsulot, art-bozor, art-menejment predmeti

Abstract: The article deals with the concept of art management. The role of creative management in the development of cultural and leisure sector and creative industries.

Keywords: art-management, management in the sphere of culture and art, cultural product, art-market, the subject of art-management

Аннотация: В статье рассматривается понятие арт-менеджмента. Роль креативного менеджмента в развитии культурно-досугового сектора и творческих индустрий.

Ключевые слова: арт-менеджмент, менеджмент в сфере культуры и искусства, культурный продукт, арт-рынок, предмет арт-менеджмента

“Menejment” – bu integratsiya jarayoni bo‘lib, uning yordamida professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassislar maqsadlarni belgilash va ularga erishish usullarini ishlab chiqish orqali tashkilotlarni shakllantiradi va boshqaradi. Menejment jarayoni tashkil etish, rejalahshtirish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish funksiyasidan iborat bo‘lib, ularni amalga oshirish orqali menejerlar tashkilotda band bo‘lgan xodimlarning ishlab chiqarish va samarali mehnat qilishlari uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydilar va qo‘yilgan maqsadlarga mos keladigan natijalarni oladilar.

Art-menejment mutlaqo yangi fan va yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning 90 yillari oxirida madaniyat va san’at tashkilotlari menejerlari ning xalqaro assotsiatsiyasi (Association international of Managers in Arts and Culture – AIMAC) tug‘ilishi bilan paydo bo‘ldi.

Art-industriya (lot. art – san’at, ijod, industria – faoliyat) – san’at va madaniyat sohasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun mas’ul bo‘lgan art-bozor sohasi. Art-industriyaning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi: teatr-tomosha tashkilotlari, ijodiy birlashmalar, agentlik, konsert tashkilotlari va filarmoniyalar.

Kelajakda bir necha bor ishlatiladigan “art-menejment” atamasini “tayyorlab,” bu iboradagi asosiy urg‘u uning birinchi qismiga (inglizchadan, art) qaratilganligini ta’kidlamaslik mumkin emas – bu san’at, ijod (bu tushunchaga rassomlik, dizayn, teatr, raqs va boshqa san’at turlari kiradi).

Art-menejment (madaniyat va san’at sohasidagi boshqaruv) kabi atama ko‘plab ta’riflarga ega. Masalan, ulardan ba’zilari:

1. Zamonaviy dunyoda “madaniyat sohasidagi marketing – bu mahsulotning yetarli miqdordagi iste’molchilar bilan aloqasini o‘rnatish va madaniyat tashkilotining missiyasiga mos keladigan maqsad-larga erishish uchun mahsulotga moslashib, ushbu mahsulotga eng ko‘p qiziqish bildirgan bozor segmentlariga erishish texnologiyasi-dir” [1, 21–22-betlar].

2. Art-menejment atamasini “muayyan ko‘nikmalar (marketing, kadrlarni boshqarish, buxgalteriya) majmui va ushbu ko‘nikmalardan o‘z navbatida ushbu sohadagi jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan va jamiyatning ma’rifiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rsatadi-gan faoliyatda foydalanish” deb tushunish mumkin. [2, 55–58-betlar].

3. Madaniyat sohasidagi menejment deganda “insonning ongli faoliyati orqali jamiyatning yanada yuksak madaniy hayotiga erishish maqsadida madaniyat va san’at sohasida insonlarning ehtiyojlari, mehnati va ijodini muayyan uyg‘un munosabatlarga olib kelishga intilishi” tushuniladi. [3, 90–92-betlar].

Madaniy yoki ijodiy sanoat – rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi zamonaviy sektor bo‘lib, u “individual ijodiy boshlang‘ich,

ko‘nikma yoki iste’dodga asoslangan va ishlab chiqarish va intellektual mulkni ekspluatatsiya qilish orqali qo‘shimcha qiymat va ish o‘rinlarini yaratish salohiyatiga ega bo‘lgan faoliyatdir” [4].

Art-menejment iqtisodiyotning boshqa sohasi menejmentiga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. U marketing (“marketing” tu-shunchasini zamonaviy art-menejmentning iste’molchi talabini, reklama va narx siyosatini o‘rganishga qaratilgan funksiyalaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin), xodimlarni boshqarish va moliya kabi bir qator kichik fanlarni o‘z ichiga oladi.

San’at sohasi kadrlari va xodimlari o‘ziga xos iste’dod va qobiliyatga ega. Ushbu sohada iste’dodli va iqtidorli odamlar ishlaydi, ular har qanday soha menejmentiga ko‘plab yangi g‘oyalar va imkoniyatlarni olib kirishi mumkin. O‘zbek va xalqaro biznesda yaxshi ma’lumki, keskin raqobat sharoitida loyihalarni amalga oshirishga eng iqtidorli va kreativ odamlarni jalb qila olgan kishi g‘olib bo‘ladi. Har qanday menejerni iste’dodli odamlarni boshqarish jarayoni ni qanday qilib to‘g‘ri tashkil etish masalasi qiziqtiradi. Chunki iste’dodli odam tabiatan mustaqil bo‘ladi, uni boshqarish juda qiyin. XX asrning saksoninchı yillarigacha “menejmentda iste’dod so‘zi ishlatilmagan, chunki bu atama biznesdan uzoq deb hisoblangan,” [4, 30-bet]. Ammo bugungi kunda hech bir tashkilot iqtidorli xodimlarsiz ishlay olmaydi va butun dunyoda malakali kadrlar tanqisligi sharoitida iste’dodlarni jalb qilish va boshqarishni biladigan kompaniyalar g‘alaba qozonmoqda.

Ijodiy tashkilotning kundalik faoliyati ijodiy ifoda va jarayonni yaratish, ishlab chiqarish, tarqatish va uyg‘unlashtirish jarayonlari ni “boshqarish”ga qaratilgan. Ushbu boshqaruv ma’lum vositalar va ishlab chiqilgan boshqaruv tizimlari va mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Lekin baribir bo‘s sh vaqtini o‘tkazish muassasasi faoliyatida markaziy o‘rinni aynan xilma-xil madaniy xizmatlarni “ishlab chiqarish” va “sotish” egallaydi.

Maqsadli auditoriya ehtiyojlarini o‘rganish, madaniy va dam olish faoliyatining yangi shakllarini joriy etish, dam olishni tashkil etish metodikasini takomillashtirish va shu bilan tashrif buyuruvchilarining turli ehtiyojlarini qondirish orqali (teatr nafaqat ma’naviy, balki ta’li-

miy tarkibiy qismni ham o‘z ichiga oladi), madaniyat va dam olish sohasi xodimlari aslida xizmatlar menejmenti bilan shug‘ullanadilar, bu yerda marketing kabi hodisa oxirgi o‘rinni egallamaydi (aholi e’tiborini teatrga jalb qilish, iste’molchilarni uning xizmatlaridan foydalanimishga ishontirish).

Madaniyat va san’at sohasidagi menejment madaniy boyliklarni (badiiy mahsulotni) tanlash, ishlab chiqarish, saqlash va tarqatish kabi jarayonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turli boshqaruv vazifalarri (tashkil etish, strategiya, nazorat) majmui sifatida qaraladi.

Ushbu turdagи boshqaruv faoliyatining asosiy maqsadi madaniy va dam olish mahsulotini tovar va xizmatlar bozoriga ommaviy ravishda ilgari surishdir.

Madaniyat va san’at menejmentining predmeti turli ijtimoiy tuzilmalarda va turli tarixiy davrlarda mavjud bo‘lgan bunday tashkilotlarning barcha usullarini (shakllarini, modellarini) umuman madaniy faoliyat sohasida ham, uning alohida yo‘nalishlarida ham (masalan, teatr, kinematografiya, radioeshittirishda) o‘rganishdir.

Madaniyat va san’at sohasidagi menejmentning maqsadi madaniy faoliyatning ijtimoiy darajasi va bozor qiymatini oshirishga eng samarali hissa qo‘shadigan tegishli tashkiliy yechimlarni (modellarini) topish bo‘lganligi sababli, bu fan ikkita asosiy yo‘nalishga ega:

1. Tahliliy-tavsify (tashkil etish usullari va shakllarini tavsiflash va tadqiq etish);

2. Loyiha-model (tashkilotning yangi, yanada samarali usullari va modellarini ishlab chiqish va sinab ko‘rish).

San’at bozori, boshqa har qanday oldi-sotdi maydoni kabi, uchta tarkibiy qism mavjud bo‘lganda mavjud bo‘lishi mumkin: sotuvchi, iste’molchi-xaridor va ular o‘rtasida turgan shaxs (bog‘lovchi bo‘g‘in) – vositachi. Ikkinchisining roli san’atni tovar-pul munosabatlari makoniga kiritish jarayonini tashkil etishdan iborat (boshqacha aytganda, keng ma’noda san’atni bozorga integratsiyalash).

Madaniyat muassasalari, shuningdek, madaniyat vazirligi timsolda shahar hokimiyyati bir-biri bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikka intiladi. Va har bir tomon shaxsiy foyda olishdan manfaatdor: hokimiyyat

uchun – bu aholining barcha qatlamlari orasida madaniyatni omma-lashtirish, jamiyatni madaniy qadriyatlar, jahon madaniy merosining ahamiyati bilan tanishtirish, madaniyatni moliyalashtirishning muqobil manbalarini izlash, madaniyat muassasalarini o‘zini o‘zi qoplashga o‘tkazish; madaniyat esa moliyaviy mustaqillikka, tijorat-foydali loyihalarda ishtirok etishga intiladi. O‘zaro manfaatlar qondirilishi uchun hokimiyat va madaniyat ittifoqining muvofiqlashtiruvchisi vazifasini bajaradigan o‘ziga xos vositachi zarur. Vositachining ishi faqat pirovard mahsulot iste’molini tashkil etish bilan bog‘liq.

Yangi tipdag'i menejerlar nafaqat intuitsiya, intellekt va ma’naviy tarbiyani, balki iqtisodiyot, informatika, marketing va strategiya sohasidagi ma’lum bilimlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Menejlerlarning madaniyat sohasidagi faoliyati ikkita yetakchi elementni birlashtirishdan iborat – ijodiy mahsulotni yaratish (ijodiy jarayon va madaniy qadriylarni ishlab chiqarish uchun sharoit yaratish bo‘yicha ish) va uni madaniy-ma’rifiy xizmatlar bozoriga olib chiqish (ijo-diy g‘oyalarni amalga oshirish, jamoatchilikka ochiq). Reklamani o‘z vaqtida ta’minlash, binoni tanlash va ijara olish, jamoani gastrolga olib chiqish san’at menejmenti bilan shug‘ullanuvchi menejerga to‘liq tegishli.

Art-menejerning birinchi bosqichdagi vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sahnalashtiruvchi rejissyor, artistlar, sahnalashtiruvchi rassom, ovoz rejissyori izlash; shuningdek, ushbu bosqichdagi menejerning vazifalari kelajakdagi sahnalashtirish uchun bino izlash va ijara olish, homiylarni topish va ushbu loyiha bo‘yicha xarajatlar smetasini tuzishdan iborat.

Ikkinci bosqichda menejer repetitsiyalarning qulay jadvalini tuzishi, shuningdek, nafaqat reklama kampaniyasini o‘tkazishi, balki bo‘lajak spektakl chiptalarini tarqatish bo‘yicha ishlarni tashkil etishi va umuman spektakl premyerasini tashkil etish ustida ishlashi kerak. San’at turi yoki sohasidan (tijorat, notijorat va ko‘ngilli) qat’i nazar, art-menejerlar san’atni o‘z diqqat markazida ushlab turishlari kerak.

Bugungi kunda san’at menejmenti, shubhasiz, madaniyat va san’at sohasidagi tijorat faoliyatining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. F.Kolber. Madaniyat va san’at marketing /Kolber F., Rich Dj.D., Bilodo S., Nantel J., Naymark. 2004. – S. 21–22-betlar.
2. U.G‘. Zuunnunova, T.R. Fayziyev. Art marketing. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Kamalak” 2019-y., 55–58-betlar.
3. Abchuk V.A. Ijtimoiy sohada menejment va marketing: tadqiqotlar. o‘quv qo‘llanma / V.A. Abchuk. Sp.b.: Kitoblar uyi, 2003-yil, 90–92-betlar.
4. Finola Kerrigan, Peter Fraser, Mustafa Ozbilgin. “Arts marketing”, «Elsevier Butterwort – Heinemann» Germaniya, 2014-y., 28–30-betlar.

O‘ZBEKİSTONDA HAVASKORLIK TEATR JAMOALARI FAOLİYATI TARAQQIYOTI

Vahobjon Rustamov,
*O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti professori v.b.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda havaskorlik teatr jamoalarii faoliyati haqida so‘z boradi.

Tayanch iboralar: Teatr, xalq teatri, professional teatr, repertuar, festival, rejissyor

Аннотация: В данной статье рассказывается о деятельности самодеятельных театральных коллективов Узбекистана.

Ключевые слова: Teatr, народный teatr, профессиональный teatr, repertuar, фестиваль, режиссёр.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan chuqur o‘zgarishlar, yan-giliklar, erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ommaviy tadbirlar dasturlarida o‘z aksini topib, Yangi O‘zbekistonni jahon arenasidagi obro‘sini oshirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Havaskorlik jamoalari o‘zlarining chiqishlarini asosan turli mav-zulardagi tadbirlarda namoyon etadilar. Hech kim ona qornidan ashulachi, aktyor yoki musiqachi bo‘lib tug‘ilmaydi. Uni ana shunday muhit “tarbiyalaydi”. Oilasida san’atkor bo‘lgan bolalar ota-onalari izidan boradilar, ularni kuzatadilar, ular qilgan ishlarni takrorlab ko‘radilar, san’atga yaqinlashadilar.

Juda ko‘p holatlarda madaniyat markazlarida jamoa, guruhlarni shakllantirishda tayyor qo‘shiqchi yoki musiqachini olib keladilar va ansambl tuzishga harakat qiladilar. Aslida esa bu maskanlarning asosiy vazifasi ozgina iqtidori (talanti) bor yoshlarni tanlab, ularga o‘rgatib, qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun sharoitlarni yaratishdir.

Bu jarayonlarning barchasi to‘garaklardan boshlanishi haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin men to‘garaklar haqida ko‘p gapirmoqchi emasman. Chunki, to‘garaklarga ko‘proq yangi o‘rganuvchilar kelishadi. To‘garakda ozgina bilim yoki hunar o‘rganib, sekin astalik bilan havaskorlik jamoasi shakllana boshlaydi. To‘garaklarda ko‘proq yakka tartibda ish olib borilsa, jamoa shakllangandan keyin guruhli mashg‘ulotlar ham tashkil etiladi.

Havaskorlikdan professionallikka intilishning birinchi bosqichi xalq unvonlariga ega bo‘lishdir. Ajratilgan shtat birliklari bu faoliyatni yanada taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 599 ta xalq va namunali unvonga ega bo‘lgan jamoalar faoliyat yuritadi. Shulardan, 4 ta bolalar namunali teatri, 22 ta qo‘g‘irchoq teatr jamoalari bor. 85 tasini xalq unvoniaga ega bo‘lgan teatr jamoalaridir.

Men yurtimiz bo‘ylab, viloyatlar, (tuman va shaharlar)da mavjud ushbu jamoalarni attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etib, jamoalar faoliyatini o‘rganib, ularni tahlil qilib, quyidagi kamchiliklarni kuzatdim:

- Jamoalar tarkibi muntazam o‘zgarib, almashib borayotganligi bois juda oson, kam ishtirokchi qatnashadigan asarlar tanlangan;

- Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, ibratli sahna asarlarini o‘rniga odamlarni kuldiramiz, deb juda ham bachkana qiliqlar bilan tomoshabinlarning ensasini qotiradigan chiqishlar bilan cheklanib qolgan jamoalar ham bor;

- Shtatda o‘tirgan rejissyorlar ko‘pincha o‘zлari yozgan sahna ko‘rinishlarini namoyish etadilar. Dramaturglarning asarlariga umuman murojaat qilmaydilar, vaholanki, yillik rejada sahnalashtirish uchun aniq asarlar berilgan;

- Rejada belgilangan, hisobot sifatida topshirilishi lozim bo‘lgan sahna asarlari ustida deyarli ishlanmagan;

- Havaskorlik teatr jamoasi rahbarining funksiyasi faqat tadbirlarni o‘tkazish bilan cheklangan. Alovida sahna asarini tanlab, sahnalashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilmagan;

– Aktyorlik ijrosida, masalan, nutq ustida ishlash, libos tanlash, grim qilish, sahma dekoratsiyalarini yaratishda qo‘pol xatoliklarni kuzatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 9-fevraldag‘i “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 66-son buyrug‘ida ushbu soha taraqqiyotiga oid aniq taklif va topshiriqlar belgilangan.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tilgan:

Badiiy havaskorlik jamoalari – madaniyat va san’at muassasalarida tashkil etilgan to‘garak va boshqa qiziquvchilar klublari ishtirokchilari orasidan eng iqtidorli saralangan va noprofessional bo‘lgan shaxslardan tuzilgan uyushuv shakli;

Xalq havaskorlik jamoasi – yoshi chegaralanmagan noprofessional bo‘lgan shaxslardan tuzilgan uyushuv shakliga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Hay’ati qarori bilan beriladigan unvon turi.

Bolalar namunali jamoasi – voyaga yetmagan va noprofessional bo‘lgan bolalardan tashkil topgan uyushuv shaklida Madaniyat vazirligining Hay’ati qarori bilan belgilangan turi⁸, deb berilgan.

Unvon kimlarga beriladi?

Mazkur Nizomda “unvon madaniyat va san’at muassasalarida alohida folklor, maqom, ashula, teatr, musiqa, xor, vokal, xoreografiya, askiya, miniatyura, dorbozlik, sirk va boshqa yo‘nalishlarda madaniy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha namunali faoliyat olib borayotgan, repertuari va ijro mahorati, o‘quv-tarbiyaviy va ijodiy ishlarni g‘oya-viy-badiiy jihatdan professional san’at talabalari darajasiga ko‘tarilgan badiiy havaskorlik va bolalar jamoalariga beriladi”⁹, deb berilgan.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 9-fevraldag‘i “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 66-son buyrug‘i.

⁹ O‘sha manba.

Ushbu xujjatda unvon berilgan badiiy jamoalarga ham aniq majburiyatlar, vazifalar yuklanganki, bu ijodiy ishlar uchun attestatsiyalar o'tkazish meyoriy xujjatlarda belgilangan talablar va baholash mezonlari orqali ularning faoliyat yuritish yoki bekor qilish haqidagi xulosalari beriladi. Shuningdek, Nizomda yil davomida belgilangan tartib asosida ish olib borish bo'yicha ushbu jamoalarning majburiyatlari aniq raqamlarda ko'rsatib berilgan. Masalan, "Havaskorlik drama va qo'g'irchoq teatrлари yil davomida 2 ta, ya'ni 1 pardali va 2 pardali yoki ko'p qismli yangi spektakl sahnalashtirimb, tuman madaniyat markazi qoshidagi badiiy kengashga taqdim etadi.

Havaskorlik miniatyura va askiya teatrлари yil davomida ikkitadan yangi 1 pardali spektakl yoki sahna ko'rinishi, mustaqil teatrlashtirilgan konsert dasturlarini tayyorlab namoyish etish, yil davomida kamida bir marotaba o'z konsert dasturlarini mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoritib borish, har chorakda 1 marotaba o'zi joylashgan xudud bo'ylab, bir yilda bir marotaba respublika bo'ylab tomoshalar tashkil etish"¹⁰, kerakligi bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-sonli "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ham ushbu soha taraqqiyotidaga alohida e'tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin.

Ushbu xujjatda professional teatrlar faoliyatini yaxshilash bilan bir qatorda havaskorlik jamoalarini rivojlantirish bo'yicha ham vazifalar belgilanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, "Ta'lim muassasalarida:

– bog'chalarda bolalar tomosha jamoalari tuziladi va kichik sahna ko'rinishlari namoyish etiladi;

– maktablarda o'quvchilar teatr jamoalari o'rtasida "Turon" muktab teatri respublika tanlovini o'tkazish kuchaytiriladi;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 9-fevraldagи "Badiiy havaskorlik jamoalariga "Xalq havaskorlik jamoasi" hamda bolalar jamoalariga "Bolalar namunali jamoasi" unvonlarini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 66-son buyrug'i.

– oliygohlardagi talabalar teatr-studiyalari kengaytiriladi, ular o‘rtasida respublika ko‘rik-festivali o‘tkaziladi”¹¹, deb berilgan qismi aynan havaskorlik jamoalariga tegishlidir.

Havaskorlik teatr jamoalarini tashkil etishdagi eng asosiy qilinishi lozim bo‘lgan ishlardan biri bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishdir. Chunki sahnalaشتirish uchun assosiy manba – bu adabiyotdir.

Har bir ijodiy jamoa o‘zining boy repertuari bilan tomoshabinlar, tinglovchilar e’tiborini qozonadi. Shuni aytish kerakki, repertuar jamoaning u yoki bu darajadagi saviyasini, darajasini belgilovchi omillardan biridir.

Barchamizga ma’lumki, repertuar – (fr. *repertoire*, lot. *repertorium*) – ro‘yxat, degan ma’noni bildirib, ijro etiladigan asarlar majmuidir¹². “Repertuar – ijodiy guruh yoki jamoaning g‘oyaviy badiiy darjasи va uning professional ijodiy kamolotini aniqlab beradigan ko‘zgu hisoblanadi”¹³.

Xalq unvoniga ega bo‘lgan teatr jamoasi repertuar tanlashda madaniyat markazi tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlar rejasidan kelib chiqqan holda va “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq xavaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”¹⁴da belgilangan vazifalarga qarab tanlash maqsadga muvofiqdir.

Xalq unvoniga ega bo‘lgan teatr jamoasi uchun yuqorida aytib o‘tganimizdek, 3 ta, ya’ni rejissyor, aktyor va rassom shtat birliklari beriladi. Iqtidorlar (ya’ni, havaskor aktyorlar)ni jalb etish, grim, kostyumlar tanlash, badiiy bezak, musiqachi va boshqalarni barchasini

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-soni “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

¹² B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent, 2016. 118.

¹³ S.Yo‘ldosheva. “Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti”. Fan nashriuoti. 1999-yil, 6-bet.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” 2024-yil 9-fevraldagи 66-sonli buyrug‘ining 1-ilosidasan olingan.”

manashu uch nafar ijodkor amalga oshiradilar. Ushbu sohada ko‘zga ko‘ringan kamchiklardan biri shunda ko‘rindiki, ko‘pincha berilgan shtatlar shu madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan boshqa xo‘dimlarga qo‘shimcha mablag‘ sifatida bo‘lib berilgan.

Ibratli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan dramatik asarlarni tanlash jamoa rahbarining oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Prezidentimizning ushbu so‘zлari teatr san’atining inson tarbiyasi-dagi o‘rni, jamiyat taraqqiyotidagi rolining beqiyosligini tasdiqlaydi.

Respublikamizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantishga davlat tomonidan juda katta e’tibor berilmoqda. 50dan ortiq chiqarilgan shu soha taraqqiyotiga oid xujjalarda madaniyat, san’at, adabiyot, ma’naviyat masalalari hamisha birlamchi bo‘lib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, sahna san’ati o‘zining insonlarga to‘g‘ri dan-to‘g‘ri ta’sir qilishi bilan boshqa san’atlardan ajralib turadi. Shu jihatdan olib qaralganda, san’at sohasi insonlarning ruhiy tomonidan qo‘llab-quvvatlab, estetik jihatdan zavqlantirib, ma’naviy jihatdan boyitib boradi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbarlari tomonidan san’atning barcha turlarini rivojlantirish, takomillashtirish uchun turli farmon, qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqdaki, ularning oliv maqsadi jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit yaratish, insonlar hayotini yaxshilash, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, jamiyatga foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalash va boshqa ijobiy hislatlarni jo qilishga qaratilgan. Bunda havaskorlik jamoalarining faoliyatini yanada takomillashtirish – bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabr-dagi PQ-399-sonli “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Sh.Mirziyoyevning 27-mart – Xalqaro teatr kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigi. Internet ma’lumotlaridan olingan: <https://daryo.uz/static/2023/12/658>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2024-yil 9-fevraldagи “Badiiy havaskorlik jamoalariga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda bolalar jamoalariga “Bolalar namunali jamoasi” unvonlarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 66-son buyrug‘i.

4. B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: 2016, 118.

5. S.Yo‘ldosheva. “Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti”. Fan nashriuoti. 1999-yil, 6-bet.

РОЛЬ МЕНЕДЖЕРОВ В СОЗДАНИИ КУЛЬТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СРЕДЫ

Саида Эргашева,

*Государственный институт искусств и культуры
Узбекистана*

Доцент кафедры «Управление культурой и искусством»

Абстрактный: В научной статье рассматриваются менеджеры – представители качественно новой экономики. Стремление к инновациям — суть менеджмента. Поэтому важно глубоко и всесторонне изучать менеджмент, а также критически анализировать и позитивно использовать зарубежный опыт, накопленный в этой области. Сегодня менеджеры есть практически на всех предприятиях и в организациях, а управление охватывает различные сферы человеческой деятельности.

Ключевые слова: менеджмент, менеджер, культура и искусство, государственно-частное партнерство, культурная деятельность и организация культуры, социально-культурный менеджмент, государственное управление, творческое мышление, некоммерческие цели.

Вступление. Сегодня возрастает спрос на новые знания, новые навыки и возможности в социально-культурном управлении Нового Узбекистана. Это связано с тем, что культурные и художественные учреждения, сталкиваясь с неослабевающим давлением и конкуренцией современной рыночной экономики, уделяют особое внимание творческому предпринимательству.

Сегодня для быстрых реформ в Узбекистане необходимо совершенствование государственного управления и проведение в нем качественных изменений. Эта задача стимулирует рациональное использование факторов, стимулирующих развитие государства и общества, применение подходов, апробированных на опыте передовых стран. Примечательно, что изменения в

государственном управлении осуществляются в тесной связи с социально-экономической, политico-правовой и культурно-образовательной сферами. С этой точки зрения необходимо отразить эту гармонию в научных исследованиях в целях повышения эффективности сферы государственного управления . Для этого большое значение имеет научное исследование государственного управления как целостной отрасли, включающей логически взаимосвязанные отрасли. Это расширяет возможности изучения сущности и специфики государственного управления, выявления и устранения на этой основе проблем, связанных с данной сферой.

Сейчас стоит задача не только финансовой поддержки научных исследований и разработок, но и создания эффективных механизмов, направленных на внедрение их результатов в практику. Например, современная организационно-управленческая система в учреждениях культуры, во-первых, должна создавать эффективные механизмы творческого производства и предоставления культурных услуг, а во-вторых, критически анализировать развитие и перспективы культурного процесса в обществе.

Поэтому в управлении сферой культуры необходимы овладение секретами социально-экономического, духовно-этического, художественно-эстетического воспитания, глубокое изучение культурного наследия, творческое мышление и высокий профессиональный опыт.

С этой точки зрения не будет преувеличением сказать, что управление определяет успешность и перспективы сферы культуры, по возможности является основой и гарантией всей социально-культурной деятельности. Потому что Новый Узбекистан – это государство, способное создать новую культурную и художественную среду. В этой связи наш уважаемый президент Ш. Мирзиёев подчеркнул: «Давайте никогда не забывать одну истину: мы – народ, создавший великую историю, великое государство и великую культуру. Мы – великий народ, который никогда не чуждается труда, не боится трудностей и ценит справедливость. Если мы все будем едины душой и телом, будем действовать в единстве и согласии, будем честны и чисты, будем

работать с добрыми намерениями, то мы – народ, способный достичь любых целей, иными словами, создать новую страницу в своей истории», и выразил высокое доверие и ответственность ко всем нам.

(Заключение/Рекомендации). Культуру можно понимать как особую область общественной жизни, наряду с политикой, экономикой, образованием и другими. Другими словами, сфера культуры представляет собой определенную часть общества, определенный ресурс, механизм, обеспечивающий производство, сохранение и передачу с использованием институциональных форм, мировоззрения, ценностей, стереотипов и норм определенного общества.

Литература

1. Мирзиёев Ш. М. Новая стратегия развития Узбекистана. 3-е издание. Ташкент: Издательство «Узбекистан», 2022. – 440 с.
2. Шарифходжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. – Т.: «Учитель», 2001.
3. Мирзиёев Ш. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан. 2021.
4. Мирзиёев Ш. Труд людей с великими намерениями будет великим, их жизнь будет светлой, а их будущее — процветающим. – Ташкент: «Узбекистан», 2019. – 400 с.
5. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, 24 января 2020 года. – Ташкент: Тасвир. 2020.
6. Новый Узбекистан становится страной демократических перемен, широких возможностей и практической работы. – Ташкент: 2021. Типография ООО «Учитель». – С. 182.
7. Хайдаров А. Культура – основа национального роста (текст) Издательство «Golden Heritage Press». – Ташкент: 2021. – 478 с.
8. Бекмурадов М.Б., Шодиев Х.Х. «Теория и практика управления». – Ташкент: 2021. Издательство ОК «Замон полиграф». 272 с.
9. Юсупова Н. «Управление временем». – Т.: «Yangi asr avlodи». 2014.

“GAMLET” OBRAZINI TALQIN ETISHDA ABROR XIDOVATOV VA OLIM XO‘JAYEVNING O‘ZIGA XOS IJRO USLUBI VA MAHORATI

Ma’murjon To‘rayev,
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi
dotsenti*

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek teatri sahnasida “Gamlet” obrazini talqin etishda Abror Xidoyatov va Olim Xo‘jayevning o‘ziga xos ijro uslubi va mahorati, ularning teatr sahnasidagi ijodiy faoliyati, ular ijrosidagi Gamlet obrazi aks etgan asarlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: obraz, spektakl, talqin, teatr, aktyor, rejissyor, dramaturgiya, p’esa.

Аннотация: в данной статье рассказывается об уникальной исполнительской манере и мастерстве Аброра Хидоятова и Олима Ходжаева в интерпретации образа «Гамлета» на сцене узбекского театра, их творческой деятельности на театральной сцене, а также произведениях, отражающих образ Гамлет в их исполнении.

Ключевые слова: образ, спектакль, интерпретация, театр, актер, режиссер, драматургия, пьеса.

Abstract: this article talks about the unique performance style and skill of Abror Khidoyatov and Olim Khojayev in interpreting the image of “Gamlet” on the stage of the Uzbek theater, their creative activity on the theater stage, and the works that reflect the image of Gamlet in their performance.

Key words: image, performance, interpretation, theater, actor, director, dramaturgy, play.

Jahon adabiyoti darg‘alari – Sofokl, Gotssi, Shekspir, Shiller, Gogol, Ostrovskiy, Gorkiy, Chexov, Tagor asarlarida betakror obrazlar yaratgan aktyor Olim Xo‘jayev 1910-yilning 24-sentabrida Buxoro

shahrida dunyoga kelgan. Nutqi ravon, ovozi shirali va jarangdor, nafasi o'tkir ijodkor 1929-yili Buxoro maorif institutini tugatgach, Toshkentdag'i Hamza teatriga aktyorlik lavozimiga ishga qabul qilinadi. U talabalik davridayoq institutning havaskorlik to'garagida ishtirok etib, mashhur rejissyor Mannon Uyg'ur e'tiboriga tushgan edi. Bu e'tibor keyinchalik Nizomiy, Navoiy, Hamza, Obidiy kabi shoirlar obrazini yaratishga va elga manzur bo'lishga zamin yaratdi.

Rus tilida 1967-yilda nashr qilingan besh jilddan iborat "Teatr san'ati ensiklopediyasi"da ham Olim Xo'jayevning ulkan san'atkoriлик salohiyati e'tirof qilinadi: "... xalq artisti Olim Xo'jayev san'ati lirik ohangdorligi hamda teranligi bilan betakrordir. Uning ijrosi ziylolarga xos nozik, ifoda vositalari nafis, nutqi musiqiy, qomati va harakatlari go'zal", – deb yakunlanadi.

San'atkori talqinidagi Gamlet, ungacha ijro etilgan shahzoda obrazlari orasidagi eng tafakkurlisi, falsafiy mushohadalari teranligi va ta'sirchanligi bilan teatr san'ati zarvaraqlarida qolgan. Olim Xo'jayev bu yutuqqa qanday erishganligini esa quyidagicha sharhlash mumkin: "1935-yili Mannon Uyg'ur sahnalashirgan "Gamlet" spektaklida aktyor Rozenkrans rolini ijro etadi. 1936-yilda shu spektaklda Laert rolini o'ynaganligi ham qayd etilgan. Rejissyor besh yil uzlusiz ijro etilgan spektakldagi Gamlet – Abror Hidoyatov biroz zo'riqib, char-chab qolayotganini his qilgach, 29-yoshli Olim Xo'jayevga bu rolni ishonib topshiradi. Bir spektaklda bosqichma-bosqich uch rolni va bosh qahramonni 30 yil uzlusiz ijro etish shekspirshunoslik tarixida faqat shu buyuk san'atkorga nasib qildi. Uning talqinida Gamlet adolat va haqiqatni tiklash uchun bel bog'lagan shaxs sifatida gavdalandi. Bunday talqin Gamlet ijrosi tarixida munosib o'rniga ega bo'ldi. Unga Shekspirning mashhur tragediyalarini "Olim Xo'jayevga xos uslub"da talqin etish nasib qildi. Abror Hidoyatov bilan "Gamlet" spektaklida ishtirot etish, "Otello"da ham Yagoni talqin qilish ham uning aktyorlik taqdiriga yozilgan ekan. "Yuliy Sezar" da Yuliy Sezar, "Qirol Lir"da Qirol Lir ijrosi uchun Olim Xo'jayev ustozি Abror Hidoyatovdan keyingi o'zbek teatr san'atining tragik aktyori sifatida tan olindi. Shekspir tragediyalarini Olim Xo'jayevday ko'p va xo'b

ijro etish teatr san'ati tarixida boshqa biror aktyor taqdiriga bitilmagan. “Gamlet”, “Otello”, “Yuliy Sezar” va “Qirol Lir” tragediyalaring o‘zbek aktyorlari tomonidan mohirona ijro etilishi “O‘zbek teatrlarida Shekspir asarlari talqini” nomli ilmiy tadqiqotni yuzaga keltirdi”.

Tragik aktyor sifatida sharaf qozongan Olim Xo‘jayev serqirra ijodkor ekanligini ilk qadamlaridayoq isbotlagan edi. Uning o‘ziga xos ijro uslubi shakllanishida Karlo Gotssining “Malikai Turandot” spektaklidagi Kalaf va Gogolning “Uylanish” komediyasidagi Anuchkin kabi komik obrazlarning o‘rni beqiyos. Shuningdek, o‘zbek dramalarida turli zamondoshlari obrazini yaratishda orttirilgan tajribalar ham aktyorni keljakdagi tragik qahramonlar qiyofasining yangicha talqiniga ruhan tayyorlab borgan.

1935-yili Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasida Ferdenand obrazini ijro qilgan Olim Xo‘jayev 1955-yilda qayta sahnalashtirilgan spektaklda Karl Moor obrazini ham maromiga yetkazib o‘ynadi. Bir spektaklda ikki xil obrazni ijro etish ham omadli aktyorning taqdiriga bitilgan ekan. Uch marta qayta sahnalashtirilgan “Hamza” nomli spektaklda bosh qahramon obrazini tobora takomillashtirib borish ham faqat Olim Xo‘jayevning aktyorlik faoliyatida kuzatiladi. Bunday ijodiy jarayonni 1942-1949-1960-yillarda sahnalashtirilgan spektakllarda ham ko‘ramiz.

“Alisher Navoiy”spektakli o‘zbek teatr san’atida va Olim Xo‘jayev ijodida alohida ahamiyatga ega. 1945-yilda sahnalashtirilib, to 1948-yilga qadar takror-takror muhokama qilingan spektaklda Abror Hidoyatovga dublyor qilib tayinlangan aktyor Mannon Uyg‘ur va Nazira Aliyevalarning “sahna nutqi” borasida qo‘ygan talablarini bajarib, adabiy til meyorlarini yanada mukammal o‘zlashtirdi. Navoiyning “tilga e’tibor – elga e’tibor” degan hikmatli so‘zi spektaklning va o‘zbek teatr san’atining shioriga aylandi. Aktyor Navoiyning insoniy, ijtimoiy va ijodiy fazilatlarini shoirlilik tabiatи orqali ochib bera oldi. Olim Xo‘jayev bu rolni yigirma besh yil davomida ijro etib keldi. Bunday davomiylik ham kamdan kam aktyorlarga nasib qiladigan ijodiy yutuqdir.

Salbiy obrazlar yaratishda Olim Xo‘jayev o‘ziga xos uslubga ega edi. “Otello” spektaklidagi Yagoning mansabparastligi, “Sepsiz qiz” dagi Paratovning takabburligi, “Yuliy Sezar” tragediyasidagi Sezarning shuhratparastligi reallikka ega salbiy obrazlarning xususiyatlari dir. Aktyor bu personajlarning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib, ularning tubanliklarini yorqin ifodalay oldi. Shuningdek, o‘zbek dramaturglarining shu ruhdagi personajlariga tomoshabinlarda nafrat uyg‘otuvchi qudratga ega ijodkorga aylandi.

Milliy ruhdagi qahramonlar orasida “Imon” spektaklidagi professor Komilov obrazi alohida tafsinga sazovor. Ziyolilar oilasidagi namunali turmush tarzi, ilmda halollik masalasi spektaklning asosiy g‘oyasi edi. Bu g‘oyani Olim Xo‘jayev takrorlanmas darajada, yuqori badiiy saviyada ifodalay oldi. Mutaxassislar ta’kidlagan zukkilik, mutafakkirlik, aktyor yaratgan Komilov obrazida aniq namoyon bo‘ladi.

Olim Xo‘jayevning tinimsiz izlanishlari, yaratuvchanlik salohiyati, o‘ziga xos ijodiy uslubi, xalqchil, turli obrazlarning takrorlanmas badiiy ijrosi munosib baholandi. “Alisher Navoiy” spektakli ijrosi uchun 1949-yili ittifoq darajasidagi Davlat mukofotiga, “Qirol Lir”-dagi Lir obrazi uchun 1967-yili O‘zbekiston Davlat mukofotiga, Salvadore va Kreont obrazlari uchun 1977-yil ikkinchi bor ittifoq darajasidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. San’atkor bu borada ham betakror taqdir egasi ekanligini ko‘rsatdi.

Olim Xo‘jayevning obraz yaratish va nutq uslubi, so‘z ustida ishslash jarayoni professorlar Nazira Aliyeva va Lola Xo‘jayevalar tomonidan teatr san’ati institutining “Aktyorlik mahorati” va “Sahna nutqi” fanlarini o‘qitishda amaliyatga tatbiq qilingan. Ular akademik teatrda yaratilgan adabiy til talaffuzi meyorlarini, o‘zbek tilining amaliyotdagi musiqiyligi va go‘zalligini Olim Xo‘jayev ijrosi timsolida isbotlab, “sahna nutqi” fanining umumiy talabiga aylantirdilar.

Ijodkorning rejissyorlik faoliyati alohida tadqiqot mavzusidir. Teatr san’ati ensiklopediyasida Olim Xo‘jayev haqida 1951-yilda Moskva GITISining rejissyorlik kursini tugatdi, deb yozilgan. Olim Xo‘jayev rejissyor sifatida “May to‘kildi”, “Yurak sirlari”, “Boy ila

xizmatchi”, “Tarix tilga kirdi” kabi to‘rt spektaklni sahnalashtirgan. O‘zbek mualliflarining mashhur asarlarini chet el sahnalarida sahnalashtirish kamdan-kam rejissyorlarga nasib qiladigan omad. Olim Xo‘jayev rejissurasida bunga ham misol bor: u “Boy ila xizmatchi” dramasini Bolgariyaning Xaskovo shahri teatrida sahnalashtirdi. Bahrom Rahmonning “Yurak sirlari” asari 1953-yili sahnalashtirildi. Bu talqin uzoq muddatlar bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi, goh sahnadan olib tashlanadi, goh yana qaytadan qo‘lga olinadi. “Rejissyor sahnalashtiradigan har bir spektakl bahs va munozaralarga sabab bo‘lishi kerak!” – deydi zamonamizning zabardast teatr arbobi Bahodir Yo‘ldoshev. Bizningcha, xalqqa manzur spektakl ijtimoiy-siyosiy taziyqlar tufayli sahnadan olib tashlangach, rejissyorming “yuragida bir shiddat” paydo bo‘lib, bor mahoratini aktyorlik faoliyatida namoyon qilishga qaratgan.

O‘zbek kinorejissyorlari ijodkorning havas qilgulik, o‘ziga xos usulidan ekranda ziyorolar obrazini yaratishda to‘g‘ri va unumli foydalanishgan. Olim Xo‘jayevning kinodagi ziyorolar obrazi ko‘plab tasmalarda muhrlanib qoldi.

Serqirra aktyor, o‘ziga xos rejissyor jamoat arbobi sifatida ham namunali ishlar qildi. 1955–1977-yillarda O‘zbekiston teatr jamiyatining raisi sifatida faoliyat olib borgan O. Xo‘jayev bor tashkilotchilik imkoniyati va mahoratini o‘zbek sahna san’atini rivojlantirishga sarf qildi. U Teatr san’ati instituti talabalari va pedagoglari amaliyotini Moskva va Peterburg shaharlarida o‘tashini tashkil qildi va bu ishni doimiy nazorat qilib bordi. Poytaxt va viloyat teatrлari rejissyorlarini markazdagi mashhur dargohlarda malaka oshirishlarini yo‘lga qo‘ydi. Yosh ijodkorlarning Moskvadagi oliy rejissyorlik kurslarida o‘qishlarini tizimga soldi. Buyuk aktyor 1977-yilning 14-fevralida oltmish yetti yoshida vafot etdi.

Gamlet rolini Machalov ijro etgunga qadar Gamletni qanday tushunish kerak degan talqinlardan biri Gyote talqinida shunday deyilgan edi. “Buyuk vazifa, uni bajaraish bir jinga yuklangan, ammo u bajarishdan ojizdir. Bu muhitda u qimmatbaho shisha idishga solib qoyigan eman dataxtiga o‘xshaydi. Bu idishga faqat nozik gullarni solib qoysa bo‘ladi. Daraxt tomir otib idishni sindiradi...”

Shekspirning “Gamlet” asari talqini xususida so‘z borar ekan, bunda albatta ustoz san’atkor Abror Hidoyatov va uning Gamlet obrazi xususida gapirmaslikning iloji yo‘q. Biz ustozning Gamletini tahlilq qilishdan avval, uning shaxsiyatiga qisqacha bo‘lsada to‘talib o‘tishni joiz bildik.

Abror Hidoyatov 1900-yilda Toshkentda Degrez mahallasida qurvchi oilasida tug‘ilgan. Xidoyatoxodzaning otasi duvarchilik va bezak ustasi bo‘lgan, shahar aholisi orasida mashhur bo‘lgan, chunki u o‘z ishini yaxshi bilar va halol edi. Ammo 6-7 yoz oyolarida topilgan pullar oila uchun etarli emas edi va qishda otasi oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanar edi. O‘g‘il 12 yoshidan boshlab otasiga uylarni ta‘mirlashga yordam beradi. Bu vaqtga kelib, bola rus – ona maktabini tugatadi, madrasada o‘qishni xohlaydi, lekin ularga u erdag'i tartib yoqmaydi, u ke asodifan Abror Kolizey teatriga boradi va Leili va Majnun spektaklini tomosha qiladi. Unga yoqadi va u tez-tez bu teatrga boradi. Menga, ayniqsa, aktyorlarning o‘zlari aytganidek his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini ifoda etish uslubi yoqadi. U teatrlashtirilgan qo‘sishimchalarda qatnashadi va teatrni umrbod sevadi. U Mannon Uyg‘ur truppasiga tushadi. Rejissyor uni sahnada aylanib yurishni, baland ovozda va jimgina gapirishni, kulishni va yig‘lashni va muloqot qilishni o‘rgatish bilan boshlanadi. Bu juda qiyin edi, ikki oy ichida yangi aktyorlar birinchi spektaklni o‘zlashtirdilar. Bunda tashqari, Abror dutor chalib, parkda xافتada ikki marotaba bir xil yoshlarning teatr truppasi bilan kuylaydi: pul ishlappingiz kerak. Ota o‘g‘lining sevimli mashg‘ulotidan xabardor bo‘lib, bu biznesni to‘xtatishni talab qiladi: aktyorlik kasbini odamlar umuman qadrlamaydi, u past, noloyiq, o‘zbekga yaroqsiz deb hisoblanadi va o‘g‘li haqidagi turli xil mish-mishlar mahallaga bordi. Qarshilikka duch kelgan ota, o‘g‘lini uydan haydab chiqaradi, va onasi o‘g‘lini himoya qilish uchun hech narsa demaydi, ayol esa nima deyishi mumkin.

Ushbu og‘ir kunlardan boshlab teatr yigitning uyiga aylandi. Endi u har doim shu erda yashaydi, kun davomida ishlaydi va tunda yalang‘och to‘shakda uxbaydi, teatr kiyimida paxmoqlardan yashiradi Mayda kiyinish xonasida Mannon Uyg‘ur yashaydi. Abror re-

jissyorga hamma narsada yordam beradi, tozalaydi, olib keladi, olib yuradi, yuvadi, tozalaydi, shunda spektakl boshlanishiga qadar sahna va tomoshabinlar toza, kostyumlar tayyor, ichki makon ta'mirlanib, tayyor bo'ladi. Bu qiyin va och edi, lekin juda yoqdi ... Va tez orada ular Orenburgga gastrol bilan poezdda boradilar. Poyezd uzoq vaqt to'xtab turgan yo'lda truppa askarlar va mahalliy odamlarga kontsertlar va konsertlar beradi. Shunda poezd vagonlari haqiqatan ham ular uchun uyg'a aylanadi.

Abror Hidoyatov yaratgan Gamlet mayus, hayolga cho'mgan, ezilgan yuragini alaqanday shubha timdalaydi. Uning juda shitoblik bilan kuchaya boradi. Chunki do'sti Goratsiyo unga Gamletning otasi qironga juda o'xshagan arvohning har kuni kechasi saroy atrofida day-dib yurganini hikoya qiladi.tahlika avjiga minadi. Bu Gamlet –Abror Hidoyatov vujudini butunlay qamrab oladi. Abror Hidoyatov rolga o'zicha hech narsa qo'shmadi, balki Gamletning butun hatti-harakati ma'nosini asar tekistidan topdi. Shuning uchun ham uning Gamleti taqdirga mahkum, hasrat-nadomat chekuvchi shahzoda bo'lib qolmadidi, o'ylamay qat'iy harakatlar ham qilmadi. O'zining butun irodasini kurash usulining eng to'g'ri yo'lini topishga yo'naltirdi. Mana shu to'g'ri yo'lni topish mashaqqatlar, bitmas-tuganmas azob-uqubatlar chekishga majbur etdi. Gamlet-Abror Hidoyatov "kulfatlar jahannami" nimadan iborat ekanini o'z ko'zi bilan ko'rdi. U kurashish, qasos olish lozimligini tushunardi. Shu bilan birga butun bir davr izdan chiqqanini tushunadi va bu davrni iziga tushirishni shaxsiy burji deb biladi. Iziga tushirish kerak lekin, qanday qilib? Agar Gamlet qirolini o'ldirganlardan qasos ola boshlasa, taxtga yo'l ochiladi. Biroq barcha odamlar teng ekanini anglay boshlagan Gamletga taxt ne hojat. Buyuk insonparvar yigit qirol bo'la oladimi? Bu masala gamlet dilida fojeali qarama-qarshiliklarni tug'diradi.

Spektakl boshida Gamlet-Hidoyatov haddan ziyod kamtar, o'zini sezdirmaslikka harakat qiladi.Juda odmi, u shahzoda ham emas.vallahd ham emas, faylasuf ham emas. Sevikli otasining o'limi munosabati bilan musibatda yurgan oddiy o'spirin. Do'sti Goratsiyoning "Qirol chindan ham qirol edi!" jumlasiga Gamlet-Hidoyatov "U

odam edi, haqiqiy odam. Bunday kishini endi uchratmasam kerak” deb javob beradi. Arvohning paydo bo‘lishi Gamletni qo‘rqtidi. U hangu-mang bo‘lib qoladi. Lekin u o‘zini yo‘qtib qoymaydi. Ovozi titraydi, tutuladi, ko‘zlar chaqnaydi. Gamlet tanasini egallab olgan titroqni bosishga harakat qilib, arvohdan bor haqiqatni to‘laligich ayrib berishini talab qiladi. U bor haqiqatni bilgach, qasos olish rejasini tuzadi.

Gamlet – Abror Hidoyatov Goratsiyo bilan bo‘lgan damlardagina inson chiday olmaydigan dardlardan uzoq bo‘ladi. U Goratsiyo bilan chin dildan hasratlashishi mumkin. Gamlet Daniyada kulib turib yaxshi hayot kechirish ham kulib turib rasvolik qilish ham mumkin deb oylaydi. Gamlet obrazi Abror Hidoyatov ijodida yangi bir davrni boshlab berdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K.S. San’atdagi hayotim – T.: Badiiy adabiyot, 1965.
2. Umarov M. Mannon Uyg‘ur estetikasi. – T.: Musiqa, 2007.
3. Товstonогов Г.А. Зеркало сцены. – Ленинград: Искусство, 1980.
4. Rahmonov M. Hamza va o‘zbek teatri. – T.: Badiiy adabiyot, 1959.
5. Shokirov O‘, Abduqunduzov M. Milliy teatrtrimiz namoyandalar. – Toshkent: Islom Universiteti, 2002.

MADANIY-OMMAVIY TADBIRLAR ORQALI YOSHLARDA IJTIMOIY FIKRNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-MADANIY JIHATLARI

Sayfullo Ikramov,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
"Xalq ijodiyoti" fakulteti "Madaniyat va san'at
menejmenti" kafedrasi mudiri, dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniy-ommaviy tadbirlar orqali yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirishning dolzarb masalalari xususida so'z yuritiladi. Madaniy-ommaviy tadbirlarga xos funksiyalar yoshlarning xususiy-differensial belgilariga mos kelishi, ularda ijobjiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, muallif yoshlar orasida uchrovchi salbiy illatlarning oldini olishda madaniy-ommaviy tadbirlarning tutgan o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: yoshlar; ijtimoiy fikr; ijtimoiy muhit; ijtimoiy tarraqqiyot; madaniy-ommaviy tadbirlar; yoshlarning differensial xususiyatlari; madaniy faoliyat.

Аннотация: В данной статье говорится об актуальных проблемах формирования общественного мнения среди молодежи посредством культурно-массовых мероприятий. Подчеркивается, что функции, присущие культурно-общественным мероприятиям, соответствуют специфическим и дифференциальным характеристикам молодежи и служат развитию в ней положительных качеств. Также автор раскрывает роль и значение культурно-массовых мероприятий в профилактике негативных заболеваний среди молодежи.

Ключевые слова: молодежь, общественная мысль, социальная среда, социальное развитие, культурно-общественные мероприятия, дифференциальные характеристики молодежи, культурная деятельность.

Abstract: This article examines the current problems of forming public opinion among young people through cultural events. It is emphasized that the functions inherent in cultural and social activities correspond to the specific and differentiated characteristics of youth and serve to develop positive qualities in them. The author also reveals the role and importance of cultural events in the prevention of negative diseases among young people.

Keywords: youth, public opinion, social environment, social development, cultural and social activities, differential characteristics of youth, cultural activitie

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi auditoriyaning, retsipyentlarning sotsial va differensial jihatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi. D.M.Genkin ta'kidlaganidek, ommaviy tadbirlarning samarali ijtimoiy-pedagogik jarayonga aylanishi uchun badiiy vositalardan keng foydalanish yetarli emas, ssenariy shaxs, mehnat jamoasi, mamlakat real hayotiga, tomoshabinlarning qiziqishlari va differensial jihatlariga qurilishi darkor. Agar tadbirlar real hayot bilan bog'liq bo'lмаган, uzoq va yuzaki materialga qurilsa, hatto ular yirik o'zgarishlar va keng miqyosdagi voqeliklarga bag'ishlangan bo'lsa ham "inson qalbi"ga ta'sir etmaydi.

Agar madaniyat markazlari, istirohat bog'i, ko'chalardagi ommaviy tadbirlar aniq manzil bilan bog'liq bo'lsa, ular shaxsni yashayotgan tumani, shahri, o'tgan ajdodlari, ishlayotgan zavodi bilan bog'lasa, ular boshqacha samara beradi, voqeliklarni qaytadan his etishga undaydi, unda mas'ullik uyg'otadi [1, 111–112-betlar]. Xullas, ssenariy aniq materiallarga, auditoriyaning sotsial va differensial jihatlariga qurilishi kerak. Demak, madaniy-ommaviy tadbirlarning nafaqat auditoriyasi aniq, shuningdek, ushbu auditoriyaga ta'sir etuvchi tashkiliy mexanizmlar, ularning sotsial va differensial jihatlari ham aniq bo'lishi zarur. Xo'sh, ushbu jihatlar nimalardan iborat? Madaniy-ommaviy tadbirlar metodikasida ular qanday hisobga olinadi? Ijtimoiy fikrni shakllantirish qanday psixologik omillarni bilishni taqozo qiladi, chunki sotsial va differensial jihatlar negizida

avvalo tashkiliy-madaniy va psixologik omillar yotadi. Bizni yoshlar-ning alohida ijtimoiy qatlam sifatida mavjudligi emas, balki madaniy-ommaviy tadbirlar yoshlar ijtimoiy fikriga “ommaviy psixologik omil” sifatida ta’sir etishi qiziqtiradi.

Tadbirlarning ommaviy xarakteri yoshlarda ommaviy psixologiyani shakllantirishi tabiiy holdir. Shuning uchun “madaniy-ommaviy-yoshlar” dialektikasi ommaviy psixologik omillar orqali o’rganilganda ma’naviy-sotsial va differensial jihatdan aniqlik kasb etadi. Bu esa yoshlarda ommaviy psixologik evrilishga borib tarqaladi. Mazkur jarayonni tadqiq etgan taniqli psixolog G.Lebon shaxs va ommalashish jarayonini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) qiziqishlari turlicha bo‘lgan shaxslarni bir joyga yig‘adi;
- 2) qiziqishlari bir bo‘lgan shaxslarni omma sifatida bir joyga to‘playdi;
- 3) kam sonli, ya’ni 5–6 kishini ham ommaga aylantirishi mumkin.
- 4) butun bir millat ommaga aylanishi mumkin [2, 19–20-betlar].

Agar ushbu fundamental tashkiliy-madaniy va psixologik xulosadan kelib chiqsak, madaniy-ommaviy tadbirlar tayyor modeldan emas, balki yoshlarga xos bo‘lgan sotsial va differensial jihatlardan kelib qiziqishini anglaymiz. Bu o‘rinda qiziqishlari turlicha bo‘lgan yoshlar ham tadbirlar auditoriyasi bo‘lishi mumkin. Shu paytgacha madaniyatshunoslik va madaniy-ommaviy tadbirlar metodikasida auditoriya, retsiipyentlar qiziqishlari asosiy omil sifatida qaraladi, degan fikrlardan kelib chiqildi. G.Lebon talqinidan keyin tadbirlar turlicha qiziqishlar ham asosiy omil bo‘lishi, turli qiziqishlariga ega yoshlar ham tadbirlar auditoriyasi bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Qiziqishlari bir bo‘lgan yoshlarni bir joyga to‘plash qiyin emas, ammo tadbirlarning potensial auditoriyasi turli qiziqishlarga ega yoshladir. Madaniy-tashkiliy va psixologik omil 5-6 kishini ham ommaga aylantirishi mumkin. Demak, madaniy-ommaviy tadbirlar sanoqli kishilarni ham ommaga yoki unga xos xislatlarga ega subyektlarga aylantirishi mumkin.

G.Lebon madaniy-ommaviy tadbirlar haqida emas, balki shaxsning ommaga aylanish jarayoni bilan bog‘liq psixologik jarayonlar

haqida mulohaza yuritadi. Aslida madaniy-ommaviy tadbirlar va ularning inson ongiga, ijtimoiy fikriga ta'siri ushbu madaniy-tashkiliy va psixologik jarayonlarga borib tarqaladi. Masalan, madaniy-ommaviy tadbirlar barcha potensial auditoriyani, ushbu tadbirlarda bevosita qatnashmagan retsipyentni ommaga, "ommaviy psixologiya" subyektiga aylantirishi shart emas, tadbirlar ommaviylashishini ruhan tayyor shaxslarni bir-birligiga ruhan yaqin qilib, ularda umumiy ruhiy omilni yoki ijtimoiy fikrni shakllantirishi mumkin. Potensial auditoriyani ommaviylashtirish, ruhan va fikran yaqin qilish o'ta muhim psixologik omildir. Shaxsning ommaviy tadbirlarda bevosita ishtirot etishi ijobiy yutuq, albatta, biroq potensial auditoriya ushbu shaxslardan kengdir. Yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirishining madaniy-tashkiliy va psixologik jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Madaniy-ommaviy tadbirlar ijtimoiy muhit bilan yoshlar qiziqishlarini uyg'unlashtirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Mazkur talab tadbirlarni sotsial muhit buyurtmasi bilan bog'laydi, bu buyurtma markazida yoshlar qiziqishi, ulardagi ijtimoiy fikrning dinamik xususiyati turadi. Ijtimoiy muhit o'zidan o'zi madaniy-ommaviy tadbirlarga, ular tematikasi, mazmuni va vositalariga ta'sir etavermaydi, muhit mudom aniq qiziqishlar tarzida keladi. Agar jamiyatda yoshlar qatlami yetakchi bo'lsa, O'zbekistonda 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lganlar aholining 60% dan ziyodini tashkil etadi, shubhasiz, yoshlar qiziqishi yetakchi o'rinda turadi. Shunday ekan, yoshlar qiziqishini bilmay sotsial muhit va sotsial jihatlarni anglab bo'lmaydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, madaniy faoliyat va uni ratsional tashkil etish ijtimoiy muhitni o'zgartirish kuchiga ega, aks holda madaniyat fenomenidagi ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma'naviy va moddiy boyliklar yaratish funksiyasini qayd etishga hojat qolmaydi [3, 32–37-betlar]. Madaniy-ommaviy tadbirlar sotsial muhit va yoshlar qiziqishini uyg'unlashtirishga intilganida ijtimoiy fikrni ana shu vazifaga qaratadi.

Bu taqdirda ijtimoiy fikr:

- ijtimoiy taraqqiyot talablarini ifoda etib keladi;
- destruktiv elementlardan holi bo'lishga intiladi;

- o‘ziga konstruktiv, ijobjiy model yaratadi;
- ma’naviy-axloqiy imperativga aylanadi;
- yoshlarni umumiy g‘oyaviy qarashlar atrofida birlashtiradi;
- umummilliy va umumetnik xususiyatga ega psixologik ustanovkani shakllantiradi.

Ijtimoiy taraqqiyot talablarini ifoda etmagan fikr ushbu talablarni yo inkor qiladi yoki g‘ayrisotsial yondashishlarga ergashadi. Madaniy-ommaviy tadbirdilar metodikasi avvalo sotsial taraqqiyot talablarini ifoda etib keladi, bu talablar strategik ahamiyatga ega. Ular mazmunan o‘zgarmas, ammo shaklan o‘zgarib, yangilanib turishga moyil. Masalan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan gul sayli yoki qir-adirlarga chiqish totalitar tuzumdan oldin ham, totalitar tuzum davrida ham an’ana edi. U mazmunan o‘zgarmadi, ammo yangi shakllar va usullar bilan boyidi. Bahor boshlarida Kumushkon (Parkent tumani) qir-adirlariga chiqish ommaviy xususiyat kasb etgan, bu esa o‘sha hududda yangi-yangi madaniy xizmat turlari (mehmonxona xizmati, uyushgan transport xizmati, tibbiy xizmat, tug‘ilgan kunlarni uyushtirish kabilalar)ni yuzaga keltirdi. Varraklar musobaqasi uchun maxsus maydonlar ajratiladigan bo‘ldi. Oilaviy dam olishni uyushtirish shaharliklarning sevimli tadbiriga aylangan.

Ijtimoiy fikrdagi sotsial jihat shundaki, u shaxsni destruktiv ta’sir dan himoya qiladi. Undagi umummilliy va umumetnik jihat shaxs xatti-harakatlari, xulq-atvori va munosabatlarini buzg‘unchi qarashlar ta’siriga tushib qolishdan asraydi. Ijtimoiy fikr shunchaki, subyektiv hodisa emas, u shaxs xulq-atvori va munosabatlarini regulyatsiya qiladi. Goho buni shaxsning o‘zi sezmasligi, tan olmasligi mumkin, biroq ijtimoiy fikrdagi regulyativ kuch shaxs xatti-harakatlarini o‘y, fikr, tasavvur, emotsional munosabatlar orqali yo‘lga qo‘yadi. Madaniy-ommaviy tadbirdlardagi potensial auditoriyaga ta’sir etuvchi imkoniyat shu tarzda regulyativ kuchga aylanadi. Ijtimoiy fikr o‘ziga zarur konstruktiv, ijobjiy model yaratadi. Bir tomondan, u ushbu modelini sotsial muhitdan, jamiyatning strategik maqsadlaridan oлади, ikkinchi tomondan esa, o‘ziga o‘zi (ijodiy kuch sifatida) model yaratadi. Shuni esda tutish zarur-ki, ma’lum bir model bo‘lishga in-

tilmaydigan ijtimoiy fikr yo‘q, barcha ijtimoiy fikr shaxslar xatti-harakatlarini regulyatsiya qilishni nazarda tutadi. Shunday ekan, madaniy-ommaviy tadbirlar yoshlar ijtimoiy fikrini shakllantira turib, ular xatti-harakatlariga ma’lum bir regulyativ model sifatida ta’sir etadi. Bunda hech qanday ijtimoiy ongni manipulyasiya qilish, fikrni siyqalashtirish yo‘q, taniqli psixolog A.N. Leontev aytganidek, “Ijobiy regulyativ ta’sir” va “umumiyl emotsiyal ko’tarinkinlik” mavjud [4, 326–328-betlar]. Aynan ushbu sotsial jihat ijtimoiy fikrni va uni shakllantirishga qaratilgan har qanday tarbiyaviy, ideologik va madaniy tadbirni mazmunli qiladi. Ijtimoiy fikrdagi yana bir sotsial jihat shundaki, u, madaniy-ommaviy tadbirlar kompleksi orqali, albatta, kishilar amal qiladigan va qadrlaydigan ma’naviy-axloqiy imperativlar vazifasini bajaradi. “Axloqiy imperativ” atamasini ilm-fanga, falsafaga I.Kant olib kirgan [5, 246–267-betlar]. Faylasuf talqiniga ko‘ra, jamiyat va insonlar hayoti, xatti-harakatlari ma’lum bir imperativlar, ya’ni tartiblar, qoidalar va normalarga muvofiq ro‘y beradi. Ijtimoiy fikr ana shunday imperativ bo‘lish kuchiga egadir. Mana, madaniy-ommaviy tadbirlarning ijtimoiy-axloqiy kuchi va ahamiyati!

Ijtimoiy fikr umumilliy g‘oya bo‘lishga moyil. Aslida milliy g‘oya ijtimoiy fikr tarzida keladi, ma’lum bir ideologik konsepsiyalarga ega shaxslarning g‘oyaviy qarashlaridan iborat bo‘ladi. Keyinchalik u milliy ahamiyat kasb etadi. Ekstravertiv tarqalgan qarash milliy g‘oyaga aylanishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy fikrning milliy g‘oyaga aylanish imkoniyatlari keng, har bir ijtimoiy fikr milliy g‘oyaning ma’lum bir qirrasi sifatida kelishi mumkin. Madaniy-ommaviy tadbirlar ijtimoiy fikrni shakllantirayotganida ushbu sotsial-psixologik evrilishni nazarda tutishi kerak.

Yoshlarni umumilliy g‘oya atrofida birlashtirish madaniy-ommaviy tadbirlar ustiga yuklatilgan vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun ular tayyor umummilliy g‘oyaga tayanadi, agar bunday g‘oya shakllanmagan bo‘lsa, ular umummilliy g‘oyaning shakllanishida qatnashadi. Ya’ni, madaniy-ommaviy tadbirlar umummilliy g‘oyaning shakllanishi va sotsial voqelikka aylanishiga qatnashishi mumkin. Agar umummilliy g‘oyaning ideologlar tomonidan yaratilishidan ke-

lib chiqsak, madaniyat menejerlari uni ommalashtirish, sotsial voqe-likka aylantirish vazifasini bajaradi.

Bugun milliy g‘oya haqida turli, goh ziddiyatli fikrlar bildirilmoqda. G‘oyasizlikni targ‘ib etayotganlar ham yo‘q emas. Aytishadi-ki, Amerikada milliy g‘oya yo‘q, ammo kishilar mamlakat bayrog‘ini, madhini ulug‘lashadi, pragmatizm va ishbilarmonlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashadi. Bizda aksincha “milliy g‘oya” deb jar solishadi, yangi-yangi g‘oyalarni ilgari surishadi, birortasi e’tiqodga aylanmadı. Hokimiyat o‘zgartishi bilan milliy g‘oya ham unutiladi, davalat rahbari tilga olmaguncha uning borligi eslanmaydi. Bunday sotsial muhitda umummilli y g‘oyani shakllantirish mushkul. Ammo madaniy-ommaviy tadbirlarda o‘zbek tarixiy-madaniy paradigmasi va etnoma’naviy tajribalari mujassam ekanidan kelib chiqsak, ular mohiyatan milliy g‘oya va qadriyatlar targ‘ibotchisi ekanini anglaymiz.

Ijtimoiy fikr umummilli y va umumetnik xususiyatga ega ustanovkani shakllantiradi. Madaniy-ommaviy tadbirlar targ‘ib etadigan qarash va fikrlar etnik xususiyatga ega bo‘lmasligi mumkin emas. Chunki tadbirlar xalq an‘analari va tomoshalari targ‘ib etib kelgan qarash, fikr, ustanovkadan ozuqa oladi. Hattoki nomlanishi international bo‘lgan 8-mart yoki Yangi yil bayramlari ham etnik belgilarni o‘zida mujassam etgani tufayli xalqona bayramlarga aylangan.

Yuqoridagi tashkiliy va psixologik jihatlar ijtimoiy fikrni va uni shakllantirishga qaratilgan madaniy-ommaviy tadbirlarni rang-ba-rang, ijtimoiy hayot va sensitiv jarayonlar bilan uzviy kelishini tasiqlaydi. Shu bilan birga ijtimoiy ong va fikrning shakllanishi auditoriyaning, retsiipyentlarning differensial jihatlari bilan bog‘liqligini rad etmaydi, balki tadbirlarni yanada adresli, mo‘ljalli qiladi.

Yoshlarning differensial jihatlariga quyidagilar kiradi:

– yoshlar psixofiziologik va filogenetik rivojlanishiga ko‘ra alohidada ijtimoiy qatlam;

– yoshlar maksimalizmga moyil;

– yoshlarda hayotiy tajriba yetarli shakllanmagan, shuning uchun ular tez qaror qabul qilishga, o‘z kuchiga ortiqcha ishonishga, boshqa fikrlar bilan hisoblashib o‘tirmaslikka moyil;

- diaxron aloqalar va vorisiylik tajribalariga muhtoj;
- narsisizm, o‘ziga mahliyolik ustuvor.

Yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirish ularning psixofiziologik va filogenetik rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishni taqozo qiladi. Masalan, 16-20 yashar yigit-qizga tavsiya etilgan sport mashqlari, intellektual o‘yinlar va kim o‘zdi tortishuv-o‘yinlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga tavsiya qilish mumkin emas. Aks holda bunday og‘ir mashqlar yosh organizmning psixofiziologik va filogenetik o‘sishiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Madaniy-ommaviy tadbirlar faqat ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan emas, ular yoshlarning psixofiziologik va filogenetik rivojlanishiga ta’sir etuvchi tadbirlar (sport o‘yinlari, sog‘lomlashtirish mashqlari, qir-adirlar va suv havzalariga chiqish, alpinizm, fitnes klublarga qatnash, shaxmat-shashka va nard o‘yinlari, “oq terakmi, ko‘k terak” bolalar o‘yinlari kabilar) dan ham iborattdir. Bu o‘rinda madaniy-ommaviy tadbirlarning kompleks xususiyati ko‘zga tashlanadi, ular yoshlarning har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan takomiliga yordam beruvchi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida keladi.

Yoshlarda maksimalizm, ya’ni o‘z kuchini va imkoniyatini to‘lagicha sarflashga, shu tariqa o‘z “men”ini namoyon etishga intilish kuchli. Bu jarayon silliq kechmaydi, taniqli psixolog A.A.Bodalevning ta’kidlashicha, yoshlarning yon-atrofni, boshqalarni anglashi sensitiv-intravertiv kechinmalar va tashqi-ekstravertiv ziddiyatlar orqali ro‘y beradi [6, 34–56betlar].

Bu ziddiyatlar obyektiv borliqdagi holat, ammo ushbu holatni yoshlar dramatizmga aylantirish, real voqelikni o‘z ixtiyoriga bo‘ysundirishga intilish kabilar bilan izohlashadi. Maksimalizm mutlaq salbiy voqelik emas, o‘ta keskin vaziyatlar, raqobat va kurash avj olganda maksimalizm yordamga keladi, shaxs o‘z “men”ini faol namoyon qiladi. “Men” maksimalizm himoya qiladigan qadriyat, hech bir yosh o‘z “men”ini kamsitishga yoki toptalishiga yo‘l qo‘ymaydi. V.Alimasov yozganidek, “men” “men”lar bilan raqobatga, kim o‘zdiga va o‘zini maksimal darajada namoyon etib, biror yangilik yaratishga kirishadi, “men”lar o‘rtasidagi ziddiyat obyektiv hayotga

xos ziddiyatlardir. Pozitiv “men” ana shu ziddiyatlardan tajriba orttiradi, o‘zini maksimal namoyon etadi [7, 154–158-betlar]. Madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri yoshlarga xos maksimalizmdan foydalana bilsa, ularning faolligi, tashabbusi va fidoiligini ratsional tashkil eta olsa, yoshlarni tadbirlariga befarq qaramaydi. Bu juda muhim bosqich, ana shu bosqichni kerakli tomonga yo‘naltirish katta tashkilotchilik va pedagogik mahoratni taqozo etadi.

Madaniyat menejeri ustiga universal bo‘lish yuklatilgan, biroq u bu universallikni kerakli saviyada mutaxassislarni jalb etish, ular bilan ijodiy hamkorlik qilish, ularning professional yordami va tashabbusiga tayanish orqali amalga oshiradi. Madaniyat menejeri hududdagi ijodiy kuchlarga tayanuvchi, ular bilan hamkorlik qiluvchi, ularning ijodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan shart-sharoitlar yaratib beruvchi, qisqa qilib aytganda, mahalliy ziyoilalar va ijodkorlarni ijtimoiy-madaniy jarayonlarga jalb etish texnologiyasini egallagan mutaxassisidir. Madaniyat menejeri barcha madaniy xizmat turlarini o‘zi ko‘rsatishi shart emas, buni undan talab etish xatodir, ammo u hududdagi ijodkor kuchlarni hamkorlik qilishga, birga izlanishga, ijodiy muhitni yaratishga mas’uldir. Yoshlarda hayotiy tajriba yetarli darajada bo‘lmasligi barchaga ayon. Yoshlik – ulg‘ayish bosqichi. Kamolot – izlash bosqichi. Bu bosqichning ichki ziddiyatlarini bilish madaniyat menejeridan inson psixologiyasini bilishni talab etadi.

Shuning uchun yoshlarning differensial jihatlari ularning ulg‘ayish, komillik izlash bilan bog‘liq intilishlarida aks etadi. Hayotiy tajribaning yetarli emasligi, yoshlarning turli oqimlar ta’siriga tushib qolishiga sabab bo‘ladi. Madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri birinchidan, o‘zi ma’lum bir hayotiy tajribaga ega bo‘lishi yoki tadbirini uyushtirayotganida shunday shaxs (ziyoli, ijodkor, hamkor) maslahatlariga, tajribalariga tayanishi; ikkinchidan, etnomadaniy tajribalaridan kelib chiqishi, ulardagи zamонавиј таъбларга мувофиқ келадиган ташкилий усулларига тayanishi lozim.

Madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri yoshlarda hayotiy tajribani shakllantiradi deyish, noreal baho, ammo u tadbirlari, ijodiy hamkorligi, ijodiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlashi orqali ularda faol hayotiy

pozitsiyani shakllantirishi mumkin. Hayotiy tajriba shaxsiy empirik izlanishlar, goho real vogelikni inkor etuvchi sensitiv kechinmalar, ziddiyatlarga javob izlash jarayonida yuzaga keladigan tasavvurlar, fikrlar mahsuli sifatida shakllanadi. Ularni madaniy-ommaviy tadbirlar mahsuliga yo'yish bir yoqlamalik bo'lardi. Biroq madaniy-ommaviy tadbirlardagi etnotajribalarning pozitiv tajribasini inkor qilib bo'lmaydi.

Diaxron aloqalar va vorisiylik tajribalariga muhtojlik har bir yosh avlodga xos differensial jihatdir. Yoshlar buni sezmasligi mumkin, chunki ota-onas, bobo-buvil bilan yonma-yon yashash ushbu tuyg'u-larni dolzarblashtiravermaydi. Madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri etnomadaniy tajribalar va xalq bayramlari, an'analarini targ'ib etuvchi tadbirlari orqali diaxron aloqalarni tiklaydi, vorisiylikni milliy qadriyatlarga aylantiradi. Diaxron aloqalar oila institutini mustahkamlash, vorisiylik an'analarini saqlash uchun muhimdir. Oilashunos R.T. Zoirovning yozishicha, diaxron aloqalar tufayli avlodlar o'rtasida uzviylik, tarixiy-madaniy tajribalarni asrash, oilaviy inoqlik mavjud, o'zbek xalqi ularni maxsus madaniy tadbirlari orqali asrashga intiladi. Diaxron aloqalarning uzilishi millat, xalq hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [8, 67–77-betlar]. Madaniy-ommaviy tadbirlar diaxron aloqalarni mustahkamlovchi vositalari bilan yoshlarda o'zbekona oilaviy munosabatlarga ijobiy fikr uyg'otadi.

Narsisizm o'zini sevishni, o'z husniga mahliyolikni anglatadi. Go'zallik salonlari yoshlarni o'zini go'zal qilish va sevishga, qadrashga o'rgatmoqda. Go'zallik salonlari madaniy xizmatlar ko'rsatish maskanlari hisoblanadi. Ular ma'lum ma'noda yoshlarda o'zi, inson va yonidagilar haqida ijtimoiy-estetik fikr uyg'otadi. Yuqoridaqilaridan ma'lum bo'ladiki, madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri yoshlarning ijtimoiy fikrini shakllantiruvchi sotsial va differensial jihatlarni hisobga olganida, ko'zlangan maqsadga erishadi, tadbirlarini samarali qiladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar o'zining xususiy-differensial funkisiyalariga ega. Ular sotsiologik funksiya, ideologik funksiya, ma'riifiy funksiya, pedagogik funksiya, kreativ funksiya, relaksatsiya va

gedonistik funksiya, xronometrik funksiyalaridir. Ushbu funksiyalar yoshlarning xususiy-differensial belgilariga, ayniqsa, ularning ma’naviy ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq keladi. Tadbirlarning funksional rang-barangligi va sinkretikligi bois ular yoshlarning ma’naviy ehtijlariga javob beradi, ularni qiziqtiradi va o‘ziga jalb etadi. Empirik kuzatuvlardan ma’lumki, madaniy-ommaviy tadbirlar auditoriya-sini asosan yoshlar tashkil etadi. Bu esa tadbirlarning yoshlar ijtimoiy fikriga ta’sir etish potensialiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy fikr ong fenomeniga taalluqli hodisadir. Ongdag'i o‘zgarish o‘z navbatida ijtimoiy fikrda aks etadi. Shu bilan birga ijtimoiy fikr:

- 1) sotsial taraqqiyot talablarini ifoda etib keladi;
- 2) destruktiv elementlardan holi bo‘lishga intiladi;
- 3) o‘ziga konstiukтив, ijobiy model yaratadi;
- 4) ma’naviy-axloqiy imperativga aylanadi;
- 5) yoshlarni umumiyl g‘oyaviy qarashlar atrofida birlashtiradi;
- 6) umummilliyl va umumetnik xususiyatga ega psixologik ustanovkani shakllantiradi.

Ijtimoiy fikrning sotsial taraqqiyot talablariga mofiq kelgani uning madaniy-tarbiyaviy voqelik ifodasi ekanidandir. Bu voqelik, asosi va maqsadiga ko‘ra, yoshlarni sotsial taraqqiyot talablari bilan hisoblashib yashashga undaydi. Biroq yoshlardagi maksimalizm, egoizm va narsisizm destruktiv voqelikka aylanmasligi uchun madaniy-ommaviy tadbirlardan pozitivlik talab etiladi. Tadbirlar o‘zidan o‘zi, mexanistik tarzda, pozitiv bo‘lib qolmaydi, avvalo u madaniyat menejeri, tadbir tashkilotchisi ongida ijobiy voqelik sifatida shakllanishi kerak.

Yoshlarning fikri ham, xulq-atvori ham tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Madaniy-ommaviy tadbirlarning hozirjavob va betakrorligi ularning ushbu xislatlariga muvofiqdir. Biroq bu tadbirlarning alohida madaniy-tarbiyaviy vosita sifatida uyushtirilishiga halaqit bermaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, madaniy-ommaviy tadbirlar milliy g‘oya, umummilliyl va umumg‘oyaviy psixologik ustanovkani shakllantiradi. Bu psixologik ustanovka shaxsni sotsium hayotida

faol yashashga undaydi. Shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi ro‘y beradi. Maqola obyekti yoshlar va ularning ijtimoiy fikri bo‘lgani uchun yoshlarga xos differensial belgilar ochib berilgan. Madaniy-ommaviy tadbirlarni uyushtirishda ushbu belgilar hisobga olinishi va empirik tajribalar ommaviy tadbirlar rejissurasi va estetikasi nuqtai nazaridan umumlashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Генкин Д. М. Массовые праздники. – Москва: Просвещение, 1975.
2. Lebon G. Omma psixologiyasi. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021.
3. Коган Л.Н. Культурная деятельность. Опыт системного анализа. – Новосибирск: Наука, 1981.
4. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Санкт-Петербург: Питер, 2004.
5. Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Часть 1. – Москва: Мисль, 1974.
6. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. – Москва: Просвещение, 1974. – С.34-56.
7. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash san’ati. – Toshkent: Noshir, 2007.
8. Zoirov R.T. Zamoniaviy oilalarda diaxron aloqalar (ijtimoiy falfasifiy yondashuv). – Qarshi: Nafas, 2019.

ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRIDA JADID DRAMATURGIYASI VA MA'RIFATPARVARLARI OBRAZI TALQINI

Shohrux Abdurasulov,

O'zR FA San'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada istiqlol yillari o'zbek teatrida jadid ma'rifatparvarlari obrazini yaratish yo'lidagi izlanishlar tahlil qilinadi. Jadid siymolari aks etgan spektakllarning badiiy-g'oyaviy xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ochib beriladi. Jadidlar g'oyasi va qarashlarini keng targ'ib qilish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati muhim ekan ni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik, o'zbek teatri, dramaturgiya, tarixiy shaxs, sahnaviy talqin, rejissyor.

Аннотация. В статье анализируются поиски воссоздания образов джадидов в узбекском театре в годы независимости. Раскрываются художественно-идеологические характеристики, духовно-просветительский смысл спектаклей о судьбах узбекских просветителей-джадидов. Подчеркивается роль и значение театрального искусства в широкой популяризации идей и взглядов джадидов, их важность для современности, особенно для молодого поколения.

Ключевые слова: джадид, джадидское движение, просветительство, узбекский театр, драматургия, историческая личность, сценическая интерпретация, режиссёр.

Annotation. The article analyzes the search for recreating the images of the Jadids in the Uzbek theater during the years of independence. The artistic and ideological characteristics, spiritual and educational meaning of performances about the fate of the Uzbek enlightenment Jadids are revealed. The role and importance of theatrical art in the wide popularization of the ideas and views of the

Jadids, their importance for modern times, especially for the younger generation, is emphasized.

Key words: Jadid, Jadid movement, enlightenment, Uzbek theater, drama, historical figure, stage interpretation, director.

Istiqlol yillari mamlakatimiz teatrlarida jadid ma'rifatparvarlari siyosini gavdalantirish, ularning hurriyat yo'lidagi orzu-intilishlari, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini aks ettirish bo'yicha ijodiy izlanishlar olib borildi. Xususan, milliy dramaturgiya va nasrimizda jadid ziyo-lilari obrazi yaratildi va ular sahnalashtirildi, garchi bunday tajriba-lar ko'p bo'lmasa-da, ulug' ajdodlarimizning ibratli hayoti, buyuk jasoratini keng targ'ib qilishda yaxshi samara berdi. Zero, o'tgan asr tongida millatni isloh qilish taraddudiga tushgan jadidlar ham teatr san'atiga alohida e'tibor qaratishgan, uni "ibratxona" (Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri) deya ulug'lashgan edi.

O'zbek dramaturgiyasida jadid namoyandalari obrazi muvaffaqiyatlari yaratilgan dramalardan biri – O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" asari bo'lib, unda millatimizning hassos shoiri Cho'lpon hayotining ziddiyatli, murakkab yillari shoirona ruh va dramatizm uyg'unligida tasvirlanadi. Pyesa O'zbek Milliy akademik drama teatrinda rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, bir necha yillardan buyon teatr sahnasidan tushmay keladi. San'atshunoslik fanlari doktori, professor S.Qodirova yozganidek, "*Aniq tarixiy shaxslar hayoti voqealarga juda boy bo'ladi. Muallif mana shu voqealar silsilasidan eng asosiyalarini, qahramon qiyofasini to'laqonli yoritishga xizmat qila oladiganini tanlay bilishi lozim. Zero, mazkur voqealar orqali insonlar xarakteri ochib beriladi. Cho'lpon – to'g'riso'z, doimo haqiqatning qaror topishiga ishongan, o'z fikr-o'ylariga sobit inson. Biroq zamona zayli bilan ana shunday insonni millatchilikda ayblab, xalq dushmaniga chiqarganlar. Spektakl o'sha qora kunlar haqida hikoya qiladi*" [1].

Asarda Cho'lpon taqdiri orqali XX asrning 30-yillarida millat ziyo-lilari boshiga tushgan mash'um hodisalar – qatag'on siyosati, uning ijtimoiy-mafkuraviy ta'siri, o'zbek ma'rifatparvarlarining foji-

aviy qismati dramatik sahnalarda olib beriladi. Cho‘lpon chinakam erkparvar shaxs, iste’dodli shoir, jasoratli inson sifatida namoyon bo‘ladi, uning davr qiyofasini fosh etuvchi o‘tli she’riyati zamona korchalonlarini hushyor torttiradi:

*Bunday “Epoxa”ni chekib tugating,
Kullari ko‘klarga sovrilib ketsin!
Bu tutqini ezilgan o‘zbek bolasi
Olovsiz, tutinsiz kunlarga yetsin!*

“Epoxa” sigaretasi qutisiga yozilgan bu alamli misralar shoiring istibdodga bo‘lgan kuchli noroziligi, isyonи tarzida yangraydi. Muallif Cho‘lponning botiniy ruhiyati, dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasini ifodalashda uning she’rlaridan unumli foydalanadi. Bu esa pyesaning badiiyati, ta’sir ko‘lamini oshiradi, shoir iztiroblarini yanada chuqur, teran ochilishini ta’minkaydi. Drama kuchli psixologik monologlar, ziddiyatli dialoglarga qurilgan bo‘lib, bu jihat asardagi dardning ijtimoiyligi, syujetning tomoshabop va ta’sirchan chiqishiga xizmat qiladi. Spektaklda Cho‘lpon obrazini taniqli aktyor Muhammadali Abduqunduzov ijro etadi. Uning tashqi ko‘rinishi, dramatik va psixologik holati, ma’noli sukutlari shoir siyratiga mos tushgan. “*Istalgan holatda, hatto eng qattol va shafqatsiz vaziyatlarda ham insoniy qadr-qimmatni saqlash – M. Abduqunduzov talqinining leyt-motivi sanaladi*” [2, 185-bet].

Spektaklning dastlabki sahnasida qo‘lida sham tutgan Cho‘lpon – M. Abduqunduzov paydo bo‘ladi va o‘zining mashhur “Adabiyot yashasa, millat yashar” so‘zlarini bayon etadi. So‘ng Cho‘lponning mo‘jazgina hovlisi ko‘rsatiladi. Bu yerda shoir va uning do‘stlari yig‘ilib, millatning kelajagi, taraqqiyoti haqida suhbat qurishadi. Suhbat asnosida Cho‘lponning shogirdi, yosh adib Oybek (F.Ma’sudov) hovliqib kirib keladi va ustozni haqida matbuotda maqola e’lon qilinganini ma’lum qiladi. Maqolada Cho‘lpon millatchi sifatida tanqid qilingan, ijodi xalq uchun zararli deb topilgan edi. Yig‘ilganlar sarosimaga tushib, birin-ketin hovlini tark etadi, shu sahnada Cho‘lponga aslida kim do‘stu kim dushman ekani ayonlashadi. Davr fojiasini

ochib berishda sahnalashtiruvchi rassom Baxtiyor To‘rayev tomonidan ishlangan dekoratsiyalar alohida o‘rin tutadi. Rassomning ramziy topilmalari asar ruhiyatiga mutanosib bo‘lib, tomoshabinni mushohadaga chorlaydi. “*Xususan, sahnaning chap tomonida turgan bargsiz, qup-quruq, umidsiz, kelajagi mavhum daraxtning holati spektakl yakuniga qadar o‘zgarmaydi. Spektaklda to‘q, sovuq ranglar ustuvorlik qiladi*” [3, 84-bet].

Pyesada Cho‘lpondan tashqari Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Botu singari tarixiy shaxslar ham ishtirok etadi. Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev Cho‘lponni qo‘llab-quvvatlovchi, uning yaqin do‘siti va hammaslagi sifatida ko‘rinsa, shoir Botu iste’dodni ko‘rolmaydigan, g‘arazgo‘y raqib sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, pyesada Sezgir, Naganli odam, Zamonqul, Ko‘zoynakli, Galdir kabi personajlar ham qatnashadi va ular Cho‘lpon taqdirida turli darajada rol o‘ynaydi.

Rejissyor V.Umarov tomosha yakuni uchun juda ta’sirli yechim topadi. Cho‘lpon hibsga olinib, sahnani tark etgach, markazga o‘rnatalgan monitorda istiqlol davri manzaralari aks etadi. Bu yorug‘ kunlarga yetib kelishimizda millatimizning Cho‘lpon singari ulug‘ shaxslari shahid bo‘lgani ta‘kidlanadi – jadid ma’rifatparvarlarining taqdiri shunday edi.

Jadid adabiyotining yana bir ulug‘ namoyandasasi, milliy roman-chiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriy siymosini ham teatr sahnasida aks ettirish bo‘yicha muayyan izlanishlarning mavjudligi e’tiborga molik. Jumladan, 1989-yil Hamza nomidagi teatr (hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri) da sahna yuzini ko‘rgan “Abdulla Qodiriyning o‘tgan kunlari” nomli spektaklda ilk bor Qodiriy obrazi namoyon bo‘lgan edi. Muallif Izzat Sulton Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining dramabop, keskin ziddiyatlarga to‘la sahifalari, yozuvchilik qismati, insoniy tiynati va fojiaviy taqdirini badiiy yo‘sinda idrok etadi. Shuningdek, mumtoz romani – “O‘tkan kunlar”ni yozish ustidagi izlanishlar, ikkilanishlar, ijod mashaqqatlari va ilhombaxsh onlar shu voqealarga monand tarzda ko‘rsatiladi. “O‘tkan kunlar” romani dunyoga kelgach, endi muallif Qodiriydan bir oz chekinib, uning ada-

biy qahramoni – Otabek turmushini tasvirlashga o‘tadi. Bu xususida san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Toshpo‘lat Tursunov shunday yozadi: “*Shu tariqa “teatrda teatr” paydo bo‘ladi. Otabek rolini Abdulla Qodiriyning o‘zi bajara boshlaydi. Vaqtiga vaqtiga bilan romanining bayoni bo‘linib, asar mavzui va mazmuni xususidagi muhokama, bahsga ko‘chiladi*” [4]. Ta’kidlash lozimki, Izzat Sultonning mazkur asari ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

2019-yili mamlakatimizda Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan respublika teatrларида adib asarlari va shaxsiga bag‘ishlangan spektakllar sahnalashtirildi. Xususan, O‘zbekiston davlat drama teatrida yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz” qissasi asosida taniqli rejissyor, O‘zbekiston san‘at arbobi Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirilgan “Jinlar bazmi” (“Yolg‘iz”) spektakli madaniy jamoatchilikda qiziqish uyg‘otdi. Qissada Abdulla Qodiriyning dramatizmga boy, murakkab taqdiri davr manzarasi bilan uzyiylikda, mahorat bilan tasvirlanadi. Voqealar rivojini belgilovchi omil sifatida adibning 1926-yil fevral oyida “Mushtum” jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” nomli maqolasi asos qilingan bo‘lib, ayni shu felyeton sabab Qodiriy boshida qora ko‘lankalar paydo bo‘ladi. Maqolada jamiyatning tanazzulga ketayotgan qator sohalari, shuningdek, o‘z amaliga bepisand qarayotgan rahbarlar faoliyati ayovsiz tanqid qilinadi, bundan esa mustabid korchalonlari yashin urgandek sergak tortadi. Rejissyor va inssenirovka muallifi O.Salimov qissaning o‘q tomirini aniqlab, voqealarni shuning atrofiga quradi.

Sahnalashtiruvchi rassom S.Chufarnov yozuvchi g‘oyasi va rejissyor maqsadini to‘g‘ri anglagan holda Qodiriy yashagan qattol tuzumning ayanchli qiyofasini aks ettiruvchi mahobatli dekoratsiyalar va rang-barang polotnolarga alohida e’tibor qaratadi. Sahnada ramziy minbarlar, temir panjaralar, Ittifoq timsoli bo‘lmish qizil bayroqlar, gohida Lenin, gohida Stalin portretlari namoyon bo‘ladi, musiqa ham shunga monand – baraban, truba, burma karnay, trambon kabi damli cholg‘u asboblarining vahimali ovozi eshitiladi, bunga esh bo‘lib harbiy marsh sadolari uzra qatag‘on qilichini yalang‘ochlagan zabit-

larning qadam tovushlari qulqoqqa chalinadi. Xullas, Qizil maydonda bo‘luvchi paradlarni eslatadigan muhit, bunda go‘yo Qodiriy tasvir-lagan “Jinlar bazmi” real holatga – sovet davriga ko‘chadi, aniqrog‘i, millatning chinakam ziyolilarini qatl etayotgan, ma’rifat ustidan tan-tana qilayotgan kimsalar ayni zamонning jinlariga o‘xshab ketadi va ularning bazmi avjiga chiqadi.

Abdulla Qodiriy obrazini gavdalantirgan yosh aktyor Ilhom Berdiyev vazmin tabiatni, o‘tkir nigohi, sukutlari, kulgi va fofia qorishiq monologlari bilan ulug‘ adibning ruhiy dunyosiga kirishga, ijodkor va shaxs sifatidagi qirralarini ochishga harakat qilgan. Biroq fikrimizcha, aktyor hali tom ma’noda obraz mohiyatiga yetib borolmagan. Holatdan holatga o‘tishda, xarakterning mantiqiy izchilligini ta’minalashda, nutq rang barangligi va ta’sirchanligiga erishishda aktyorga birmuncha tajriba yetishmayapti. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun aktyor obraz ustidagi izlanishlarini davom ettirishi lozim.

O‘zbekiston teatrlarida jadid ma’rifatparvarlari obrazini yaratish yo‘lida izlanishlar qilinayotgani alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlodni jadidchilik g‘oyalari bilan yaqindan tanishtirishda teatr san’ati muhim mafkuraviy omil vazifasini bajaradi. Shu bois kelgu-sida jadidchilikning boshqa namoyandalari haqida ham spektakllar yaratish teatr ijodkorlari zimmasida turgan dolzarb vazifalardan sana-ladi. Bunda taniqli adiblar, dramaturglar ham faollik ko‘rsatishi, respublika teatrлari bilan muntazam hamkorlik qilishi talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyyotlar

1. Qodirova S. Kunduzsiz kechalar // “O‘zbekiston adabiyyoti va san’ati” gazetasi, 1998-yil 13-fevral soni.
2. Мухтаров И. Живое наследие в метафорах сцены. // “Дружба народов”, 2019. №8. – С. 180–189.
3. Yakubov B. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-yy). san.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – Toshkent: 2019. – 172-b.
4. Tursunov T. Abdulla Qodiriy sahnada. // “O‘zbekiston adabiyyoti va san’ati” gazetasi, 1989-y, 11-son.

MÁDENIYAT HÁM KÓRKEM ÓNER TARAWINDA JASLAR TÁRBİYASINIŃ AKTUAL MÁSELELERI

Gulshira Saparbaeva,
*Ózbekstan mámlekетlik kórkem óner hám
mádeniyat instituti Nókis filiali docenti*

Mámleketicimizde jaslar menen islesiw, mádeniy-aǵartıwshılıq jumislardı sistemalı türde shólkemlestiriw, ámelge asırılıp atırǵan reformalardıń nátiyjelilige erisiw, xalıqtıń ásirese, jaslardıń intellektualıq dárejesin arttıriw, pikirlew hám dúnyaǵa kóz-qarasların joqarılatıw, Watandı súyiwshilik hám oǵan sadıqlıq ruwxında tárbiyalaw máseleleri aktual bolıp tabılmaqta.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mámleketicimizdiń qúdiretli kúshi sıpatında jaslardıń hár tárepleme jetik insan bolıp qáliplesiwi ushın imkaniyatlar jaratiw menen bir qatarda olardıń jámiyet rawajlanıwında ekonomikalıq, sociallıq, mádeniy, mánawiy turmistiń qurılısında belseñiligin asırıwda qollap-quwatlaw barlıq tarawlardıń máselesi sıpatında wazıypalardı belgilep berdi.

2025-jıl 14-fevral kúni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev jaslar menen ushırasıp, sáwbetlesti. Videoselektor túrinde ótkerilgen ushırasıwda jaslar ushın imkaniyatlardı jánede keńeytiw is-ilajları kórip shıǵıldı. Jaslarǵa kórsetilip atırǵan ǵamxorlıqlar qatarında olardıń bilim alıwı, qádir qımbatın ornına qoyıwda, sonday-aq, keleshegin kóre alıw ushın umtılıwlardıń unamlı kórinislerine erisiwde, erteńgi kúnimizdiń iyeleri bolıwda olarǵa isenimdi arttıriw ushın imkaniyatlardıń jaratılıwı zárúr bolmaqta.

Jámiyet rawajlanıwında barlıq tarawlar ushın belgilengen reformalardıń zárúrlı máseleleri bolǵan bilimlendiriw, mádeniyat hám kórkem óner sistemalarınıń túpkilikli jańalaniwı menen baylanıshı bolǵan mámleketiclik siyasattıń ámelge asırılıwı Jańa Ózbekstan qurılısınıń tiykarǵı maqseti esaplanadı.

Mádeniyat hám kórkem óner mákemelerinde jaslar menen isle-siwdiń mazmunı – zaman talapları tiykarında iskerliklerdiń innovaciyalıq usılların engiziwge baǵdarlanadı. Bul iskerlikler mánawiy ortalıqtı joqarlatıw, mádeniyat hám kórkem óner tarawın jáne de rawajlandırıw, tarawda innovaciyalıq sistemanı jedellestiriw, dóretiwshilik penen shugallaniwshi jaslardı qollap-quwatlaw menen bayanıslı.

Mádeniyat hám kórkem óner mákemelerinde innovaciyalıq iskerlikti jetilistiriw mazmun-mánisi, ámeliy mexanizmleri hám mámleketicimiz basshısı tárepinen alıp barılıp atırǵan túpkilikli reformalardıń mazmun mánisine qaray ámelge asırılmaqta. Mádeniyat hám kórkem óner mákemelerin xızmetkerlerine tómendegi wazıypalar qoyılmaqta:

- Mádeniyat hám kórkem óner mákemelerinde sistemali rawajla-nıwdıń jańa baǵdarları hám olardıń zaman talapları tiykarında iskerliktiń nátiyjeliklerine erisiw;
- Mádeniyat hám kórkem ónerge tiyisli mámlekетlik siyasattıń áhmiyetli rolin asırıw;
- Mádeniyat hám kórkem óner mákemelerinde innovaciyalıq isusıllar mexanizmlerin qollanıw;

– Mádeniyat hám kórkem óner iskerligin rejelestiriwde jaslar menen islesiwde xalıqaralıq tájiriybelerden paydalaniw.

– Mádeniyat hám kórkem óner iskerligin kreativ is usılların qol-lanıw.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.Mirziyoyevtiń 2022-jıl 2-fevralda PQ-112-sanlı “Mádeniyat hám kórkem óner tarawın jáne de rawajlandırıw is-ilajları haqqında”ǵı qararınıń 2-qosımshasına muwapiq oqıwshılar hám studentler arasında ótkeriletuǵın mádeniyat hám kórkem óner tarawındaǵı “San’atim senga obod yurtim!” dóretiwshilik kórik – tańlawı, “Yoshlar ovozi” tańlawı, «Kamalak yulduzları» boaalar dóretiwshilik festivalları, Jas maqamshılar tańlawı, Mukarrama Turǵunboeva atındaǵı milliy oyın atqarıwshıları kórik tańlawı, Botir Zokirov atındaǵı zamanagóy estrada qosıqshılar tańlawı, 3-qosımshasına muwapiq «Lazgi» xalıqaralıq oyın festivalı, «Baysun báhári» ashıq folklor festivalı, «Gúller bayramı» xalıqaralıq gúller festivalı, «Sharq taronalari» XIII xalıqaralıq muzıka festivalı,

3b-qosımshasına muwapiq Mádeniyat ministrligi tärepten «Mádeniyat kárwanı» túrindegi aymaqlarda koncert-tamasha ilajların ótkeriw belgilengen.

Xalıqtıń, ásirese shetki aymaqlarda jasap atrıǵan jaslardıń bos waqıtların mazmunlı ótkeriw, olarǵa dem alıw xızmetlerin kórsetiw, dárejesin asırıw, respublikaniń barlıq orınlarında teatr, basqa túrdegi ǵalabalıq – mádeniy, shoy, koncert baǵdarlamaların, teatrlastırılǵan tamashalardı sisremalı túrde shólkemlestiriwdi jolǵa qoyıw, mádeniyat hám kórkem óner tarawında qábiliyetli jaslardı, dóretiwshilerdi izlep tabıw hám qollap-quwatlaw, jaslar arasınan talantlılardı úlken saxnalarǵa alıp shıǵıwda olarǵa motivaciya beriw hám olardıń kewlindegi ámelge asırılatúǵın rejelerine qulaq tutıw zárúrligi bar. Bul wazıypalardıń orınlaniwi jaslardıń mádeniy, mánawiy sawatxanlıǵın joqarılıtwǵa, estetikalıq dúnja qarasınıń keńeyiwine, sonday-aq, kásipke baǵdarlaw, keleshekte mádeniyat tarawınıń innovaciyalıq rawajlanıwında ózleriniń kreativ ideyaları arqalı úles qosıwına túrtki boladı.

Paydalanylǵan ádebiyatlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagı PQ-112-sonli “Madaniyat va san’at sohasını yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. G.A. Saparbaeva, P.Q. Paluaniyazov. Mádeniy ilajlar. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022-y.
4. Haydarov A. “Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish”. O‘quv qo’llanma. – T.: “Kamalak” nashriyoti. 2019. – 198-b.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KREATIV PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH – KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA

Rahima Yusupova,

*O'zDSMI “Madaniyat va san'at menejmenti”
kafedrasi dotsenti*

Zarina Nurullayeva,

O'zbekiston davlat madaniyat va san'at instituti magistranti

Annotatsiya: Biz yashayotgan dunyo bugungi kunda shiddat bilan tanib bo'lmas darajada o'zgarishga yuz tutyapti, rivojlanib boryapti. Millatlar aro turli, yaxshi va yomon almashinuvlar, ya'ni bilim, sport, san'at, madaniyat va yana bir qancha sohalarda sodir bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida o'zining ijobiy va salbiy ta'sirini zamonamizning yoshlariga ko'rsatmasdan qolmayapti. Ayniqsa, madaniyat sohasidagi o'zgarishlar bugungi kunda yanada diqqat-e'tiborni shu nuqtaga qaratishga asosiy sabab bo'lmoqda

Kalit so'zlar: madaniyat, kadrlar siyosati, kreativlik, ijod, pedago-gika, moslashuvchanlik, yaratuvchanlik, metod, yondashuv.

THE USE OF CREATIVE PEDAGOGY IN THE FIELD OF CULTURE AND ART AS AN IMPORTANT CRITERION FOR IMPROVING THE QUALITY OF PERSONNEL TRAINING

Abstract: The world we live in today is changing and developing rapidly beyond recognition. Various, good and bad exchanges between nations are taking place in the fields of knowledge, sports, art, culture and many others. This, in turn, cannot but have its positive and negative impact on the youth of our time. In particular, changes in the field of culture are the main reason for drawing more attention to this point today.

Keywords: culture, personnel policy, creativity, pedagogy, flexibility, creativity, method, approach.

Hozirgi vaqtida har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Xususan madaniyat va san'at sohasi boshqa ayrim sohalarga qaraganda ancha orqada qolmoqda. Bunga asosiy sabab si-fatida shu sohasdagi kadrlar tayyorlash sifatiga e'tibor qaratsak maq-sadga muvofiq bo'ladi. Chunki innovatsion

texnalogiyalar zamonida bugungi kunda har bir rahbar o'z qo'l ostida malakali va bilimli kadrlar bilan ishlashni xohlaydi. Bu esa o'z navbatida kadrlarni tayyorlash sifatini yanada oshirish, malakali kadrlarga zamon talabiga mos tarzda ta'lim berish uchun esa kreativ pedagogikadan foydalanishni taqazo qiladi. Bugungi kunda madaniyat sohasiga qaratilayotgan e'tibor, bu sohani yanada rivojlantirish uchun muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan ijodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkama-sining kengaytirilgan majlisidadagi ma'rzasida ta'kidlaganidek, "lavozimlarga samarali ishni ta'minlaydigan munosib kadrlarni tan-lash bo'yicha oldimizda muhim vazifa turibdi".

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni pay-tda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalandi, ya'ni, jami-yatdagи bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gav-dalanadi. Bundan ko'rinish turibdiki, madaniy sohaning rivoji kunning asosiy talabidir. Sifatli kadrlar tayyorlashda kreativ pedagogikidan foydalanish bunga asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi. Aslida kreativlik nima o'zi? Bu qanday tushuncha?

Kreativlik tushunchasi (lot, ing, createl-yaratish, creative yaratuv-chi, ijodkor) ingiliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi.

Kreativlikni – ijodga intilish, zamonga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Bugungi

kunda aholi, xususan yoshlarning madaniy saviyasini yuksalatirish, u-larni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash, qola-versa ma’nan yetuk, barkamol shaxslarni tarbiylash, turli salohiyatga ega bo‘lgan iqtidorli yoshlarni aniqlash uchun madaniy sohada malakali va bilimli kadrlarning o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan bugungi kunga kadrlarni zamonga mos tarzda yetishtirib berish uchun sohada kreativ pedagogikadan foydalanish asosiy vazifalarimizdan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son “Madaniyat va san’at sohasida boshqaqruv tizi-mini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agnetligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining qarorida ham madaniyat sohasida malakali kadrlarni yetishtirish xususida quyidagi jumlalar keltirib o‘tilgan, madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma’naviyat ruhida takomillashtirish, mod-diy rag‘batlantirish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ilg‘or xalqaro tajribadan foydalanish, madaniy-ma’rifiy muassasalar va ta’lim muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalashligi ta’kidlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki madaniy sohan ni rivojlantirish, aholining keng qatlamlari orasida madaniy va mari-fiy tadbirlarni tashkil etish, xalqimizning ma’naviy-axloqiy va madaniy darajalarini yanada yuksaltirish uchun, avvalo, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishimiz kerak.

Kreativ pedagogika-bu ijodiy ta’lim fani va san’atidir. Bu pedago-gika qolgan majburlash, hamkorlik, tanqidiy pedagogikalarga teskari hisoblanib, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashga, o‘z kelaganing yaratuv-chisi bo‘lishga yo‘l ochib beradi. Kreativ pedagogika, har qanday fan-

ga, xoh tarix, xoh matematika yoki xorijiy tillar bo‘lsin, qo‘llanishi mumkin bo‘gan pedagogikadir. Har bir sohada bu jarajon o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim ajralmas qis-midir. Yana qatorda aytib o‘tadigan bo‘lsak ijodkor shaxslar-yozuv-chilar, shoirlar, haykaltaroshlar, dizaynerlar, marketologlar bir so‘z bilan aytganda madaniyat va san’at sohadigi barcha xodimlar hisoblanadi. Bundan yaaqol ko‘rinib turibdiki, kreativlik bilan madaniy soha ikkalasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Biri ikkinchisisni taqazo etadi.

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini yanada oshirishga tayanch vazifasini bajaradigan o‘qitish metodlari va texnalogiyalardan foydalanish zarur. Ijodkor shaxslar erkinlikni yoqtirishadi. Ushbu texnalogiyalar shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirishga , o‘z imkoniyatlari ni aniqlashga va ularning eng yuqori darajada foydalanishga imkon yaratadi.

Madaniy sohada kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishda kreativ pedagogikadan foydalanishdan maqsad bu talabalarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Buning uchun, biz talaba erishgan rivojlanishga emas, balki bioz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo‘lgan talablarni qo‘yishimiz kerak [1].

Madaniy sohada bugungi kungacha amalga oshirilgan islohotlar to‘liq o‘zini oqlamaganligini inobatga olgan holda, madaniyat sohasida kadrlar o‘qitish sifatini oshirishda kreativ pedagogikadan foydalanish yagona yechim bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san’at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mayjud muammolarni hal etish bo‘yicha yagona yondashuvning yetishmasligi, madaniyat va san’at sohasi boshqa sohalarga qaraganda nisbatan qoloqligi, aholiga xizmat ko‘rsatishda madaniyat xodimlarining yo‘l qo‘yayotgan xatoliklarining barchasiga asosiy sabab soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tay-

yorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmaganligi bu sohaning oqsoqlanishiga olib kelmoqda. Shu sababdan sifatli kadrlar tayyorlash uchun zamon talabiga mos, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda fikrlar va uslub almashinuvini yo‘lga qo‘yish, tizimni tubdan isloh qilish, ilk qadamni kadrlarni sifatli o‘qitishdan boshlash va bu borada kreativ pedagogika namunalardan ehtiyojga mos tarzda foydalanilsa, bu sohaning rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Malakali kadrlarni tayyorlashda kreativ pedagogika— nostandard fikrlovchi, qiyin vaziyatda xotirjam, muammoning yechimini topishda bir taraflama emas, balki, turli tomonlama yondashadigan mutaxasislarni tayyorlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking is teaching physics. //international Engineering Journal for research& Development. – 2020. – T. 5.
2. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. – M., 2007.
3. Abdullayeva Xusnida. “Sun’iy intellektning san’at va madaniyatga ta’siri.” *Наука и инновация* 3.1 (2025): 99–101.
4. Alimasov V. Madaniyat falsafasi. –T.: – 2018. 34–37-betlar.
5. Nishonboyeva Q. “Madaniyatning millatlararo va umum-bashariy muammolari”. // O‘quv qo‘llanma. // Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2020, 192-b.
6. To‘ychiyeva S. Qadriyatshunoslik. – T.: “Fan ziyosi” nashriyoti. 2021-yil, 125-bet.
7. Avazovna, Ergasheva Saida. “Electronic information-educational resources aimed at developing students’ artistic and cultural competencies.” Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 9.5 (2020): 307-309.
8. Ergasheva S.A. “Методика преподавания дисциплины менеджмент сферы культуры искусство.” American journal of business management 2.4 (2024): 33-38.

MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

Mo‘minmirzo Xolmo‘minov,
“Xalq ijodiyoti” fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha
dekan o‘rinbosari,
“Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrasi dotsenti v.b.,
mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya: Maqolada madaniyat markazlarining hayotimizda-
gi o‘rnii, ularning faoliyati, vazifalari, shuningdek, markazlarmiz-
ni yangi bosqichga olib chiqish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar,
shart-sharoitlar, madaniyat markazlariga malakali mutaxassis kadr-
larni jalg etish masalalari batafsил bayon etilgan. Madaniyat va san’at
muassasalari faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madani-
yatimizni keng targ‘ib qilish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli
tashkil etish, xalqimizni madaniyatimizga va san’atimizga bo‘lgan
e’tiborini kuchaytirish va to‘laqonli jalg etish borasida amalga oshi-
rilishi kerak bo‘lgan muammolarga taklif va mulohazalar bildirilgan.
Markazlardagi xodim va rahbar o‘rtasidagi munosabatlarda, muam-
molarni hal etishda zamonaviy usullar va innovatsion g‘oyalar bilan
yondashish kerakligi tavsif etilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, san’at, madaniyat markazi, ma’naviyat,
ijodiy jamoa, kadr, mutaxassis.

Bugungi kunda yangilanib borayotgan O‘zbekiston taraqqiyoti
madaniyat va san’atning o‘rnii naqadar beqiyos ekanligi butun
ziyoli qatlam, xususan biz kabi bo‘lajak madaniyat xodimlariga ham
ma’lumdir. Binobarin, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda,
mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivoj-
lanmaydi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan barcha madaniy-ma’ri-
fiy muassasalar xalq mafkurasini shakllantirish va milliy madaniya-
timizni yosh avlodning ongiga singdirishda katta ahamiyatga ega.

Bunda teatr, madaniyat muassasalari va san'at saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, aholining mafkurasini oshiradigan, ongini yuksaltiradigan, odamlarga ma'naviy ozuqa beradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Buning uchun eng avvalo xalqimizning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib ish ko'rmoq joiz.

Tarixan ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan keyin shakllangan, lekin bundan ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlardan kelib chiqadi degan xulosaga kelish xatodir. Chunki jamiyat rivoj topib borar ekan, ular o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa va munosabatlar o'rnatiladi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining kundan-kunga o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat markazlarida aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada madaniyat markazlarida tashkil qilingan to'garaklar aholining, xususan, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish hamda san'at turlariga qiziqtirishdagi ahamiyati juda katta. Madaniyat markazlarida to'garaklar, studiya va jamoalarni tashkil qilishning asosiy maqsadi bolalar va yoshlarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobiliyatları va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir. Yoshlarning mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida 837 ta madaniyat markazlari faoliyat olib boradi.

Respublikada mavjud madaniyat markazlarini saqlab qolish ularni faoliyatini tubdan jonlantirish, aholiga to'laqonli xizmat qilishini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 4 ta 2013-yil 25-iyundagi 178-sonli, 2019-yil 30-martdagi 263-sonli, 2019-yil 30-martdagi 264-sonli hamda 2021-yil 20-yanvardagi 30-sonli qarorlari qabul qilingan.

Hozirgi kunda, mazkur markazlarda jami 11599 nafar xodimlar faoliyat ko'rsatib, shundan 1855 nafari 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etadi.

2023–2024-yillarda madaniyat markazlari direktorlari malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi malaka oshirish markazida o'quv kurslari tashkil etilib, har bir markaz direktoriga sertifikatlar berildi. Bundan tashqari, hududlardagi barcha madaniyat markazlarining 4 ming nafarga yaqin ijodiy xodimlari uchun joylarda sayyor amaliy seminarlar tashkil etildi. O'z navbatida, madaniyat markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida Madaniyat vazirligi tomonidan barcha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda. Madaniyat markazlari xodimlarini ishga qabul qilish bo'yicha malaka tavsiflari ishlab chiqilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan holda hududlardagi barcha muassasalarga taqdim etildi.

Madaniyat markazlari faoliyatini tartibga soluvchi va to'garak mashg'ulotlarini yuritish bo'yicha yangi jurnallar ishlab chiqilib, barcha muassasalarga taqdim etildi.

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimda faoliyat olib borayotgan **837 ta** madaniyat markazidan **374 nafari** ta'mortalab ahvolda, shundan, **164 nafarining** binosi mavjud emas. Madaniyat markazlaridagi ijodiy xodimlarning mehnat haqlari kamligi sababli, kadrlar qo'nimsizligi ayniqsa mutaxassis kadrlarni madaniyat markazlariga jalb etishning imkoniyati mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2023-yil 19-dekabr "Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi 269-sonli buyrug'i bilan madaniyat markazi direktori, badiiy rahbar, rejissyor, xoreograf, ovoz rejissyori, to'garak rahbarlari, yoshlar bilan ishash bo'yicha mutaxassis, to'garak va jamoalarning ishini tashkil qilish bo'yicha mutaxassis, kutubxonachi shtatlari attestatsiyadan o'tkazildi.

Madaniyat markazlari faoliyatini yangi bosqishga olib chiqish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi taklif: nazariya va amaliyotni integratsiya qilish maqsadida madaniyat va san'at oliyogohlariga Toshkent shahardagi madaniyat markazlaridan biittadan tanlab olib homiylik asosida biriktirish kerak. Bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi burchi, vazifasi ham o'tmishi ajdodlardan ortiq bo'lsa ortiqski, kam emas. Prosessor I.Yo'ldashev "Ko'pchilik ijod mahsuliga ilmiy ish sifatida qaramaydi deya ta'diklab, har bir harakatimizning tamali ilmgaga borib taqaladi. Shuning uchun ham bu masalaga kengroq qarashimiz lozim", deb uqtiradi.

Kutilayotgan natija: Talabalar o'qish davrida kelajakda ishlaydigan muassasaning funksional vazifalari bilan tanishadi. O'z mutaxassisligini yaxshiroq tushunadi va bu mohir kadr bo'lishiga turtki bo'ladi. Madaniyat markazlari ishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Madaniyat markazi samarali faoliyat ko'rsatsa, buni madaniyat va san'at oliyohlarning filiallari va o'quv jarayonlarida amaliyotga tadbiq etiladi. Agar natija bo'lmasa, bu ham bir tajriba bo'ladi. O'quv va amaliyot uyg'un bo'lмаган joyda natija va samarani tahlil qilib bo'lmaydi.

Ikkinci taklif: Madaniyat va san'at oliyogohlari bilan hamkorlikda Toshkent shaharda faoliyat olib borayotgan Madaniyat markazlarida yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va san'atning turlariga qiziqtirish.

Amalga oshirish mexanizmi: "Artist", "Aktyor", "The cover", "Ovoz" loyihamalarini o'tkazish joyini aniqlash uchun Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarini belgilash. Madaniyat markazlarida loyihalarni o'tkazish nizomini ishlab chiqish hamda loyihalarni o'tkazishga ketadigan sarf xarajatlarni taqsimalash.

Uchinchi taklif: Kasbiy mahoratini oshirish yo'lidagi asosiy omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e'tibor, yangi texnologiyani o'zlashtirish va maqsadga intilish yo'lda samarali faoliyat yuritish uslubini o'rghanishga qaratiladi. Shunday ekan, madaniyat bo'lim mudiri va markazi direktorlarining statusi va mavqeini oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish samarali yan-

gicha uslublarni o‘rganishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu maqsadda soha rahbarlarining malakasini oshirish zarur.

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat bo‘limi mudiri, madaniyat markazi direktorlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga 4 oylik “Zamonaviy boshqaruv” va “Boshqaruv mahorati”, “Kreativ boshqaruv”, “Siyosiy madaniyat” kabi malaka oshirish kurslarida doimiy o‘qitish.

Kutilayotgan natija: Madaniyat bo‘limi mudiri, madaniyat markazi direktorlarining rahbarlik mahorati oshadi, xodimlariga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi, muammoli vaziyatlardan oson chiqib ketish yo‘llarini o‘rganadi. Sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ish-lash texnikasini oshiradi, bugun bilan hamnafas bo‘lish kerakligi va xodimlariga o‘rnak bo‘lish ko‘nikmalarini egallaydi.

To ‘garaklar yuzasidan takliflar

Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to‘garaklar barcha uchun moliyaviy taraflama qulay hamda hamyonbob hisoblanadi. Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to‘garaklar, studiya va jamoalar qatnashchilarining bir oylik to‘lov summasining eng kam miqdori viloyat maqomidagi markazlarda 15 foizni, viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizni, O‘zbekiston respublikasining boshqa tuman(shahar)larida 8 foizni tashkil etishi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilab qo‘yilgan.

Bir qator omillar ham borki, ular bugungi kunda yosh avlodni aynan o‘sha to‘garaklarga borishiga to‘sinqinlik qilyapti. Bularning asosida xalqimiz ongida qotib qolgan, endi ildiz otayotgan ba’zi bir g‘oyalar tashkil qiladi. O‘zbek xalqida qadimdan “bolamni artist qila-manmi, endi?”, “bir kami otarchi bo‘lishing qoluvdi”, “qizim o‘yinchchi bo‘lmaydi” kabi juda qo‘pol gaplar, madaniyat va san’at xodimlariga nisbatan noto‘g‘ri baho berish, bobo-buvilarimiz davrida bor bo‘lgan. Ammo, blogerlarning behayo videolari, taniqli teleyulduz va san’atkorlarning ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil video va ko‘ngilsiz voqelarining tarqalishi nafaqat oddiy xalq orasida, balki ziyoli qatlam orasida ham san’at va madaniyat xodimlariga bo‘lgan munosabatni yomonlashtirib yuborgani hech kimga sir emas.

Zero, san’at bu ezgulik, madaniyat esa mamlakatni butun dunyodagi o‘rnini belgilab beradigan boylikdir. Bundan yosh avlodni judo qilishni esa, bir xalqning madaniyatini inqiroziga teng, deb baholasak bo‘ladi. Hatto AQSH prezidenti Jorj Vashington 1788-yilda “San’at va ilm-fan davlatning gullab yashnashi, inson hayotining bezagi va baxt-saodati uchun muhimdir”, deb ta’kidlagan edi. Ota-onalar o‘z farzandlarini san’at sohasida bo‘lishlarini xohlamasliklariga sabab bo‘luvchi omillar haqida aytib o‘tdik. Endi ularning barchamizga ma’lum bo‘lgan afzalliliklari haqida ham ota-onalarga tushuntirish madaniyat xodimlarining bosh vazifasidir.

Xulosa sifatida yuqorida bildirilgan takliflarning dolzarbligini inobatga olgan holda amaliyotga tezroq tadbiq etishni tavsiya qilamiz. Bir tomondan bu kabi islohotlar soha xodimlari zimmasiga yanidan-yangi mas’uliyat yuklaydi.

Yangi maqsadlar sari intilishimiz Yangi O‘zbekiston madaniyati rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, aholining madaniy ehtiyojini qondiradigan yuqori salohiyatli madaniyat markazlarining poydevorini yaratishga imkoniyat yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – 478-b.
2. Mas’ul muharir: M.Xolmo‘minov. “Madaniyat va san’at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni:muammolar va yechimlar” [Matn]: to‘plamda / – Toshkent: “Ijod print”, 2023. – 504-b.
3. M.Xolmo‘minov. “Milliy madaniyat – Renessans poydevori”. Monografiya. METODIST nashriyoti. – Toshkent. 2023. – 154-b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIY XIZMATLAR STRATEGIYASINI IShLAB CHIQISH: TIZIMLI YONDASHUV VA TAHLIL

Qurbanmurot Amonqulov,
*Madaniyat vazirligi bosh mutaxassisি,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishni davlat darajasida amalga oshirish borasidagi taklif va tashabbuslarni ilgari surish, o'z ichiga madaniyat sohasini rivojlantirish bo'yicha 5 yillik strategik rejani ishlab chiqish, uni tashkil etish bo'yicha aniq bosqichlarga bo'lish hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlari tizimli yondashuv va tahlillar asosida yoritishga harakat qilingan. Madaniyat sohasida madaniy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha uzoq va qisqa muddatli strategiyani ishlab chiqishda taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zları: madaniy faoliyat, madaniy xizmat, madaniy ob'ekt, madaniyat muassasalari, strategik rejan, interaktiv tadbirlar, kreativ markazlar, ijodiy loyihamalar va grantlar, teatr menejmenti, madaniyat marketingi, crowdfunding (jamoaviy pul jamg'arish), davlat-xususiy sheriklik, kalendar reja, onlayn jamg'arma.

Annotation: This article aims to propose and promote initiatives at the state level for the development of culture and art, including developing a 5-year strategic plan for the cultural sector, breaking it down into specific stages for implementation, with mechanisms to introduce it into practice. The article also provides recommendations for creating both long-term and short-term strategies for cultural services, focusing on systematic methods and analysis.

Keywords: cultural activities, cultural services, cultural objects, cultural institutions, strategic planning, interactive events, creative centers, creative projects and grants, theater management, cultural marketing, crowdfunding, public-private partnership, calendar plan, online fund.

Аннотация: В данной статье рассматриваются предложения и инициативы по развитию культуры и искусства на государственном уровне, включая создание пятилетнего стратегического плана развития культурной сферы, его организацию по этапам и механизмы внедрения в практику на основе системного подхода и анализа. Также представлены предложения по разработке долгосрочной и краткосрочной стратегий развития культурных услуг.

Ключевые слова: культурная деятельность, культурные услуги, культурные объекты, культурные учреждения, стратегическое планирование, интерактивные мероприятия, креативные центры, творческие проекты и гранты, театральное управление, культурный маркетинг, краудфандинг, государственно-частное партнерство, календарный план, онлайн-фонд.

So‘ngi yillarda aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, aholining ma’naviy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarining huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmaganligi asosiy muammo sifatida salkam o‘ttiz yil o‘z yechimini kutdi.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor 2021-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining **“Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son Qonuni** qabul qilinib, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarining huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlar va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqe-

ini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Milliy qadriyatlar va madaniy merosni rivojlantirish, madaniyatli jamiyatini shakllantirish yo‘lida madaniyat muassasalari siyosiy hayotning faol ob’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, aholi, ayniqsa yosh avlodni butun hayoti davomida urf-odat, qadriyat va an’analarni o‘rganish va bilish zarurligini ko‘rsatadi. Ijodiy, ijtimoiy faol hamda ma’naviy boy shaxsni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Madaniy faoliyat tizimida madaniyat markazlari muhim o‘rin tutadi.

Madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari hamda boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi ishlar, ular faoliyati samaradorligini oshirish, ma’naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalashda ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Madaniyat sohasida uzoq va qisqa muddatli strategiyani ishlab chiqishda sohadagi mavjud muammolarni o‘rganish, tahlil etish, maqsad va muddatni belgilash, bajarish mexanzmini ishlab chiqish, bajarish bo‘yicha mas’ullar hamda moliyalashtirish manbasini aniq ko‘rsatish bosqichida shakllantirish samarali natijaga erishiladi.

Bugungi kunda madaniyat sohasidagi mavjud muammo va kam-chiliklarni tizimli yondashuv va tahlil qilgan holda uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish asoslarini yaratishga harakat qilamiz.

Birinchidan, madaniy obektlardan yetarli darajada foydalarnilmasligi:

bunda, madaniyat markazi, teatr, muzey va boshqa ijod maskanlari (keyingi o‘rnarda – madaniyat muassasalari) kam tashrif buyuriladigan joylarga aylanib qolgan.

Aholini madaniyat muassasalari ayniqsa, teatr, sirk, muzey, hayvonot bog‘lari va boshqa madaniyat muassasalariga keng jalg qilish borasida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning taklif va ta-shabbuslari asosida “ochiq eshiklar kuni” kabi loyihalar joriy etilib,

davlat tashkilot va korxonalarining oilaviy hamda oliv ta’lim muassasalari talabalarining jamoaviy tashrifi yo‘lga qo‘yilishi natijasida tomoshabinlar soni 1,3 mln.dan 1,8 mln.ga ko‘paydi.

Ushbu tizim bugungi kunda ma’lum bir yig‘ilishlarning o‘tkaziliishi yoki yuqori turuvchi organlarning so‘roqlariga muvofiq mahalliy hokimlik va mas’ul tashkilotlar tomonidan muassasalarga tashriflar amalga oshirilayotganligidan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar asosida madaniyat sohasining keyingi besh yillik strategiyani ishlab chiqish lozim.

– teatr, muzey va boshqa madaniyat muassasalariga **oyiga kamida ikki kunni aholini tekin kirish tashrif kuni sifatida belgilash** orqali aholi qamrovimi oshirishni tizimli ravishda joriy etish;

– madaniyat muassasalariga yangi auditoriya, ya’ni aholining keng qatlamini jalb qilish uchun jonli namoyishlar, tarixiy shaxslar obrazidagi aktyorlar bilan muloqot va ekskursiyalar o‘tkazish kabi **interaktiv tadbirlarni tashkil etish**;

– madaniyat muassasalariga (asosan teatr va muzey) maktab, o‘rta maxsus, oliv ta’lim muassasalari o‘quvchi-talabalarini, tashkilot va korxona xodimlarini, aholi, ayniqsa uyushmagan yoshlarni **majburiy tashrif rejasini ishlab chiqish**;

– madaniyat muassasalarini xususiy sektor bilan hamkorlikda **davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish va rivojlantirish**.

Ikkinchidan, zamonaviy san’at va ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashning sustligi:

Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rnii va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari dasturiga muvofiq, 2021-yildan boshlab madaniy siyosatda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan,

Konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan **yig‘im bekor qilindi**. Ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari har yili tasdiqlanadigan **kalender reja asosida o‘tkazish** tizimi yo‘lga qo‘yildi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning buyurtmalariga asosan ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar **yo‘zma va haq evaziga tuziladigan shartnomasi asosida o‘tkazilishi** hamda davlat tadbirlari va boshqa tadbirlarga ijodkorlar va ijrochi-

larning **jamoatchilik asosida jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaslik** belgilandi. To'liq jonli ijro asosida o'tkazilgan konsert dasturlari uchun ijara to'lovidan **50 foiz chegirma berish** tartibi joriy etildi.

Madaniyat va san'at muassasalari uchun yangi binolar qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlari nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilindi.

Yangi O'zbekiston me'mori va tashabbuskorি hisoblanuvchi Prezidentimiz qayd etganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir"**.

Bugungi yangilanish, yasharish va yangi islohotlar davrida **yosh ijodkorlar uchun ijodiy loyihamoqda emas**.

Ijtimoiy loyihamoqda emas hal etishda muhim hisoblanib, bugungi kunda ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi kabi soxalar bo'yicha O'zbekistonda grant loyihamoqda emas.

O'zbekiston Respublikasi madaniyatining milliy brendini yangicha yondashuvlar asosida yaratish, uni xalqaro maydonidagi o'rmini belgilashda madaniyat sohasidagi nufuzli xalqaro tashkilotlarni keng jalb etish, xalqaro maydonda o'zbek milliy madaniy mahsulot va xizmatlari hajmini kengaytirish, ularni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yanada rag'batlantirish hamda bu borada ijodkorlarни qo'llab-quvvatlash zarur.

Ijodiy loyihamoqda emasligi yoki kamligi har qanday sohadagi mavjud muammo va kamliklarni bartaraf etishga qaratilgan tashabbusli takliflarning ro'yobga chiqarish hamda uni amalga oshirish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Shu bilan birga, madaniy faoliyat va xizmatlarni o'zida mujassam etuvchi va keng ommani qamrab oluvchi milliy ijodiy platformalar mavjud emas, borlari ham to'laqonli faoliyat olib borish yoki dunyo axborot tizimiga integratsiya qilish imkoniga ega emasligi soha qam-

rovini cheklashga olib kelmoqda. Madaniyat sohasida ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari so'rmoqchimiz:

– san'at, adabiyot va musiqa yo'nalishidagi yosh ijodkorlar uchun davlat va xususiy grantlarni taqdim etishga qaratilgan "**Ijodiy grantlar**" dasturini ishga tushirish;

– har bir viloyatda san'at ustaxonalarini bepul taqdim etadigan kreativ markazlarni tashkil qilish orqali sohada ijodiy inkubatorlar va rezidensiyalar tashkil etish;

– raqamli platformalar orqali eng avvalo mahalliy san'atkori, ijodkor va ijodiy jamoalarni targ'ib qilish va global auditoriyaga taqdim etish uchun alohida **milliy ijodiy platformani yaratish**.

Uchinchidan, madaniy kadrlar yetishmovchiligi va malaka oshirish tizimi sustligi:

malakali kadrlar madaniyat va san'at sohasi rivojida, uning jahon hamjamiyatidagi o'rmini yanada mustahkamlashda eng asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish dasturlarida vazirlikdan tortib barcha tizim tashkilotlari xodimlarini malakasi oshirish masalalari yuzasidan chora-tadbirlar belgilanganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligida **36 600** nafar xodimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Vazirlik tizimida **2 ta** malaka oshirish tarmoq markazlari mavjud bo'lib, sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish qamrovni to'liq amalga oshirish imkoniga ega emas.

Sohada amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklardan, madaniyat sohasida davlat siyosatining samarali mexanzmlaridan, aholiga madaniy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish borasidagi tajribalardan xodimlar xabardor emas.

Bu natijasida **hududlardagi madaniyat sohasi xodimlari malakasi past, zamonaviy san'at va texnologiyalar bo'yicha tajribasi kamligini ko'rsatmoqda**. Bu yo'nalish yuzasidan xalqaro stajirovka va hamkorlikni kuchaytirish, menejment va marketing bo'yicha malaka oshirish, o'quv kurslari va malaka oshirish tizimini yaxshilash bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarimizni bildiramiz:

– aholiga madaniy xizmat ko'rsatish va sohani yanada rivojlantirish bo'yicha madaniyat sohasi xodimlarini Turkiya, Koreya,

Fransiya va Italiya kabi xorijiy davlatlarda **xalqaro stajirovkalarga yuborishni joriy qilish** hamda madaniy markazlar bilan **hamkorlikda almashinuv dasturlarini tashkil etish**;

- madaniyat muassasalarini uchun **teatr menejmenti, madaniyat marketingi** va **muzeyshunoslik** yo‘nalishlari bo‘yicha yangi o‘quv kurslari tashkil etish;
- hududlardagi davlat universitetlarida **madaniyat va san’at menejmenti** bo‘yicha xalqaro standartlarga mos yo‘nalishlar ochish;
- madaniy xodimlarini qayta tayyorlash **hududiy markazlarini tashkil etish**;
- madaniyat sohasi xodimlari uchun qisqa muddatli **treninglar** va **malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish**.

To‘rtinchidan, madaniyat va san’atni moliyalashtirishning cheklanganligi:

Madaniyat vazirligi tizimida 36 000 dan ortiq xodimlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda, ularning o‘rtacha ish haqlari 2,5-4,5 mln so‘mni tashkil etadi. Madaniyat va san’at sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil etganchizda davlat teatrlarida 4,0-4,5 mln., konsert-tomosha tashkilotlarida 3,5-4,0 mln., kutubxonalarda 3,0-3,5 mln., muzeylar va madaniyat markazlarida 2,5-3,0 mln.ni so‘mni tashkil etmoqda.

2022–2024-yillar davomida ijtimoiy sohada amjratilgan mablag‘lar tahlilidan ham ko‘rish mumkinki, madaniyat va san’at sohasini moliyalashtirish ko‘rsatgichi ijtimoiy sohada eng quyi o‘rindan joy olgan.

2022–2024-yillar uchun budget xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari

mlrd. so‘m

Soha yo‘nalishi	Yillar kesimida		
	2022-yil	2023-yil	2024-yil
xalq ta’limi	25 816,1	27 623,2	29 556,8
maktabgacha ta’lim	6 491,5	6 946,0	7 432,2

oliy va o‘rta maxsus ta’lim	4 146,6	4 436,9	4 747,5
sog‘lijni saqlash	3 086,7	3 300,6	3 529,4
madaniyat	727,9	873,5	934,7

Madaniyat sohasidagi eng asosiy muammolardan biri ham bu – davlat budgetidan ajratilayotgan mablag‘lar yetarli emas, xususiy sektor jalb qilinmagan.

Madaniyat vazirligi tizimida 42 ta davlat teatrлari, 51 ta konser-tomosha muassasalari, 147 ta kutubxonalar, 837 ta madaniyat markazlari mavjud bo‘lib, **51 tasi** (*41 ta madaniyat markazi, 7 ta istirohat bog‘i, 1 cho‘milish xavzasi, 1 ta dam olish maskani, 1 ta yotoqxona*) madaniyat muassasasi davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorlarga taqdim etilgan.

O‘zbekistonda ilk tajribasi sifatida 2020-yildan Toshkent hayvonot bog‘i davlat muassasasini tashkiliy-huquqiy shaklini mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xo‘jalik jamiyatiga aylantirgan holda, “Wildlife Care” MChJga ishonchli amaldagi moliyalashtirish va soliq rejimi saqlangan holda boshqaruvga topshirildi.

Ishonchli boshqaruvchi tomonidan dastlabki 5 yil davomida 5 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish, hayvonlar tar-kibiy turini ko‘paytirish, yangi volerlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, hayvonlar uchun reabilitatsiya markazini tashkil etish, zamonaviy audio-video vizulizatsiyasini joriy etish kabi takliflar davlat tomonidan qabul qilingan.

Madaniyat va san’at sohasining iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatgich va imkoniyatini oshirish borasida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- madaniyat va san’at sohasida **xususiy sektor ishtirokini oshirish** orqali madaniyat loyihalariga xususiy sarmoya kiritgan tad-birkorlarga soliq imtiyozlari berish (masalan, san’at galereyalari yoki teatrлarga homiylik qilgan kompaniyalarga soliq chegirmalari);

- tarixiy obektlarni **innovatsion boshqaruv uslublari bilan rivojlantirishda** madaniy meros obektlarini tijorat asosida boshqarish (masalan, “Registon” yoki “Ichan qal’a”ni xususiy kompaniyalar tomonidan boshqarish modeli);

– madaniyat va san’atni moliyalashtirish uchun **crowdfunding** (ommaviy pul jamg‘arish) **platformalarini yaratish** orqali san’at loyihibalarini qo’llab-quvvatlash uchun **onlayn jamg‘arma tizimini yo‘lga qo‘yish**.

Beshinchidan, O‘zbekiston madaniyatining jahon miqyosida targ‘ib qilinishi sostligi:

2023-yil davomida MDH tomonidan “2024-yil Samarqand Hamdo‘slik davlatlari madaniyati poytaxti” va AYSESKO tashkiloti tomonidan “2025-yil Samarqand Islom dunyosi madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi. UNESCO, MDH, TURKSOY, AYSESKO tashkilotlari bilan hamkorlikda **10 ga** yaqin xalqaro tadbirdilar o’tkazildi. **50 dan** ortiq xorijiy davlat madaniyat vazirlari rahbarlari va **10 dan** ortiq xalqaro tashkilotlar rahbarlarining O‘zbekistonga tashrifi tashkil etildi.

2024-yilda **20** ta xalqaro tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik qilindi. Xorijiy davlatlar madaniyat vazirliklari bilan **8** ta xalqaro ikki tomonlama shartnomalar imzolandi.

Joriy yilda **80** ta tadbirdilar tashkil etilib, **25** ta tadbir mahalliy hamda **65** ta tadbir xorijiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, **50** ta ijodiy uchrashuvlar o’tkazildi, shulardan **30** tasi mahalliy va **20** tasi xorijiy uchrashuv sanaladi.

Xalqaro hamkor tashkilot va muassasalar soni	Shundan			Shundan				Shundan			Shundan		
	Vazirlik va idoralar soni	Tashkilot va muassasalar soni	Tuzilgan hamkorlik huqujatlari soni	Xalqaro shartnomalar soni	Xalqaro memorandum	Xalqaro boshim	Xalqaro dasdur	Tashkil etilgan tadbirdilar soni	Mahalliy	Xorijiy	Uchrashuvlar soni	Mahalliy	Xorijiy
20	13	7	8	3	5	80	25	65			50	30	20

Shu bilan birgalikda zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o‘rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishmagani natijasida O‘zbekiston san’ati va madaniyatini xalqaro darajada yetarlicha tanitilmagani eng asosiy muammo sifatida ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek san’ati va madaniyatini xalqaro darajada keng targ‘ib etishda quyidagi takliflarni bildiramiz:

– “O‘zbekiston madaniyat haftaligi” loyihasini xalqaro miqyosda yo‘lga qo‘yishda har yili Turkiya, AQSh, Yevropa va Osiyo mam-lakatlarda **O‘zbekiston madaniyatiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazish;**

– “O‘zbek san’ati jahon sahnasida” dasturini yaratish orqali jahonning yetakchi san’at muassasalarida **o‘zbek san’ati namoyishlarini tashkil qilish;**

– Turkiy davlatlar bilan “Madaniy birlik” dasturini amalga oshirish tizimini yaratgan holda Turkiy davlatlarda o‘zbek san’atini bar-cha turlarini hamda O‘zbekistonda milliy teatr festivali, kino haftaligi va musiqa festivallarini har yili tashkillashtirish;

– Xalqaro platformalarda **o‘zbek san’ati va madaniyati kontentini oshirish**, Netflix, YouTube, Disney kabi platformalarda O‘zbekiston madaniyati haqida hujjatli filmlar va san’at asarlari-ni joylashtirish.

Oltinchidan, hududlarda madaniy rivojlanishning teng taqsimlanmaganligi:

2024-yilda 7255 ta konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilib, o‘tgan yilga nisbatdan 0,7 foizga oshgan.

2024-yilda Xorazm viloyati **Xiva shahrida “Lazgi”** xalqaro raqs festivali, Surxondaryo viloyati **Boysun tumanida “Boysun bahori”**, Buxoro viloyati **Buxoro shahrida “Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik”** festivali, Andijon viloyati **Xonobod shahrida “Dunyo sadolari”** xalqaro musiqa festivali, Samarqand viloyati **Samarqand shahrida “Sharq taronaları”** xalqaro musiqa festivali kabi xalqaro tadbirlar yuqori saviyada tashkil qilindi hamda ushbu xalqaro tadbirlar yuqorida nomlari ta’kidlangan hududlarning tashrif qog‘oziga aylandi.

2022-yildan boshlab ijobiy tajriba sifatida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali va Xalqaro maqom anjumani bosqichma-bosqich hududlarda o'tkazilib kelinmoqda. Bu tajriba ushbu hududlarda madaniyat va san'at muassasalarni zamon talablari asosida qayta ta'mirlanishi hamda jihozlanishiga turtki bo'lmoqda. Maqom va baxshichilik san'atiga yoshlarni yoshlarni keng jalb etish, aholini jahon san'atida bahramand etishda muhim madaniy xizmat ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Ayniqsa, "Madaniyat karvoni", "Yulduz bilan sayyohat" kabi loyihalar, davlat teatrлари, filarmoniya va maqom ansamblларining hududlarga gastrol konsert-tomosha dasturlari, hududlarning o'zarolik tamoyili asosidagi "madaniyat kunlari" kabi tadbirlarning tashkil etilishi ham so'ngi yillardagi aholiga madaniy xizmat ko'rsatishning o'ziga xos jihatlaridan sanaladi.

Toshkent shahrida va qisman hududlarning markaziy shaharlarida madaniy rivojlanish darajasi yuqori, ammo tumanlar va qishloqlarda bu soha ancha orqada qolib ketmoqda.

Hududlarda, ayniqsa chekka olis qishloqlarda madaniy rivojlanish darajasini oshirish, aholini madaniy ehtiyojlarini ta'minlash, zamona-viy va innovatsion xizmatlarni tashkil etish borasida bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimdir.

Ushbu muamolarni tizimli ravishda hal etishda quyidagi taklifni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– "har bir viloyatda kreativ markaz" dasturini joriy qilish orqali 5 yil ichida har bir viloyatda bitta **zamonaviy san'at va madaniyat markazi ochish;**

– mobil madaniy xizmatlar orqali teatr, kinoteatr va konsert das-turlarini qishloqlarga olib borish uchun **sayyor madaniy karvonlar tashkil qilish;**

– hududlardagi musiqa va san'at maktablarini modernizatsiya qilish orqali ularini zamona-viy texnologiyalar bilan jihozlash va yangi yo'naliishlarni ochish.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash lozimki, ushbu tahliliy takliflar O'zbekistonda madaniy faoliyat va xizmat ko'rsatish sohasidagi mav-

jud muammolarni hal qilishga qaratilgan aniq mexanizmlar asosida ishlab chiqildi. Agar ushbu muammolar va takliflar asosida strategiya ishlab chiqilib, amalga oshirilsa, quyidagi ijobiliy natijalarga erishiladi:

- Madaniy obektlardan foydalanish darajasi oshadi;
- San’at va ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi;
- Madaniyat sohasi xodimlarining malakasi tizimli oshiriladi;
- Moliyalashtirish mexanizmlari diversifikatsiya qilinadi;
- O‘zbekiston madaniyati xalqaro miqyosda targ‘ib qilinadi;
- Hududlar o‘rtasidagi madaniy tengsizlik kamayadi.

Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishni davlat darajasida amalga oshirish borasidagi taklif va tashabbuslarni ilgari surish, o‘z ichiga madaniyat sohasini rivojlantirish bo‘yicha 5 yillik strategik rejani ishlab chiqish, uni tashkil etish bo‘yicha aniq bosqichlariga bo‘lish hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-yanvardagi O‘RQ-668-sonli “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergen intervyusi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rnini va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023-yildagi PQ-406-sonli “Ahолига madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2023–2024-yillar hisoboti.

Elektron manbalar:

1. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/442>;
2. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m7292>

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT
MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH
(Toshkent shahar madaniyat markazlari misolida)

Marhamat Murodova,
Yunusobot tumani madaniyat bo'lim mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniyat sohasidagi islohotlar, xususan, madaniyat markazlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, madaniyat markazlarining ahamiyati, ularning jamiyatdagi roli va yosh avlod tarbiyasiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Maqolada bu markazlarning zamonaviy infratuzilmasi, faoliyat yo'nalishlari hamda aholi, ayniqsa, yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida tahliliy fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, madaniyat markazlari, islohotlar, madaniy-ma'naviy hayot, yoshlar tarbiyasi, infratuzilma, milliy qadriyatlar, san'at, to'garaklar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bu – madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, aholi, ayniqsa yoshlarining ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan islohotlardir. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar jarayonida madaniyat jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirilmoqda. Zero, har qanday davlatning taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki uning madaniy salohiyati, xalqining ma'naviyati va tarixiy merosiga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi.

Madaniyat markazlari — bu xalqning o'zligini anglash, tarixiy il-dizlariga hurmat bilan qarash, san'at, adabiyot, musiqa, teatr va boshqa ijodiy yo'nalishlarni rivojlantirishning markaziy nuqtasidir. Yangi O'zbekistonda ushbu markazlarni zamonaviy talablarga mos tarzda qurish, jihozlash va faoliyatini tashkil etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda respublika bo'ylab qator tuman va shaharlarda yangi madaniyat markazlari bunyod etilmoqda, mavjudlari esa

kapital ta'mirdan chiqarilmoqda va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Misol uchun, Yunusobod tumani **5 ta madaniyat markazlari** faoliyat olib boradi. Yunusobod tumani 22-son madaniyat markazi 2014-yilda respublika byudjet mablag'lari hisobidan **498 mln so'm mablag'ga kapital ta'mirlangan**. 22-son madaniyat markazi namunali markazlar ro'yxatiga kiritilib, 2022-yilda "Tashabbusli byudjet" ning 2-mavsumida **748 mln so'm mablag'ga kapital ta'mirlangan**. Shuningdek, tumandagi **23**-son "Do'stlik", **24**-son M. Turg'unboyeva hamda **25**-son A.Qodiriy nomidagi madaniyat markazlari binolari 2020-yil mahalliy byudjet hisobidan 360 mln **so'm mablag'ga** joriy ta'mirlandi, **26**-son madaniyat markazi binosi mavjud emas. **25**-son madaniyat markazi binosi 2019-yilda avariya holatda bo'lgan. "**Minor stroy**" MCHJ tomonidan **2024-yil** qayta quolib foydalanishga topshirilmoqda.

Shu bilan birga, madaniyat markazlari nafaqat san'at namoyishlari, balki keng jamoatchilikni o'ziga jalb etadigan ma'rifiy, tarbiyaviy va ijtimoiy tadbirlar markazi bo'lib xizmat qilmoqda. Yunusobod Madaniyat bo'limi tomonidan madaniyat markazlari faoliyatini rivojlantirish, faoliyat yuritayotgan xodimlarning bilim ko'nikmasini oshirish va tajriba almashish ishlarini olib borish uchun Nizomga tayanib, jamoatchilik asosida **badiiy, metodik kengashlar** xizmat ko'rsatib kelmoqda. Unda ijodiy xodimlarni yangi metodikalarga o'rgatish, *kasbiy seminar treninglar, mahorat va ochiq mashg'ulotlar* tashkil etishini, manzilli metodik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish, "*Ustoz-shogird*" an'anasi tizimli tashkil qiladi. "Mahalla-maktab-b-markaz" tamoyili asosida mahallalar, umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda voyaga yetmagan yoshlarni madaniyat markazlariga jalb etish choralarini ko'radi. Madaniyat markazlari ijodiy xodimlari ga madaniyat va san'at sohasiga oid normativ xuquqiy xujjalarning mazmun mohiyatini tushuntirish ishlari, asosiysi madaniyat xodimlarning *imidji, axlob odobi* borasida seminar –treninglar o'tkazib boriladi.

Toshkent shahar Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi Madaniyat markazlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining

23.06.2023-yildagi **396-son buyrug‘iga** asosan dalolatnomalar asosida madaniyat markazlarini faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida *10 xil* nomlangan *187 ta* o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlandi. O‘z navbatida madaniyat bo‘limi tasarrufidagi madaniyat markaz filiallariga 35-37 tadan qo‘llanmalar mazmun-mohiyatiga qarab to‘garak rahbarlari, badiiy rahbar, xavaskorlik jamoalari badiiy rahbarlariiga yetkazildi.

Mazkur qo‘llanmalardan foydalanib *mashg‘ulotlar rejalar, repertuarlar, notalar, qo‘shiqlar* matni ishlab chiqilib haftaning metodik kunlarida ham bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishiga ko‘mak beradi. Ular orqali aholi, ayniqsa yoshlar orasida kitobxonlik targ‘ib qilinmoqda, milliy qadriyatlar asosida sog‘lom turmush tarzi shakllantirilmoqda. Ayniqsa, hududiy madaniyat markazlarining faoliyati joylardagi ijodkorlar, san’atkorlar va hunarmandlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Yunusobod tumandagi madaniyat markazlarida “**Xalq havaskorlik jamoasi**” va “**Bolalar namunali jamoasi**” unvoni ega *10 ta* “**Armug‘on**”, “**Jasorat**” ashula va raqs xalq jamoalari, “**Al-a-ziz karnay-surnay**” xalq jamoasi, “**Tarannum**” vokal cholg‘u xalq jamoasi, “**Melodiya**” kamer rus xor jamoasi, “**Chin-sen**” koreys xalq jamoasi, “**Jajji go‘zallar**” xalq bolalar raqs jamoasi, “**Nastarin**”, “**Zamin**” milliy estrada xalq jamoalari, “**Do‘stlik**” raqs xalq jamoasi faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merojni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 12-band uchinchi xatboshi bilan “Ahliga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 406-son qarori 5-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 27-fevraldagagi 104-sonli “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. Buyruqqa binoan, “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari 2024-yildan har yili mart oyida o‘tkazilib kelinmoqda. “Milliy qad-

riyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o’tkazish konsepsiyasiga muvofiq, Tadbirlar hududiy folklor va boshqa yo‘nalishdagi jamoalar, milliy xalq o‘yinlari ustalari, mahalliy hamda xorijiy mehmonlar tashrif buyuradigan sayl tarzida tashkil etiladi.

Birgina Yunusobod tuman Madaniyat bo‘limi tasarrufidagi madaniyat markazlari tomonidan 2025-yil I chorak davomida Yunusobod tumani Madaniyat bo‘limi qoshidagi madaniyat markazlari tomonidan 161 ta madaniy-ma’rfiy tadbirlar hamda konsert dasturlari o’tkazildi, shundan 75 tasi. “Milliy qadriyatlar oyligi” hisoblangan mart oyida tashkil qilingan madaniy-ma’rfiy tadbirlar hamda konsert das-turlaridir. Chorak davomida o’tkazilgan tadbirlarda qamrab olingen aholi soni 41045 nafarni tashkil etadi. Bundan tashqari, yangi madaniyat markazlari xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni kengaytirish imkonini beradi. Xalqaro festivallar, ko‘rgazmalar, konsertlar va ijodiy uchrashuvlar o’tkazilishi orqali O‘zbekiston madaniyati dunyoga namoyon qilinmoqda. Bu esa milliy madaniyatimizni global miqqyosda tanitish, ijobiy imidj yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Madaniyat markazlarining rivojlanishi orqali nafaqat poytaxt, balki eng olis hududlardagi aholi ham zamonaviy madaniy hayotdan bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Har bir viloyat, tuman va qishloqda zamonaviy kutubxonalar, san’at maktablari, konsert zallari, teatr studiyalari va boshqa madaniy maskanlar ochilmoqda. Shu boisdan, Yangi O‘zbekistonda madaniyat markazlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar – bu faqatgina infratuzilmani yaxshilash emas, balki butun jamiyatning ma’naviy yangilanishi, barkamol avlod tarbiyasini ta’minlash, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetka-zish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan madaniyat siyosati xalqning hayot sifati, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, madaniyat markazlarining rivoji bu – Yangi O‘zbekistonning madaniy yuksalish yo‘lidagi ishonchli poy-

devoridir. Ushbu jarayonda har bir fuqaroning, ayniqsa ijodkor yosh-larning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniyat – bu xalqning ruhi, qalbi va ertangi kuni demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.
2. Mas’ul muharir: M.Xolmo‘minov. “Madaniyat va san’at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni:muammolar va yechimlar” [Matn]: to‘plamda /– Toshkent: “Ijod print”, 2023. – 504-b.
3. M.Xolmo‘minov. “Milliy madaniyat – Renessans poydevori”. Monografiya. METODIST nashriyoti. – Toshkent: 2023. –154-b.

УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ

Хафиза Абдуллаева,

Государственный институт
искусств и культуры Узбекистана

hafiza0550@mail.ru

Аннотация. В данной статье обсуждаются некоторые актуальные вопросы экономического и социокультурного развития сельских регионов Узбекистана.

Ключевые слова. территория, социокультурное, экономическое развитие, сельское хозяйство, национальная модель, развитие, городская, сельская этнокультура, образ жизни.

Annotation. This article discusses some current issues of economic and sociocultural development of rural regions of Uzbekistan.

Key words. region, sociocultural, economic development, agriculture, national model, progress, city, rural ethniculture, way of life.

Около половины населения Узбекистана, по данным на июль 2022 года, 49,1 процента (17,9 млн человек) проживает в сельской местности. Это требует изучения социокультурного развития сельской местности как отдельной темы. Кроме того, сельский образ жизни, культура, общественная мысль отличаются от таковых урбанизированного города.

За годы независимости были проведены коренные реформы в области модернизации агрокомплекса, изменения облика села в соответствии с художественными и эстетическими требованиями, расширения и мобилизации связей между городом и деревней.

Решение Президента Республики Узбекистан от 8 августа 2017 года «О первоочередных мерах по обеспечению опережающего социально-экономического развития регионов» положило начало изучению существующих проблем и их необходимому решению в виде «дорожной карты».

Были созданы «вторые сектора», которые были направлены на посещение домохозяйств в регионах, для выявления семей, нуждающихся в помощи, для предотвращения преступлений и повышения правовой культуры населения. Например, на территории «второго сектора» Касбийского района Кашкадарьинской области функционируют 22 общеобразовательные школы, 3 профессиональных колледжа, 6 дошкольных образовательных учреждений, 4 сельских врачебных пункта и семейных поликлиники, 3 службы скорой медицинской помощи, Зарегистрировано 3 святыни, 102 магазина, 2 фермерских рынка, 6 аптек, 253 фермерских хозяйства, 1 культурно-досуговый центр, 1 оздоровительный центр. Была проанализирована экономическая и культурная жизнь этих объектов, решены проблемы кредитования семей, нуждающихся в финансовой помощи, обеспечения занятости молодежи и женщин, решения проблем водоподготовки и газоснабжения(1). . Был создан «второй сектор», который был направлен на вмешательство домохозяйств и регионов, на развитие семьи, благосостояния и помощников, на предупреждение уголовных правонарушений и повышение правовой культуры нации. Например, на территории «второго сектора» Касбийского района Кашкадарьинской области действуют 22 общеобразовательные школы, 3 профессиональных колледжа, 6 учебных заведений для студентов, 4 сельских врачебных пункта и семейных поликлиники, 3 фельдшерско-акушерские службы. , 3 заповедника, 102 магазина, 2 фермерских рынка, 6 аптек, 253 фермерских хозяйств, 1 культурно-просветительский центр, 1 оздоровительный центр. Была проанализирована экономическая и культурная жизнь этих объектов, решения проблем кредитования семьи, нуждающихся в финансовой помощи, обеспечения занятости молодежи и женщин, решения проблем водоподготовки и газоснабжения(1).

В социокультурном развитии регионов уместно прежде всего вспомнить о государственных программах «Обад Махалля» и «Обад Кыжол». Эту программу, на наш взгляд, можно назвать национальной, узбекской моделью социокультурного развития регионов, в том числе сельской местности.

За последующие три года в рамках программы более 1500 микрорайонов и сельских территорий были преобразованы в инженерно-коммуникационные сети и социально-культурные сферы. Открыто более девяти тысяч филиалов и объектов социально-культурного обслуживания населения (2). Инициированные Президентом нашей Республики Ш.Мирзиёевым Стратегия действий (2017–2022 годы) и Стратегия развития (2022–2026 годы), направленные на модернизацию нашей страны, призвали к дальнейшему ускорению перемен в «Процветающем соседстве». и «Процветающее село» и поднять их на новый уровень. В принятом Президентом Республики Узбекистан Постановлении «О мерах по реализации программ «Процветающее село» и «Процветающий микрорайон» в 2022–2026 годах» (18 марта 2022 года) критически проанализирована работа, проводимая в рамках программы. Выяснилось, что в микрорайонах существуют серьезные социальные проблемы, 179 микрорайонов и сельских населенных пунктов построены из глины или сырцового кирпича, нет общеобразовательных школ, и даже во многих отдаленных селах и аулах нет домов культуры. В 5568 микрорайонах и сельской местности 29 тысяч километров грунтовых дорог не асфальтированы, 1540 не обеспечены централизованной питьевой водой, в 49 нет общественного транспорта, в 781 нет услуг по вывозу мусора (3). По нашим собственным подсчетам, около 80 процентов существующих культурно-просветительских учреждений в сельской местности либо размещены в приспособленных зданиях, либо нуждаются в капитальной реконструкции. В период самодержавия сельские библиотеки вместе с принадлежащими им территориями были проданы предпринимателям. Таких примеров можно привести множество. Как обеспечить социально-культурное развитие сельских территорий в этой реальности? возникает вопрос. По нашему мнению, эту проблему следует решить, рассмотрев следующую систему маршрутизации. Во-первых, социально-культурная сфера является составной частью национальной экономики. Поэтому развитие народного

хозяйства на селе, прежде всего сельского хозяйства, является залогом оздоровления и социально-культурной сферы. Агропромышленный комплекс Узбекистана представляет собой сложный производственный комплекс со своей инфраструктурой, производственными сетями, логистикой и внешними связями. Учитывая, что Узбекистан — аграрная страна, мы понимаем положение сельского хозяйства в ней. Сельское хозяйство влияет на социально-культурное развитие села как ведущий фактор и отрасль.

Второе — кардинально обновить облик сельских территорий, дорожно-транспортной инфраструктуры, инженерно-коммуникационной отрасли. Данное направление предусматривает модернизацию сельской жизни, удовлетворение потребностей населения в услугах транспорта и связи. Без них трудно представить социально-культурное развитие. Правительство нашей республики выделило 338 миллионов долларов США на период 2021–2025 годов на реализацию проекта «Устойчивое развитие сельских территорий» при участии Исламского банка развития и Фонда международного развития ОПЕК. Из них 200 миллионов приходится на долю Исламского банка развития, 75 миллионов на ОПЕК, 3,05 миллиона на Программу развития ООН и 59,95 миллиона на Узбекистан (4). Этот фонд, выделенный на пять лет, послужит активизации художественного и эстетического облика узбекских сел, центров культурно-бытового обслуживания в жилых массивах, связей между селом и городом. Агрокомплекс и поселки сельчан расположены близко друг к другу, и с точки зрения расстояния выехать на работу на двух-трех машинах, как в городе, не получится. Эта близость побуждает их смотреть на себя как на один объект, на свои цели как на один комплекс. Правда, агрокомплекс в основном состоит из производства, трудового процесса, переработки сельскохозяйственной продукции и ее доставки в города. Тем не менее, между агрокомплексом и поселениями сельчан существует постоянная связь. Такие поселения являются основным источником производительных сил агропромышленного комплекса. Вот почему аграрный комплекс

не может быть безразличен к образу жизни сельского населения, формированию сельской молодежи, становлению образования. В-третьих, между микрорайоном и сельской местностью нет «китайской стены», поэтому необходимо понимать, что статус и возможности института соседства, являющегося ядром узбекской этнокультуры, следует понимать как применимые и к сельские районы. По официальным данным, в рамках программы «Обад Махалля» и «Обад Махалля» в нашей республике до 2022 года завершены строительные и ремонтные работы 436 школ, 208 дошкольных образовательных и 176 медицинских учреждений. В результате во всех регионах нашей страны увеличилось количество благополучных и красивых уголков, очаровательных домов, образцовых домов и улиц. У наших людей возросла уверенность в жизни, окрепло их стремление к жизни и будущему. Словом, где процветание, там благо, развитие, мир и изобилие» (5). Отметим, что в приведенном выступлении не упоминаются учреждения культуры. Такая ситуация наблюдается даже в официальных решениях. Именно поэтому в системе средств, выделяемых из государственного бюджета, сфера культуры занимает последнее место.

Система махаллабая и местное предпринимательство вносят большой вклад в социокультурное развитие регионов. Главной силой и фактором, обеспечивающим развитие территории, могут стать предприниматели, арендаторы и соседские работники, семейная жизнь, образ жизни и основная деятельность которых связаны с локальными территориями. В целях решения этих проблем с декабря 2021 года учреждена должность помощника акима района (города), занимающегося вопросами развития предпринимательства, обеспечения занятости и сокращения бедности в микрорайонах и сельской местности. На совещании видеоселектора, проведенном Президентом 19 апреля 2022 года, было сказано, что безработица составляет более 20% в 450 микрорайонах, что при поддержке животноводства и птицеводства в хозяйствах будут трудоустроены 140 тысяч человек, и что это

необходимо создание микропромышленных центров в микрорайонах (на эти цели из госбюджета будет выделено 500 млрд сумов). Отмечалось, что за первый месяц зарплата домохозяйствам, работающим в отдаленных селах и сельских районах, будет выплачиваться из государственного бюджета. В нашей стране более 2000 микрорайонов специализируются на предоставлении социально-экономических и культурных услуг. В дальнейшем количество таких специализированных микрорайонов и регионов будет увеличиваться, будут поддерживаться действующие в них предприниматели, самозанятые граждане. В основном они занимаются необходимыми населению услугами – хозяйством, ремеслами, садоводством, птицеводством, рыболовством, пчеловодством. Уникальная для узбекского народа система махаллабая вносит большой вклад в развитие народного творчества, особенно ремесел. На встрече обсуждалась необходимость создания центров розничной торговли и культурного обслуживания в махаллях с населением более 20 тысяч человек. Эти центры освобождены от налога на землю и имущество сроком на 5 лет. (6). Увеличение рознично-торговых и культурно-просветительских центров обслуживания обеспечит социально-культурное развитие регионов.

Малое и среднее предпринимательство играет важную роль в социально-культурном развитии регионов. В последующие три года было анонсировано более 400 постановлений и указов Президента и Кабинета Министров, направленных на поддержку предпринимательства. 2024 год объявлен Годом молодежи и поддержки предпринимательства и направлен на привлечение молодежи регионов к экономической и социально-культурной жизни, широкое использование ее инициативы и активности. В Постановлении Президента от 20 апреля 2022 года «О мерах по дальнейшему расширению механизмов финансирования бизнес-проектов в регионах» указано, что кредиты в размере 300 млн долларов США будут выделены субъектам предпринимательства сроком на 7 лет со сроком погашения 3-3 года. Годовая кон-

цессия. Не менее 70 процентов средств кредитной линии будет выделено предпринимателям, работающим на территориях, отличных от города Нукуса, административных центров областей и городов, находящихся в ведении региона, то есть в сельской местности (7). Эти кредитные фонды являются крупнейшим и пока редким средством финансовой поддержки предпринимателей, работающих в регионах. В нем мы видим, что серьезное и большое внимание уделяется социально-культурному и экономическому развитию регионов Каракалпакстана. Политика нашей страны, направленная на снижение осложнений острова Фиджи, в полной мере выражена в национальной модели экономического и социально-культурного развития регионов.

Список литературы

1. Исматов Б. Что происходит во «втором секторе»? // «Закон», 2018, 5 апреля.
2. «Новый Узбекистан», 2022 год, 24 раза.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан. «О мерах по реализации программы «Процветающее село» и «Процветающее микрорайон» на 2022–2026 годы» // «Новый Узбекистан», 2022, 18 раз.
4. «Новый Узбекистан», 2021, 21 сентября.
5. Азамова Г. Процветающие кварталы – зеркало нашей страны // www.yuz.uz).
6. См.: www.yuz.uz.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан. «О мерах по дальнейшему расширению механизмов финансирования предпринимательских проектов в регионе» // «Новый Узбекистан», 2022, 19 апреля.

MADANIY TADBIRLAR SSENARIYSIDA KOMPOZITSION TUZILISH MASALALARI

Nodira Mamatqosimova,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy tadbirlar ssenariysida kompozitsion tuzilish masalalari yoritilgan bo'lib, madaniy tadbirlar ssenariysida dramatik komponentlarning tuzilishi tahlil etilgan. Har bir dramatik komponent tushunchasiga izoh berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, dramaturgiya, dramatik komponent, madaniy tadbir, ssenariy, kompozitsion tuzilish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы композиционной структуры сценария культурного мероприятия, а также анализируется структура драматургических компонентов сценария культурного мероприятия. Объясняется концепция каждого драматического компонента.

Ключевые слова: культура, искусство, драматургия, драматическая составляющая, культурное событие, сценарий, композиционная структура.

Abstract. This article discusses the issues of compositional structure in the script of cultural events, analyzes the structure of dramatic components in the script of cultural events. The concept of each dramatic component is explained.

Keywords: culture, art, dramaturgy, dramatic component, cultural event, script, compositional structure.

Madaniy tadbirlar ssenariysini tayyorlash ijodiy jarayon bo'lib, bunda dramatik komponentlarni aniqlash, tahlil qilish konseptual-funksional xarakter kasb etib, ssenariy shunday qurilgan bo'lishi kerakki, undagi qayta qurishlar, ba'zi qismlarning olib tashlanishi yoki qo'shilishi, o'zgarishlar xuddi she'riyatdagi kabi qofiya yoki so'zni o'zgartirib bo'limgandek, asarga zarar qilmasligi lozim.

Dramaturgik asar yorqin belgilangan birlikka ega bo‘lishi lozim. Bu umum qabul qilingan xolatni aniqlash uchun nimaning birligi ko‘zda tutilayotganini o‘zimiz uchun bilib olishimiz lozim. Jahon dramaturgiyasining ko‘p asrlik tajribasi, asarning badiiy bir butunligini saqlab qolish uchun, namoyish etilayotgan voqeada vaqt va joy birligiga, albatta amal qilish shart emasligini ko‘rsatdi. Ammo xatti-harakat birligi juda ham zarurdir [1, 182-bet].

Harakat pyesa rivojining konflikti bo‘lib, harakat birligiga rioya qilish, tasvirlanayotgan predmetning bir butunligiga rioya qilishdir. Albatta, harakat birligini buzish, tasvirlanayotgan predmetni o‘zgartirishga yoki to‘laqonli tasvirlay olmaslikka olib keladi [2, 56-bet].

Shuning uchun biz dramaturgik kompozitsiyaning madaniy tadbirlar ssenariysidagi asosiy elementlari va bajarish funksiyalarini diqqat bilan ko‘rib chiqishimiz lozim.

Tadbir kompozitsiyasi – asarda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarni bir maqsad sari yetaklovchi g‘oya orqali, dramaturgiya qonuniyatlari asosida bir-biri bilan bog‘lovchi tuzilmadir. Madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishi prolog (muqaddima), bosh voqeа, voqelar rivoji, tugun, qarama-qarshilik, kulminatsiya, final kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi hollarda madaniy tadbirlar, xususan madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishida tugun, qarama-qarshilik, yechim kabi komponentlar uchramaydi. Chunki bu tadbir to‘laqonli teatrlashtirilmagan bo‘lib, maqsad va g‘oya asosan qo‘shiq mazmuni va raqs harakatlarida yuzaga chiqariladi.

Mavzu – bu tadbir uchun tanlangan, mahalliy aholini har tamonlama qiziqtiradigan, barcha voqeа-hodisalarni birlashtiruvchi omildir. G‘oya esa tadbirda ilgari suriladigan asosiy fikrdir. Maqsad – bu tadbirning tomoshabinga “nima demoqchi” ekanligidir. Tadbirga qo‘ylgan maqsad voqealar zanjiri bo‘lib, u voqeа harakatlarida rivojlanib boradi.

Prolog – asarning boshlanish qismi bo‘lib tadbir nima haqidaligidan xabar beradi. Tomoshabin diqqatini asosiy voqealarga qaratadi. U ko‘tarinki kayfiyat, go‘zallik va nafislikni talab qiladi. Bosh voqeа – bu prologdan keyingi ko‘rinish bo‘lib, voqealar rivojini ta’minlovchi

omildir. Bunda tadbirning g‘oya va maqsadiga ozroq bo‘lsada urg‘u beriladi.

Voqealar rivoji – bu tadbir mazmuni va syujetinining murakkab-lashuviga yordam beruvchi voqealar bo‘lib, ular tugun, qarama-qarshilik, kurash, to‘qnashuv va qiyinchiliklarni yengish jarayonidir.

Tugun – bu tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg‘usining ma’lum bir jumboqqa qaratilishi. Ya’ni asar qahramonlarining kutil-magan voqealarga duch kelishi. Tugun asarda qarama-qarshilikning kuchayishiga, asosiy voqealarning rivojlanishiga turtki bo‘lishi kerak.

Qarama-qarshilik – bu tadbir maqsadi va mazmuniga, asardagi qahramonlarning xatti-harakatiga zid bo‘lgan voqeadir. Qarama-qarshilik qanchalik kuchli bo‘lsa, tomoshabinning tadbirga qiziqishi shunchalik ortadi [3, 27–28-betlar].

Kulminatsiya – bu tadbirning eng qiziqarli cho‘qqisi demakdir. U o‘z-o‘zidan yechimga olib keladi. Kulminatsiyani o‘zida ifoda-lagan epizod to‘g‘ri va bevosita tomoshabinning fikri, tuyg‘ularini qo‘zg‘ash kuchiga ega bo‘ladi.

Final – bu asarning yakuni, oxirgi eng muhim qismi. Finalda barcha voqealarning yechimini topadi. Madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishi ham adabiyotda bo‘lganidek har xil joylashishi mumkin. Masalan: tugun va qarama-qarshilik prologdan keyin kelishi yoki qarama-qarshilik va tugunning joyi almashishi ham mumkin. Bu holat tadbirning mazmun va maqsadiga asoslangan holda xato hisoblanmaydi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki kompozitsion tuzilish madaniy tadbirning muhim jihatni bo‘lib tadbirning ta’sirchanligi va tomoshaviyligini belgilovchi badiiy omildir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424-b.

2. Charlz W.D. Xarakter in Art Dram & stage show. – United Kingdom, England, Artcross, 2002. – 188 p.

3. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208-b.

RAHBARNI KASBIY MOTIVATSION KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Javlonbek Tojiyev,

O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"

kafedrasi katta o'qituvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish asosida o'qitishni takomillashtirish, zamonaviy boshqaruvda motivatsion jarayonning o'rni, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tarzda amalga oshirish, shaxs va jamiyat maqsadlariga erishish uchun insonning mehnat xatti-harakatiga tashqi ta'sir kuchlari, unda motivatsiyalash shakllari va usullarini tanlashda birinchi galda insonlar motivlarini, ya'ni u yoki bu harakatlarni amalga oshirishga undovchi omil sifatida qarash, ilmiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish, ularni amaliyotga qo'llash orqali rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, motiv, rahbar, boshqaruv, rivojlantirish, ko'nikma, malaka, kompetensiya, tasavvur, shakllantirish, fakt, tahlil, yondashuv, integratsiya, hodisa, shakl, metod, vosita, jarayon, tamoyil, harakat, tushuncha, ilm, izlanish, shaxs.

IMPROVEMENT OF SKILLS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL MOTIVATION OF THE LEADER

Abstract: In the article, the improvement of training based on the development of the professional motivation of the leader, the role of the motivational process in modern management, the innovative implementation of knowledge, skills, qualifications and competencies, the external forces of influence on the labor behavior of a person in order to achieve the goals of the individual and society, in choosing the

forms and methods of motivation, first of all, the aspects of development of professional motivation of the leader by looking at people's motives, i.e., as a motivating factor for the implementation of one or another actions, comprehensively imagining scientific concepts, applying them to practice, are highlighted.

Key words: motivation, motive, leader, management, development, skill, skill, competence, imagination, formation, fact, analysis, approach, integration, phenomenon, form, method, tool, process, principle, movement concept, science, research , person.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАВЫКОВ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация: В статье лидер профессии мотивация развития основана на стремлении к модернизации, современному высокому мотивационному развитию, инновационному способу реализации навыков и компетенций, личностным и общественным целям эриишия как человеческого труда линейно-движущее влияние, в этом аяте говорится о том, что если человек совершает поступки, которые противоречат его воле, то он не может совершать поступки, которые противоречат его воле, и не может совершать поступки, которые противоречат его воле, то он не может совершать поступки, которые противоречат его воле, и не может совершать поступки, которые противоречат его воле.

Ключевые слова: мотивация, мотив, лидер, башкарув, развитие, куникма, умение, компетенция, воображение, шаклантириши, факт, анализ, ёндашув, интеграция, событие, форма, метод, средство, жара, тенденция, движение тушунча, наука, изложение, личность.

KIRISH

Bugun dunyoda globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanmoqda. Tabiiyki, unga mos holda ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot ishlashi

ri ham o‘zining yangi sifat bosqichiga o‘tmoqda. Shuningdek, xidimlarning haq-huquqlarini himoya qilish, kasbiy faoliyatni mustahkamlashning samarali yo‘llarini topish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda rahbar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali sog‘lom immunitetni to‘liq shakllantirishga, natijada, xodimlarda milliy mentalitetning yanada mustahkamlanishiga erishiladi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo‘lib, u o‘zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko‘rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini aniqlab, boshqarib turadi. Motivlashtirish – bu ruhiy omil bo‘lib, shaxs faolligining manbai hisoblanadi. U rahbar boshqaruvida xodimlarni samarali mehnat qilishga rag‘batlantiruvchi vositadir. Boshqaruv tizimida samarali motivatsiya modeli ishlab chiqilmagan holatda samarali faoliyat bo‘lmaydi. Chunki motivatsiya ma’lum bir shaxsni kamolikka erishishga xizmat qiladi.

Motivatsiya rahbar boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar har doim zamonaviy boshqaruvda motivatsion jarayon muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlaydilar. Kadrlar motivatsiyasi – bu resurslardan maqbul foydalanishni ta’minalash, mavjud inson resurslarini safarbar etishning asosiy vositasidir. Motivatsiya jarayonining asosiy maqsadi mavjud mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish, bu rahbar boshqaruvining umumiyligi faoliyati va rentabelligini oshirishga imkon beradi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida xodimlarni boshqarish xususiyati – bu xodimning shaxsiyati rolining ortib borishidan dalolat beradi [2].

ADABIYOTLAR SHARI

“Motivatsiya” ilmiy tushuncha sifatida bir qancha talqinlariga ega, masalan, X.Xekxauzen motivatsiyani “fikr yuritishning mahsuli – konstrukti” desa, boshqa tadqiqotchilar motivatsiyani “psixologik hodisa” deb izohlaydi (N.A.Jdankin., 2010). E.G.Azimov va A.N.Shukin motivatsiyani faoliyatga “ishtiyoq uyg‘otuvchi”, inson ehtiyojlarini qondirishga bog‘liq, tashqi va ichki shart-sharoitning

hamjihatligiga asoslangan rahbarning boshqaruv yo‘nalishini belgilab beradigan hodisa sifatida ta’riflashgan [3].

S.L. Rubinshteyn ham motivatsiyani shaxsning xulq-atvori, o‘zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi motivatsiya tushunchasi bilan bog‘lab talqin qiladi. Motivatsiya faoliyat nuqtayi nazaridan qaralib, mazkur nazariyaning yanada boyishiga sabab bo‘ldi. Olim motivatsiyaning psixologik mohiyatini izohlarkan, uni faoliyatning manbai bo‘lgan va unga undab turgan jonkuyarlik, deb atagan [8].

A.N.Leontev motivatsiya jarayonini ikkiga bo‘ladi: mazmun kasb etuvchi motivatsiyalar va stimul motivatsiyalari. Birinchisi ham uyg‘otuvchi, ham mazmun kasb etuvchi vazifani bajarsa, ikkinchisi faqat uyg‘otuvchi vazifani bajaradi. Ushbu masalani yoritishda V.M. Karimova, F.A.Akramovalar ikki jihatni farqlab ko‘rsatishadi: ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining subyektiv-psixologik xususiyatlari (ehtiyoj, maqsad, mo‘ljal, istak, qiziqish va hokazolar), tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari bo‘lib, bular ayni aniq holatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir [4].

Boshqaruvda xodimlarni rag‘batlantirishning barcha shakllari ommaviy bo‘lishi kerak. Kimni va nimani rag‘batlantirish mumkin, buni qanday qilish kerak degan savolni tushunish muhimdir. Biroq har qanday jamoada nafaqat ishda eng yaxshi natijalarga intilayotganlarni ko‘rish mumkin. Shu munosabat bilan hozirgi sharoitda ishda yuksak natijalarga erishish va talab etiladigan standartlarga rioya etish uchun javobgarlik ko‘proq xodimning zimmasiga yuklatilmoqda. Biroq bu holat motivatsiyalash zarurligini istisno etmaydi, boz ustiga, mehnat faoliyati va mazmunidagi o‘zgarishlar personal motivatsiyasiga innovatsion jihatlarni kiritadi [5].

Motivatsiya – bu shaxs, guruh va jamiyatning maqsadlariga erishish uchun insonning mehnat xatti– harakatiga tashqi ta’sir etishdir. Motivatsiyalash shakllari va usullarini tanlashda, birinchi galda, insonlar motivlarini, ya’ni u yoki bu harakatlarni amalga oshirishga undovchi omil sifatida qarash lozim [7].

Iqtisodiy motivatsiyalash qator tarmoqlar orqali amalga oshiriladi: mehnatga haq to‘lash, mehnat turlari va samaradorligini hisobga olish, mehnat uchun olingan pul mablag‘lari realizatsiya qilish (olingan mehnat daromadlarini sarflash).[10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Motivatsiyalashning turli usullari va ularni tasniflashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ta’sir etish usuliga ko‘ra motivatsiyalashning bevosita va bilvosita usullarini ajratish mumkin.

Motivatsiyalashning bevosita ta’sir etish usullariga quyidagilar kiradi:

- normativ motivatsiyalash, ya’ni insonni g‘oyaviy-ruhiy ta’sir etish (e’tiqod, ishontirish, xabardor qilish va boshqalar) orqali muayyan xatti-harakatga undash;
- xodim tomonidan tegishli talablar bajarilmagan taqdirda uning ehtiyojlarini qondirishning yomonlashuvi tahdidiga asoslangan majburlash motivatsiyasidan iborat bo‘ladi.

Bilvosita ta’sir etishda xodimlarni muayyan xatti-harakatga undovchi rag‘batlantiruvchi omillar yordamida tashqi vaziyatga ta’sir etish ko‘rinishidagi tashqi omillar hisobidan amalga oshiriladi.

Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish tizimini takomillashtirish usullariga quyidagilar kiradi:

- rahbar kasbiy motivatsiyasini takomillashtirish;
- yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash istiqboli; ish tarkibini boyitish (ish va kasbiy o‘sish istiqbollari bilan yanada qiziqarli ishlarni ta’minlash);
- motivatsiyaning axloqiy psixologik uslublarini takomillashtirish; kasbiy g‘ururni, ish uchun shaxsiy javobgarlikni shakllantirish;
- qulay shart-sharoitlarni yaratish; muammoning mavjudligi, ishda o‘zingizni namoyon etish imkoniyatini yaratish;
- xodimlarni samarali ishlashga ilhomlantiradigan yuqori maqsadlarni yo‘lga qo‘yish.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Motivatsiyalash jarayoni – bu boshqaruvda subyekt va obyekting muvofiqlashtirish jarayonidir. Bunday muvofiqlashtirish jarayonida muvofiqlashtirishning o‘zini baholamaslik mumkin emas. Maza-

kur baxolash tashkilotlarda normativ hujjatlar bilan amalga oshiriladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: korxona nizomi va xodimlarning axloqiy kodeksi, personalni boshqarish xizmati to‘g‘risidagi nizom va uning xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari, motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimi to‘g‘risidagi nizom, mehnatga haq to‘lash va mukofotlash to‘g‘risidagi nizom va boshqalar. Shuningdek, tarmoq standartlari, buyruq va farmonlar ham shular jumlasidandir.

Boshqaruvda lavozimga ko‘tarilish motivatsiyaning o‘ziga xos murakkab usuli hisoblanadi. Biroq bu usul ichki jihatdan cheklangan. Chunki, birinchidan, tashkilotdagi yuqori lavozimlar soni cheklangan; ikkinchidan, rag‘batlantirish qayta tayyorlash xarajatlarini oshirishni talab qiladi. Boshqaruv amaliyotida, qoida tariqasida, bir vaqtning o‘zida turli xil shakl, usul va vositalar asosida ularning kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Insonni boshqarish – bu uning xatti-harakati motivlarini boshqarish demakdir. Boshqaruvning ushbu turi, ya’ni motivlarga ta’sir etishga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Bu ta’sir etishning ancha murakkab turi hamdir, chunki u nafaqat tashkilot oldida turgan maqsadlarga, balki xodimlar xatti-harakatining motivlariga ham aniq mos keluvchi rag‘batlantiruvchi omillarni tanlashni talab qiladi.

Shuningdek, personal boshqarish tizimida xodimni motivatsiyalash va rag‘batlantirish jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Motivatsiyalashning tegishli darajasini ta’minalash har bir xodim mehnatining unumdarligini va butun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, kadrlar malakasining muntazam o‘sishini ta’minalash, jamoani barqarorlashtirish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Persona (lotincha, persona – kimsa, shaxs) – ko‘p sonli individ larga xos bo‘lib, ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan tayanch belgilari majmuidir. Unda umuman insonning gavdalashtirilgan shaxsi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular qatoriga professional shaxsi, rahbarning shaxsi, fuqaroning shaxsi, xodimlarning shaxsi kiradi. Shuningdek, ularga nisbatan tegishli modellar – professiogrammalar ishlab chiqiladi. Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki shaxsga aylanadi.

Shaxs – bu insonning ijtimoiy aloqalari va xatti-harakatlari-da namoyon bo‘ladigan, uning o‘zi va atrofdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ruhiy xususiyatlar tizimida olib qaraladigan odamdir. Individning shaxsga aylanishi – nafaqat tarixiy va ijtimoiy jarayonlar, balki pedagogik jarayon hamdir. Individ faqat unga atrofi-dagi barcha jarayonga: mehnatga, ijtimoiy tuzumga, omma kurashiga, jamoa vazifalariga, boshqa insonlarning taqdiriga nisbatan o‘zining faol nuqtayi nazarini erkin, masalaning mohiyatini tushungan holda belgilash imkonini beruvchi ong darajasida shaxsga aylanadi. Jamiyat – inson individlari o‘rtasida o‘z hayot faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning tarixan rivojlanuvchi yig‘indisidir.

“Shaxs” tushunchasi – barcha tushunchalar ichida eng murak-kabi, chunki u ikkita mutlaqo turlicha ma’noda ishlataladi. Kundalik so‘zlashuvda, shuningdek, ayrim fanlarda, masalan, tarixda yoki madaniyatshunoslikda ushbu atama ba’zi alohida ko‘zga ko‘ringan xususiyatlarga ega bo‘lgan insonga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu xususiyatlar tarixiy jarayonni o‘zgartirishga, buyuk ishni amalga oshirishga va bunday xususiyatlarga ega bo‘lmagan minglab, millionlab individlarni jalb etishga qodir. So‘zning bunday ma’nosи o‘z individualligini, o‘z “MEN”ini rivojlantirish insonning haqiqiy burchi hisoblanadi. Bu bilan biz inson to‘g‘risida o‘zimizning tashqi taassurotlarimizni, ya’ni uning aksariyat xatti-harakatlarini, muloqat qiliш usullarini bezatuvchi eng yaqqol xu-susiyatlarni tushunamiz.

Rahbar boshqaruvida xodimlarni motivatsiyalashga ta’sir etuvchi personal motivatsiya muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan personalni motivatsiyalashga ta’sir etuvchi jarayon tarkibi quyidagilardan iborat. Boshqaruvida xodimlarni motivatsiyalashga ta’sir etish jarayoni tarkibini aniqlash personal motivatsiyada insonning asosiy ehtiyojlarini aniqlashni taqozo etadi va ular quyidagilardan iborat:

- fiziologik;
- xavfsizlik;
- ijtimoiy guruhga mansublik;
- baholash va hurmat;
- o‘zini o‘zi faollashtirish;

- hokimiyat va ta'sir ko 'rsatish;
- erishish.

Personal motivatsiyaning asoslarida motivatsiyalash funksiyalari o'rni alohida qayd etishni taqozo etadi va ular quyidagilardan iborat:

- harakat qilishga undash;
- faoliyatga yo'naltirish;
- xatti-harakatni nazorat qilish va qo'lllab-quvvatlash.

Shunday qilib, faqat kuch va moddiy motivlardan foydalanish rahbar boshqaruvida xodimlarning ijodiy faoliyatini maqsadlarga erishish uchun safarbar qilishga imkon bermaydi. Menejer, qo'shimcha ravishda, har bir xodim yoki guruhning mehnatda ishtirok etish darajasini baholashi kerak. Insonlarning ish faoliyatida rag'batlantirish maqsadida mukofotlashning bir necha usullari mavjud:

- xodimning turli xil shakkarda ishslash muddatidan qat'i nazar intensiv ish uchun moddiy ish haqi va uning yanada sifatli bo'lishi;
- ilmiy-texnik ishlarni bajargani uchun ishlab chiqarishga joriy qilinganligi uchun bir martalik pul mukofoti taqdim etilishi;
- xodimning imkoniyatlariga eng mos keladigan lavozim, daraja bo'yicha ko'tarilish;
- bo'sh vaqtini rag'batlantirish yoki xodimga ish kunini mustaqil ravishda rejalashtirish imkoniyatini berish, bu esa samaradorlikni oshirishga olib kelishi;
- xodimning xizmatlarini mukofotlar, minnatdorchiliklar, xattalar, matbuot, radio, televideniya orqali oshkora etish, tegishli shaklda maqtash, ishonch, eng yaxshi ish uchun imtiyozlar berish orqali xodimning xizmatlarini ommaviy va shaxsiy e'tirof etish nazarda tutiladi.

Motivatsiyani boshqarish funksiyasi bir vaqtning o'zida faoliyatning barcha darajasi va yo'nalishlari menejmentining vakolatiga kiradi. Biroq hozirgacha ko'pchilik korxona, tashkilot va muassalarda motivatsiyalash o'zining kadrlar borasidagi qarorlarida ish tajribasiغا, insonlar bilan muloqotlarda, xodimlar haqidagi axborotga tayanganuvchi menejerning ichki hissiyotiga asoslanadi.

Ammo muayyan insonni ma'lum darajadagi samaradorlik bilan mehnat qilishga undovchi haqiqiy motivlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamma vaqt ham real holatni obyektiv tarzda aks ettirmaydi. Shuning uchun personal motivatsiyalashning umumiyligi maqsadi uni boshqarish, tegishli boshqaruv qarorlarini tashkilotning muayyan maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan baholash va nazorat qilishdan iborat, deb hisoblash lozim.

Personalni boshqarish amaliyotda motivatsiyalash mexanizmlari keng foydalanilishiga qaramasdan moti-vatsiya tushunchasining ta'riflarida katta farqlar mavjud. Ushbu farqlar ko'p jihatdan muallif tomonidan fanning qaysidir sohasiga (iqtisodiyot, boshqaruv, psixologiya, sotsiologiya yoki tilshunoslik) mansubligi bilan belgila-nadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan tadqiqotlar, inson faoliyatini motivatsiya qilishga urinishlar, umuman motivatsiya ta'riflari, ushbu tushunchaga doir talqinlar hozirgi kunda ham har bir sohada shakl-shamoyiliga muvofiq davom etmoqda. Shuningdek, boshqaruv tizimida xodimlarni motivatsiyalash jamiyatdagi o'rnini belgilashga, o'z-o'zini anglashga, ichki turtkining kuchlanishiga olib keluvchi jarayonidir. Aynan tashqi motivatsiyalash uni ichki motiviga hamda faoliyatida uzlusiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik motivatsiyasiga yo'naltiradi.

Shuningdek, motivatsiyalash – insonni ichki shaxsiy va tashqi omillar yordamida muayyan faoliyatga undash jarayonidir. Xodimlar xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatgan holda u tashkilotning asosiy maqsadlariga eri-shishga ko'maklashadi va yuksak natijalarga erishish yo'-li bilan mehnatda o'zini ko'rsatishga yo'naltiradi. Moti-vatsiyalash inson fe'l-atvorining uning qiziqishlari bilan bog'liq va tashkilotdagi xatti-harakatni belgilab beruvchi tarkibiy qismidir. Ushbu ichki xususiyatlarni hisobga olish va ulardan imkon qadar foydalanish insonga o'zining rahbarlik faoliyatidagi xatti-harakatiga tuzatishlar kirituvchi muayyan ta'sirlardan foydalanish imkonini beradi.

O'zini o'zi motivatsiyalash, odatda, muammolarni hal etishga moyil bo'lgan va o'z harakatlarining natijasiga erishish maqsadini ko'zlovchi xodimlarda shakllanadi. Motivatsiyalash jarayonida mo-

tiv, ya’ni shaxsni ehtiyoj-larini qondirishga yo‘naltirilgan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishda ichki undash tuyg‘usini yuzaga keltiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Altr R.T. Tashkilotlarda tizimli yondoshuv / R.T. Allne 2012.
2. Жданкинъ Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учебно-практическое пособие – М.: Fiyapress, 2010.
3. Кибанова А.Я. и др. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности. Учебник. Москва.: ИНФРА НОРМА-М, 2009.
4. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘AJBNT” markazi, 2002.
5. Lvova T.V. Boshqaruв faoliyatining psixologik jihatlari. 2016.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. – Москва.: Смысл: Академия, 2005.
7. Wigfield A., Eccles J.S. & Rodriguez D. (2000). The development of children’s motivation in school contexts. Review of Research in Education.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: “Питер”, 2002.
9. Xolov A.X. Mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018-yil 1/2018 (№ 00033).
10. Шарипов Р.И. Основы трудовой мотивации: учебное пособие. – М.: KNORUS, 2011. – 256 с.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОМ МЕДИА ПРОСТРАНСТВЕ (НА ПРИМЕРЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С МИРОВЫМИ СОЦИАЛЬНЫМИ СЕТЯМИ И МЕССЕНДЖЕРАМИ)

Элеонора Ганиева,

*старший преподаватель кафедры
«Менеджмент культуры и искусства» ГИИКУз
e-mail: elonagan1987@gmail.com*

Аннотация: Настоящая статья анализирует представленность национального телевидения Узбекистана в мировом медиа пространстве, исследует методы, используемые узбекскими телеканалами для продвижения своего контента на мировой арене с помощью мировых социальных платформ, как Youtube, Facebook, Instagram и Telegram. Также в статье оценивается роль национальных частных телеканалов в формировании имиджа Узбекистана в мировом медиа пространстве.

Ключевые слова: телевидение Узбекистана, мировое медиа пространство, государственные и частные телеканалы.

Аннотация: Настоящая статья анализирует представленность национального телевидения Узбекистана в мировом медиа пространстве, исследует методы, используемые узбекскими телеканалами для продвижения своего контента на мировой арене с помощью мировых социальных платформ, как Youtube, Facebook, Instagram и Telegram. Также в статье оценивается роль национальных частных телеканалов в формировании имиджа Узбекистана в мировом медиа пространстве.

Ключевые слова: телевидение Узбекистана, мировое медиа пространство, государственные и частные телеканалы.

Сегодня во всем мире наблюдается естественное слияние традиционных средств массовой информации и коммуникации с новыми медиа. Существовавшие ранее СМИ адаптируются к

возможностям Интернета и современных устройств, а новые медиа почти мгновенно создают свои профили и аккаунты на базе социальных сетей, видеохостингов и мессенджеров [1, с. 222]. Телевидение, которое ранее играло ключевую роль в глобальных коммуникациях, в наши дни уступает место Интернету и его разнообразным платформам для распространения и потребления мультимедийного контента.

Особенно заметны перемены в сфере потребления художественного аудивизуального контента. Современное поколение зрителей (поколение Z, родившееся после 2000 года) [2] уже не зависит от программы телепередач, времени показа и прочих факторов: они имеют возможность смотреть любимые шоу, информационные выпуски, фильмы или сериалы на других платформах (специализированные сайты, цифровое телевидение, онлайн-кинотеатры, стриминговые видеосервисы и проч.) [3, с. 73]. Однако, несмотря на быстрое развитие коммуникационных технологий, базовые принципы процесса передачи и приема информации остаются неизменными. Видоизменяются лишь способы потребления и перед зрителями встает выбор: получать информацию по телевидению или использовать для этого многочисленные Интернет-платформы?

Учитывая вышесказанное, основной целью данной статьи является анализ особенностей функционирования государственных и частных телеканалов Узбекистана в мировом медиа-пространстве, в контексте популярных медиа-платформ. Кроме того, мы планируем выяснить, какую роль играют социальные сети и мессенджеры в усилении коммуникативных возможностей этих телеканалов. В статье автор опирается на опыт зарубежных исследователей, данные об изучении аудитории пользователей Интернета в Узбекистане и их предпочтениях [4]; [5], а также на собственный эмпирический опыт изучения деятельности телеканалов в различных социальных сетях.

Данные, представленные в настоящей статье, базируются на анализе материалов (анонсов, постов, видео, заметок и проч.),

опубликованных 8 государственными и 8 частными телеканалами Узбекистана в видеохостинге YouTube, социальных сетях Facebook и Instagram, и мессенджере Telegram.

Современное телевидение Узбекистана представляет собой перманентно развивающуюся структуру, в состав которой входят различные организации, предприятия, а также 14 государственных, 8 частных и около 13 региональных телеканалов. До 2012 года в структуру узбекского телевидения входило лишь 4 телеканала общего формата вещания («Узбекистон», «Ёшлар», «Тошкент» и «Спорт»). В 2005 году в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан № УП-3678 от 8 ноября 2005 года «О мерах по реформированию и развитию независимых телерадиоканалов» эти телеканалы были реорганизованы и изменили названия – «O‘zbekiston» («Узбекистан»), «Yoshlar» («Молодежь»), «Toshkent» («Ташкент») и «Sport» («Спорт»).

Новый этап трансформаций наступает в 2013 году, когда в эфир выходят специализированные телеканалы: просветительский «Madaniyat va ma’rifat» («Духовность и просвещение»), познавательный «Dunyo bo‘ylab» («Вокруг света»), вышедшие в эфире 1 января 2013 г., детский «Bolajon» («Дитя», с 1 июня 2013 г.), развлекательный «Kinoteatr» («Кинотеатр»), музыкальный «Navo» («Мелодия»), которые начали вещание в тестовом режиме с 14 ноября 2013 г.

В последующие годы список государственных телеканалов пополняется такими каналами, как просветительский «Mahalla» («Махалля», в эфире с 7 января 2015 г.), информационно-аналитический «O‘zbekiston 24» («Узбекистан 24», в эфире с 24 июля 2017 г.), исторический «O‘zbekiston tarixi» («История Узбекистана», с 1 сентября 2019 г.), «Foreign Languages» (в тестовом режиме с 6 декабря 2021 г.).

Новый этап развития частного телевидения в стране, представленного более ранними телеканалами («30-й канал» (1998 – 2008 гг.) и группа телеканалов «СофТС», «Markaz TV» «Forum TV» «NTT», прекратившие вещание в 2013 г.), приходится на

2014 год, когда в эфир выходят информационный «Uzreport TV» (с 28 апреля 2014 г.) и развлекательный «Mening Yurtim 5» («Моя страна», с 12 ноября 2014 г.). В последующие годы в частном секторе один за другим начинают свою деятельность развлекательные телеканалы «Milliy TV» («Национальный», с 4 августа 2016 г.), «Zo‘r TV» («Отличное ТВ», с 1 февраля 2017 г.), «Sevimli TV» («Любимый», с 1 марта 2017 г.), спортивный «Futbol TV» (с 23 апреля 2017 г.), онлайн телерадиоканал «Biz TV» («Мы», с 27 июня 2020 г.) и детский «Aqlvoiу» («Умница», с 22 марта 2021 г.)

Население Узбекистана довольно активно пользуется Интернетом, мобильными приложениями и социальными сетями. Из более чем 35 миллионов жителей страны «по данным Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций Узбекистана, в республике пользуются интернетом 22 миллиона человек. Из них 19 миллионов используют мобильный интернет и общаются в мессенджерах. Наибольшей популярностью, как оказалось, в Узбекистане пользуются социальные сети Telegram и YouTube» [5, с. 81], а также Facebook и Instagram, за которые проголосовало 70% респондентов [4]. И это немаловажный фактор, учитывая, что большая часть телевизионной продукции, к которой можно отнести выпуски телепередач, телешоу, телесериалы и т.д., после трансляции размещается именно на видео-хостинге YouTube и выкладывается на официальных Telegram-каналах национальных сериалов или частных телеканалов страны. Популярность названных выше медиа-платформ доказывает тот факт, что практически все государственные и частные телеканалы открыли свои аккаунты именно на этих виртуальных платформах.

Работа телеканалов с данными платформами существенно помогает им увеличить свою целевую аудиторию и привлечь новых зрителей [6, с. 5], [7, с. 41] за счет наиболее удобного для восприятия формата контента (основной формат – короткие видео-анонсы, ролики, постеры). Согласно результатам исследования **IWPR** в Узбекистане, информация, предоставляемая зрителям в виде

коротких новостных заметок, популярна у 92% респондентов, а за формат видеорепортажей проголосовал 51% опрошенных [4]. Такая форма презентации помогает зрителям получить полное представление о демонстрируемом контенте, не обращаясь к дополнительным источникам информации (поисковикам, сайтам и проч.). Однако анализ деятельности телеканалов показывает, что почти каждый из них наиболее активен лишь на одной или двух (максимум трех) медиа-платформах, а остальные аккаунты скорее созданы в стремлении соответствовать общемировым стандартам и трендам.

Анализ публикационной активности телеканалов, включенных в выборку данной статьи, показал, что наибольшее предпочтение они отдают видеохостингу **YouTube** (особенно это заметно на примере частных телеканалов). 11 телеканалов из 16 проявляют в YouTube особую активность: это доказывают количество и частота выкладки видеоматериалов, а также количество подписчиков. У государственных же телеканалов профили в YouTube менее развиты. Основная работа с новыми медиа (в зависимости от специфики содержания и характера направления телеканала) у них разворачивается на базе других платформ. И здесь явное преобладание наблюдается уже у платформ Instagram и Telegram.

Частный телеканал «Uzreport TV» распределил свою активность в социальных сетях между аккаунтом в YouTube и Facebook, т.к. они обладают возможностями проведения прямых трансляций и размещения видеоматериала без ограничений, предусмотренных, к примеру, в Telegram. Телеканал «Uzreport TV» является частью информационного агентства «Uzreport», поэтому и деятельность его регламентирована ведущими направлениями агентства.

Несмотря на количество подписчиков в YouTube, наибольший объем информации телеканал «Mening Yurtim 5» выкладывает в Instagram (2,2 млн. подписчиков) и Telegram, практически дублируя свой контент.

«Milliy TV», «Zo‘r TV» и «Sevimli TV» – основная тройка телеканалов, лидирующих в национальных телерейтингах, старается размещать контент на всех аккаунтах. Но придерживается этого правила только телеканал «Milliy TV», исправно дублирующий контент на всех профилях. Обладающие самыми внушительными цифрами по количеству подписчиков телеканалы «Zo‘r TV» (2,8 млн. подписчиков в Instagram и 144 тыс. в Facebook) и «Sevimli TV» (253 тыс. подписчиков в Instagram и 122 тыс. в Facebook) позволяют себе выбирать, что и на каких медиа платформах публиковать.

Среди государственных телеканалов внимание привлекают лишь телеканалы «Yoshlar» (24,8 тыс. подписчиков в Instagram) и «Sport» (33,7 тыс. подписчиков в Instagram и 102 тыс. в Telegram). Остальные либо не смогли освоить основные принципы работы с аудиторией в социальных сетях, либо просто не заинтересованы в привлечении новых зрителей так, как частные телеканалы, работающие на коммерческой основе, а не на бюджетном финансировании.

Подводя итоги анализа деятельности государственных и частных телеканалов Узбекистана, следует отметить, что в направлении повышения степени интерактивности телевизионной продукции и представленности национального телевидения в мировом медиа пространстве, лишь некоторые телеканалы на самом деле понимают и используют методы поддержания связи со своей целевой аудиторией, какими способами они могут захватить внимание уже имеющихся зрителей и привлечь новых. Но в целом, большинство телеканалов весьма расплывчато представляют себе стратегию коммуникации со зрительской аудиторией посредством новых медиа-платформ. Однако даже скромные шаги, предпринимаемые в настоящее время, дают достаточное основание для развития деятельности телеканалов страны в ближайшие годы.

Список литературы

1. Рогалева О.С., Шкайдерова Т.В. Новые медиа: эволюция понятия (аналитический обзор) //Вестник Омского университета. – 2015. – № 1. – С. 222-225.
2. Будущее телевидения в эпоху хайпа и лайков [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://telesputnik.ru/materials/tsifrovoe-televideenie/article/budushchee-televideniya-v-epokhu-khayapa-i-laykov/>
3. Дугин Е.Я., Куприянов О.А. Модели взаимодействия телевидения с аудиторией: между новыми и традиционными медиа // Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. – 2017. – № 5. – С. 72-83.
4. Исследование IWPR: Социальные сети – важный источник новостей в Узбекистане [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cabar.asia/ru/issledovanie-iwpr-sotsialnye-seti-vazhnyj-istochnik-novostej-v-uzbekistane>
5. Нарзуллаева Д. К. Узбекистан в социальных сетях // Экономическое обозрение. – 2021. – № 7 (259). – С. 80-83.
6. Щепилова Г.Г., Круглова Л.А. Телеканалы и социальные сети: специфика взаимодействия Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. – 2018. – № 3. – С. 3-16.
7. Казючиц М.Ф. Телевидение и блогосфера: презентация медиа в социальных сетях // Телекинет. – 2018. – № 1(2). – С. 40-46.

MADANIY MEROISNI OBYEKTLARINI SAQLASH VA TARG'IB ETISH TAMOYILLARI

Umid Todjidinov,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasi katta o'qituvchisi*

Madina Abdusattarova,

*“Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish” ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy meros bilan bog'liq bo'lgan muzeyologik jarayonlar, jumladan tadqiqot metodologiyalari, amalga oshirish strategiyalari, saqlash va targ'ib qilish tamoyillari ko'rib chiqiladi. Madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va uning qadr-qimmatini oshirishda muzeylar va zamonaviy usullarning ahamiyati ta'kidlandi. Maqolada madaniy merosni muhofaza qilishning yangi yondashuvlari, raqamlashtirishning ahamiyati va milliy va xalqaro tajribaga tayangan holda meros artefaktlarini himoya qilishdagi zamonaviy muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: madaniy meros, muzeyshunoslik, konservatsiya, tadqiqot, targ'ibot, raqamlashtirish, innovatsion texnikalar, meros ashyolari, milliy o'ziga xoslik, madaniy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются музеологические процессы, связанные с культурным наследием, включая методологии исследования, стратегии реализации, принципы сохранения и продвижения. Была подчеркнута важность музеев и современных методов передачи культурного наследия будущим поколениям и повышения его ценности. В статье рассматриваются новые подходы к охране культурного наследия, значение цифровизации и современные проблемы защиты артефактов наследия, основанные на национальном и международном опыте.

Ключевые слова: культурное наследие, музееведение, консервация, исследование, пропаганда, цифровизация, инновационные технологии, предметы наследия, национальная идентичность, культурные ценности.

Abstract. This article examines museological processes related to cultural heritage, including research methodologies, implementation strategies, and principles of preservation and promotion. The importance of museums and modern methods in conveying cultural heritage to future generations and enhancing its value was emphasized. The article examines new approaches to the protection of cultural heritage, the importance of digitalization, and contemporary challenges in protecting heritage artifacts, drawing on national and international experience.

Keywords: cultural heritage, museology, conservation, research, promotion, digitalization, innovative techniques, heritage items, national identity, cultural values.

Kirish. Madaniy meros insoniyat sivilizatsiyasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtida muzeyshunoslik, madaniy boyliklarni tadqiq etish, saqlash va targ‘ib qilish tamoyillari tobor-a muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixan har bir xalq o‘zining ming yillik an’analari, urf-odatlari va marosimlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos ma’naviyatga ega bo‘lgan. Buni, albatta, inson ma’naviyatiga tegishli turli xil qo‘srimcha tushunchalarga murojaat qilish orqali kengaytirish mumkin. Biroq, boshqa madaniyatlar orasida guvoh bo‘lish qiyin bo‘lgan oddiy odamlar ishonadigan va qiladigan ma’naviy va diniy faoliyat va marosimlar mavjud. Har bir madaniyatning o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etgan bu an’ana tarixan xalq og‘zaki adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi uchun uzviy bo‘lib kelgan. Har bir madaniyatda uchraydigan bu o‘ziga xos meros ularni bir-biridan ajratib, madaniyatlararo boyligini namoyish etdi. Global dinamikaning tezlashishi moddiy va ma’naviy sohalarda ko‘plab o‘zgarishlarga olib

keldi. Shunday qilib, ilg‘or madaniyatlar barcha sohalarda o‘z vokolatlarini namoyish qila boshladilar.

Adabiyotlar sharhi. Boymirzayev B. Madaniy merosni muhofaza qilish: nazariya va amaliyot (2020) – Ushbu nashr madaniy merosni saqlash va muzeysunoslikka oid nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni belgilaydi. Shonazarov A. “Muzeyshunoslik asoslari” (2018) – Bu ishda muzeyshunoslikning birlamchi sohalari, shuningdek, muzey eksponatlarini saqlash va targ‘ib qilish metodologiyalari ko‘rib chiqilgan. ICOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi) hujjatlari – Muzey faoliyatini tashkil etish va madaniy boyliklarni jahon miqyosida tan olingan standartlarga muvofiq saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar. Niyozova M. O‘zbekiston muzeylarida madaniy merosni saqlash (2021) – O‘zbekistonda muzey faoliyati, saqlash tamoyillari va milliy amaliyotlar ekspertizasi. UNECKO resurslari – Madaniy merosni saqlash va takomillashtirish bo‘yicha global sa’y-harakatlar va ko‘rsatmalar. Ushbu manbalar maqolada bayon etilgan tushunchalarni tasdiqlash, isbotlash, muzeyshunoslik va madaniy merosni muhofaza qilishning ilmiy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun zarurdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot tarixiy va madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish va saqlash bo‘yicha jahon amaliyotini o‘rgandi. Unda qo‘srimcha ravishda muzey faoliyati, arxiv fani va madaniy meros targ‘ibotiga oid ilmiy maqolalar va statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Tadqiqot empirik va nazariy metodologiyalarni birlashtirgan va tahliliy usullardan foydalangan. Erkinlikka erishilishi bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham xuddi shunday jonlandi. Bu atama so‘nggi yillarda paydo bo‘lganiga qaramay, uning asosiy o‘zagi va kelib chiqishi xalqimizning bilim, ko‘nikma, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, sahna san’atlarini o‘z ichiga olgan og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan qadimgi xalq og‘zaki ijodi va milliy hunarmandchilikka borib taqaladi. Hozirgi vaqtida fan sifatida o‘rnatalgan va global miqyosda tan olingan bu tushuncha globallashuv hodisasi bilan bog‘liq. Madaniyatlarning jahon miqyosida uyg‘unligi – omma madaniyati xavf ostida qolgan bir davrda har bir jamoaning urf-o-

datlari, marosimlari va an'analarini muhokama qilish zarur. Bunga javoban, bugungi kunda insonlar o'z milliy o'ziga xosligi va merosini saqlab qolish, uni himoya qilish va kelajak avlodlarga etkazish borasi-da katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. UNESCO 1990-yillarda insoniyatning nomoddiy madaniy merosini saqlash tarafdori edi. Ushbu tashkilot moddiy merosni asrab-avaylash bo'yicha protokol va tamoyillarni o'rnatgan va nomoddiy meros bo'yicha tashabbus ushbu sohadagi dastlabki chora-tadbirlardan biri edi. 2001-yilda UNESCO nomoddiy madaniy boyliklarning konsensus ta'rifini shakllantirish uchun a'zo davlatlar va nodavlat tashkilotlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazdi. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya 2003-yil 17-oktabrda Parijda ma'lum bir ta'rif o'rnatil-gandan keyin qabul qilingan.

Mamlakatimiz ushbu Konvensiyani 2008-yilda ratifikatsiya qil-gan va unga a'zo bo'lgan. Nomoddiy madaniy meros masalasi ras-miy siyosat darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli qaroriga asosan 2010–2020-yillarda Nomod-diyy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturining amalga oshirilishi muhim tarixiy bosqich bo'ldi. Ushbu tashabbusni amalga oshirishda respublikamizdan 38 ta tashkilot va muassasalar ishtirok etdi. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi dav-lat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniyat boyliklari ma-salalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organi etib belgilandi. Tarixiy, badiiy, ilmiy, estetik, etnologik yoki antropologik nuqtai nazardan baholangan favqulodda umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy meros artefaktlari Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga, agar tegishli bo'lsa, Butunjahon Konvensiyasiga muvofiq, Madaniy va tabiiy meros va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya. Madaniy meros ob'ektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha takliflar Butunjahon merosi qo'mitasi va BMTning nomoddiy madaniy merosi-

ni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasining qoidalari-
ga muvofiq rasmiylashtiriladi. bu artefaktlarni baholash. Yuridik va
jismoniy shaxslar hujjatlarni UNESCO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston
Respublikasi Milliy komissiyasiga taqdim etadilar. Nomoddiy ma-
daniy merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari ilmiy-texnikaviy ta-
dqiqotlar, qayd etish va targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston
Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son
qarori bilan “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini
muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish dav-
lat dasturi” tasdiqlandi. Davlat dasturining bajarilishini nazorat qilish;
va har yili Vazirlar Mahkamasiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
hisobotlar taqdim etish. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’ri-
fiy faoliyat ilmiy-metodik markazining moddiy-texnologik bazasini
mustahkamlash; Nomoddiy madaniy meros ob’ektlari reestriga kiri-
tilgan nomoddiy madaniy meros ob’ektini ekspertizadan o‘tkazish va
hujjatlashtirish ko‘pincha ob’ekt joylashgan joyda amalga oshiriladi.
Ushbu ishda mustaqil ekspert sifatida davlat organlari, ilmiy muassa-
salar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, alohida tadqiqotchilar,
nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydala-
nish hamda tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ishtiroy
etishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan, Markaz tomonidan mustaqil
mutaxassislar bilan belgilangan tartibda shartnomalar rasmiyash-
tiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi
PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniyat boyliklarini muhofaza qilish,
ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va rag‘batlantirishga doir qo‘shim-
cha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Nomoddiy
madaniy boyliklarni muhofaza qilish va kelajak avlodlarga o‘tkazish
to‘g‘risidagi bayonnama 2024-yil 1-apreldan kuchga kiradi:

a) noyob va (yoki) yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan nomod-
diy madaniy meros namunalari uchun: birinchi bosqichda Madani-
yat vazirligi ushbu toifadagi madaniy meros namunalari saqlovchisi
bo‘lgan 20 nafar shaxsni aniqlaydi. nomoddiy madaniy meros na-
munalarini asrab-avaylash, ularni ommalashtirish va kelajak avlod-

ga yetkazish bo‘yicha faoliyatiga ko‘maklashadi hamda bu boradagi faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari belgilanadi; nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlaydigan va ushbu ko‘rsatkichlarga mos kela-digan jismoniy shaxslar Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oyiga 5 million so‘m miqdorida rag‘batlantiriladi;

b) alohida ahamiyatga ega bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari uchun: nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ‘ib qilish, shu jumladan internet va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi; audiovizual asarlar yaratishga davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan tegishli shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, “Hunarmand” birlashmasi, Madaniy meros agentligining “tayyorlash – tarbiyalash – restavratsiya – asrab-avaylash – ommalashtirish” kompleks uzlusiz tizimi orqali nomoddiy madaniy meros namunalarini yaratish bo‘yicha taklifi ma’qullandi. Shu nuqtai nazardan, tajriba tariqasida Farg‘ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va “Hunarmand” uyushmasi bilan hamkorlikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg‘ilon-dagi hunarmandchilik markazida quyidagilarni taklif etadi: Atlas va adres mahsulotlari, kulolchilik buyumlari bilan birgalikda ishlab chiqariladi; ularning yaratilishi “ustoz-shogird” modeli orqali yosh-larga yetkaziladi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar, ko‘rgazmalar va namoyishlar o‘tkaziladi va ularning marketingi rivojlantiriladi. “Milliy merosga mening hissam!” jamoatchilik tashabbusi doirasida davlat muassasalari uchun namunali kulolchilik buyumlari xarid qilish barobarida ko‘rgazmalar, atlaslar va manzil buyumlari bilan jihozlangan doimiy muassasa quriladi.

Qarorda quyidagi bandlar tasdiqlandi:

– Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy va amaliy metodologiyalar orqali har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish strategiyasi;

- Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish, uning asosiy vazifalari bilan bir qatorda ko‘rib chiqilishi zarur;
- Nomoddiy madaniy meros namunalari to‘plami, ular uchun nomzodlik hujjatlari UNESCOning xalqaro ro‘yxatiga kiritish uchun tayyorlanmoqda;
- 2024-yildan 2026-yilgacha nomoddiy madaniy merosni ilmiy ekspertizadan o‘tkazishga qaratilgan mahalliy va xalqaro etno-folklor ekspeditsiyalarini muvofiqlashtirish loyihasi;
- 2024-yildan 2026-yilgacha nomoddiy madaniy meros obyektlarini ilmiy tadqiq etish va targ‘ib qilish uchun fundamental va maqsadli jamg‘armalar bo‘yicha davlat buyurtmalari rejasи;
- 2024-yildan 2026-yilgacha nomoddiy madaniy meros namunalari elektron hujjat sifatida rasmiylashtirish rejasи;
- Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutini 2024-yildan 2026-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha birlamchi samaradorlik ko‘rsatkichlari;
- 2024-yilda nomoddiy madaniy merosni saqlash, ilmiy tadqiq qilish va targ‘ib qilishni doimiy qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish bo‘yicha strategik reja.

“Qadriyat” elektron platformasi va uning mobil ilovasini tashkil etish, tegishli elektron xizmatlar va resurslar bilan integratsiyalashgan holda 2024-yil 1-oktabrga qadar yakunlanishi rejalashtirilgan. “Qadriyat” elektron platformasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nomoddiy madaniy meros saqlovchilari va tashuvchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, jumladan, maqom va baxshichilik san’ati namunalari hamda to‘liq ro‘yxat; maqom va baxshichilik san’ati namunalarini, shuningdek ular bilan bog‘liq matn, foto va boshqa audiovizual materiallarni o‘z ichiga olgan nomoddiy madaniy meros obyektlarini elektron hujjatlashtirish va hisobga olish; mavzu bo‘yicha jahon va respublika miqyosida o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiylar, mahalliy va xalqaro etno-folklor ekspeditsiyalari hujjatlari, xalqaro reyestrlarda qayd etilgan nomoddiy madaniy meros namunalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar chop etiladi va izchil yangilanadi; “Qadriyat” elektron

platformasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi, Institut elektron platformani doimiy ravishda modernizatsiya qilish, texnik ko‘mak va funksionalligini kafolatlaydi.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: madaniyat sohasi tarkibidagi madaniyat muassasalarining normativ-huquqiy bazasi, institutsional tuzilishi va faoliyatini ilmiy-amaliy ekspertizadan o‘tkazish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish; xalqimizning ma’naviy-axloqiy va madaniy saviyasini yuksaltirish, yurtdoshlarimizni ham milliy, ham jahon madaniyatining ibratli namunalari bilan ta’minalash, jamiyatning madaniy-estetik talablarini qondirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish; Madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalar, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog‘lari, shuningdek, madaniy-ommaviy tadbirlar, konsert tomoshalari, gastrol tadbirlari, xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, amaliy san’at va xalq o‘yinlari faoliyatini ilmiy-uslubiy ta’minalash bilan birga, ularning faoliyatini tizimli tekshirish; Madaniyat, san’at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros sohalarida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish; etno-folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish; ushbu sohalarda innovatsion texnologiyalardan keng foydalananish; milliy va xalqaro darajada ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish. O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishni tashkil etishning nazariy va ilmiy uslubiy asoslarini yaratish; mamlakatda nomoddiy madaniy meros obyektlarining milliy reestrini yuritish, hujjatlashtirish, saqlash va monitoringini olib borish, ushbu sohadagi davriy hisobotlarni tayyorlash va doimiy ravishda yangilab turishni ta’minalash, ularning namunalarini xalqaro e’tirof etilgan ro‘yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish; Nomoddiy madaniy merosni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va targ‘ib qilish, shu bilan birga ushbu sohada ilmiy asoslan-

gan metodologiyalarni ilgari surish; Barcha ta’lim usullari bo‘yicha nomoddiy madaniy merosga oid audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar, turli ilmiy-uslubiy materiallarmi o‘z ichiga olgan ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ayni paytda mamlakatimiz tavsiyalaridan so‘ng 14 ta obyekt UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi O‘zbekistonda-gi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan. Shashmaqom (Tojikiston bilan hamkorlikda, 2008); Boysun madaniy muhiti (2008); Navro‘z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg‘iziston, Pokiston va Turkiya bilan hamkorlikda, 2009-yil). Tojikiston, Afg‘oniston, Iroq, Qozog‘iston va Turkmaniston ham 2016-yildan buyon bu davlatlar tarkibiga yan-gilangan tarkibda qo‘schildi; Katta Ashula (2009); Askiya (2014); Pav-lov madaniyati va an’analari (2016); Xorazm raqsi “Lazgi” (2019); Miniatyura san’ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birqalikda, 2020); Baxshi san’ati (2021); Xoja Nasriddin haqidagi hikoyalarni takrorlash an’analari (2022); Ipchilik va to‘quvchilik uchun an’anaviy ipakchilik (2022); “O‘zbekistonda kulolchilik san’ati” (2023); “Dekorativ san’at: rangtasvir” (2023 yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya bilan hamkorlikda); “Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” (2023). Nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, as-rash, targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish umumiy mas’uliyatimizdir.

Natijalar va muhokama. Madaniy meros muzeysunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, muzeylar ham tarixiy ashyolarni saqlash, ham ularni ommaviy ko‘rgazma va ilmiy tekshirish maskanlariga aylanib bormoqda. Muzeylarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, interfaol ko‘rgazmalar tashkil etish va virtual muzeylarni rivojlantirish madaniy merosni ommaga yetka-zishning muvaffaqiyatli usullari sifatida e’tirof etilgan. Madaniy boyliklarni saqlab qolishda konservatsiya va restavratsiya ishlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun ixtisos-lashtirilgan laboratoriylar va ilg‘or texnologiyalar qo‘llaniladi. Madaniy merosni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, ommaviy axborot

vositalari va internet platformalarining ta'siri bir vaqtning o'zida kuchaymoqda.

Xulosa. Muzeyshunoslik, madaniy boyliklarni o'rganish, saqlash va targ'ib qilish tushunchalari kompleks yondashuvni taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlik madaniy merosni asrab-avaylash va uning ommaga ochiqligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kelajakdagagi urinishlar ushbu sohadagi tadqiqotlarni kengaytirish va yangi metodologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23fevraldagagi 47-son "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. M.Xolmo'minov. O'zbekiston madaniyati va san'ati. // O'zDSMI xabarlarji jurnali. – Toshkent: 2024/2(29). – B. 116
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli "2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
4. D.Chinpo'latov. Nomoddiy madaniy meros va yoshlar. BMI. // – Toshkent: – 2019. – 79-b
5. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2022). Madaniy merosni saqlash bo'yicha davlat dasturi.

JAMIYATNING MA’NAVIY YUKSALISHIDA AYOLLARNING O‘RNI

Dilnoza Qurbonova,

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasiga
o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: Tarixdan ma’lumki, zaminimizda ayollarimizning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, qizlarni o‘qitish jamiyatimizdagi muammolarga yechim bo‘lishi, ular kelajak avlodni tarbiyalashda javobgar shaxs sifatida qaralgani, bugungi kun-da ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarning ta’lim-tarbiya masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgani hamda ularni ijtimoiy himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar xususida fikr-mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, ilmiy faoliyat, ijtimoiy himoya, salohiyat, ta’lim, tarbiya, tahlil.

“Ma’naviyat jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydigan, xalqni buyuk maqsadlar sari kurashga da’vat etadigan mustaqillikni mustahkamlaydigan bebaho omildir. Ma’naviyatsiz taraqqiyotni ham, axloq va e’tiqodni ham,adolat va haqiqatni ham, komil insonni ham tasavvur etish mumkin emas. Binobarin, — Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istik, subektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obekativ zaruratdir” [1].

Yangi O‘zbekiston jamiyatining madaniy taraqqiyoti, davlatimiz kelajagi ham rivojlangan davlatlar orasida tutgan o‘rni va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas’uliyatini teran anglashi bugungi kun xotin-qizlariga bog‘liqdir.

Shu bois, jamiyat tayanchi bo‘lgan ayollarga e’tibor kuchaymoqda.

Ayolning ilmli bo‘lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh urug‘lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmli, madaniyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda Xitoy faylasufi Konfusiy aytgandek, “Erkak ilmli bo‘lsa – nari borsa bir kishi ilmli bo‘ladi, ayol ilmli bo‘lsa – millat ilmli bo‘ladi” [2]. Demak, qadimdanoq ayollarning ilmli, oqila, fozila bo‘lishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘lib kelgan.

Yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e’tirof etilgan onalarimizning izzodoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va xatto harbiy sohada xizmatlari beqiyos. Yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ularning bilimlarini kuchaytiish uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, xotin-qizlar oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi.

Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega. Ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da’vat etishgan. Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, – deb yozgan edi [3].

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, davlat boshqaruvi organida samarali faoliyat ko‘rsatishi, liderlik xislatlarini shakllantirishi ulardagi bilimga, ma’lumotga bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy-siyosiy faol ayollarning 90 foizdan ziyodi oliy ma’lumotlidir.

Bugun xotin-qizlar ta’limi va ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib berilyapti. Bu borada qabul qilin-gan qaror, farmonlar esa, sohani yanada taraqqiy ettirishga xizmat qilmoqda. 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boyicha Milliy dastur va amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Mazkur sohada ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p. Ayniqsa, olima va ziyoli ayollarimizning

safini oshirish doimo millatimizning dolzarb va kun tartibidan tushmaydigan masalalardan ekanligi ayondir.

Masalan birgina ta’lim sohasini olaylik. Jami 1158 200 nafar. Ayollar 867 700 nafar bo‘lib, 75 fouz. **Zaxiradagi 15 668 nafar ayolni rahbarlikka tayyorlash.**

- 11, 3 ming nafari tuman (shahar) larda, 2,4 mungi respublikada o‘qitiladi;
- **600** dan ortiq o‘quv-seminar tashkil etiladi;
- yuqori natijaga erishganlar **milliy kadrlar zaxirasiga olinadi**;
- davlat boshqaruvi akademiyasi xotin-qizlar uchun **30 foiz kvota** joriy etiladi.

Respublikamizda 151 ta oliv ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ulardan 104 tasi davlat, 47 tasi nodavlat hamda xorijiy oliv ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Hozirda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida mehnat qilayotgan hodimlarning **41 foizini** xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, ayni paytda tizimda xotin-qizlar orasida **879 nafar** fan doktorlari, **2208** nafar falsafa doktori (**PhD**), **833** nafar professorlar, **2024** nafar dosentlar barqaror faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, **4** nafar rektor, **56** nafar prorektor (direktor o‘rinbosari), **199** nafar fakultet dekani va dekan o‘rinbosari lavozimlarida ayollarimiz rahbarlik qilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-son qaroriga asosan 2020–2021-o‘quv yilida **xotin-qizlar uchun – 940 ta davlat granti** asosidagi qo‘srimcha qabul ko‘rsatkichlari ajratildi. **“Qizlar uchun maxsus stipendiya”** Maxsus stipendiya talaba-qizlarga oliv ta’lim muassasalarida umumiylar shartlarda belgilangan stipendiya saqlab qolning holda stipendiyaning bazaviy miqdorida qo‘srimcha tarzda oyma-oy to‘lanadi. Mazkur stipendiya sohiblari oliv ta’lim muassasalarining stipendiya komissiyasi tomonidan belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi [4].

Xalqimiz yangi O‘zbekistonni qurish, Uchinchi Renesans poydevorini bunyod etishdek ezgu va ulug‘vor maqsad yo‘lida bormoqda. Jamiyatda xotin-qizlarning savodxonligini ta’minlashdan maqsad xalqimiz demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyati barpo etishdek

niyatlarni royobga chiqarish, yurt taraqqiyotini yuksaltirishdir. Shubhasiz, ushbu maqsad sari tashlangan har bir dadil qadam farovonlikka erishishda muhim poydevor bo‘ladi. Ammo, negadir bu sohada ham fundamental ya’ni qizlarimizning yoshlik davridan ayrim muammo-lar hamon uchrab turadi.

“Birgina ta’lim sohasini oladigan bo‘lsak, bizda qizlar va o‘g‘il bolalarning bilim olishlari, kasb tanlashlari boyicha kelajaklarini ta’minalashda farqlar bor edi, hali ham bunday dunyoqarash uchrab turibdi. To‘g‘ri, hamma bolalar maktabda o‘qitiladi. Biroq keyinchalik kasb tanlash, oliy o‘quv yurtida tahsil olishga kelganda, ko‘proq e’tibor va ustunlik o‘g‘il bolaning ta’lim olishiga, uning uchun barcha sharoitni yaratishga qaratiladi. Chunki ba’zi insonlarda faqat o‘g‘il bolaga bilim berish kerak, o‘qitish kerak, chunki u bizning boquvchimiz, degan qarashlar ustunlik qiladi. Qiz bolaga kelganda, bu boshqacha tus oladi. Maktab ta’limi majburiy bo‘lgani bois o‘qiydi. Ammo keyin “Bu birovning xasmi, kerak bo‘lsa turmush o‘rtog‘i boqib oladi”, degan tushunchaga urg‘u beriladi. Vaholonki, qiz bola oliy ma’lumotli bo‘lsa, qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgusida farzandlariga ham “yuqtiradi”, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi. Yurting kelajagi esa mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi”, [5] – deydi senator T.Narbayeva.

Globallashuv, ma’naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda oilalar o‘qigan, ilmli, ma’rifatli kelinlarga ehtiyoj sezayotir. Darxaqiqat, ilmli qiz, mulohazali kelin, yaxshi tarbiyachi, ona, oila qadrini har narsadan ustun qo‘yadigan beka bo‘la oladi. Kuzatuvlarga ko‘ra, ayollar ma’rifatli, ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol bo‘lgan jamiyat tinchroq, farovonroq va taraqqiyparvarroq bo‘ladi. Chunki ayol kishi resurslar ni qurollanish, xavfsizlik, huquq-tartibot sohalaridan ko‘ra ko‘proq ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fanga yo‘naltirishni istaydi. Bu uning tabiatini va onalik instinkti bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Demak, ayol-larni ma’rifatli qilish, huquqiy bilimini oshirish, moddiy ta’minotini yaxshilash, kasb-hunar o‘rgatish, jamiyat a’zolari ongiga “ayolga munosabat – taraqqiyotga munosabatdir”, degan tushunchani singdi-

rish, ayollarni ijtimoiy qo'llash tizimini rivojlantirish kabi yana talay amaliy chora-tadbirlar kelajak va taraqqiyot bilan bog'liq dolzarb masalalardir.

Ilmiy faoliyatning ahamiyatini yanada oshirishga va sohada samarali faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarimiz safini yanada kengaytirish masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb oylaymiz va quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- ayollarning ilmli bo'lish darajasini oshirishni ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada chuqurroq olib borish;
- mahalla fuqorolar yig'inida yo'lga qoyilgan kasb-hunar o'rgatish tizimini sifatli tashkil etish va bu yo'nalishda real hisobotlarni shakllantirish;
- mahalla fuqorolar yig'inida olima ayollar ishtirokida treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish;
- fan-ta'lim sohasida xotin-qizlarining innovation g'oyalari, loyiha va ishlanmalarini joriy etishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash va OAVda targ'ib qilish.

Yosh avlod ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, istiqlol g'oyalariga sadoqat ta'lim tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib, bu borada, ayol pedagoglar faolligi ayni vaqtida muhim ijtimoiy vazifalarni hal etishni taqazo etadi. Ular jamiatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. —Yangi O'zbekiston gazetasi 2021-yil 17-avgust.
2. Konfusiy "Sultonlarga nasihat risolasi" – Moskva, 1989. – 48-b.
<https://mininnovation.uz/ru/news/>
<https://gender.edu.uz/>
3. Narbayeva T. O'zbekistonlik xotin-qizlar ilm, ma'rifatga yo'g'rilgan islohotlar, ezgu ishlar yo'lida ona Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda <https://strategy.uz/index.php>

O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SIYOSATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Axmedov Farrux,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushu maqolada madaniy siyosat tushunchasi, madaniy siyosatning asosiy yo'nalishlari, madaniyat siyosatimizning asosiy vazifalari va tashkiliy-huquqiy asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zлari: Madaniy siyosat, madaniyat, teatr san'ati, kino, ma'naviy-ma'rifiy, madaniyat va san'at sohasi, madaniy yodgorliklar, xalq amaliy san'ati, muzeylar, kutubxonalar, san'at, filarmoniya.

Madaniy siyosat – davlatning madaniyat sohasidagi harakatlari uchun asos bo'ladijan faoliyat tamoyillari, ma'muriy va molivayiv faoliyat va tartiblar majmui hisoblanadi. Madaniy siyosat muayyan davlat, mintaqqa, munitsipalitet sharoitida madaniy jarayonlar va amaliyotlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Madaniy siyosatning asosiy yo'nalishlari madaniy merosni saqlash uchun shart-sharoitlarni, madaniy mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlarini ta'minlash, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar, madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ta'limdan iborat.

Yangi O'zbekistonda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani, ushbu sohadagi institusional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish hisoblanadi. Madaniyat siyosatimizning asosiy vazifalariga qo'yidagilar ham kiradi.

* tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash;

* milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

* aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish;

* madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

* fuqarolarning, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishi va madaniy xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengligini ta'minlash;

* madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratish;

* qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini ta'minlash;

* madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish [1].

Umuman olganda, madaniyat siyosati mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning maqsad va vazifalari davlatning ustuvor munosabatlari bilan bog'liq. Madaniyat siyosati nafaqat davlatning ustuvor yo'naliishlariga muvofiq, balki davlatning ham, alohida hududlarning ham tarixiy va madaniy an'analarni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Kengroq ma'noda madaniyat siyosatini u ta'minlanadigan faoliyat sifatida aniqlash mumkin: jamiyatdagi madaniy jarayonlarning asosiy tendensiyalarini loyihalash, madaniyat institutlarini jamoat tashkilotlarini va aholining madaniy-ma'rifiy ehtiyojiga mos keladigan qilib shakllantirish va rivojlanirish uchun siyosiy va iqtisodiy

sharoitlarni yaratishdir. Madaniyatni bozor munosabatlari elementlarining salbiy ta'siridan himoya qilish kafolatlari, madaniy faoliyatga ilmiy texnologiyalarni joriy etish, aholining madaniy hayotda ishtirok etishi kafolatlari tizimini yaratish.

Demak, madaniyat siyosati madaniyat sohasidagi jarayonlarni strategik boshqarish bo'lib, unda madaniy amaliyot va shakllar o'zining barcha xilma-xilligida (madaniy yodgorliklar, xalq amaliy san'ati, muzeylar, kutubxonalar, san'at, filarmoneyalar va boshqalar) namoyon bo'ladi. Madaniy siyosatni amalga oshirishning asosiy tashkiliy mexanizmlari ko'plab madaniyat tashkilotlari, madaniy faoliyatni amalga oshiruvchi madaniyat muassasalari hisoblanadi. Qolaversa, madaniy siyosat jarayonining o'zi bevosita madaniy faoliyatni boshqarish emas, balki ma'naviy, ijodiy faoliyat, madaniy jarayonlar, madaniy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun zarur shart-sharoitlarni qo'llab-quvvatlash va yaratishda ifodalanadi.

Bunday sharoitlarni yaratish asosan moliyalashtirish madaniyating muayyan tamoyillarini joriy etish va ularni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini ta'minlash (iqtidorli ijrochilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozlar berish, subsidiyalarni taqsimlash va boshqalar) bilan bajariladi. Madaniyat siyosati to'liq davlat ustuvorliklariga, uning byudjetini shakllantirishning asosiy tamoyillariga bog'liqdir.

Yangi O'zbekistonda madaniyat siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida 2017-yil 15-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 988-son qarori ham qabul qilingan edi.

Madaniyat siyosatini tashkiliy asosi xalqimizning milliy madaniy va ma'naviy merosini asrash va ko'paytirish, aholining madaniy darajasini oshirish, jamiyatning tobora o'sib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, madaniyat muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari ning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, ular faoliyati

samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish hisoblanadi.

Ayni paytda madaniyat siyosati sohasida maqsadlarni ishlab chiqish va madaniy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Buni xalqaro darajada tahlil qiladigan bo‘lsak, eng avvalo, BMTning “Jahon madaniyati o‘n yilligi” dasturida (1987–1997) davlatlarning madaniyat siyosati sohasidagi funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi quyidagi qoidalar qayd etilganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan:

– ijtimoiy taraqqiyotning har qanday xalqaro va milliy dasturlari, agar ular xalqlarning madaniy rivojlanishi ehtiyojlarini va madaniy jihatlarni hisobga olmasa, muvaffaqiyatga olib kelmaydi;

– madaniy taraqqiyotning hech qanday yagona jahon modellari mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki ular xalqlarning madaniy o‘ziga xosligini e’tiborsiz qoldiradi, ularning milliy va madaniy o‘ziga xosligiga tahdid soladi va shu sababli ular tomonidan o‘zgartiriladi yoki ongli ravishda rad etiladi;

– madaniy merosni saqlash va undan foydalanish, barcha fuqarolarni madaniy qadriyatlar yoki boshqa madaniy tadbirlar bilan tanishtirish uchun sharoit yaratish va “ijodkorlar”ning erkin faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish har qanday davlatning, munosib turmush sharoitlarini ta’minlash, (sog‘liqni saqlash, tabiiy muhitni saqlash, milliy xavfsizlik) kabi bir xil mas’uliyat sohasidir.

Madaniy siyosatning vositalari quyidagilar:

- madaniyat muassasalari tarmog‘ini yaratish va rivojlantirish;
- madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;

• madaniyat muassasalari faoliyatining qonunchilik va meyoriy-huquqiy bazasini shakllantirish. Madaniy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari va yo‘nalishlari statik emas va davlattdagi sharoitlarning o‘zgarishiga (iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar), shuningdek, madaniy sohadagi o‘zgarishlarga (madaniy faoliyat mazmunidagi yangi tendensiyalar, madaniy jarayonlar rivojlanishi va h.k.) qarab o‘zgaradi. Madaniyat siyosati umummilliy siyosatning davomi shaklida davr mafkurasi bilan taraqqiy etib boradi.

Davlat va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni madaniy siyosat modellari asosida ko‘rib chiqish mumkin. Bugungi kunda olimlar madaniyat siyosati strategiyalariga katta ahamiyat berishadi, chunki madaniyatga munosabat aynan shunga bog‘liq bo‘ladi. Madaniyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari madaniy siyosatga juda katta e’tibor berish kerakligini ko‘rsatadi. Madaniyat endilikda har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim dastagiga aylanib borayotgani tez-tez tan olinadi.

Fanda madaniyat siyosati modellarini tasniflashning bir qancha tamoyillari mavjud. Masalan, madaniyat siyosatini modellashtirish an’analardan biri A. Mol asarlariga borib taqaladi. Fransuz madaniyatshunosi va sotsiologining fikricha, madaniy siyosat ikki yo‘nalishga ega: siyosat sub’ekti madaniyat taraqqiyotini jadallashtirishga intilganda “progressiv” va siyosat sub’ekti madaniyat taraqqiyotini sekinlashtirishga intilganda “konservativ” yo‘nalish vujudga keladi.

Madaniy siyosatni modellashtirishning boshqa yondashuvlarida ko‘pincha ikkita asosiy yo‘nalish ajratiladi, ular faqat tafsilotlarni hisobga olmagan holda umumiy vaziyatlarni tavsiflaydi.

1. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga asoslangan madaniyat siyosati. Bunda madaniyat asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Hokimiyatning manfaatlari asosan ma’muriyat tomonidan subsidiyalarni boshqarish, taqsimlash jarayoniga qaratilgan; asosiy e’tibor an’anaviy sohalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi: muzey, madaniyat markazlari, teatr va boshqalar;

2. Bozorga yo‘naltirilgan madaniyat siyosati. Madaniyat bozor sharoitida ishlaydi, madaniy tadbirlarni moliyalashtirish asosan tijorat fondlari hisobidan amalga oshiriladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, madaniy siyosatning ushbu modellari ning afzallik va kamchiliklari mavjud.

Birinchi modelda madaniyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazoratga olinadi. Davlat qoidalariga mos kelmaydigan ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning deyarli imkoniy yo‘q. Yagona boshqaruv va konservativizm (ijtimoiy va madaniy hayotda an’ana va vorislik g‘oyasi ga tayanuvchi xilma-xil g‘oyaviy siyosiy va madaniy oqimlar maj-

mui. Tarixda konservativizm turli shakllarda namoyon bo‘lgan, lekin, umuman olganda, mavjud va barqaror ijtimoiy tizimlar hamda meyorlarga moyillik, inqilob va keskin islohotlarni qabul qilmaslik konservativizmga xos assosiy xususiyat hisoblangan) va innovatsion, nostandard madaniy amaliyotlarni rad etadi [2].

Ikkinchi modelda umumiy milliy madaniyat tendensiyalariga kam e’tibor beriladi. Ko‘proq bozor an’anaviy madaniyat sohasida-gi ijtimoiy muhim yo‘nalishlarning rivojlanishiga to‘sinqilik qiladi va o‘z-o‘zini namoyon qilish har doim ham tijorat muhitida qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Shubhasiz, eng maqbuli bu modellarning tarixiy-madaniy sharoit va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda ma‘lum bir muvozanatdir. Madaniy siyosatni modellashtirishning yana bir usuli ham davlat va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Lekin bu munosabatlarning ayrim elementlarini hisobga oladi. Davlat madaniyatni boshqarish strategiyasini qanday qurayotganiga ko‘ra, madaniy siyosatning quyidagi xorijiy modellari ajralib turadi.

Davlat – “yordamchi”, “ilhomlantiruvchi” (AQSH).

Madaniy siyosatda davlat umuman madaniy faoliyatning xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Moliyalashtirish manbai turli xil xususiy va tijorat tuzilmalari bo‘lib, davlat ularni moslashuvchan qonunchilik va soliq siyosati orqali quvvatlaydi. Davlat madaniyat sohasiga hissa qo‘shishni rag‘batlantiradigan muhit yaratadi va madaniy muassasalar – birga ishlovchi beg‘araz shaxslari izlaydi.

Davlat – “homiy”, “metsenat” (Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlari).

Madaniy siyosatda davlat jamiyatning madaniy hayotida faol ish-tirok etadi, kasbiy madaniy ijomad va faoliyat standartlarini ta’minlaydi. Moliyalashtirish tizimi tijorat tuzilmalaridan faol foydalanish bilan ham bog‘liq, ammo bu holda hal qiluvchi rolni vositachi davlat muas-

sasalari (badiiy kengashlar, davlat tomonidan tashkil etilgan idoralar) bajaradi.

Ular mablag‘larni, davlat subsidiyalarini boshqaradi. Mutaxassislarning, biznes va madaniyat o‘rtasidagi vositachilarning roli ortib boradi. Davlat o‘zgarishlarga moslashuvchan javob beradi, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlanadi.

Davlat – “me’mor” (Fransiya).

Madaniyat siyosati ijtimoiy siyosatning bir qismi bo‘lib, madaniyatni davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlashni hisobga olgan holda quriladi. Madaniyatni davlat tomonidan barqaror va muntazam moliyalashtirish vazirlik yoki boshqa davlat organlari orqali amalga oshiriladi. Davlat jamiyatning umumiy ijtimoiy-madaniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning bir qismi bo‘ladi [3].

Yangi O‘zbekistonda madaniyat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Milliy madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tarixiy va madaniy merosning but saqlanishini ta’minlash, shuningdek xalq ijodiyotini yanada rivojlantirishdir. Bugungi kunda esa, madaniy faoliyat sohasiga davlat-xususiy sheriklikni joriy etish, aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash va yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni yaxshilash bo‘yicha bir qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Yosh iste’dodlarni o‘qitish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Madaniy siyosatning madaniyat sohasi uchun o‘rni katta. Madaniy amaliyotning rivojlanishi ko‘p jihatdan davlat tomonidan madaniyat siyosati mexanizmlari orqali belgilab berilgan tamoyillar va ustuvorliklarga bog‘liq bo‘ladi. Davlatimiz tomonidan madaniyat sohasi yo‘nalishlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Asosan, ustuvorliklar masalasi

– qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish va boshlashga muhtoj bo‘lgan ish sohalarini aniqlashdir. Chunki, Madaniyat sohasini rivojlantirish uchun asos bo‘la oladigan samarali meyoriy-huquqiy bazani o‘z vaqtida yaratish muvaffaqiyatli madaniyat siyosatining kalitidir.

Har qanday mamlakatda madaniyatning rivojlanishi davlatimiz, siyosiy partiyalar, OAB, kasaba uyushmalar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-teknikaviy, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalar, assotsiasiylar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalariga ham bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi vaqtida davlat hokimiyat va qonunchilik mexanizmlariga tayanib, madaniyat sohasidagi jarayonlarni tartibga soluvchi, madaniy xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi apparat sifatida ishlaydi. Davlat-huquq tizimining mutanosib va munosib ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda, madaniy faoliyatni rivojlantirish, ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va madaniyat bo‘yicha uning ijtimoiy funksiyalari samarali faoliyat ko‘rsatish uchun qulay zamin yaratish mumkin bo‘ladi.

Davlat madaniyat sohasidagi faoliyatni quyidagi mexanizmlar orqali tartibga solishi mumkin:

- huquqiy mexanizm (qonunlarni ishlab chiqish, madaniy faoliyat uchun huquqiy sharoitlar yaratish);
- moliyaviy mexanizm (madaniy muassasalar va madaniy tadbir-larni moliyalashtirish);
- ma’muriy-ta’sis mexanizmi (madaniyat tashkilotlarini tashkil etish, apparat ishlari, madaniyat muassasalarida bir qator funksiyalarini bajarish);
- nazorat mexanizmi (madaniy muassasalar ishini nazorat qilishni ta’minlash);
- madaniy-siyosiy mexanizm (madaniy siyosat strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash).

Foydalanalgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018-yilda-gi PQ-4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/4084926>
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konservatizm-uz/>
3. A.Nurullayev. San’at menejmenti va marketing [matn]: o‘quv qo‘llanma / – Toshkent: “Donishmand ziyozi”, 2023. – 200-b

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI MUAMMOLARI

Shamshod O‘rinov,

Buxoro davlat universiteti

Musiqा ijrochiligi va madaniyat kafedrasи

o‘qituvchisi

Nilufar Qosimova,

Buxoro davlat universiteti

San’atshunoslik va pedagogika fakulteti

Madaniyatshunoslik ta’lim yo‘nalishi

I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston madaniyat markazlari faoliyati, ularni boshqarish va to‘garak rahbarlarining vazifalari haqida so‘z boradi. Lavozim yo‘riqnomalari ilmiy-metodik markaz tomonidan ishlab chiqilib, madaniyat vaziri tomonidan tasdiqlanishi ta’kidlanadi. Markaz direktori nizom asosida ishlaydi, to‘garak rahbarlari esa yoshlarni jaib qilish, hudud ehtiyojolarini o‘rganish va hisobot yuritish bilan shug‘ullanadi. Respublikadagi madaniyat markazlarida turli yo‘nalishlarda mashg‘ulotlar olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Madaniyat markazlari, lavozim yo‘riqnomalari, markaz direktori, to‘garak rahbari, yoshlarni jaib qilish, ijtimoiy ehtiyojlar, ish rejasi, hisobot, Madaniyat vazirligi.

Аннотация: В статье рассматривается деятельность культурных центров Узбекистана, их управление и обязанности руководителей клубов. Подчеркивается, что должностные инструкции разрабатываются научно-методическим центром и утверждаются министром культуры. Директора центров работают на основе устава, а руководители групп занимаются привлечением молодежи, изучением потребностей региона и составлением отчетов. Обучение по различным направлениям проводится в культурных центрах республики.

Ключевые слова: Культурные центры, должностные инструкции, директор центра, руководитель клуба, вовлечение молодежи, социальные потребности, план работы, отчет, Министерство культуры.

Abstract: This article discusses the activities of cultural centers of Uzbekistan, their management and the responsibilities of the leaders of the circles. It is noted that job descriptions are developed by the scientific and methodological center and approved by the Minister of Culture. Center directors work on the basis of the charter, while circle leaders are engaged in attracting young people, studying the needs of the region and keeping reports. Training in various areas is carried out in cultural centers of the republic.

Key words: Cultural centers, job descriptions, center director, club leader, youth involvement, social needs, work plan, report, Ministry of Culture.

Madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ham lavozim yo‘riqnomalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi ishlab chiqilib, madaniyat vazirligiga taqdim etiladi hamda madaniyat vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Bugungi kunda republikamizda faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarida markaz direktorlari eng avvalo markazning faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 264-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida olib boradi.

To‘garak rahbari – madaniyat markazlarida to‘garak rahbari o‘zi tashkil etishi lozim bo‘lgan to‘garakga o‘quvchi yoshlarini keng jalb qilishi, bunda hudud ijtimoiy qatlamini o‘rganishi, ularning ehtiyojlari nimadan iborat ekanligini inobatga olib faoliyatni tashkil etadi. Shuningdek, to‘garak rahbari o‘zi tashkil etgan to‘garakga kelgusida ish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ish rejalarini ishlab chiqib, oylik, yarim-yillik hamda-yillik hisobotlarni yuritadi hamda nazorat qiluvchi madaniyat bo‘limining mas’ul xodimi badiiy rahbariga taqdim etib boradi.

Madaniyat markazining asosiy sohalarini yorituvchi ish hujjatlariga:

- metodik qo‘llanmalar stendi;
- madaniyat markazining oylik,-yillik ish rejalari papkasi;
- madaniy va ma’rifatga bag‘ishlangan tadbirlar ma’lumoti;
- yozma va statistik hisobot namunalari;
- turli mavzularda o‘qiladigan ma’ruzalar, suhbatlar va davra suhbatlarining mavzular jamlamasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, mafkura va madaniyat masalalariga oid chiqargan qonunlari, qarorlari va farmonlari papkasi;
- mavzuli kechalar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, milliy urf-odat va marosimlar, turli udumlar va an’analarning ssenariylari to‘plami;
- turli ommaviy tadbirlarning afishalar, e’lonlar, taklifnomalar nusxalari jamlamasi;
- ko‘rik-tanlov, bellashuv va festivallar nizomlari jamlamasi;
- adabiyot, san’at, madaniyat va boshqa jurnal hamda ro‘znomalarda bosilgan maqolalar nusxasi bosilgan jamlanmalar papkasi;
- badiiy havaskorlik to‘garaklari va jamoalari faoliyatini yorituvchi fotoalbom;
- shahar madaniyat muassasalari, madaniy-ma’rifiy ishlar xodimlari, o‘garaklar, jamoalar, uyushmalar faoliyatiga bag‘ishlangan ma’lumotlar;
- shahar va viloyat miqyosida o‘tkazilgan yirik tadbirlar ma’lumotnomalari;
- markaz xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari papkasi;
- madaniyat muassasalarini turli meyoriy huquqiy hujjatlar papkasi saqlanishi shart.

Madaniyat markazlarining moddiy jihatdan barqarorlashtirish ular tomonidan tashkil etilagan pullik xizmatlarning saviyasiga bog‘liq. Bugungi kunda madaniyat markazlarida deyarli pullik to‘garaklar tashkil etilmagan. Og‘riqli bo‘lsa ham aytish joizki, bepul to‘garaklarga ham yoshlarni jalb qilish sust holatda. Bunday holatlarda sabab

madaniyat markazi rahbari tomonidan yangi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar, takliflarning yo‘qligi, tashabbuslarning hatto o‘ylab ko‘rilmaganligi sabab bo‘lmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Har bir inson har kun qiladigan ishini xuddi bиринчи мarta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo‘ladi” deganlaridek, markaz xodimlari o‘z funksiyalarini bajarishda xorijiy model-larga asosan amalga oshirishsa natija yuqori bo‘ladi.

Madaniyat vazirligining bir tarmog‘i sifatida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlari bugungi kunda jadal sur’atlar bilan moddiy texnika bazasi ta’mirlanmoqda. Ularda ijodiy muhit rivojlan-tirilmoqda. Ushbu berilayotgan imkoniyat, yaratilayotgan sharoitlar-dan oqilona foydalangan holda ishni tashkil etish har bir soha xodimi oldida turgan asosiy vazifa sanaladi.

Xalqimiz bayram tantanani seuvchidir. Har bir bayramda hoh u siyosiy, hoh u milliy, hoh u turizm yoki ijtimoiy madaniy tadbir bo‘lsin, barchasida millliy urfodatlarimiz, qadriyatlarimizni tarannum etuvchi folklor jamoalarimiz ishtiroki ta‘minlanadi. Buning zamirida ham asosiy ma’no o‘zbek xalqi uzoq-yillik tarixga ega ekanligi, qadri-yatlar uzoq davr mobaynida vaqtlar, zamonlar osha yetib kelayotganligi, hamda kelajakda ham bunday an’ana davom etishini tarannum etishdan iboratdir. Ana shunday milliy qariyatlar-u an’analarni izlab topish, uni asrab avaylash, belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, kerak bo‘lsa, YUNESKOning umumjahon ro‘yxatiga kirishtishda asosiy va bиринчи омил бу маданият markazlari faoliyati sanaladi. Aytib o‘tish joizki, bugungi kunda “Lazgi” raqsi, “Askiya san’ati” ana shunday ro‘yxatlar qatorida turganligi soha mutaxasislarining say harakatlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Milliy o‘yinlarimiz, milliy kuy va qo‘shiqlarimiz bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Bu esa, milliyligimiz uchun fojia sanaladi. Bunga bir qancha omillarni ko‘rsatish mumkin:

- G‘arb madaniyatining kirib kelishi;
- Axborot – IT texnologiyalari asrida yashayotganligimiz.

Qolaversa, o‘tish davri talablaridan kelib chiqib, barcha jabhalar-da boshqaruvni yanada rivojlantirish, takomillashtirish va qayta is-loh qilish chorralari ko‘rilgani kabi madaniyat va san’at sohasida ham zamonaviy boshqaruvchilarni-menejerlarni tayyorlash zaruriyati o‘ta dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, san’at va madaniyat sohasiga davlat tomonidan moliyaviy ko‘makni kuchaytirish, ta’lim sifatini yaxshilash,ish bilan ta’minlash va rag‘batlantirish tizimini yaxshi-lash,malakali mutaxassislarini tayyorlash va xalqaro tajribalarni o‘z-lashtirish, jamiyatda san’at va madaniyatning o‘rni va ahamiyatini oshirish bo‘yicha keng targ‘ibot ishlarini olib borish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, madaniyat va san’at sohasi uchun malakali kadrlar yetishtirish tizimi takomillashadi va ijodiy soha rivojlanadi.

Foydalanimanadabiyotlar

1. A. Haydarov “Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asosla-ri” 8-bet.
2. K.Sh.O‘rinov “Madaniyat markazkari ishi” 6-7 bet.
3. K.Sh.O‘rinov “Madaniyat markazlari ishi” 22-bet.
4. K.Sh.O‘rinov “Madaniyat markazlari ishi” 24-bet.
5. Urinov, Sh K. “THE MAIN CRITERIA OF CULTURAL CEN-TERS IN THE FORMATION OF CREATIVE ABILITY.” *Multidis-ciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 52-59.
6. Shamshod, O‘RINOV, and Saodat SADULLAYEVA. “IJO-DKOR SHAXSLAR VA ISTE’DODLARNI YUZAGA CHIQARISH SHAKL VA USULLARI.” *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 81-86.
7. O‘rinov, SH K., and E. Sultonmurodova. “MENEJERNING MADANIYAT SOHASIDAGI KASBIY MALAKASI, USLUBLA-RI VA REJALASHTIRISH.” *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN* 1.4 (2023): 225-230.

SAN'AT VA MADANIYAT SOHASINI ILMIY O'RGANILISHNING DOLZARB JIHATLARI

Muhammad Rustamov,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasining ilmiy o'r ganilishining dolzarb jihatlarini tahlil qilingan. San'at va madaniyat sohasining ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarga ta'siri, estetik ahamiyati haqida ham so'z yuritiladi. Madaniyat va san'atning o'r ganilishi nafaqat tarixiy taraqqiyot jarayonlarini tahlil qilish, balki zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalarini rivojlantirishda ham muhimdir. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirish soha ning fundamental asoslarini mustahkamlashda ham katta ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: san'at, madaniyat, ilmiy o'r ganish, madaniy rivoj lanish, ijtimoiy jarayonlar.

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные аспекты научного изучения искусства и культуры. Рассматривается влияние искусства и культуры на социальные, культурно-просветительские процессы, а также их эстетическое значение. Изучение культуры и искусства важно не только для анализа исторических процессов развития, но и для формирования тенденций развития современного общества. Проведение таких исследований также служит важным научным источником для укрепления фундаментальных основ данной области.

Ключевые слова: искусство, культура, научное изучение, культурное развитие, социальные процессы.

THE URGENT ASPECTS OF SCIENTIFIC STUDY OF ART AND CULTURE

Abstract: This article analyzes the urgent aspects of the scientific study of art and culture. It discusses the influence of art and culture on social and cultural-educational processes, as well as their aesthetic significance. The study of culture and art is important not only for analyzing historical development processes but also for fostering the development trends of modern society. Conducting such research also serves as a significant scientific source for strengthening the fundamental foundations of the field.

Keywords: art, culture, scientific study, cultural development, social processes.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qoymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qoydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz.

Darhaqiqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu so‘zlar, xalqimizning kelajakka bo‘lgan ishonch va umidini ifodalab, tarixiy va madaniy merosiga bo‘lgan chuqur hurmatni shakllantirishimiz zarurligini aks ettiradi. Sababi, xalqimizning jahon miqyosida o‘zining mustahkam o‘rnini egallashi, asosan, uning qadimiy va boy tarixiga, bebaho qadriyatlari va an’analariiga tayangan holda amalga oshadi.

Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek san’ati va madaniyatini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish zarurdir.

Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab

muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san’atining o‘rnii va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Xalqimizning iqtisodiy, madaniy va siyosiy maydondagi o‘rni ortib borayotani dunyo miqyosida ham yanada yuksalishimizga ishonch uyg‘otadi. Beba ho qadriyatlarimiz esa, xalqimizning o‘ziga xos an’analari, qadriyatları va urf-odatlarining yuksakligidan darak beradi. Endilikda milliyligimizni yosh avlod ongu-tafakkuriga singdirish, uni yanada targ‘ib qilishda san’at va madanyat sohasining roli g‘oyatda yuqori ekanligidan dalolatdir. Shunday ekan, san’at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganilishi bugungi kunda yanada dolzarb bo‘lib, ularning jamiyatdagi roli va ahamiyati tobora chuqurlashib, yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va falsafiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda. San’at va madaniyat nafaqat estetika yoki madaniy-ko‘ngilochar sohalar sifatida, balkim insoniyatning tafakkurini, tarixini va qadriyatlarini anglashda muhim ilmiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan san’at va madaniyatni o‘rganish, uning shakllanishi va taraqqiyoti, insoniyat tarixidagi o‘zgarishlarni va madaniy aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, san’at va madaniyatning turli ijtimoiy guruhlari va xalqlar orasidagi aloqalarni qanday rivojlantirishini, madaniy tafovutlarni qanday tushunishni va ularni qanday birlashtirish mumkinligini o‘rganish jamiyatning integratsiyasi va barqarorligi uchun zarurdir.

Madaniyatning ilmiy o‘rganilishi, ayniqsa, globalizatsiya jarayonida madaniy meros va identitetni saqlab qolish, madaniy taraqqiyotning yangi shakllarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun davlat madaniyat va san’atni targ‘ib etishda o‘ziga xos hamkor va yetakchi kuch sifatida maydon ga chiqdi. Zero, bugun yoshlarda, umuman, aholining turli qatlami vakillarida bunga ishonch uyg‘ona boshladi. Bunga javoban Uchinchi

Renessans bo'sag'asidagi islohotlarda soha xodimlari birinchi safda turishi lozim. Zero, san'at va madaniyat ko'magida shakllangan millat hech qanday yot g'oyalar va davlatlar ta'siriga tushib qolmaydi. Madaniyat va san'at asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, qalbida oljanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik, hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va bu qonuniyat o'zgarmasdan davom etmog'i lozim. Hozirgi davrda madaniyat va san'at, iqtisodiy va texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog'langan bo'lib, san'at asarlari nafaqat estetik qiymatga ega, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning aksidir.

Zero, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz. Darhaqiqat, bugun ma'naviyatning negizini tashkil etuvchi sohalar – ma'rifat, adabiyot, madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur sohalarga doir qator hujjatlar qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Shuningdek, san'at va madaniyat sohasining ilmiy tahlili va istiqboldagi xulosalari insonlar ruhiyatini va uning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.

Bu orqali, nafaqat o'ziga xos san'ati va madaniyati bor xalqlar, balki ularning tarixi, qadriyatları va dunyoqarashları haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Demak, san'at va madaniyatning ilmiy o'rganilishi jamiyatning rivojlanishida, insonlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashda, madaniy merosni saqlashda va yangi madaniy jarayonlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohaning ilmiy o'rganilishi, ayniqsa global miqyosda "ommaviy madaniyat"ni anglashga, salbiy tamonlarini to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi.

Eng muhimmi, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifatni rivojlantirish bugun muayyan tashkilotlarninggina emas, butun xalqimizning ishi, har birimizga tegishli dolzarb vazifa ekaniga urg‘u berilyapti. Chunki bu zalvarli yumush hamma birlashsa, jipslashsa, bir yoqadan bosh chiqarib, bir musht bo‘lib harakat qilsagina yuzaga chiqadi. Bu masalalar ga beparvolik, loqaydlik, panja orasidan qarash esa kelajagimizga, el-yurtimiz taqdiriga bepisandlik, hatto xiyonat bilan barobardir. Chinakam ijod ahli uchun esa yuksak iste’dod va mahoratini ziyo ulashishga safarbar etish, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtiroki bilan yangi Uyg‘onish davrini barpo qilishga munosib hissa qo’shish eng ezgu, hayotiy tamoyil bo‘lib qolaveradi. Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

Shu bilan birga, san’at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganilishi ni yanada rivojlantirish uchun bir nechta fundamental asoslarni ishlab chiqish lozim. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy va individual jihatlarga e’tibor qaratish muhimdir. San’at va madaniyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun mutaxassislar, olimlar va san’atkorlar o‘rtasida ko‘proq hamkorlik o‘rnatish kerak. Interdisiplinar ilmiy yondashuvni rivojlantirish, san’at va madaniyatni faqat estetik jihatdan emas, balkim fanlararo o‘rganish imkonini beradi.

Sohada ilmiy tadqiqotlar uchun zamonaviy texnologiyalarni, ayniqsa raqamli texnologiyalarni keng qo’llash zarur. Shuningdek, ilmiy izlanishlarning natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish, ilm-fan va san’atni ommalashtirishda “scopus”, “web of sciences” kabi bazalarda indekslanadigan jurnallarda chop ettirish tizimini rivojlantirish zarur.

San’at va madaniyat yuksakligi – qalb yuksakligi. Buyuk asarlar ni, kashfiyot va ixtirolarni buyuk qalb yaratadi. Buyuk qalblar odatda ezgulikka limmo-lim bo‘ladi, ulardan yomonlik chiqmaydi. Yoshlar ongu qalbini egallash uchun kurash keskinlashgan, mafkuraviy tahlidlar kuchaygan bugungi zamonda san’at va madaniyat g‘alabasi –

ezgulik g‘alabasidir. Bundan boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Ishonamizki, madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir say-harakatlar o‘z mevalarini uzoq kuttirmaydi. Bu, albatta, ijro intizomini ta’minlashdagi mas’uliyatimizga bog‘liq. Buni tizimdagi har bir xodim to‘laqonli anglab yetishi, ish faoliyatini bugungi davr talabiga mos holda, avvalo, o‘ziga talabchanlik ruhida olib borishi zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishiladi, shundagina Uchinchi Renessansga mustahkam poydevor qo‘yiladi – degan edi Madaniyat vaziri O.Nazarbekov.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamон va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2024. 560-b.
2. Nazarbekov O. E’tibor va rag‘bat — avji baland ijod va go‘zal hayotga qanot // Gaz. Yangi O‘zbekiston 75-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2022. 6-b.
3. Nazarbekov O. Ortga qaytmas islohotlar maqsadi har birimizda yaratuvchanlik shijoatini uyg‘otadi // Gaz. Yangi O‘zbekiston 203-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2023. 6-b.

**IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYALASHUV
JARAYONIDA MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARI FAOLIYATIGA INVESTITSIYALARНИ
JALB QILISHNING AHAMIYATI**

**Xayitboy Sotiboldiyev,
O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalari ajratish tartibi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada transformatsiya sharoitida madaniyat va san'at muassasalariga investitsiyalarni jalg qilish hamda xorij tajribasi tahlil qilinadi. Madaniyat va san'at sohasidagi tadbirkorlarga – moliyaviy ko'mak va imtiyozlar, Davlat-xususiy sheriklik asosida madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish xohishini bildirgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar kompleksi, Madaniyat va san'at nodavlat muassasalari xarajatlarining bir qismini qoplash uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil qilingan shunday muassasalarga davlat madaniyat va san'at muassasasining yillik daromadlari va xarajatlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibi, Madaniyat muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan raqamlı axborot tizimlarini joriy etishning dolzarb masalalari va asosiy tushunchalari, yangi raqamlı texnologiyalar va ular amaliyotga joriy etishga investitsiyalarni jalg qilish muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Madaniyat va san'at muassasalari, investitsiya, davlat-xususiy sherikchiligi, raqamlı transformatsiya, jamoat tashkilotlari, davlat boshqaruvi, raqamlı infratuzilma, elektron hukumat, xorijiy investitsiya, malakali kadrlar, raqamlı axborot tizimlari, raqamlı strategiya, raqamlı iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье анализируется зарубежный опыт привлечения инвесторов в учреждения культуры и искусства в условиях трансформации. Предпринимателям в сфере культуры и искусства – финансовая поддержка и стимулирование, комплекс мер по поддержке предпринимателей, изъявивших

желание создат учреждения культуры и искусства на основе государственно-частного партнерства, покрыт част расходов негосударственных учреждений культуры и искусства, таким учреждениям, созданным на условиях государственно-частного партнерства, исходя из годовых доходов и расходов государственного учреждения культуры и искусства из Государственного бюджета Республики Узбекистан. Порядок выделения субсидий, текущие вопросы и основные понятия обсуждались вопросы внедрения цифровых информационных систем, направленных на поддержку деятельности учреждений культуры, новых цифровых технологий и привлечения инвестиций в их внедрение.

Ключевые слова: Институции культуры и искусства, инвестиции, государственно-частное партнерство, цифровая трансформация, общественные организации, государственное управление, цифровая инфраструктура, электронное правительство, иностранные инвестиции, квалифицированный персонал, цифровые информационные системы, цифровая стратегия, цифровая экономика.

Abstract: This article analyzes foreign experience in attracting investments to cultural and art institutions in the context of transformation. Financial support and incentives for entrepreneurs in the field of culture and art, a set of measures to support entrepreneurs who have expressed a desire to establish cultural and artistic institutions on the basis of public-private partnership, the procedure for allocating subsidies from the State budget of the Republic of Uzbekistan to such institutions established on the basis of public-private partnership to cover part of the costs of non-governmental cultural and artistic institutions, based on the annual income and expenses of the state cultural and artistic institution, topical issues and basic concepts of the introduction of digital information systems aimed at supporting the activities of cultural institutions, new digital technologies and attracting investments in their implementation are discussed.

Key words: Cultural and artistic institutions, investment, public-private partnerships, digital transformation, public organizations,

public administration, digital infrastructure, e-government, foreign investment, skilled personnel, digital information systems, digital strategy, digital economy.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayon global miqyosda korxonalar faoliyatida tub o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ularning keng qo'llanilishi korxonalarga yangi imkoniyatlar va biznes modellarini taklif etmoqda, shu bilan birga yangi qiyinchiliklar va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Innovatsion faoliyat raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozonish uchun muhim omil hisoblanadi, chunki u korxonalarga raqobatbardoshlikni saqlash va oshirish, bozor talablariga tez moslashish, shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish imkonini beradi.

So'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san'at muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat va san'at muassasalarini binolarini qurish va ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi ishlar talab darajasida emas. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi muassasalar tarmog'i ni kengaytirish va ularning moddiy-texnik ahvolini mustahkamlash, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonlar raqamli transformatsiya orqali korxonalarning innovatsion strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, tadbirkorlik subektlari raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lган yangi yondashuvlar va amaliyotlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu borada yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev “Xalqimiz dunyo qarashida innovatsiya muhitini yaratish – eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lолmaymиз” deya ta’kidlanganlari ham bejiz emas.

San’at va madaniyatga ta’sirli sarmoya kiritish imkoniyatlari: Ta’sirli investitsiyalar sohasida san’at va madaniyat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu sektorlar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi, lekin jamoalarmi o‘zgartirish, merosni saqlash va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Bottom Billion Corporation (BBC) kabi tashkilotlar yuqori xavfli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va kam ta’miinlangan jamoalarmi kengaytirish missiyasiga mos keladigan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan. Ushbu maqola san’at va madaniyatga ta’sirli investitsiyalarning ahamiyatini o‘rganadi, strategiyalar, imtiyozlar va ilhomlantiruvchi muvaffaqiyat hikoyalarni ta’kidlaydi.

Ta’sirli investitsiyada san’at va madaniyatning ahamiyati: san’at va madaniyat ijtimoiy o‘zgarishlar uchun kuchli vositadir. Ular merosni asrab-avaylashi, jamiyat g‘ururini oshirishi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi va ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishi mumkin. Ushbu sohalarga ta’sir etuvchi investitsiyalar nafaqat san’atkorlar va madaniyat muassasalarini qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, balki kengroq ijtimoiy va iqtisodiy foyda keltiradi.

San’at va madaniyatga sarmoya kiritishning asosiy afzalliklari: Iqtisodiy o‘sish: Madaniy investitsiyalar turizmni jalb qilish, ish o‘rinlarini yaratish va daromad olish orqali mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirishi mumkin. San’at festivalari, madaniy hududlar va meros ob’ektlari madaniy investitsiyalar iqtisodiy faoliyotni qanday oshirishi mumkinligiga misoldir. Ijtimoiy uyg‘unlik: San’at va madaniyat odamlarni birlashtiradi, jamiyat va umumiyligi o‘ziga xoslik hissini rivojlantiradi. Ular ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etishi, tushunishni rivojlantirishi va hayot sifatini oshirishi mumkin. Merosni saqlash:

Madaniy merosga investitsiyalar kelajak avlodlar uchun tarixiy joylar, an'analar va bilimlarni saqlab qolishga yordam beradi. Bu nafaqat o'tmishni sharaflaydi, balki ta'lim imkoniyatlari va madaniy davomiylikni ham ta'minlaydi. Imkoniyatlarni kengaytirish: San'atkorlar va madaniyat institutlarini qo'llab-quvvatlash shaxslar va jamoalarga kuch beradi, ularga o'zini namoyon qilish, innovatsiya qilish va jamiyatga hissa qo'shish uchun resurslarni taqdim etadi.

San'at va madaniyatga ta'sirli investitsiyalar strategiyalari: san'at va madaniyatga sarmoyalarning ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun barqarorlik, inklyuzivlik va keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydigan strategiyalarni qabul qilish zarur.

Mahalliy rassomlar va madaniyat muassasalarini qo'llab-quvvatlash: mahalliy san'atkorlar va madaniyat muassasalariga sarmoya kiritish madaniy ekotizimni qo'llab-quvvatlashning bevosita yo'lidir. Grantlar, homiylik va rezidentlik san'atkorlarni yaratish va innovatsiyalar yaratish uchun zarur resurslar bilan ta'minlaydi. Muzeylar, teatrlar va galereyalar kabi madaniyat muassasalari o'z dasturlarini kengaytirish, jihozlarni yaxshilash va kengroq auditoriyani qamrab olish uchun mablag'dan foydalanishlari mumkin. Madaniy infratuzilmani rivojlantirish Madaniy tumanlar, san'at markazlari va meros ob'ektlari kabi madaniy infratuzilmani rivojlantirish madaniyat rivojlanishi mumkin bo'lgan joylarni yaratadi. Ushbu investitsiyalar iqtisodiy faoliytkni rag'batlantiradi, sayyoohlarni jalb qiladi va jamoatchilikni jalb qilish va ta'lim olish uchun joylarni taqdim etadi. Madaniy turizmni rivojlantirish: Madaniy turizm iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Madaniy festivallar, meros ob'ektlari va san'at tadbirlarini targ'ib qilish va sarmoya kiritish orqali investorlar tashrif buyuruvchilarni jalb qilishi va mahalliy iqtisodiyot uchun daromad keltirishi mumkin. Madaniy turizm ham mahalliy urf-odatlar va meros haqida xabardorlikni oshiradi, ularni asrab-avaylashga hissa qo'shadi. Texnologiyadan foydalanish: Texnologiya madaniy investitsiyalarning ta'siri va ta'sirini oshirishi mumkin. Raqamli platformalar, virtual reallik va ijtimoiy media madaniy kontentni targ'ib qilish, tomoshabinlar bilan muloqot qilish va shaxsan tashrif buyurish imkoniga ega bo'lмаган odamlar uchun madaniy tajribalarga kirishni ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin.

San'at va madaniyatga kiritilgan investitsiyalaridagi muvaffaqiyat loyihalari: Bilbaodagi Guggenxaym muzeyi, Ispaniya Bilbaodagi Guggenxaym muzeyi madaniy investitsiyalar jamiyatni qanday o'zgartirishi mumkinligining yorqin namunasidir. 1997 yilda ochilgan muzey millionlab tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qildi, sezilarli iqtisodiy faollikni keltirib chiqardi va Bilbao shahrini jonlantirdi. Madaniyatga kiritilgan bu sarmoya nafaqat shaharning jahon miqyosidagi obro'sini oshirdi, balki ish o'rirlari yaratdi, mahalliy biznesni rivojlantirdi va aholi o'rtasida faxr tuyg'usini uyg'otdi. Afrika madaniy merosi tresti Afrika madaniy merosi tresti (ACHT) Afrikaning boy madaniy merosini saqlash va targ'ib qilishga bag'ishlangan. Tarixiy joylarni tiklash va an'anaviy san'at va hunarmandchilikni targ'ib qilishga sarmoya kiritish orqali ACHT mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi va jamoalarga imkoniyatlar beradi. Trest tomonidan yoshlarga ularning madaniy merosini o'rgatish, an'analarni kelajak avlodlarga yetkazish boyicha ma'rifiy dasturlar ham olib borilmoqda. Creative Time Initiative, Nyu-York, AQSh Creative Time Nyu-Yorkdagi ommaviy san'at tashkiloti bo'lib, u ommaviy san'at loyihalarini topshiradi va taqdim etadi. Ijodiy vaqt jamoat joylarida innovatsion va oylantiruvchi san'at inshootlarini moliyalash orqali turli auditoriyalarni jalb qiladi va ijtimoiy masalalar boyicha muloqotni rivojlantiradi. Ommaviy san'atga yo'naltirilgan bu sarmoya shaharning madaniy jo'shqinligini oshiradi, san'atkorlarni qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy o'zgarishlarga yordam beradi. San'at va madaniyatga sarmoya kiritish mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, merosni asrab-avaylash va jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning kuchli strategiyasidir. Mahalliy san'atkorlar va muassasalarini qo'llab-quvvatlash, madaniy infratuzilmani rivojlanirish, madaniy turizmni rivojlanirish va texnologiyalardan foydalananish orqali investorlar o'zlarining ta'sirini maksimal darajada oshirishlari mumkin. Bottom Billion Corporation (BBC) kabi tashkilotlar barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va xizmat ko'rsatilmayotgan jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirish boyicha o'z missiyalariga mos ravishda bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga sodiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

San'at va madaniyatni ta'sirli investitsiya portfellariga kiritish madaniy landshaftni boyitadi va yanada inklyuziv, jonli va barqaror dunyoga hissa qo'shadi, mazmunli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va butun dunyo boylab jamoalar uchun doimiy qiymat yaratadi. Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sherikchiligin yo'lga qo'yish madaniyat muassasalari iqtisodiyoti, moddiy-texnik bazasi, ijodiy faoliyatida samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2018-yildagi PQ-3892-sonli "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-3845354>
2. Safarov H.R., Mirzaev R.R. (2022). Raqamli transformatsiya va jamoat tashkilotlari boshqaruvi. Toshkent: Yangi asr avlod. (pp. 60-102)
3. Brown, A., & Thompson, M. (2018). Digitally Transforming Government: A Guide for Public Sector Leaders. Routledge. (pp. 15-45)
4. Rustamovich, T. J. (2024). Social media marketing strategies for small businesses. *American journal of business management*, 2(3), 62-65.
5. Tojiyev J.R., (2024). Tadbirkorlik subektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish yo'llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
6. Tojiyev J.R., (2024). Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини ривожлантиришда микромолиялаштиришнинг хусусиятлари. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
7. Sotiboldiyev X.A Iqtisodiyot transformatsiyalashuv jarayonida korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga investitsiyalarni jalb qilish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2 (12) <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>

KLASSIK ASARGA ZAMONAVIY YONDASHUV (Bahodir Yo‘ldoshevning ilk rejissyorlik ishi misolida)

Kamola Sadullayeva,

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasи

o‘qituvchisi, OzDSMI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bahodir Yo‘ldoshevning rejissyor sifatida sahnalashtirgan ilk mustaqil ishi, “Ajal minorasi” spektaklini sahnalashtirilishi jarayonlari, uning rejissyorlik g‘oyasi, yechimi, kompozitsion qurilishi hamda aktyorlar ijrosi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: rejissyor, aktyor, kompozitsiya, pesa, spektakl, repertuar, sahna, syujet, rassom.

Аннотация: В данной статье рассказывается о первой самостоятельной работе Баходыра Юлдашева в качестве режиссера, о процессе постановки спектакля «Башня смерти», о его режиссерской идее, решении, композиционном построении спектакля и о процессах создания актерских образов

Ключевые слова: режиссер, актёр, композиция, пьеса, спектакль, репертуар, сцена, сюжет, художник.

Annotation: This article describes Bahodyr Yuldashev’s first independent work as a director; the process of staging the play “Tower of Death”, his directorial idea, decision, compositional construction of the play and the processes of creating acting images.

Keywords: director, actor, composition, play, performance, repertoire, scene, plot, visual art.

XX asrning 70-yillari o‘zbek teatr san’ati uchun qat’iy burilish pallasi bo‘ldi. 1970-yili T.Xo‘jayev E.Vohidovning pesasi asosida o‘zining oxirgi “Oltin devor” spektaklini sahnalashtirdi. Bir necha yillik tanaffusdan so‘ng teatrga qaytgan A.Ginzburg K.Yashinining “Mening Buxoram” va Kalidasaning “Shakuntala” spektakllarini qo‘ygach, 1973-yilda hayotdan ko‘z yumdi. Yillar davomida teatrga

badiiy rahbarlik qilgan, aktyorlarning ajoyib avlodini tarbiyalagan, akademik teatrning ijodiy obro'yini ehtiyyotkorlik va bir maqsad ila yo'naltirgan yirik rejissyorlarning birining teatrni tark etgani, ikkinchisi hayotdan ko'z yumishi katta yo'qotish bo'ldi. Teatrda yuz bergen voqealar Toshxo'ja Xo'jayevning ham sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatib bo'lgandi. U ham 1975-yili vafot etdi. O'zbek rejissurasida o'sha davrda repertuar tanlash, spektakl sahnalashtirish, ijodiy guruh bilan ishlash hamda ansambl yaratish, aktyorlarning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularning tajribasi va bilimini baholay olish, anglay bilishda A.Ginzburg va T.Xo'jayevga tenglashadigani yo'q edi. Akademik teatr hayotida shunday alg'ov-dalg'ovli kunlar kechib turgan bir paytda B.Yo'ldoshev o'z ijodiy faoliyatini boshladi.

Institutning rejisyorlik bo'limini yaqinda tugallagan yosh rejissyorning dastlabki spektakllaridayoq sahnalashtiruvchining favquloda iste'dodli ekanligiga birovlar shubha qilsa, yana birovlar samimiyoq qo'llab-quvvatlar edi. Birin-ketin sahna yuzini ko'rgan A.Dyumaning "Ajal minorasi" melodramasi, M.Karimning "Oy tutilgan tun-da" ishqiy, Uyg'unning "Abu Rayhon Beruniy" tarixiy, V.Rozovning "Shomdan tushgacha" psixologik dramalari; keyinroq esa F.Shil-lerning ekspressionistik uslubdagi "Qaroqchilar" tragediyasi teatrda yangi iste'dodning dunyoga kelayotganidan darak bera boshladi. Yosh rejissyor butunlay xilma-xil spektakllarda o'z kuchini sinab, teatrning an'analari va imkoniyatlarini chamalab ko'rди. "Favqulodaliklarda, bir qarashda qarama-qarshi ko'rinaridigan moyilliklarda, an'analar qutbidan ulardan qat'iy voz kechish qutbiga tomon og'ishlarda g'ayrioddiy rejissyor yetilib kelayotgani ko'rini turardi"¹⁵.

Janr, mavzu, g'oyaviy va shakl jihatidan shuncha tafovutlarga qaramay, tilga olingan spektakllarda umumiyliklar ham bor edi. Masalan, sahna muhiti bilan "kirishib keta olish", harakat muhitini barcha yengil vositalar bilan to'ldirish yoki to'yintirish, bunda keyinchalik maishiylididan tortib shartlilikkacha bo'lgan turli uslubiy yechimlarda

¹⁵ M.Rahmonov, M.To'laxo'jayeva, I.Muxtorov. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. Toshkent, 2003-y. 71-b.

to‘lar oq erkinlikka ega bo‘la boshlagan sifat muhim o‘rin egallaydi. Masalan, “Ajal minorasi” spektaklida zanjirlar sharaqlagan, kaze-matning shiftidan chak-chak chakka tomayotgan, nimqorong‘ilikda shamlar miltillagan, balchiqda tashlangan odimlarning bo‘g‘iq ovozi quloqqa chalinayotgan zimziyo yerto‘la muhiti yaratilgan... Roman-tik melodramaga xos ba’zi unsurlar – oshirib-toshirilgan hissiyot, sez-girlik, yaxshilik va yomonlikning bir-biriga keskin qarshi qo‘yilishi ham yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

B.Yo‘ldoshev mashhur fransuz yozuvchisi Aleksandr Dyuma qalamiga mansub “Nel minorasi” pesasi asosida **“Ajal minorasi”** spektaklini 1972-yili Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatrida sahnalashtirdi. Bu uning rejissyor sifatida sahnalashtirgan ilk mustaqil spektakli bo‘ldi.

Spektakl ana fojiaviy va jumboqli epizod (intriga) bilan boshlanadi. ...Qorong‘u tun. Havoning qovog‘i soliq. Uzoqdan qorayib, allaqanday dahshatli tus olib oqayotgan Sena daryosining sirli va ha-zin tovushi eshitiladi. Odamlar daryo bo‘yidan topilgan murdalarini chuqur qayg‘u bilan, og‘ir, mungli musiqa sadolari ostida ko‘tarib o‘tmoqdalar. Bu fojiadan hamma tashvish va sarosimada...

A.Dyuma qirol xonadonining ahloqiy tushkunligini, razolat botqog‘iga botganligini, ma’naviy poklik yo‘q joyda boylik, mansab – halokat keltiruvchi omil ekanligini Margarita hayoti, u va uning singillari Janna, Blanshlar qilgan ishlari misolida ishonarli va qiziqarli qilib ko‘rsatishga intiladi. Rejissyor talqini o‘lar oq spektaklda bu fikr o‘zining to‘la aksini topgan. Shuning uchun ham garchi asarda melodramatik effektlar, intrigalar, tashqi syujet liniyasini kuchaytirish va tobora kengaytirishga tobora intilish mayllari mavjud bo‘lsa-da, u o‘zining badiiy hamda janr xususiyatlari e’tibori bilan ahloqiy mav-zuni o‘z ichiga olgan romantik drama sifatida talqin etilgan va ijodiy guruh tomonidan bunga erishilgan.

Ta’kidlash kerakki, rejissyor mazkur spektakl orqali bir ayolning kirdikorlari misolida butun feodalizm jamiyatidagi axloq darajasi va holati qandayligi, inson taqdiri va qadri qanchalar ayanchli ahvolda ekani aks ettirgan. Spektaklda har bir odam, u kim bo‘lishidan qat’iy

nazar, o‘z qilmishi, xatti-harakatiga javobgardir, degan g‘oya ilgari suriladi.

Ushbu spektaklning rejissyorlik g‘oyasi, yechimi, kompozitsion qurilishi borasida A.Sayfutdinov shunday deb yozadi: “Rejissyorning yutug‘i uning izlanuvchanligi, o‘ziga talabchanligi, asar ruhi va janr talabidan kelib chiqqan holda badiiy to‘qimalarga keng o‘rin berishida, eng asosiysi mizansahnalarning mantiqiy qurilganligida ko‘zga tashlanadi. B.Yo‘ldoshevning A.Dyuma asariga dadil qo‘l urganining o‘zi tahsinga loyiq. U asarga erkinlik bilan o‘zgartirishlar kiritadi, butunlay yangi sahnalar qo‘sadi, ortiqcha deb bilganlarini chiqarib tashlaydi”¹⁶.

“Ajal minorasi” spektaklining o‘ziga tortadigan yana bir jihatni shundan iboratki, u yosh ijodiy kuchlarning birlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bu spektakl nafaqat rejissyor, balki rassom L.Konrad, tarjimon Q.Mirmuhamedov hamda ba’zi aktyorlar uchun ham debyut edi.

Rejissyor B.Yo‘ldoshev aktyorlar ansambliga alohida e’tibor qaratgan. Rollarni taqsimlashda aktyorlarning imkoniyatlarini to‘g‘ri chamalay olgan. Rejissyor Margarita Burgundiylini O‘zbekiston xalq artisti Yayra Abdullayevaga, Buridan va Lo‘li rolini O‘zbekiston xalq artisti Zikir Muhammadjonovga, aka-uka Philipp va Gote (egizaklar)ni To‘lqin Tojiyevga, Orsini rolini esa Tesha Mo‘minovga topshirgan.

Akademik M.Rahmonov spektaklning rejissyorlik va aktyorlik ishiga quyidagicha ta’rif beradi: “Spektakl harakatning sirli muhitiga “tortib kelar”, tomoshabinni fitnalarning chigal iskanjasini ichiga olib kirib ketishi kerak edi. Bo‘rttirilgan hissiyotlar, sezgirlik, yaxshilik va yomonlikning bir – biriga keskin qarshi kelishi kabi romantik melodrama elementlari manaman deb ko‘rinib turardi”¹⁷.

Spektakldagi markaziy obrazlardan biri bo‘lmish qovoqxona ega-si Orsini rolini T.Mo‘minov ijro etgan. Uning qahramoni ko‘p gapir-

¹⁶ A.Sayfutdinov. “Ajal minorasi”. O‘zbekiston madaniyati. №35. 30 .04. 1972. 2-b.

¹⁷ M.Rahmonov, M.To‘laxo‘jayeva, I.Muxtorov. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi . Toshkent, 2003-y.79-b.

maydi. Mijozlari orasida shaharda yuz berayotgan qotilliklar haqida gap ketganda uning tusi hech o‘zgarmaydi. O‘zining bu voqealarga hech qanday aloqasi yo‘qdek tutadi. Tomoshabin ham undan shubhalanmaydi.

Faqat keyingi sahnalarda tobora uning haqiqiy basharasi ochila boradi. U qirolicha Margaritaning o‘ng qo‘li. Bu tun ham Orsini o‘zi yaqindagina ovqat, ichimlik bilan mehmon qilgan mijozlarini o‘ldirishi kerak. O‘zini tutishidan bunday ishlardan zarracha bo‘lsa-da af-suslanmasligi, aksincha rohatlanishi Orsini – T.Mo‘minovning sovuq kulgulari-yu, qurbanining ojizligidan rohatlanishi orqali yorqin ohib berilgan.

Keyinchalik Tesha Mo‘minov bilan suhbatlashish jarayonida rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev aktyorga obraz talqini borasida quyidagi fikrlarni tushuntirib berganini xotirlaydi: “Qovoqxona Orsini uchun bir niqob xolos. U son-sanoqsiz boyliklarini qonxo‘rligi, qotilligi, qirolichaning manfur qilmishlariga hamtovoqligi orqasidan orttirgan. Tashqaridan qaraganda o‘z tirikchilagini tinchgina tebratib yurgan bir kimsa. Lekin uning qo‘lida hokimiyatning tizgini turibdi. Sababi esa oddiy. U qirolichaning barcha sirlaridan voqif”¹⁸. Rejissyor ko‘rsatgan yo‘ldan borib, obrazni gavdalantirar ekan, T.Mo‘minov o‘z qahramonining bu qirralarini qirolicha oldida mag‘rur turishida, o‘rni kelganda hatto unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi-yu, mensimay nigoh tashlashida ta’kidlab boradi.

Darhaqiqat, rejissyor tavsiyalari bilan oziqlantirilgan, Tesha Mo‘minov tomonidan gavdalantirilgan Orsini obrazi o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan ham, yurish-turishi, xatti-harakati, fikr-mulohazalari bilan ham tomoshabinni o‘ziga butunlay jalb etib oladi. Orsini rejissyor, aktyor, rassom va grim ustalari hamkorligida o‘ta beso‘naqay, bukri, cho‘loq bir kimsa, lekin shu bilan bir vaqtida juda chaqqon va abjis salbiy qahramon sifatida gavdalantirilgan.

Spektakl rejissyori yosh bo‘lishiga qaramay, otaxon teatr sahnasi-da katta tajriba orttirgan katta avlod aktyorlari bilan ishslash jarayoni-

¹⁸ K.Sadullayeva. Sahnaga ta’zim. “Dizayn-Press” MCHJ. Toshkent-2010. 23-b.

da ham o‘z professional mahoratini namoyon qila bildi. Spektakldagi Z.Muhammadjonovning Buridan obrazi boshqa rollaridan tubdan farq qiladi. Uning Buridani uchun mansab va amal o‘z niyatlarini amalga oshirish uchun bir vosita ekanini ta’kidlagandek bo‘ladi. Aktyor qahramoning mana shunday xususiyatlarini ochib, muallif va rejissyor ilgari surgan g‘oyani umumiylashtirgan holda tomoshabinga yetkazishda mahoratini yana bir bor namoyon etadi. Aktyor tashqi ko‘rinishini shu qadar mohirona o‘zgartirish, nafaqat pardoz ustasi ning qolaversa, Buridan va Lo‘li o‘rtasidagi farqli jihatlarini ko‘rsatib, ularga o‘zgacha bir harakter baxsh eta olgan Z.Muhammadjonovning ham ijodiy yutug‘idir. Shu bilan birga Buridanni Lo‘li qiyofasida namoyon bo‘lishi hamda spektakl voqealari rivojiga, uning ruhiyatiga mos tushgan. Bu albatta rejissyor va aktyorning qolaversa butun ijobdiy jamoaning bir-birlarini so‘zsiz tushunib, hamkorlikda izlanishlarining mahsulidir.

Ushbu spektakl va unda qahramonlarni gavdalantirgan aktyorlar ijrosi tomoshabinlarda katta qiziqish, hayajon uyg‘otgan edi. Spektakldagi sirli muhit va fitnalar iskanjasи tomoshabinni biror daqiqaga tark etmasdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Rahmonov, M.To‘laxo‘jayeva, I.Muxtorov. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi . – Toshkent: – 2003.
2. Bahodir Yo‘ldoshev zamon va makonda. To‘plam. “San’at” jurnali nashriyoti. – Toshkent: – 2015.
3. A.Sayfutdinov. “Ajal minorasi”. O‘zbekiston madaniyati. №35. 30.04.1972.
4. K.Sadullayeva. Sahnaga ta’zim. “Dizayn-Press” MCHJ. – Toshkent: – 2010.

YANGI MA’NAVIY MAKONNI YARATISH ORQALI JAMIYATDA IJTIMOIY-MA’NAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

**Jo‘rabek Toychiyev,
O‘zDSMI tadqiqotchisi**

AnnotatsiY. Ushbu maqolada yangi ma’naviy makonni yaratish orqali jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni saqlash va uni rivojlanadirish jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy omillari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, yangi ma’naviy makon, adolat, ijtimoiy, huquq, siyosat, iqtisod, barqarorlik,

Аннотация: В данной статье научно проанализированы социальные, политические, экономические и духовные факторы, связанные с процессом поддержания и развития социально-духовной стабильности в обществе путем создания нового духовного пространства.

Ключевые слова: Духовность, новое духовное пространство, справедливость, социальное, право, политика, эффективность, устойчивое развитие.

Annotatsiya: This article scientifically analyzes the social, political, economic and spiritual factors associated with the process of maintaining socio-spiritual stability in society and its development by creating a new spiritual space.

Keywords: Spirituality, new spiritual space, justice, social, law, politics, performance, sustainability.

Bugungi kunda, dunyo tez sur’atlar bilan o‘zgarib, har bir jamiyat o‘zining ichki va tashqi rivojlanish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishi taqaro etmoqda. Bu o‘zgarishlarga ta’sir etadigan asosiy omillardan biri – ma’naviyat va ijtimoiy qadriyatlarning rivojlanishidir. Aynan shu ma’noda, yangi ma’naviy makonni yaratish jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi nomli asarida jamiyatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayorgan islohotlarga bag‘ishlab, alohida bob sifatida bayon etilganligi bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbarining yuqorida keltirib o‘tilgan kitobida mamlakatimizda yangi ma’naviy makonni yaratish masalasiga alohida to‘xtalib, quyidagicha ta’riflaydi:

Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda, u biz-orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadi-gan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir¹⁹.

Demak, yangi ma’naviy makonni yaratish taqozosi, eng avvalo, jamiyatning ma’naviy qiyofasini yuksaltirish orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning ma’naviy qiyofasini yuksaltirish – bu ko‘plab omillarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli tushuncha bo‘lib, ta’lim, madaniyat, diniy qadriyatlar, ijtimoiy tenglik va adolat, axloqiy qadriyatlar va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab oladi. Bu esa jamiyatning barqarorligini ta’minlaydi va mamlakatning ma’naviy taraqqiyotiga katta hissa qo‘sadi.

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni saqlash va uni rivojlantirishda yangi ma’naviy makon yaratish jarayoni qanday amalga oshirilishi va uning natijalarining ijtimoiy va ma’naviy jihatlari qanday bo‘lishi lozimligini tahlil qilish zarur.

Jamiyatda barqarorlikni saqlash va uni rivojlantirish jarayoni bir qancha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhimdir. Bu jarayonlar quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

– **ijtimoiyadolatni ta’minlash** uchun har bir fuqaroning teng huquqlarga ega bo‘lishi, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga teng kiring huquqi bo‘lishi kerak. Bu, o‘z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi va ijtimoiy tinchlikni mustahkamlashga hissa qo‘sadi, bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-

¹⁹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 266.

quvvatlash, aholining zaif qatlamlarini himoya qilish va ularning turmush darajasini yaxshilash uchun ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish va har qanday fuqaroga teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatda adolatli tuzilmalarini rivojlantirishni talab etadi;

– **iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash**, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni yanada muhtahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish davlatni mustahkamlaydi va fuqarolarga yaxshi turmush sharoitini kafolatlaydi, bu jarayonlar o'z navbatida barqaror iqtisodiy tizim yaratishni talab etadi, bunda davlatning iqtisodiy siyosati, bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy inqirozlarni oldini olish, mehnat bozorini rivojlantirish orqali ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinnari yaratish va xodimlarning malakasini oshirish kabilarni o'z ichiga oladi;

– **siyosiy barqarorlikni saqlash**, siyosiy barqarorlik davlatning ichki va tashqi siyosatining samarali boshqarilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Bu davlat institutlarining ishlashini, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni va mustahkam demokratik tizim yaratishni talab qiladi. Bu jarayonlar demokratik boshqaruvni mustahkamlashga, fuqarolarning davlat boshqaruviga ta'sir qilish imkoniyatlarini kengaytirish, saylovlar, siyosiy partiylar va fuqarolik jamiyatni tashkilotlarini rivojlantirish orqali huquqiy davlatni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatli sud tizimini yaratish, korrupsiyani kamaytirishni talab qiladi;

– **ma'naviy va axloqiy barqarorlikni ta'minlash**, jamiyatda ma'naviy barqarorlikka o'zaro hurmat, axloqiy qadriyatlar va bir-biriga bo'lgan ishonchni rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Ma'naviy barqarorlik jamiyatdagagi tinchlikni, ijtimoiy uyg'unlikni va jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, madaniyat va ta'lim tizimini rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, yoshlarni axloqiy va madaniy jihatdan tarbiyalash, ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, madaniy, diniy va etnik turli-tumanlikka nisbatan bag'rikenglikni ta'minlash, turli guruhlar o'rtasida ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yangi ma’naviy makonni yaratish jarayoni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarning uyg‘unligini tab lab qiladi. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy tenglik, axloqiy qadriyatlar, madaniyat, san’at va ta’lim tizimi orqali barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, jamiyatning kelajagi uchun mustahkam asos hmada uning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – “O‘zbekiston” nashriyoti, – T.: 2021, – 266-bet.
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. – “O‘zbekiston” nashriyoti, – T.: 2011, – 125-bet.
3. Mavrushev A. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021-y, 28-dekabr, 263 son.

YANGI O'ZBEKSITON TARAQQIYOTIDA MADANIYAT SOHASI MALAKA OSHIRISH TIZIMINING AHAMIYATI

Mahira Xudayberganova,
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti
yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangilanayotgan O'zbekistonda madaniyat sohasi malaka oshirish tizmining ro'li, undagi muammo va kamchiliklar; ularga berilgan yechimlar va takliflar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: islohot, taraqqiyot, madaniyat, san'at, tizim, kadr, sertifikatlash, attestatsiya

Annotation: This article describes the role of advanced training system in the field of culture in the emerging Uzbekistan, its problems and shortcomings, its solutions and proposals.

Keywords: reform, development, culture, art, system, personnel, certification, attestation

Bugungi rivojlanayotgan zamonda har bir sohaga o'zgacha bir e'tibor qaratilmoqda. Har bir sohada o'zgarishlar va yangiliklar juda ko'p. Prezidentimizning tashabbuslari bilan kundan kunga har bir sohaga oid yangidan yangi qaror va farmoyishlar imzolanib, jamiyatga tatbiq etilmoqda. Boshqa sohalar qatorida aynan san'at va madaniyat sohasiga qaratilgan e'tibor biz yoshlarni yanada izlanuvchanlikka, yangilikka intilishga va o'z ishimizga ma'suliyat bilan yondashishga undamoqda. Mustaqillik yillardan beri mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalari dan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini royobga chiqarish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tizimning ko‘plab muammolarini yuzaga keltirayotgan jihat jahon ta’lim sifati darajasidan ortda qolish, o‘qitish saviyasining pasayib ketganligi bilan bog‘liq vaziyatlardir. Muammolar hamisha zanjirsimon xarakterda kechishidan kelib chiqsak, o‘z vaqtida talabalar bilim darajasidagi susayish, mustaqil ta’limga e’tiborsizlik, mutaxassislik fanlari kamaytirilgani kabi qator nuqsonlar endilikda oliy ma’lumotli kadrlarning ishsizligi, ularga bo‘lgan talabning pastligi, o‘quv yurtlari jahonning yuksak rivojlangan ilm-fan doiralaridagi reytinglardan ortda qolib ketishidek vaziyatlarga olib keldi. Bu muammolar ildizi tabiiyki, pedagog kadrlar salohiyati, bilim darajasi ga borib taqaladi. “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deganlari bejiz emas. Mudom o‘z ustida ishlash, bilim doirasi va tafakkur darajasini orttirib borish bugungi oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning hamma vaqt “ilm izlashi”ni taqozo etadi.

Shuningdek, madaniyat va san’at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish boyicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda oqsoqlikka yo‘l qoyilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san’at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarni to‘liq bajarish imkonini bermayapti.

Madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning mala-

kasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Davr shitob bilan rivojlanishda davom etar ekan, o‘z navbatida ta’limdagi azaliy an’analar ham shaklan boyib, mazmunan kengayib borishi tabiiy jarayondir. Bugungi kunda o‘qitishning ustoz-shogird an’anasi zamonaviy pedagogik faoliyatning ilg‘or tajribalari, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish hisobiga o‘z samaradorligini yanada oshiradi. Kelajakda badiiy ijod hamda madaniyat va san’at yo‘nalishlarini boshqarish faoliyatida namoyon bo‘luvchi yoshlar tarbiyasi hozirda ayniqsa har qachongidan dolzarbdir. Zero, bugungi globallashuv davrida ommaviy madaniyat, turli ko‘rinishdagi g‘oyaviy oqimlarning salbiy ta’siri ham asosan san’at, madaniyat orqali kishilar ruhi va qalbiga kirib borish imkoniyati nihoyatda katta.

2024-yilning 10-yanvar kuni Madaniyat vazirligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat ken-gashining kengaytirilgan yig‘ilishi davomida berilgan topshiriqlar hamda madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalar ijrosi muhokamasiga bag‘ishlangan videokonferensaloqa yig‘ilish bo‘lib o‘tdi [1]. Yig‘ilishda Davlatimiz rahbarining madaniyat va san’at sohasini isloh qilish, uni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganiga to‘xtalib o‘tildi. Bunda teatrlar, kon-sert-tomosha tashkilotlari, madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablari, kinematografiya, nomoddiy madaniy meros va boshqa tarmoqlardagi yangiliklar va yutuqlar tahliliy tarzda ko‘rib chiqildi. Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov o‘z nutqlarida aytganlaridek, “Inson madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj to‘laligicha qoplanmas, ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy-milliy metodlar yaratilmas ekan madaniy taraqqiyot poydevorini mustahkam qurib bo‘lmaydi”.

Malaka oshirish nima uchun kerak va bugungi kunda nimaga bu dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda, chunki har qanday inson mudom o‘z ustida ishlamasa ayniqsa tezkor davrda, o‘zgarayotgan jamiyatda, roy berayotgan voqealikka hamohang bo‘lmasa demak uning inson sifatidagi va kasbi mutaxassisi sifatidagi nufuzi pasayib boradi. Har bir kasb egasi har doim o‘zini rivojlantirib borishi bu qilinishi shart bo‘lgan talablardan biridir. Buning uchun malaka oshirish kurslarida o‘qishi shart degan joyi ham yo‘q lekin biz malaka oshirishni yaxlit bir tizim holiga olib kelsak, mukammalik darajasini oshirsak, kadrlar salohiyatini oshirishda katta turki bo‘ladi. Tizimdagi kadrlar salohiyatini yaxshilash bugungi kun uchun eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, har qanday faoliyatning tanazzuli kadrlarning salohiyati bilan bog‘liq ekanligini chuqr anglab yetishimiz kerak.

Muhtaram prezidentimiz aytganlaridek, “Eng katta boylik – bu aql zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat ega-si bo‘lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak” [2].

Malaka oshirish tizimi faoliyatini chuqr o‘rgangan holda, joriy etilayotgan qaror va farmonlarning ijrosini ta’minalash, malaka oshirish intitutlari va markazlarini yaxlit bir tizim holiga keltirish, mod-diy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni kadrlar salohiyatidagi rolini oshirish, yurtimizdagи malaka oshirish markazlari faoliyatini yanada mustahkamlash, yo‘nalishlarini kengaytirish, Nizom, ustav va malaka oshirishga oid foydalilaniladigan hujjatlar, dastur va o‘quv rejalar tuzish masalalarini tahliliy o‘rganish orqali bu tizimdagи muammolarga yechim topish mumkin. Aynan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida bu tizim uning bir ildizi ekanligini bilamiz. Undagi muammolarni o‘rganib, ildizning qurib ketmasligiga harakat qilsak ham kadrlarimiz salohiyatli bo‘ladi ham bu “tizim” o‘zini bir pog‘ona yuqoriga olib chiqqan bo‘ladi. Chunki, madaniyat xodimlari uchun malaka oshirish kurslari mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirishga va ularning mehnat sifatini oshirishga ko‘maklashayotgan bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Malaka oshirish kurslari asosiy

vazifalari: madaniyat sohasida yangi bilim berish, zamonaviy tendentsiyalar, texnologiyalar va metodlarni joriy etish; kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarini oshirishga yordam berish; madaniyat xodimlarining madaniyat sohasidagi yangi sharoitlarga, huquqiy talablarga va o‘zgarishlarga moslashishiga hissa qo‘sish; madaniy faoliyatni modernizatsiya qilishga ko‘maklashuvchi yangi texnologiyalar, raqamlı vositalar va usullarni joriy etish; sertifikatlash, malaka darajasini tasdiqlash yoki yaxshilashga imkon beradi, bu esa martaba rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Shuningdek, samarali faoliyat ko‘rsatayotgan malaka oshirish instituti va markazlarini oliy ta’lim tizimi bilan hamkorligi va malaka oshirish markazlarini bugungi talablar darajasida boshqarish borasida qator takliflar va tavsiyalar keltiriladi. Malaka oshirish dasturlarini shakllantirishda ta’lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlarini o‘rgangan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Natijada kursning foyda va samarasini oshadi. Bu barcha yoshdagi ta’lim oluvchilarga xos bo‘lib, ayniqsa, katta yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, xodim malaka oshirish kursiga, odatda, yangilik olish, o‘qitishning yangi metod va texnologiyalarini o‘zlashtirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida boradi. Biroq kasbiy ehtiyoj har bir pedagogda turlicha bo‘ladi. Bitta auditoriyaga jamlangan 25 nafar pedagog-kadrga o‘tiladigan mavzu kim uchundir qiziqarli bo‘lishi, kimningdir ehtiyojiga mos kelishi, qolganlarga esa umuman hech narsa bermasligi mumkin. Pirovardida o‘tilgan dars yoxud malaka **oshirish kursi tinglovchilarni bir xil darajada qoniqtira olmaydi**. Buning uchun xodimlarining malaka oshirishga doir ehtiyojlarini o‘rganish, ularning har biri uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi ni tuzish va malaka oshirish kusrlarini ana shu asosda tashkil etish lozim.

Shuningdek, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini joriy etish uchun madaniyat va san’at yo‘nalishidagi pedagog kadrlarining malaka darjasini, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajriba-si va individual kasbiy rivojlanishidan kelib chiqib, **tabaqalashgan malaka oshirish dasturlarini** ishlab chiqish zarur.

Pedagog-kadrlar ehtiyojlariga asoslangan kasbiy rivojlanish ta’limi natijalarini baholash yangicha yondashuvni talab qiladi. Amaldagi tartibga binoan tinglovchi malaka oshirish kursini tugatganidan so‘ng **test sinovlari va malaka ishini himoya qilishdan iborat** yakuniy baholash jarayonidan o‘tadi. Baholashning ushbu shakllari yagona o‘quv reja hamda o‘quv dasturlari asosida tashkil qilingan malaka oshirish kurslari uchun qo‘llaniladi. Biroq turli individual o‘quv rejadasturlari asosida o‘qigan tinglovchilar erishgan natijalarni **yagona baholash vositasi — test va malaka ishi himoyasi** bilan baholab bo‘lmaydi.

Qanchalik achchiq bo‘lmasin, shu haqiqatni tan olish lozimki, barcha ta’lim turlaridagi (maktabgacha ta’lim, umumta’lim maktablari va boshqalar) o‘qituvchilarining hozirda amaldagi malaka oshirish shakli sobiq ittifoq davridan beri deyarli o‘zgargani yo‘q. O‘sha-o‘sha har besh (uch) yilda bir marta malaka oshirishdan o‘tishi shart, malaka oshirish yakuniy nazorat shakli ham o‘sha-o‘sha, malaka ishini yozish va himoya qilish hamda chiqish testini topshirishdan iborat. Malaka oshirish markazlari faoliyati va sohadagi mavjud muammo-larga amaliy yechimlarni ko‘rsatish, ta’limnning eskicha va samarasiz shakllaridan bosqichma bosqich voz kechgan holda yangilikka bo‘lgan talab orqali chet el tajribalaridan foydalanish, malakali kadrlar salohiyatini oshirish, madaniyat va san‘at sohasida malaka oshirishning tizimli va yaxlit yo‘lga qoyilishini ta’minlash bugungi kundagi biz qilishimiz kerak bo‘lgan asosiy ishlardan biridir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. www.kun.uz
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 24-b.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Nasiba Abdullayeva,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. San'at ta'liming o'rni, xalqaro tajriba hamda malakali mutaxassislar yetishtirish uchun samarali yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim, innovatsion pedagogika, xalqaro tajriba.

Аннотация: В статье на научной основе анализируются актуальные вопросы подготовки кадров в сфере культуры и искусства, существующие проблемы и пути их преодоления. Будут обсуждаться роль художественного образования, международный опыт и эффективные подходы к подготовке квалифицированных специалистов.

Ключевые слова: культура, искусство, обучение, высшее образование, инновационная педагогика, международный опыт.

Abstract: This article analyzes on a scientific basis the current issues of training personnel in the field of culture and art, existing problems and ways to overcome them. The role of art education, international experience and effective approaches to training qualified specialists are considered.

Key words: culture, art, personnel training, higher education, innovative pedagogy, international experience.

“Madaniyat – insoniyatning jamiyatdagi estetik, ma’naviy va axloqiy hayotini aks ettiruvchi ko‘zgudir.”

Klifford Girts

Madaniyat va san’at har qanday jamiyatning ma’naviy negizini tashkil etib, uning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash esa milliy madaniyat va san’atni saqlash, rivojlantirish va jahon miqyosiga olib chiqishning eng muhim shartlaridan biridir. Bugungi globallashuv sharoitida madaniyat va san’at sohasi mutaxassislariga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashga oid quyidagi asosiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish boyicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”-gi Qarori;
- “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida madaniyat va san’at sohasi boyicha belgilangan ustuvor yo‘nalishlar;
- “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonun va unga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlar.

Bu hujjatlar madaniyat va san’at sohasi mutaxassislarini tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo‘lib, ularning samadorligini oshirish uchun xalqaro tajribalarga ham e’tibor qaratish lozim.

Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Madaniyat va san’at sohasi an’anaviy bilimlar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlarni ham talab qiladi. Bugungi kunda ushbu sohada kadrlar tayyorlash quyidagi xususiyatlarga ega:

**Amaliy va nazariy bilimlarning
uyg‘unligi;**

**Ijodiy fikrlash va innovatsion
texnologiyalarni qo‘llay bilish;**

**Zamonaviy bozor talablarini va
auditoriya ehtiyojlarini tushunish;**

**Xalqaro tajriba va milliy merosni
birlashtirish.**

Globalizatsiya va kreativ iqtisodiyot sharoitida yangi talablar.
Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot rivojlanishi bilan madaniyat va san’at sohasi mutaxassislariga qoyiladigan talablar ham o‘zgarmoqda. Xususan:

- Madaniyat va san’atni biznesga aylantira oladigan menejerlar va tadbirkorlar tayyorlash;
- Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Xalqaro madaniy almashinuvlarda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish.

O‘zbekiston va xorijiy tajriba taqqoslamasi. O‘zbekiston madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash boyicha boy an’analarga ega. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish ham muhim sanaladi. Quyida ayrim mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar keltirilgan:

Davlat	Kadrlar tayyorlash tizimi xususiyatlari
Germaniya	Dual ta’lim tizimi joriy qilingan, amaliyot va nazariya uyg‘unligi
Janubiy Koreya	San’at va madaniyat texnoparklari tashkil etilgan
Fransiya	Davlat va xususiy sektor hamkorligi kuchli rivojlangan
AQSh	Universitetlarda kreativ sanoat markazlari faoliyatini yuritadi

Muammolar va ularning yechimlari: amaliy takliflar Madaniyat va san'at sohasi kadrlarini tayyorlashda quyidagi muammolar mavjud:

1. Nazariy bilimlarning amaliyotdan ajralib qolishi – amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish va san'at tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish lozim.

2. Bozor talablari va ta'limga o'rta sidagi tafovut – mehnat bozorining ehtiyojlarini tahlil qilib, o'quv dasturlarini moslashtirish zarur.

3. Texnologik o'zgarishlardan ortda qolish – axborot texnologiyalari va raqamli san'at boyicha maxsus kurslar joriy etilishi kerak.

4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi – bugungi kunda madaniyat va san'at sohasi sun'iy intellekt, virtual reallik va boshqa raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, oliy ta'limga maxsus kurslarida zamонавиy raqamli san'at laboratoriylarini tashkil etish va ilg'or IT-kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qoyish zarur.

Xulosa: Madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni zamонавиy yondashuvlarni talab qiladi. O'zbekistonning bu boradagi tajribasi an'anaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar uyg'unligiga asoslanib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga qaratilgan. Shu boisdan, bu sohadagi ta'limga tizimini takomillashtirish va jahon tajribasini o'rganish ustuvor vazifalardan biridir.

Shuningdek, madaniyat va san'at sohasi kadrlarini tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarning oshirilishi, texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda bozor talablariga mos malakali mutaxassislar yetishtirish dolzarb massala hisoblanadi. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ham san'at va madaniyat sohasiga oid innovatsion texnoparklarni tashkil etish, kreativ industriyalarni qo'llab-quvvatlash va madaniyat mahsulotlarini eksport qilish boyicha yangi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Davlat va xususiy sektor hamkorligida yangi model va usullar ishlab chiqish ushbu sohada kadrlar sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarning san'at va madaniyatga

bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga imkoniyat yaratish orqali milliy merosni yanada boyitish va kelajak avlodga yetkazish mumkin. Shu sababli, madaniyat va san’at sohasi ta’limining zamonaviy talablar asosida isloh qilinishi nafaqat milliy madaniyatni rivojlantirish, balki uni global miqyosda tanitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. www.president.uz
2. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. www.uzbekistan2030.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonuni. Lex.uz huquqiy axborot portalı.
4. G‘ulomov S., Abdurahmonov Q. Madaniyat va san’at sohasida menejment. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2020.
5. Girts K. Madaniyat nazariyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

MALAKALI KADRLAR SOHA TAYANCHI

Nargiza Asatova,

Madaniyat va san'at sohasi menejmenti 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: professor Abdusalom Umarov

Annotatsiya – *Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar – *madaniyat, san'at, musiqa, pedagog, cholg'u, ta'lim, tarbiya.*

КВАЛИФИСИРОВАННЫЙ ПЕРСОНАЛ – ОСНОВА ОТРАСЛИ

Асатова Наргиза,

*Студент 1 курса магистратуры
в Менеджмент культуры и искусства*

Научный руководитель: профессор Абдусалом Умаров

Аннотация – В данной статье говорится о ведущейся работе в сфере культуры и искусства и потребности в квалифицированных кадрах.

Ключевые слова – культура искусство, музыка, педагог, инструмент, образование, обучение.

QUALIFIED PERSONNEL ARE THE FOUNDATION OF THE PROFESSION

Nargiza Asatova,

1st year graduate student Culture and arts management

Scientific advisor: Professor Abdusalom Umarov

Abstract – *This article discusses the work being done to develop the culture and arts sector and the need for qualified personnel.*

Keywords – *culture, art, music, pedagogue, instrument, education.*

Kishilik jamiyati shakllanishi tarixi turli o‘zgarishlarga, evrilish-larga boy. Madaniyatning ilk elementlari paydo bo‘lgan davrlardan tortib, odamlarning turmush-tarzida madaniy-ma’rifiy, ilmiy-iijtimoiy sohalar rivojlanganiga qadar madaniyatning ko‘rinishi bosqich-ma-bosqich takomillashib borgan.

Madaniyat so‘zining ilk ko‘rinishlari arabchadagi madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqanligini, ular xalqlar turmushini ikki turga badiy (sahroviy turmush), ikkinchisini madaniy ya’ni shaharda o‘troq holda yashab, o‘ziga xos bo‘lgan turmush tarziga ega millatlar uchun qo‘llaganligini tarixiy manbaalardan bilamiz. San’at esa madaniyat bilan izma-iz paydo bo‘lgan, insonning zavqi, shuurini boyitishga, uni ezgulikka boshlashga xizmat qilishga undagan muhim vositalar-dan biri bo‘lgan.

Bashariyat o‘zining moddiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida hayotini bezaydigan, qalbiga estetik zavq beradigan, yaratish va yaratuvchanlikka undaydigan jihatlarga ham e’tibor bera boshlagan. Ibtidoiy turmush tarzidan qabila, jamoa, shaharcha kabi yashash obektlariga ega bo‘la boshlagan odamlar asta-sekin umriga mazmun beradigan, boshqalardan ajralib turishiga, turmushini qulaylashtiradigan hamda bezaydigan buyumlarga, asbob-uskunalarga (masalan hunarmandchilik, tikuvchilik, temirchilik, duradgorlik, ustachilik) ahamiyat qarata boshlashgan. Bu buyumlar ro‘zg‘orda ishlatilibgina qolmay, bora-bora ularga turli bezaklar, shakllar solina boshlagan.

O‘z navbatida san’at ham insoniyat o‘tmishining ajralmas qismi hisoblanib, so‘zga ehtiyoj sezilgan ilk zamонлардан odamlar o‘zaro muloqotida tovushlarga, xirgoyilarga ega bo‘lib borgan. Bu esa birinchi aytishuvlarning, ashulalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Alla odam bolasi tinglagen ilk qo‘sishq hisoblansa, keyinchalik umri davomida turli marosim qo‘sishqlari (to‘y, bayram, bazm)ni tinglagen, deyish mumkin. Bu esa odamlar hayotiga o‘ziga xos ma’no va mazmun olib kirib, ishdan keyingi paytlarda madaniy hordiq olishning eng maqbul usuli hisoblangan.

Har bir soha rivojida kadrlarning o‘rni va ahamiyati katta. Mala-kali kadr shu yo‘nalishning ishonchli ertasi, egasi hamdir.

Yurtimizda barcha yo‘nalishlar singari madaniyat va san’at sohasi yildan-yilga rivojlanib, yangiliklarga yuz tutib bormoqda. Jumladan, sohaning moddiy bazasini mutahkamlash, yosh avlodni yangi va yaxshi sharoitlarda o‘qitish, shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan xodimlarni rag‘batlantirish, madaniyat va san’at fidoyilariga ehtirom ko‘rsatish kabi ko‘plab tegishli ishlarni sanab o‘tish mumkin. Bu amaliy ishlarning muntazam olib borilishida tabiiyki kadrlarning o‘rni katta.

Madaniyat va san’at sohasiga yetuk, bilimli va mahoratlari kadrlarni tarbiyalashda avvalo shu sohaga qiziqqan yoshlarni topish va ularga yetarlicha shart-sharoitlar yaratish zarur. Ya’ni yoshlarning o‘quvchilik chog‘idanoq san’at va madaniyatga qiziqishini aniqlash, iste’dodini shunga ko‘ra yo‘naltirish hamda rivojlantirish zarur. Bu borada Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 2-fevralda tasdiqlangan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan muhim vazifalar fikrimizga dalil bo‘la oladi. Qarorda belgilangan taklif va mulohazalar, muhim topshiriqlardan biri ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatimizga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda yosh iste’dodlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar o‘ta muhim hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning ta’lim muassasasidagi o‘qishi jarayonida kamida bitta musiqa cholg‘usida kuy chala olishi, bu bo‘yicha ta’lim dargohlarida o‘qituvchi kadrlarga yetarlicha imkoniyat yaratib berish borasida aniq takliflar berilgan. Ayni paytda mazkur Qarorning ijrosi yuzasida tegishli tartibda ishlarni amalga oshirilmoqda. Qarordan ko‘zlangan asosiy maqsad musiqaga, milliy san’atimizga ishtiyoqi bo‘lgan yoshlarni maktab partasidanoq aniqlash, shuningdek yoshlarni qaysi bir kasb-korni tanlamasin uning dilida san’atga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, unda musiqiy didni o‘stirish, shu bilan yosh avlod ko‘nglida ezzulikka, adabiyot va san’atga mehr va muhabbatni uyg‘otishdan iboratdir.

Madaniyat va san’at yo‘nalishida kadrlar tayyorlashning o‘ziga xos muammolari yetarlicha. Chunonchi, bugungi kunda madaniyat

sohasi vakillari to‘liq ish bilan qamrab olinmagan. Har yili O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida yuzlab talabalar o‘qishni tamomlaydi. Ammo ular yuz foiz ish bilan ta’minlanmaydi. Buning obe’ktiv va subektiv sabablari mavjud. Ulardan eng asosiyлари, respublikamiz bo‘yicha madaniyat sohasi vakillariga vakant joylarning kamligi bo‘lsa, ikkinchi (asosiy) sabablaridan biri bu ularga to‘lana-digan oylik maoshlarining kamligi. Masalan, tuman Madaniyat uyi rahbarlarining oyligi kamligi bois, u zimmasidagi tadbirlarni, ko‘ngilochar dasturlarni va ularga ketadigan sarf-harajatlarni to‘laligicha qamrab ololmaydi. Shuning uchun yoshlarning aksariyati boshqa yo‘nalishlarda ishlashga harakat qilishadi. Huddi shuningdek, san’at sohasiga o‘quvchi yoshlarda ilk musiqiy bilimlarni oshiradigan, biringchi qiziqishlarni uyg‘otadigan musiqa to‘garagi rahbarlarining maoshlari kam.

Shu boisdan, mazkur ishlarning jadal borishini ta’minalash maqsadida bolaning bog‘cha yoshidan milliy musiqaga oshno etish lozim. Chunki bola ilk ta’lim-tarbiya ko‘nikmalarini aynan maktabgacha ta’lim muassasasidan oladi. Kichkintoylarga milliy cholg‘ularimiz dutor, rubob, nay, surnay, chanqovuz kabilarning o‘yinchoq shakli bilan ilk bora tanishtirish, shu bilan birga bolalarning dam olish soatlarida o‘zbek milliy qo‘shiqlaridan, musiqalaridan qo‘yib berish ularda ilk musiqiy did va qiziqishni o‘stirishga xizmat qiladi.

Bularning bari yosh avlodda madaniyatli inson, san’atga ishtiyoq-mand shaxsni shakllanishida qo‘l keladi.

Shuningdek, bugungi kunda jahon tajribasini chuqur o‘rganish, unda o‘zimizga mos jihatlarni olish ham zamon bilan hamnafaslikni ta’minalaydi. Bunda madaniyat va san’at xodimlarini (pedagoglarini) xorijda malakasini oshirish, sohaga yangi innovatsion texnologiya-larni jalb etish ham kadrlar tayyorlash masalasining ustivor vazifalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, bu o‘zaro tajriba almashinuvda nafaqat tajriba olish balki, chet eldagи mutaxassislariga bizning milliy san’atimizni o‘rgatish, madaniyat va san’at yo‘nalishida asrlar bo‘yi shakllangan boy tajribamizni ularish ham mazkur soha targ‘ibotida muhim qadam hisoblanadi.

Har bir ishning tayanch nuqtasi bo‘lgani kabi madaniyat va san’at sohasining ham tayanch nuqtasi, bosh o‘zagi bu uning malakali kadr-larga egaligi bilan o‘lchanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarni umumlashtirgan holda ay-tish mumkinki, soha rivojida kadrlarning malakasini oshirish, yosh xodimlarga tajribali mutaxassislar tajribasini o‘rgatish, yoshlarga ta’lim-tarbiya maskanlaridanoq ushbu yo‘nalishga qiziqishni uyg‘o-tish, sohaning moddiy bazasini mustahkamlash, unda fidoyi kadrlarni muntazam rag‘batlantirish, moddiy va ma’naviy dastak ko‘rsatish, shu bilan birga jahon tajribasini o‘rganish va o‘rgatish madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldaggi PQ-112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Beknazarov X.Q. et al. OILADA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 643-646.
4. Beknazarov K. DEVELOPING MUSIC COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS THROUGH NATIONAL INSTRUMENTS //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2025. – C. 107–113.

MUSIQA INDUSTRIYASIDA PRODYUSSERLIK VA SAN'ATKORLARNING HUQLARNI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Madina Pardayeva,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada musiqa industriyasida prodyuser va san'atkor o'rtaqidagi huquqiy munosabatlar, mualliflik huquqi, roylati taqsimoti va huquqiy nizolar tahlil qilinadi. Dunyo tajribasi misolida ushbu muammolarga yechim sifatida ilg'or yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston musiqa bozorida mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqolada xorijiy tajriba, statistik ma'lumotlar va amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa industriyasi, prodyuserlik, mualliflik huquqi, roylati, shartnomaviy munosabatlar; san'atkor huquqlari, intellektual mulk, huquqiy nizolar, global tajriba va uning integratsiyasi.

Аннотация: В статье анализируются правовые отношения между продюсером и артистом в музыкальной индустрии, авторские права, распределение роялти, судебные споры. На примере мирового опыта рассматриваются передовые подходы к решению этих проблем. Будут проанализированы проблемы, существующие на узбекском музыкальном рынке, и пути их решения. В статье представлен зарубежный опыт, статистические данные и практические примеры.

Ключевые слова: Музыкальная индустрия, производство, авторское право, роялти, договорные отношения, права артистов, интеллектуальная собственность, судебные споры, мировой опыт и его интеграция.

Abstract: The article analyzes the legal relations between the producer and the artist in the music industry, copyright, royalty distribution and legal disputes. Using the example of world experience, advanced approaches to solving these problems are considered. The

problems existing in the Uzbek music market and ways to solve them are analyzed. The article presents foreign experience, statistical data and practical examples.

Key words: *Music industry, production, copyright, royalty, contractual relations, artist rights, intellectual property, legal disputes, global experience and its integration.*

“San’at biznesga aylangan joyda huquq eng kuchli qurolga aylanadi.”

Mark Geiger, Creative Artists Agency asoschisi

Musiqa industriyasi bugungi kunda nafaqat ijodiy jarayon, balki murakkab huquqiy va iqtisodiy munosabatlар majmuasiga aylangan. San’atkor va prodyuser o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligi ko‘p jihatdan ularning o‘zaro tuzgan shartnomalari, roylati taqsimoti va mualliflik huquqlari bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy shou-biznes sharoitida ushbu munosabatlarning huquqiy asoslarini to‘g‘ri shaklantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi global musiqa bozorida intellektual mulk huquqlari katta ahamiyat kasb etib, san’atkorlarning asarlarini himoya qilish va tijoratlashtirish uchun xalqaro standartlarga asoslangan tizimlar yaratilmoqda. Biroq, ko‘plab davlatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham, san’atkor va prodyuserlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlар hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa mualliflik huquqlarining buzilishi, roylati taqsimotidagi noaniqliklar va shartnomaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Jahon miqyosida mashhur san’atkorlar va yirik prodyuserlik kompaniyalari o‘rtasida shartnoma mojarolari tez-tez kuzatilmoqda. Masalan, Taylor Swift va Big Machine Records o‘rtasidagi roylati nizosi yoki Kane Westning Universal Music Group bilan bo‘lgan huquqiy bahslari musiqa sanoatida shartnomaviy muammolar naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek estradasida ham mualliflik huquqlari boyicha muammolar kuzatiladi, ammo ularning huquqiy yechimi hali to‘liq shakllanmagan.

Zamonaviy musiqa industriyasi san’atkor va prodyuser o‘rtasidagi murakkab huquqiy munosabatlarga asoslanadi. Ushbu sohada

mualliflik huquqi, shartnomaviy majburiyatlar, roylati taqsimoti kabi muhim masalalar mavjud. Dunyo miqyosida san'atkorlar va prodyuserlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar hamon dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston musiqa bozori ham bu tendensiyalardan chetda emas.

Prodyuser va san'atkor o'rtasidagi huquqiy munosabatlar. Musiqa industriyasida prodyuser va san'atkor o'rtasida shartnomaviy munosabatlar muhim o'rinni tutadi. Ular quyidagi asosiy yo'naliishlarda tuziladi:

- **Eksklyuziv shartnomalar** – san'atkor faqat bitta prodyuser bilan ishlaydi va mustaqil loyihibar yaratish huquqiga ega emas.
- **Litsenzion shartnomalar** – san'atkorning ijodiy mahsuloti ma'lum muddat yoki hudud boyicha foydalanishga beriladi.
- **Ishlab chiqarish shartnomalari** – prodyuser san'atkor uchun musiqiy mahsulot yaratish va uni bozorda ilgari surish bilan shug'ulanganadi.

Xulosa va takliflar: Musiqa industriyasida prodyuserlik va san'atkorlarning huquqlari dolzarb masala bo'lib, ushbu sohani tartibga solish san'atkorlar va prodyuserlar o'rtasidagi nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Huquqiy asoslarni mustahkamlash orqali ijodkorlarning manfaatlarini himoya qilish, intellektual mulkni boshqarish va roylati taqsimotini shaffof qilish imkoniyati yaratiladi.

Birinchidan, san'atkor va prodyuser o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning aniq va shaffof bo'lishi muhim. Shartnomalar ochiq, tushunarli hamda xalqaro standartlarga mos bo'lishi lozim. Prodyuser va san'atkorlarning huquq va majburiyatları aniq belgilansa, nizolar kamayadi va har ikkala tomon manfaatlari himoyalananadi.

Ikkinchidan, roylati taqsimoti boyicha shaffof tizim yaratish lozim. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ham mualliflik huquqlari boyicha to'lovlarni boshqaruvchi mustaqil tashkilotlarni tashkil etish zarur. Angliyadagi PRS for Music yoki AQShdagi ASCAP kabi tashkilotlar san'atkorlarga har yili milliardlab dollar roylati to'laydi. O'zbekistonda ham bunday tizim joriy qilinsa, san'atkorlarning daromadlari kafolatlanadi.

Uchinchidan, musiqa industriyasidagi huquqiy nizolarni hal qilish uchun vositachilik va mediatsiya mexanizmlarini joriy etish kerak.

Xalqaro tajribada bu usullar muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda va O‘zbekistonda ham shunday tizimlarni ishlab chiqish muhimdir.

To‘rtinchidan, davlat tomonidan intellektual mulk himoyasini kuchaytirish zarur. Mualliflik huquqlarining buzilishi va noqonuniy kontent tarqatilishining oldini olish uchun qattiq nazorat tizimi va qo‘nunchilik bazasini mustahkamlash talab qilinadi.

Beshinchidan, musiqa industriyasi vakillari, san’atkorlar, prodyuserlar va huquqshunoslar o‘rtasida doimiy seminarlar, forumlar va huquqiy savodxonlikni oshiruvchi tadbirlarni tashkil etish lozim. Bu esa soha vakillarining o‘z huquqlari va majburiyatlarini to‘g‘ri tushunishiga yordam beradi.

Musiqa industriyasi rivoji uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash san’atkorlar va prodyuserlarning manfaatlarini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu yo‘nalishda islohotlarni amalga oshirish mamlakat musiqa bozorining jadal rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. World Intellectual Property Organization (WIPO). “Copyright in the Music Industry.” 2023.
2. ASCAP. “Royalty Distribution and Music Licensing.” 2022.
3. PRS for Music. “The Role of Collecting Societies in the Music Industry.” 2021.
4. Taylor Swift vs. Big Machine Records: Case Study on Copyright Disputes, 2019.
5. Universal Music Group Annual Report, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi Qonuni, 2018.
7. Musiqa industriyasida prodyuserlik va san’atkor huquqlari boyicha xalqaro konferensiya materiallari, 2023.
8. IFPI Global Music Report, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi hisobotlari, 2022.
10. Musiqa bozorining huquqiy muammolari boyicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2023.

КАДРОВЫЙ ПОТЕНСИАЛ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ТRENДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Барно Мирвалиева,

*Магистр 1 курса магистратуры направления
«Менеджмент культуры и искусства»*

*Государственного института искусств и культуры
bonika299@gmail.com*

*Научный руководитель: Манзура Юлдашева
Профессор кафедры
«Менеджмент культуры и искусства»*

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции развития кадрового потенциала в сфере культуры. Анализируются ключевые факторы, влияющие на формирование кадровой политики, а также перспективы развития профессионального сообщества в данной области. Отдельное внимание уделяется вопросам цифровизации, междисциплинарного взаимодействия и новых моделей управления культурными организациями.

Ключевые слова: Кадровый потенциал, цифровизация, междисциплинарность, культурная индустрия, управление персоналом, глобализация.

Annotation: The article examines modern trends in the development of human resources in the cultural sphere. Key factors influencing the formation of personnel policy, as well as prospects for the development of the professional community in this area, are analyzed. Special attention is paid to issues of digitalization, interdisciplinary interaction, and new models of managing cultural organizations.

Keywords: Human resources, digitalization, interdisciplinarity, cultural industry, personnel management, globalization.

Современное общество переживает эпоху стремительных технологических и социальных изменений, которые оказывают

значительное влияние на сферу культуры. Кадровый потенциал является одним из ключевых факторов, определяющих эффективность развития культурных учреждений и организаций. В условиях цифровизации и глобализации формируются новые требования к специалистам, работающим в этой области.

Важнейшим ресурсом социально-культурной деятельности является кадровый ресурс. Работники учреждений культуры относятся к трем основным категориям:

- руководители учреждений и подразделений;
- специалисты и творческие работники;
- технический и вспомогательный персонал.

От подготовленности специалистов первых двух категорий кадрового ресурса в значительной мере зависит успех деятельности учреждений культуры. Работники, относящиеся к техническому и вспомогательному персоналу, всесторонне обеспечивают достижение результатов.

Профессиональная подготовка кадров социально-культурной деятельности осуществляется на стыке культуры и управления. Кадр социально-культурной деятельности должен обладать такими профессионально важными качествами, которые обеспечивают выполнение социально значимых задач средствами культуры и искусства. Серьезным подспорьем для повышения профессиональной квалификации специалистов социально-культурной деятельности является обмен опытом между учреждениями культуры, учебно-методические сборы и семинары, регулярно проводимые на федеральном, региональном и местном уровнях [1].

Важными аспектами в наше время становятся гибкость компетенций, междисциплинарность, владение цифровыми технологиями и способность адаптироваться к быстро меняющимся условиям. В последние годы наблюдается активное внедрение цифровых технологий в управление культурными учреждениями, что требует соответствующей подготовки кадров. Инновацион-

ные подходы к организации деятельности, использование искусственного интеллекта, виртуальной и дополненной реальности, а также автоматизированных систем управления изменяют традиционные модели работы. Современные специалисты должны обладать не только узкопрофильными знаниями, но и навыками в сфере менеджмента, маркетинга, ИТ и экономики.

Глобализация также оказывает значительное влияние на кадровый потенциал сферы культуры. Интеграция в международное культурное пространство требует новых подходов к подготовке специалистов. Образовательные программы с акцентом на международный опыт и межкультурное взаимодействие становятся все более популярными. Развитие программ академической мобильности, сотрудничество с зарубежными образовательными учреждениями и культурными организациями способствуют формированию кадрового потенциала, способного эффективно работать в условиях межкультурного обмена. Важно отметить, что современная система подготовки кадров в сфере культуры стала касаться с рядом вызовов, среди которых недостаток финансирования, медленные темпы адаптации образовательных программ к меняющимся требованиям рынка труда и недостаточная интеграция цифровых технологий в образовательный процесс.

Рассмотрев инновационные подходы к организации деятельности, важно прийти к главному аспекту – мотивации, ведь мотивация — это всегда главный двигатель процесса и развития, в особенности в нынешней молодёжи. Мотивация и вовлеченность: Сотрудники, которые заинтересованы в своей работе и имеют высокую мотивацию, более продуктивны и способны проявлять креативный подход к выполнению задач. Важно создавать условия для профессионального роста и удовлетворения от работы, к примеру, для повышения эффективности сотрудника важно инвестировать в развитие кадрового потенциала, создавая программы обучения, обеспечивая условия для креативной и продуктивной работы [2].

Кроме того, наблюдается переход от традиционных иерархических структур к более гибким и проектным командам. Это позволяет эффективнее использовать кадровый потенциал и повышать уровень креативности в управлении культурными профессиями. Внедрение инструментов непрерывного обучения и карьерного роста становится важным фактором повышения профессионализма работников. Значение приобретает развитие наставничества, корпоративного обучения и программ переподготовки. В условиях высокой конкуренции на рынке труда специалисты, работающие в сфере культуры, должны постоянно совершенствовать свои навыки и осваивать новые технологии. Важной тенденцией является расширение образовательных программ, направленных на развитие цифровых и управленческих компетенций. Повышенный спрос на специалистов с междисциплинарными навыками приводит к активному развитию программ, сочетающих творческие и технологические компоненты. Таким образом, формируется новое поколение профессионалов, способных эффективно работать в условиях цифровой трансформации.

Немаловажным аспектом является внедрение гибридных моделей занятости, сочетающих фриланс, проектную работу и удаленную деятельность. Многие специалисты в сфере культуры предпочитают работать над краткосрочными проектами, сотрудничая с различными организациями, что способствует расширению их профессионального опыта и повышению уровня компетентности. В то же время государственная поддержка играет ключевую роль в развитии кадрового потенциала.

Финансирование образовательных программ, поддержка молодых специалистов и развитие инфраструктуры для культурных инициатив способствуют формированию устойчивой кадровой политики. Активизация сотрудничества с бизнесом также является важным направлением. Частные компании все чаще привлекают специалистов из культурной сферы для реализации совместных проектов, что способствует развитию креативных

индустрий и расширение возможностей профессионального роста.

Несмотря на активное развитие индустрий, кадровая политика в сфере культуры сталкивается с рядом проблем. Одной из основных остается несоответствие образовательных программ реальным потребностям рынка. Многие выпускники творческих вузов испытывают сложности с трудоустройством, в то время как отрасль нуждается в специалистах с актуальными знаниями. Дополнительные вызовы создают недостаточное финансирование, низкие заработные платы в государственных учреждениях культуры и утечка кадров в более прибыльные отрасли.

Среди основных проблем можно выделить нехватку финансирования на подготовку кадров, отток специалистов в другие сферы из-за низкой заработной платы, а также несоответствие образовательных программ реальным запросам рынка. В то же время перспективы развития кадрового потенциала связаны с государственной поддержкой, развитием корпоративного обучения, внедрением современных технологий и усилением международного сотрудничества. Важно создать экосистему, где образование, бизнес и государство будут работать в едином направлении, формируя квалифицированных специалистов для культурной сферы [3].

Таким образом, развитие кадрового потенциала в сфере культуры требует комплексного подхода, включающего интеграцию цифровых технологий, совершенствование образовательных программ, развитие международного сотрудничества и внедрение новых моделей управления. Будущее данной отрасли зависит от способности специалистов адаптироваться к изменениям, осваивать новые технологии и эффективно взаимодействовать в глобальном культурном пространстве.

Список литературы

1. Н.Г.Серебренникова, Л.А.Мироновна, Сибирская культура руководителя образовательной организаций: методологические подходы к исследованию. – «Наука об образовании», 2023.
2. Современный менеджмент – проблемы и перспективы по итогам XIV международной научно-практической конференции «Современный менеджмент: проблемы и перспективы» Под редакцией доктора экономических наук, профессора Е.А. Горбашко, доктора экономических наук, профессора И.В. Федосеева – 2019.
3. Сидорова Л.В. Менеджмент культуры: современные вызовы и перспективы. – Казань: Университетская книга, 2020.
4. Отчет ЮНЕСКО о состоянии культуры в мире, 2023. – URL: <https://unesco.org/culture/report> (дата обращения: 21.07.2024).
5. М.Б.Юлдашева. А.Н.Колканатов – Особенности кадрового потенциала как ведущего фактора повышения эффективности деятельности организаций в социально-культурной сфере. Inter education & global study. 2024. №8(1). – 2024.

BOSHQARUV JARAYONIDA RAHBARLIK FAOLIYATI

Feruza Raxmatova,

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayoni tushunchalariga tarif hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, rahbar, natija, personal, prinsip, identifikasiya, ijtimoiy, faoliyat, mas'uliyat.

Annotation: The article gives scientific practical suggestions and recommendations for the development of tariff and leadership activities on the concepts of management and management process.

Key words: Management, leader, result, personal, principle, identity, social, activity, responsibility.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avallo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'liyat bilan yondashish tashkilot yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

Rahbar mas'uliyati – rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda

alohida shaxs, xodim mas’uliyatidan farq qilib, ko’lami kengligi, salmog‘i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas’uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas’uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o‘zgalar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas’uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg‘usidir. Mas’uliyatli rahbar, eng avvalo, o‘ziga, so‘ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo‘ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas’uliyat hissining yo‘qligidan kelib chiqadi. Albatta, o‘zi sidqi dildan ishlayotgan rahbar ish faoliyati va natijani sifat jihatdan yaxshilash uchun xodimlarini ham ortidan ergashtira oladi. Kezi kelganda xodimlaridan korxona yoki tashkilot maqsadi uchun samarali va foydali mehnat faoliyatini ham talab qila oladi. Bunday rahbarlarning bunaqa holatda talabi qanoatlantirilishi, xodimlarining o‘zidan vakolat bo‘y cha baland personal buyrug‘ini bajarish emas balki, rahbar bo‘lishiga qaramay jamoa va tashkilot uchun hamda xodimlar bilan teng harakat qilgan, o‘zлari uchun namuna bo‘ladigan, motivatsiya oladigan shaxs bilan birgaligidan vujudga keladi.

Har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo‘lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deb atadik. Fikrlash va harakat bir paytning o‘zida ro‘y beradi, boshliq o‘zi o‘ylashi, o‘zi mantiqiy xulosaga kelishi va ularni amalga oshirishga kirishishi kerak. Avallo, rahbar o‘zi boshchilik qilayotgan tizm, tuzulma haqida yetarlicha dunyoqarash, bilim, tajriba va ko‘nikmaga ega bo‘lishi shart. O‘z navbatida intiluvchan hamda har tomonlama o‘tkir zehnli bo‘lishi ham zarur. Chunonchi, har bir xodimning vazifasini tushunish, fursat talab qilganda ularga amaliy yordam ko‘rstish juda muhim. Shundan kelib chiqadiki, rahbar ma’lum bir sohani emas balki qo‘srimcha sifatida faoliyatiga hamisha chambarchas bo‘g‘liq bo‘lgan, iqtisodiy, huquqiy bilimlarni egallagan bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va chet tilini bilishi kerak. Yuqorida keltirilganlarning barchasi boshqaruv rivoji hamda ko‘zlangan natijaga erishishda rahbarlar uchun juda muhim omillardandir. Har qay-

si rahbar qanchalik tajribali va bilimli bo‘lmasin, faoliyati davomida qarorlar qabul qilishga, qaror ijrosiga e’tibor bilan yondashishi lozim. Bunda jamoatchilik, ya’ni tashkilot a’zolari, xodimlar fikri kerak bo‘ladi. To‘g‘ri oxirgi qarorni rahbar qabul qiladi. Ammo ko‘zlangan maqsad va natija tashkilotniki, jamoaniki bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan berilishi kerak bo‘lgan maslahatlar boshqaruv jarayonida boshqaruv maslahatlari deb ataladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida tub islohotlar va o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlar natijasida hech bir soha yoki yo‘nalish chetda qolgani yo‘q. O‘zgarishlar ham albatta, xalq manfaati va davlatimiz rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Barchamizga taaluqli hamda xursand qiladigan ushbu islohot va amaliy ishlarning birgina yorqin misol bu – Yangi O‘zbekistonidir.

Yangi O‘zbekiston – “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan hal qiluvchi tamoyil amalda o‘z tasdig‘ini topayotgan mamlakatdir.

Darhaqiqat, bugungi Yangi O‘zbekiston – Prizedentimiz takidlaganlaridek, inson qadri ulug‘langan va barcha davlat organlari xalq manfaati uchun xizmat qiladigan, o‘z taraqqiyot yo‘lini muhim belgilab olgan hamda o‘zining har tomonlama iqtisodiy, madaniy qolaversa dunyo hamjamiyatida siyosiy salohiyatda ham o‘z o‘rnini topgan demokratik davlatdir. Bularning barchasi o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaygan, bo‘lib qolmaydi ham. Amalga oshirilayotgan ishlarning zamirida uzoqni o‘ylab chiqarilgan istiqbolli qarorlar, mas’uliyatli ijro apparati hamda tizimli yo‘lga qo‘ylgan boshqaruv jarayoni yotadi.

Davlat boshqaruvi – bu davlat nomidan va davlat ko‘rsatmasiga binoan amalga oshiriladigan boshqaruv ya’ni fuqarolik jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, huquqiy va demokratik davlatni mustahkamlash sohalarida amalga oshiriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir.

Demak, davlat boshqaruvi keng ma’noda davlatning maxsus subektlari tomonidan ichki va tashqi siyosat hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda faoliyat yuritishidir. Jumladan mamlakating iqtiso-

diy quvvatini oshirish, har qanday holatda suveren pozitsiyani saqlay olish, aholi turmush darajasini yaxshilash bilan birga madaniy va ma’naviy qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirishdir.

Davlat boshqaruvining sifat jihatdan qanchalar ijobiy bo‘lishi esa mas’uliyatli organ – tashkilotlarning yuqori va quyi bo‘g‘in rahbarlariiga bog‘liq. Yuqorida keltirilgan fikrlardan so‘ng rahbar o‘zi kim degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Ulug‘ mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning tabiri bilan aytganda “Rahbar – bu o‘zini jamiyat xizmatiga yollagan kishi bo‘lib, undan unutilmas nom, so‘z hamda buzib bo‘lmas amaliy ishlar ya’ni bilim qonunlar, urf-odatlar, an’analar, tartiblar, madaniy, ma’naviy-axloqiy yuksak ko‘nikmalar, ezungulik va rivojlanishga undovchi mafkura, ruhiy jo‘shqinlik qolmog‘i kerak”.

Darhaqiqat, har bir rahbar faoliyati davomida davlat organi, tashkilot yoxud korxona bo‘lishidan qat’iy nazar sidqi dildan ishlashi, jamiyat a’zolari hamda xodimlari uchun amaliy va nazariy o‘rnak bo‘lishi kerak.

O‘z navbatida yuqorida qayd etilgandek rahbarlar bilan birga to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan davlat boshqaruvi tufayli biz yoshlar uchun mamlakatimizda barcha keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan. Chunonchi yetarlicha bilim olishimiz, o‘zimiz qiziqqan sohadada ish faoliyati olib borishimiz orqali Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga o‘z hissamizni qo‘sishimiz mumkin. Hatto Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun qo‘shmoqchi bo‘lgan hissamizni rahbarlik orqali amalga oshirishimizga ham yetarlicha imkoniyatlar va keng ochilgan yo‘llar mavjud. Albatta, bizdan bu borada bilim, ko‘nikma va tajriba talab etiladi. Fikrlarimizni quyidagilar orqali davom ettirmoqchiman:

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti erkin fuqaro va ozod shaxs mavzusida gapirganda, quyidagi to‘rt jihatga e’tiborini qaratadi, ya’ni har bir fuqaro:

- o‘z haq-huquqini taniydigan bo‘lsin, buning uchun kurashsin;
- o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo‘lsin, imkoniyatlarini ishga solib samarasini ko‘rsatsin;
- atrofda sodir bo‘lyotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;

– shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritsin.

Yosh rahbarlarga xos ijtimoiy – psixologik xususiyatlardan muhim jihat shundan iboratki, avvalo rahbar o‘z shaxsidan, hayotidan, faoliyatidan qoniqqanlik darajasiga ega bo‘lishi shart. Bunday tarzdagi ijtimoiy – psixologik qoniqqanlik darajasi uni yuqori ko‘tarinki kayfiyat, optimism ruhidha qarorlar qabul qilishiga, jamoda sog‘lom muhitni shakllantira olishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Rahbarning kreativ fikrlashi, motivatsiyani oshirishga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilishi o‘z navbatida qo‘l ostidagi xodimlarining qarashlaridagi va faoliyatidagi yangilanishlarni yuzaga keltiradi. Jamoadagi har bir xodimning individual psixologik xususiyatlarini bilishi, ta’sir etish yo‘llarini topishi rahbar faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Yosh rahbarlar mehnat faoliyatining samarali va o‘zi rahbarlik qilayotgan muassasa yoki jamoa uchun ham yaxshi ma’noda manfaatli bo‘lishi uning psixologik qarashlari va ta’siriga ham bog‘liq bo‘ladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, rahbar xodimlarining harakteri, kayfiyati hamda mehnat unumdorligiga qarab rag‘batlantirishi, ruhlantirishi mumkin. Bunday jarayon jamoaviy va yakka holatda bo‘ladi. Rahbarlar yangiliklarni qabul qilishi va izlanuvchan bo‘lishlari ham talab etiladi.

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minalash lozim.

Albatta, rahbarlar tomonidan qabul qilingan har qaysi qaror o‘zining amaliy ijrosi bilan manfaatlidir. Shunday ekan jamiyat a’zolari yoki fuqarolar bu islohotlarning samarasini ko‘ra olishi va ulardan foydalana olishlari kerak. Har qancha bilimli, tajribali rahbar bo‘lmasin qabul qilingan qaror va buyruqlar ijrosini taminlay olmas, ularni jamiyatga tadbiq qila olmas ekan, ularning qog‘ozlarda yoki arxivlarda qolishiga zamin yaratgan bo‘ladilar.

Fikrlarimni Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning nafaqat yosh rahbarlar balki barcha rahbarlar uchun ish faoliyati mundarijasi bo‘ladigan ajoyib so‘zлari bilan yakunlamoqchiman. “Xalqimiz azaldan

yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifa deb hisoblaymiz", – deydi.

Darhaqiqat, har bir rahbarlarning o'z mehnat faoliyatida adolat me'zonlariga amal qilishlari ham farz, ham qarzdir. Shuningdek, bilim, ko'nikma, tajriba, o'ziga bo'lgan ishonch va har bir vazifaga vij-donan yondashish talab etiladi. Bu talablarga ma'suliyat bilan javob bera olgan har qaysi yosh rahbarlargina Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadilar.

Barchamizga ma'lumki davlatimiz kundan-kunga yangilanib, ij-timoiy – siyosiy, iqdisodiy, hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan dunyo davlatlari ichida yetakchi o'rnlarni egallab bormoqda. Chuqur ildizga ega madaniyatimiz tufayli Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lib, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanib bormoqda. Mana shunday o'z-garishlarning fundamental asosida yosh rahbar kadrlarning o'rni ham alohida e'tiborga molikdir.

Bugungi O'zbekiston – bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan, Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz kerak. Shu bois ham istiqbolli yosh kadrlarning intelluktual salohiyatini yuksalish davr talabi bo'lib kelmoqda. Nafaqat yosh rahbar kadrlarni, balki barcha yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh kadrlarning is-te'dodini, rahbarlik salohiyatini ochib berish Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlardan biriga aylangan.

Yangi O'zbekistonning yanada taraqqiy etishida IT texnalogiyalari ham katta rol o'ynamoqda. Yurtimizda qolaversa xorij davlatlarida shu soha bo'yicha ta'lim olgan yosh rahbar kadrlar sohani to'laqonli o'rjanib yoshlar orasida yanada kengroq targ'ib etmoqda. Bugun-

gi hamma yosh zamonaviy rahbarlar ilg‘or texnologiya tarafdori va shunga moyil hamdir deb aytish to‘g‘ri bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, yosh rabbarning zamonaviy va ilg‘or ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi. Demak zamonaviy rahbar yoshidan qatiy nazar ilg‘or texnologiyalar tarafdori, zamonaviy qarorlar qabul qiladigan qobiliyatli shaxs bo‘lmog‘i lozim.

Yangi O‘zbekistonning yoshlari yangicha fikrlaydigan, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muam-molarni ijodiy va nostandard yondashuvlar asosida hal etishga qodir yoshlari bo‘lib shakllanmog‘i kerak.

Sinovdan o‘tgan shaxslarni rahbar qilib saylash zarur. Nega deganda, bu dunyoda katta aql-zakovat bilan birga, ko‘pni ko‘rgan, uzoqni ko‘zlaydigan irodasi mustahkam, kerak bo‘lsa turli-turli murakkab sinovlardan o‘tgan odamlarni biz o‘zimizga rahbar qilib tanlashimiz kerak. Uzoqni ko‘ra olmaydigan odamning rahbar bo‘lishga mutlaqo haqqi yo‘q.

Shuning uchun biz kabi yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at, sport sohasidagi iste’dod va salohiyatimizni yuzaga chiqarish, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirot etish uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda deb o‘ylayman.

Biz uzlusiz milliy ta’lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg‘un va mutanosib rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqdamiz. 2021-yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan “Yangi O‘zbekiston” universiteti tashkil etildi. Ushbu universitetda mamlakatimizdagи barcha oliy o‘quv yurtlari uchun na’muna bo‘ladi. Eng bilimli va iste’dodli yoshlарimiz shu yerda o‘qiydi.

Mana shunday o‘zgarshlar bo‘layotgan bir paytda biz yoshlар aq-limizni, intellektual salohiyatimizni, bilim doiramizni oshirishimiz va yurtimizdagи o‘zgarishlarga befarq bo‘lmasligimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessansni amalga oshirishda yanada jadal qadam qo‘yish, biz kabi yoshlarning zamonaviy texnologiyalarni, tezkor va samarali qaror qabul qilishni bilishimiz hamda liderlik qobiliyatini o‘sirish uchun jamoa

a'zolari bilan ko'proq muloqotga kirishishimiz lozimdir. Biz kabi yoshlар ota-onamizning, Vatanimizning, Prezidentimizning qolaversa butun xalqimizning ishonchini to'laqonli oqlaymiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyorlar

1. Xaydarov A. Siyosiy madaniyat mas'uliyati. // – Toshkent: "Tafakkur", 2009, – 176-bet
2. K.B.Axmedjanov, A.X. Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. // O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur qanoati" nashriyoti, 2020. 96-b
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 52-bet
4. Xojiev E. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari // Toshkent. – "Yangi kitob", 2017. – 257-bet.

FANDRAYZING TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNING TURLARI

Nilufar Maratova,

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi I-bosqich magistranti,
Prezident stipendiyasi sohibasi*

*Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti v.b.*

Annotatsiya: Maqolada fandrayzing tushunchasi va uning rivojlanish tarixi bilan bog'liq tushunchalarga izoh berilgan. Rivojlangan davlatlarda madaniyat va san'at sohasi fandrayzingining shakllanish bosqichlari haqida bir qancha konkret ma'lumotlar keltirilgan va solishtirma fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat va san'at, fandrayzing, mablag', loyiha, sarmoya, hamkor, aloqa, samaradorlik, muammolar.

Abstract: The article provides an explanation of the concept of fundraising and the concepts related to the history of its development. It provides some specific information about the stages of formation of fundraising in the field of culture and art in developed countries and presents comparative ideas.

Keywords: culture and art, fundraising, money, project, investment, partner, communication, efficiency, problems.

Hozirgi kunda madaniyat markazlari faoliyati, umuman, madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madaniyatimizni keng targ'ib qilish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xalqimizni madaniyat va san'atimizga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish va to'laqonli jalb etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ammo bugun zamonaviy texnika asrida zamon talablariga javob bera oladigan madaniy-ma'rifiy, ijodiy xizmat ko'r-satish madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning

xalq orasida yuqori mavqega ega bo‘lishlarida mustahkam ko‘prik vazifasini o‘taydi, albatta. Aholining talab va ehtiyojlariga zamonaviy yondashuvlar bilan javob bera olish, o‘z navbatida, o‘z ustida ishlovchi xodimlari jamoasini, zamonaviy texnik bazani hamda eng muhim yetarlicha pul mablag‘larini talab etadi.

Madaniyat markazlariga pul mablag‘larini, ya’ni mahalliy loyihalarni amalga oshirish va bugungi kun talablariga javob beruvchi madaniyat markazlari faoliyatini yo‘lga qoyish uchun tashqi investorlarni jalg etish dunyoning rivojlangan mamlakatlarining madaniyat va san’at sohasida keng qo‘llanilgan va ijobjiy ta’sir ko‘rsatayotgan soha, ochiqroq aytadigan bo‘lsam, hayriya to‘plash yoki homiyarlarni jalg etish (*ingliz tilida “fundraising” deb ataladi*) hisoblanadi. Madaniyat markazlarining auditoriyasini ko‘paytirish, ular uchun foydali va manfaatli takliflarni bera olish, qisqa qilib aytganda, talabga javob bera oladigan madaniy xizmat ko‘rsata olish yoki namuna ko‘rsatish uchun istiqbolli reja va loyihalar madaniyat va san’at sohasiga homiyarlarni jalg etish uchun qurol vazifasini bajaradi. Madaniyat markazlariiga homiyarlarni jalg etish – bu jismoniy shaxslar, xayriya jamg‘armalari yoki davlat idoralarini jalg etish orqali ixtiyoriy moliyaviy mablag‘larni izlash va yig‘ish jarayoni. Xorij tajribasi bilan tanishar ekanmiz, bu soha allaqachon madaniyat va san’at sohasi bilan sinxronizatsiyalangan va samarali natija bermoqda.

Fandrayzing – (inglizcha fund-fondlar, moliyalashtirish, to raise – ko‘tarmoq, chiqarmoq, yig‘moq), ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarni (loyihalar, dasturlar, harakatlar) amalga oshirish va muayyan institutlarni qo‘llab -quvvatlash uchun homiylik mablag‘larni maqsadli ravishda tizimli qidirish. Mablag‘ yig‘ish jarayoni potentsial donorlarni qidirishni o‘z ichiga oladi, ular ham shaxslar, ham kompaniyalar bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar uchun xayriya yig‘ish amaliyoti XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. O‘scha davr san’atining birinchi yirik homiyalaridan biri Uyg‘onish davri ilmiy kashfiyotlariga homiylik qilgan Evropa Medichi oilasi edi. Yana bir misol XX asr davomida dunyodagi eng katta boylikka ega bo‘lgan va muntazam ravishda

xayriya ishlariga sarflagan Rotshildlar oilasi hisoblanadi. “Fandrayzing” atamasining o‘zi AQShda XIX asr va XX asr boshlarida “uchinchchi sektor” – nodavlat tashkilotlarini birlashtirgan iqtisodiyot sohasi uchun, jtimoiy loyihalar uchun, xayr-ehsonlar yig‘ilishini bildirish uchun paydo bo‘lgan. Ko‘p hollarda mablag‘ yig‘ish atamasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlar uchun mablag‘ to‘playdigan notijorat tashkilotlari (NTT) faoliyatiga nisbatan ishlatiladi. Qoidaga ko‘ra, donorlar va homiylargacha bo‘linadi. Homiy xususiy shaxs ham, tashkilot ham bo‘lishi mumkin, uning yordami bepul va qaytarilishi mumkin. Ikkinchidan homiy haqidagi ma’lumotni tarqatish yoki om-malashtirishni o‘z ichiga oladi, xayriya shartnomasi brendni eslatish uchun tuziladi, Donor – raqobat asosida tekin xayriya yoki homiylik qilayotgan jismoniy shaxs yoki tashkilot. Homiylar – tekin xayriya qiladigan shaxslar hisoblanadi.

Dastavval, mablag‘ yig‘ish jarayoni uchun mukammal reja yaratish bosqichlari quyidagicha:

- Rejalashtirish uchun mutaxassislardan iborat guruh tashkilashtirish;
- Loyiha yoki taqdimotning kuchli tomonlarini aniqlash;
- Aqliy hujum va moliyalashtirish imkoniyatlari ustuvor ahamiyat berish;
- Mablag‘ yig‘ish strategiyalarini baholash;
- Mablag‘ yig‘ish maqsadlarini qoyish;
- Taqvim va uni yozish;

Fandrayzing strategiya bosqichlari	
1	Mablag‘ yig‘ish maqsadini bilish;
2	Kim berishi mumkin?
3	Biz ularga qanday erishishimiz mumkin?
4	Kim tashkilotchi bo‘ladi?
5	Qancha vatqda yig‘iladi?

1.1-rasm. Fandrayzing strategiya bosqichlari

Mablag‘ yig‘ish tashkilotdagi alohida va bog‘lanmagan funksiya emas, balki boshqa barcha funksiyalarga asoslanadi va aks ettiriladi. To‘g‘ri tashkiliy strategiya mablag‘ yig‘ishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mablag‘ yig‘ish strategiyasi ma’lum bir mablag‘ yig‘ish maqsadiga erishish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli harakatlar rejasidir.

1. Mablag‘ yig‘ish maqsadini bilish:

• KUCHLI TOMONLARI	• ZAIF TOMONLARI
➢ tajribali yordam jamoasi	
• IMKONIYATLAR	• TAHDIDLAR

2. Kim berishi mumkin?

- Davlat tashkilotlari
- Xususiy tashkilotlar
- Jismoniy shaxslar
- Va boshqa xayriya va homiy tashkilotlar

3. Biz ularga qanday erishishimiz mumkin?


- Taklif uchun so‘rovnama tayyorlash;
- Amalga oshirish mexanizimini ishlab chiqish;
- Hamkorlar uchun prezentatsiya tayyorlash va taqdim etish;

4. Kim tashkilotchi bo‘ladi?

- Tashkilot marketologgi (rivojlangan davlatlarda har bitta tashkilotda fandrayzing menejeri lavozimi bor);
- Yoki tashkilot rahbari boshchiligidagi jamoa;

5. Qancha vaqtda yig‘iladi?

- Ahil jamoa yig‘ilishi uchun;
- Taklif berilishi va o‘rganilishi uchun;
- Taklif yoki tayyorlangan chiqishlar uchun konkret loyiha tayyorlash;
- Loyiha dasturi va prezentatsiyasi uchun;
- Hamkorlik va xayriya uchun tashkilatlar bilan aloqalar uchun.



1.2-rasm. Fandrayzing turlari.

➤ **Korporativ mablag‘ yig‘ish**, Bu ikkita maqsadga qaratilgan. Birinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun katta mablag‘larni bir joyda to‘plash imkoniyatiga ega, ikkinchidan, kompaniya o‘zining Korporativ ijtimoiy javobgarlik faoliyatining bir qismi sifatida ham xuddi shunday mablag‘larni o‘z ichiga oladi.

➤ **To‘g‘ridan-to‘g‘ri mablag‘ yig‘ish** elektron pochta va ijtimoiy media xabarlari orqali odamlarga murojaat qilish jarayonidir. Bu jarayon to‘g‘ridan-to‘g‘ri odatiy donor bo‘lgan yoki ilgari sizning sababingiz yoki tashkilotingizga hissa qo‘sghan odamlarga qaratilgan. Onlayn mablag‘ to‘plash keng qamrovga ega va shuning uchun mablag‘larni jismoniy jalb qilishdan ko‘ra ko‘proq auditoriyani jalb qilish va tezroq aylanish vaqtini isbotladi. Bugungi kunda Give kabi onlayn xayriya platformasida mablag‘ yig‘ish juda samarali amalga oshirilmoqda.

➤ **Tadbirlar uchun mablag‘ yig‘ish**

➤ **Crowdfunding** – bu yangi biznes tashabbusini moliyalashtirish uchun ko‘p sonli xodimlarning kichik kapitalidan iborat. Crowdfunding investorlar va tadbirkorlarni birlashtirish uchun ijtimoiy media makon hisoblanadi

Pul yig‘ish shakllari. Tashqi va ichki mablag‘ yig‘ish mavjud. Birinchi holda, investorlarni topish uchun tashkilot mablag‘ yig‘ish boyicha mutaxassislarni yollaydi yoki bunday xizmatlarni taqdim etish uchun kompaniyalarini jalb qiladi. Professionallar bilan ishlash-

ning afzalligi – loyihaga tashqaridan qarash va uning zaif tomonlarini payqash imkoniyati. Ikkinchи turi tashkilotning o‘zi xodimlari tomonidan mablag‘larni qidirishni o‘z ichiga oladi, bu esa mutaxassislar ning xizmatlariga sarflashdan qochadi.

Mablag‘ yig‘ish turli sohalardagi loyihalar uchun mablag‘larni jalg qilish uchun ishlataladi.

1. Ijtimoiy ish. Aholining zaif qatlamlarini, shu jumladan og‘ir kasallarni, uysizlarni qo‘llab-quvvatlash. Ko‘pincha bu sohada xayriya jamg‘armalari ishlaydi.

2. Madaniyat va san’at. Tarixiy obidalar va binolarni restavrasiya qilish, ko‘rgazmalar, muzeylar, kutubxonalar, rassomlarni moliyalashtirish.

3. Fan. Ilmiy loyihalar va tadbirdarga, ta’lim muassasalariga homiylik qilish.

4. Siyosat. Siyosiy partiylar faoliyatini moliyalashtirish va rag‘-batlantirish.

5. Savdo. Ijtimoiy ahamiyatga ega biznes loyihalari va startaplar ni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

6. Sport. Sport tadbirdari, jamoalar, uyushmalar uchun mablag‘ yig‘ish.

Fandrayzing pul yig‘ish va homiyarlari jalg etishning qulay usul-laridandir:

- muntazam rivojlantirishga, sarmoya kiritishga tayyor investorlarni izlash;

- mavjud investorlar bilan muloqot qilish, shu ular uchun sarflangan mablag‘lar to‘g‘risida hisobot taqdim etish;

- investorlarga o‘z biznesini reklama qilish;

Mablag‘ yig‘ish ham operatsion va loyihaga asoslangan bo‘lishi mumkin.

Mablag‘ yig‘ish usullari. • Reklama kampaniyalari

- Ommaviy pochta jo‘natmalari.

- Uchrashuvlar va konferentsiyalar o‘tkazish

- Xayriya tadbirdari

Rossiyada bu format G‘arbgaga qaraganda kamroq mashhur.

- **Ishbilarmonlik aloqalari**

Ko‘pgina yirik kompaniyalar o‘zlarining imidjini, brend xabar-dorligini oshirish va soliq imtiyozlarini olish uchun loyihalarni moli-yalashtirmoqda. Shu sababli, nodavlat-notijorat tashkilotlari biznesga murojaat qilganda, ular bilan ishslashning afzalliklarini aytib o‘tishlari mumkin. Masalan, notijorat tashkilotning Internet-resurslarida in-vestorlarning veb-saytlariga havolalar va ularning loyihaga qo‘sghan hissasi haqidagi ma’lumotlarni joylashtirishni taklif qilishadi.

- **Grant tanlovlari**

Bu tanlov uchun ishlab chiqilgan loyiha uchun pul olish. Donorlar bilan shaxsiy uchrashuvlar – potentsial donorlar bilan uchrashuvlarni o‘z ichiga olgan mablag ‘yig‘ish strategiyasi. Masalan, gavjum ko‘-chalarda.

- **Ommaviy tadbirdar va harakatlar** – qoida tariqasida, ommaviy tadbirdardan tushgan mablag ‘ijtimoiy muhim maqsadlarga yo‘naltiriladi. Voqealar konsertlar, lotereyalar, ochiq kechki ovqat yoki mafafonlar bo‘lishi mumkin.

- **Jurnalistik mablag‘ yig‘ish** – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoga e’tibor qaratadigan va uni hal qilish uchun mablag‘ to‘playdigan matnlarni yozish.

- **O‘tish yo‘llarida xayr -ehson yig‘ish uchun qutichalar** – muas-sasalardan mablag ‘yig‘ish qutilari joylashgan.

- **Ommaviy xabarlar va telefandreyzing** – bu yig‘ish ma’lumotla-ri va xayriya so‘rovlarini o‘z ichiga olgan qog‘oz va elektron pochta xabarlar.

- **Kompaniya xodimlarining xayr-ehsonlari** – bu bir martalik xayriya qilgan yoki doimiy aksiyada ishtiroy etadigan yirik kompaniyalar xodimlari orqali mablag ‘yig‘ish usuli .

- **Co-brending** – ma’lum tovarlarni sotishdan xayriya mablag‘lari.

- **SMS xayr-ehson** – kodni ma’lum raqamga yuborish, hisobdan pul mablag‘lari ko‘rsatilgan holatga o‘tkaziladi.

- **Internetdan mablag‘ yig‘ish** – onlayn xayriya so‘rovlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, mavjud soha mutaxassislarini merosimizni xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini

ta'minlashga qayta tayyorlash, zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari va xalqaro andozalarga mos ravishda ishslash, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganib, sohaga tadbiq etish hozirgi paytdagi dolzarb masalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O'qituvchi. – B. 184.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 464.
3. M.Hayitova. Madaniyat markazlarida barcha uchun ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish. “Fan va texnologiyalar nashriyoti matbaa uyi” MCHJ. – T – 2022. – 92-b.
4. Chang Y.N., Campo-Flores F. “Business policy and strategy”. Good year publishing company. Santa Monica,1980.
5. B.Karlof. “Деловая стратегия: концепция, содержание и символы”. – М.: Экономика, 1991.
6. R.Akoff. “Планирование в больших экономических системах”. 2018.
7. Djillian Xenberi Pul. “Когда менеджмент приносит деньги” СП: “Контрфорс” 1999, 34–35-b.

MILLIY MADANIYAT VA QADRIYATLARNI ASRAB-AVAYLASH HAMDA ULARNING RIVOJIDA MADANIYAT MARKAZLARINING O'RNI

Naima Boyqobilova,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san'at sohasi menejmenti”
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy madaniyat va milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, madaniyat markazlarining milliy madaniyatni rivojlantirish, an'analarni saqlash va targ'ib qilishdagi muhim roli yoritiladi. Maqolada tarixiy tahlillar, zamonaviy tendensiyalar va hozirgi axborot asri sharoitida milliy o'zlikni saqlashga doir fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, madaniyat markazlari, an'ana, urf-odat, milliy o'zlik, madaniy meros, globallashuv.

Abstract: This article analyzes the role of national culture and national values in the development of society, the urgent issues of their preservation and transmission to future generations. At the same time, the important role of cultural centers in the development of national culture, preservation and promotion of traditions is highlighted. The article presents historical analyses, modern trends and ideas on preserving national identity in the current information age.

Keywords: national values, national culture, cultural centers, tradition, customs, national identity, cultural heritage, globalization.

Har qanday xalqning o'ziga xosligi, o'zligini anglash darajasi va ma'naviy barkamolligi uning milliy qadriyatlarda namoyon bo'лади. Shunday ekan, Qadriyat o'zi nima? Qadriyat deganda ongimizda, hayolimizda nimalar yoki qanday faoliyatlar jonlanadi? Shu kabi

savollarga javob beradigan bo‘lsak, Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi. Qadriyatlar quyidagicha bo‘linishi mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlar – adolat, hurmat, halollik, mehr-oqibat, erkinlik, tinchlik kabi barcha jamiyatlar uchun muhim bo‘lgan tushunchalar.
2. Milliy qadriyatlar – muayyan xalqning urf-odatlari, tili, dini, madaniyati va an’analari asosida shakllangan qadriyatlar.
3. Shaxsiy qadriyatlar – har bir insonning o‘z hayotiy tamoyillari va e’tiqodlari.
4. Diniy qadriyatlar – din tomonidan shakllangan axloqiy meyor va qoidalar.

Qadriyatlar jamiyat barqarorligi va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unligini ta’minlashda muhim rol oynaydi. Qadriyatlarining bir qismi bo‘lgan milliy qadriyatlarni kengroq yoritadigan bo‘lsak, Milliy qadriyatlar – har bir millatning o‘ziga oid xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, o‘sha millat tarixidan bugungi kungacha ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Aynan shu milliy o‘ziga xoslik, o‘zligini yo‘qotmaslik millat madaniyatida, adabiyotida, san’atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishslash va fikrslash, umuman olganda, turmush tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusmlarida, bayramu-sayllarida o‘z ifodasini topadi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy qadriyatlar – milliy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo‘shgan munosib hissasining hosilasidir. Qadimiy an’ana va urf-odatlar, milliy bayramlar, san’at va hunarmandchilik madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish zamонавијат jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, madaniyat markazlari bu jarayonda asosiy institutlardan biri sifatida xizmat qiladi. Xusu-

san, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, madaniyat markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martda 264-son “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Madaniyat markazlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat muassasasi bo‘lib, aholining madaniy ehtiyojlarini o‘rganish hamda ma’naviy-ma’rifiy va ko‘ngilochar xususiyatga ega bo‘lgan turli madaniy xizmatlar ko‘rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san’at bilan shug‘ullanuvchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uning asosiy faoliyati hisoblanadi. Milliy qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga xizmat qiluvchi alohida ta‘kidlaganda, ularni asrash da asosiy bo‘g‘in hisoblanuvchi Madaniyat markazlarining asosiy maqsadi, yuqorida keltirilgan qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta‘minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarini o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli xil to‘garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir xalqning o‘zligini belgilovchi asosiy omil hisoblangan milliy qadriyatlarni asrash va milliy madaniyatni yanada rivojlantirish madaniyat markazlarining asosiy maqsadidir. Madaniyat markazlari Milliy Qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish uchun, quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim deb hisoblayman.

Birinchidan, Madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish. Madaniyat markazlari xalq og‘zaki ijodi, san’at, an‘anaviy kasb-hunarlar, urf-odatlar va marosimlarni saqlash va ommalashtirishda muhim rol

oynaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrash boyicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori 12-bandi uchinchi xatboshi bilan “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 406-son qarori 5-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minalash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 27-fevraldagagi 104-sonli “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. Buyruqqa binoan, “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari 2024-yildan har yili mart oyida o‘tkazilib kelinmoqda. “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o‘tkazish konsepsiyasiga muvofiq, Tadbirlar hududiy folklor va boshqa yo‘nalishdagi jamoalar, milliy xalq oyinlari ustalari, mahalliy hamda xorijiy mehmonlar tashrif buyuradigan sayl tarzida tashkil etiladi. Birgina Yunusobod tuman Madaniyat bo‘limi tasarrufidagi madaniyat markazlari tomonidan 2025-yil I chorak davomida Yunusobod tumani Madaniyat bo‘limi qoshidagi madaniyat markazlari tomonidan 161 ta madaniy-ma’rfiy tadbirlar hamda konsert dasturlari o‘tkazildi, shundan 75 tasi “Milliy qadriyatlar oyligi” hisoblangan mart oyida tashkil qilingan madaniy-ma’rfiy tadbirlar hamda konsert dasturlaridir. Chorak davomida o‘tkazilgan tadbirlarda qamrab olingan aholi soni 41045 nafarni tashkil etadi. Bu ma’lumotlar bitta tumanga tegishli , oylab ko‘raylik respublikamizdagi barcha tuman madaniyat markazlarida ham bunaqa raqamlar mavjud. Demak, milliy qadriyatlarimiz hayotiyligini ta’minalash borasida madaniyat markazlari faoliik va jonbozlik ko‘rsatmoqdalar.

Ikkinchidan, Milliy bayram va festivallarni tashkil etishda tashabbuskorlikni oshirish. Navro‘z, Mustaqillik kuni, Hunarmandlar festivali kabi tadbirlar madaniyat markazlari tomonidan kreativ, xalqimizni o‘z qadriyatlariga ko‘proq yaqinlashtiradigan undan tashqari

turistlarni jalg qilishga qaratilgan dasturlar bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa xalqni o'z qadriyatlariga nisbatan hurmatini va e'tiborini oshishiga va yurtimizda ichki, tashqi turizim rivojlanishiga olib keladi hamda Milliy qadriyatlarimizning hayotiyligi ortadi va davomiyligi ta'minlanadi. Xalqimizning milliy qadriyatları, urf-odatlari, xalq oyinlari yo'nalişidagi ijro san'ati mavjud bo'lib, bu an'analar, tarix, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz va ma'naviyatimiz kabi omillarni o'zida mujassam etadi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlarga ta'sir o'tkazayotgan bir davrda madaniyat markazlari milliy o'zlikni saqlab qolishning asosiy tayanchiga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda, milliy qadriyatlarni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilish ham madaniyat markazlarining yangi vazifalaridan biridir. Bu kabi vazifalar ijtimoiy tarmoqlarda madaniyat markazlari tomonidan milliy qadriyatlar ruhida yaratilgan videoroliklar targ'iboti orqali amalga oshirimoqda. "Biz madaniyat targibotchisimiz", "Men madaniyat targibotchisiman", "Milliy liboslar kuni" shu kabi shiorlar (heshteglar) doirasida videoroliklar soni ijtimoiy tarmoqlarda kun sayin oshib bormoqda. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-sonli "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rghanish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida keltirilgan ustuvor yo'nalişlarda Nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash vazifasi belgilab qoyilgan. Mazkur Qarorga ko'ra nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun 50 ta audiovizual asarlar yaratish vazifasi ham berilgan. ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan, Nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun 50 ta audiovizual asar yaratish boyicha tanlov ham e'lon qilingan. Yana bir qaror ijrosi, qarorga ko'ra, 2024-yil 1-oktabrgacha "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasi yaratilishi belgilangandi. Hozirgi

kunda bu platforma “Loyiha haqida”, “Yangiliklar”, “Onlayn to‘garaklar”, “Virtual tur”, “Madaniy meros”, “Royhatdan o‘tish” funksiyalari bilan test rejimida ishlamoqda.

Xulosa

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash har bir fuqaroning, ayniqsa, davlat va madaniy muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Madaniyat markazlari esa bu jarayonda muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ular milliy merosni avloddan-avlodga yetkazish, yoshlarni an’anaviy qadriyatlarga qiziqtirish, san’at va madaniyatni rivojlantirish borasida katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, madaniyat markazlarini yanada rivojlantirish, ularga zamонавиy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash va ularning kelajak avlodlarga yetib borishida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr dagi PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 27-fevraldagi 104-sonli “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi “buyrug‘i.
3. M.Xolmo‘minov. Yangi O‘zbekiston yoshlari qadriyatlarini mustahkamlashda madaniyat va san’atning o‘rni. Oriental Art and Culture jurnalı, 3 (2), 231–236.

ZAMONAVIY BIBILOGRAFIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING ILM – FAN RIVOJIDAGI O'RNI

Shahlo Karimova,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistri

E-mail:shahlokarimova2398@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy bibliografik texnologiyalar axborot va resurslarni boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Ushbu maqolada elektron kataloglar, raqamli ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali bibliografiyanı boshqarish usullari yoritilgan. Bibliografik dasturlar (masalan, Zotero, EndNote, Mendeley) yordamida tadqiqotchilar ilmiy ishlarini optimallashtirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari muhofaza qilingan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy bibliografiya, elektron kataloglar, ilmiy tadqiqotlar, Zotero, Mendeley, EndNote, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar.

Аннотация: Современные библиографические технологии создают новые возможности для управления информацией и ресурсами. В данной статье рассматриваются методы управления библиографией с использованием электронных каталогов, цифровых баз данных и автоматизированных систем. Обсуждаются возможности использования библиографических программ (таких как Zotero, EndNote, Mendeley), которые позволяют исследователям оптимизировать свои научные работы и эффективно использовать источники.

Ключевые слова: Современная библиография, электронные каталоги, научные исследования, Zotero, Mendeley, EndNote, информационные технологии, автоматизированные системы.

Abstract: Modern bibliographic technologies are creating new opportunities for managing information and resources. This article discusses methods for managing bibliographic data through electronic catalogs, digital databases, and automated systems. The use of

bibliographic software (such as Zotero, EndNote, Mendeley) enables researchers to streamline their research work and make efficient use of scientific materials.

Key words: *Modern bibliography, electronic catalogs, scientific research, Zotero, Mendeley, EndNote, information technology, automated systems.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki, bugungi shiddatli davrda zamonaviy bibliografik texnologiyalar ilmiy axborot oqimlarini boshqarish va tadqiqot natijalarini tizimlashtirishning ajralmas qismiga va asosiy omilliga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, ilm-fanning jadal rivojlanishi natijasida ma'lumotlar oqimi tezlik bilan ortib bormoqda va bu jaroyon tadqiqotchilar va olimlar o'z izlanishlarida aniq, ishonchli va tizimlashtirilgan bibliografik manbalarga ehtiyoj sezayotganliklarini aks ettiradi. Zamonaviy bibliografik texnologiyalar ilmiy axborotlarni boshqarish, ularni izlash, tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonlarini samarali tashkil etishga va rivojlantiris-hga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bibliografik texnologiyalarning takomillashishi natijasida tadqiqotchilar ilmiy adabiyotlarni oson topish, ularning ishonchlilagini baholash, avtomatik tarzda manbalar royhagini tuzish va ilmiy hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lib borishmoqda. Elektron kataloglar, bibliografik ma'lumotlar bazalari, ilmiy iqtiboslar tizimlari (masalan, Scopus, Google Scholar, Web of Science) va bibliografik menejer dasturlari (Zotero, Mendeley, End-Note) bugungi kunda ilmiy izlanishlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Zamonaviy bibliografiya haqida so'z borar ekan, eng avvalo, bibliografiya tushunchasi aslida qanday ma'no aks etishi va qaysi maqsadlarda biz uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida ham ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim.

"**Bibliografiya**" so'zi birinchi marta Qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan va so'zma-so'z tarjima qilinganda biblion – "**kitob**", grapho – "**yozaman**" degan ma'noni anglatadi. Kitob nashr ishi boshlanguniga qadar bu tushuncha kitobni yozish va ko'chirib yozish ma'nosi-da qo'llanilgan. U vaqlarda kitobni yozish va ko'chirib yozish qo'l

mehnatini talab qilgan.Bu ishni bajarganlar esa bibliograflar deb atal-ganlar [1]. Shu bilan bir qatorda, bibliografiya fani tarixan matn va manbalarni tizimlashtirib, ularni izlash va ulardan foydalanishni oson-lashtirishga xizmat qilib kelganligi keltirib o‘tiladi. Ammo, bugungi kunda bibliografiya jarayonlari va tizimlari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, yanada samarali va qulay bo‘lib bormoqda. Ay-niqlas, elektron kataloglarning rivojlanishi bibliografik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va foydalanuvchilarga taqdim etish jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu borada esa , albatta , elektron kataloglar aslida qanday ko‘rinishga ega va qanday vazifani bajarishi, bibliografiya tizimidagi o‘rni haqida savol tug‘uladi.

Elektron kataloglar – bu axborot resurslarni tizimli ravishda royxatga olish, izlash va ulardan foydalanish imkonini beruvchi raqamli ma’lumotlar bazalaridir. Ular bibliografik ma’lumotlarni saqlash va tartibga keltirish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Agar an’ana-viy bibliografiya qog‘oz shaklida kataloglar, kartotekalar va qo‘llanmalar orqali taqdim etilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonni tezlashtirish va ma’lumotlarni global miqyosda tarqatishga katta yordam beradi. Elektron kataloglarning bibliografiya bilan bog‘liq asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan ko‘rinishida qayta ish-lash.** Bu jarayonda bibliografik ma’lumotlar avtomatik ravishda tahlil qilinib, aniq mezonlar boyicha foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

- **Globallashuv va integratsiya.** Elektron kataloglar xalqaro axborot tarmoqlari bilan bog‘lanib, turli tillarda va formatlarda kerakli resurslardan foydalanish imkonini beradi.

- **Tezkor qidiruv va tahlil.** Kalit so‘zlar, muallif, mavzu yoki boshqa parametrlar boyicha tezkor qidiruv imkoniyati mavjud ekanligi bilan ta’minlaydi.

- **Masofaviy foydalanish.** Internet orqali istalgan masofadan kutubxona resurslariga kirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda yirik kutubxonalar integratsiyalashgan kutubxo-na axborot tizimlari (ILS – Integrated Library Systems) orqali ish-laydi.Bunday tizimlar kataloglash, bibliografik ma’lumotlarni qayta

ishlash, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish va fondni boshqarish jarayonlarini birlashtiradi va aks ettiradi. Jaxon boylab keng foydala-niladigan elektron katalog tizimlariga quyidagilar kiradi:

- **MARC(Machine-Readable Cataloging)** – bibliografik yozuvlarni standartlashishga mo'ljallangan xalqaro format.
- **OCLC(Online Computer Library Center)** – Dunyodagi eng yirik bibliografik ma'lumotlar bazalaridan biri hisoblanadi.
- **Koha, Aleph, Ex Libris Primo** – kutubxona kataloglarini yuritish va foydalanuvchilarga qulay xizmat ko'rsatish uchunmo'ljallangan tizimlar majmuasidir.

Bibliografiya va elektron kataloglar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali bir-birini to'ldirib boradi. Elektron kataloglarning rivojlanishi nafaqat bibliografik tadqiqotlarni osonlashtiradi, balki, kitobxonlar va tadqiqotchilar uchun global miqyosda bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirib bormoqda. Shu sababli, bibliografiya fani, kelajakda yanada innovatsion yechimlar va yangi o'zgarishlar bilan boyib, raqamli axborot maydonida muhim oynashda davom etadi va rivojlanib boradi. Bu jarayonni yanada takomillashtirish maqsaddida va shu bilan bir qatorda zamonaviy kutubxonachilik faoliyatida axborot resurslarini elektron shaklda yuritish dolzarb masala sifatida tadbiq qilinishi sababli, bu borada davlatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 4354-son qarorida "Axborot-kutubxona sohasini raqamlashtirish" boyicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, kutubxona fondlarini hisobga olish va ularni samarali boshqarish "Axborot – kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasi" [2] asosida ham amalga oshirilmoqda. Bu hujjat kutubxonalar faoliyatini standartlashtirish va elektron kataloglar orqali axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat ko'rsatadi.

Zamonaviy bibliografiya boyicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda bir qator manbalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, G.A. Asilovaning "Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari" nomli asari ushbu sohadagi

tadqiqot metodlarini yoritib beradi. Muallif ilmiy tadqiqodning dastlabki bosqichlarida mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va tizimlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda esa ma'lum mavzu boyicha bibliografiya tuzish muhim qadam hisoblanadi. Qo'llanmada ilmiy tadqiqodning boshlang'ich bosqichida quyidagi faoliyat turlari tavsiya etiladi:

1. O'rganilayotgan kurslarning alohida mavzularidan referat tayyorlash.
2. Ma'lum mavzu boyicha bibliografiya tuzish.
3. O'quv metodik qo'llanmalar, jadvallar, maket va modellarni tayyorlashda qatnashish
4. Kafedra vazifalari asosida chizma, sxema va posterlar tayyorlash.
5. Ma'ruza uchun zarur bo'luvchi mavzu boyicha illustratsiya materiallarini tayyorlashda ishtirok etish [3].

Ushbu faoliyat turlari orasida "ma'lum mavzu boyicha bibliografiya tuzish" alohida o'ringa ega. Bu tadqiqotchiga mavzu boyicha mavjud adabiyotlarni tizimli ravishda o'rganish va kelgusidagi tadqiqodlar uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, Asilovaning ushbu qo'llanmasi ilmiy tadqiqot faoliyatida va rivojlanish bosqichida bibliografiyaning o'rni va uni tuzish usullari haqida bat afsil ma'lumotlarni yoritib beradi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy ilmiy tadqiqodlarda bibliografik menejment dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda eng mashhur dasturlar qatoriga esa Zotero, Mendeley va EndNote kabilalar kiradi. Ushbu dasturlar ilmiy manbalarni boshqarish, iqtiboslarni yaratish va bibliografiyalarni avtomatik shakllantirish imkonini beradi. Quyida ushbu dasturlarning asosiy funksiyalari, afzallikkleri va ilmiy faoliyatdagi ahamiyati ko'rib chiqamiz.

Zotero – bu bepul va foydalanish uchun qulay dastur bo'lib, usizga tadqiqotlaringizni yig'ish, tartibga solish, izoh qo'shish, iqtibos keltirish va boshqalar bilan bo'lishishga yordam beradi. Zotero avtomatik ravishda veb-sahifalarni tahlil qilib, tadqiqot materiallari ni aniqlaydi va ularni saqlash imkonini beradi. U veb-brauzer bilan

integratsiyalashgan bo‘lib, onlayn sinxronizatsiya, matn ichidagi iq-tiboslar, izohlar va bibliografiyalarni yaratish, shuningdek, Microsoft Word, LibreOffice Writer va Google Docs kabi matn protsessorlari bilan integratsiyalashish kabi funksiyalarni taqdim etadi. Zotero das-turi Windows, macOS va Linux operatsion tizimlarida ishlaydi. Bundan tashqari iOS va Android uchun mobil ilovalari ham mavjud. Dastur foydalanuvchilarga PDF va ePUB fayllarni o‘qish va tahrirlash, shuningdek, izohlar qo‘shish imkonini beradi. Qo‘srimcha qilib ayta-digan bo‘lsak, Zotero foydalanuvchilarga o‘z shaxsiy tadqiqot kutu-bxonalarini onlayn sinxronizatsiya qilish va ularni turli qurilmalarda erkin foydalanishini ham ta’minlaydi. Dastur ochiq manbali bo‘lib, foydalanuvchilar va ishlab chiquvchilar tomonidan uzluksiz rivojlan-tirib borilmoqda.

Mendeley – ilmiy tadqiqotlarni boshqarish va hamkorlik qilish uchun mo‘ljallangan bepul dastur hisoblanadi. Bundan tashqari, dastur PDF hamda Doc formatlaridagi hujjalarni ko‘rish imkonini beruvchi quay vositadir. Dasturdan foydalanishning ikkita usuli mavjud:

1. Kompyuterga o‘rnatish: Mendeley dasturini Windows, MacOS, Linux operatsion tizimlariga, shuningdek, iOS va Android mobil qurilmalariga o‘rnatish mumkin. Bu usul ko‘proq funksional imkoniyatlarni taqdim etadi.

2. Brauzer orqali ishlash: Mendeleyning veb-versiyasi orqali ham foydalanish mumkin, biroq uning funksional imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Dasturdan samarali foydalanish uchun quyida-gilar tavsiya etiladi:

- * Mendeley rasmiy veb-saytida bepul akkaunt yaratish.
- * Microsoft Word bilan integratsiya qilish uchun qo‘srimchani o‘rnatish.
- * Brauzerga “Save to Mendeley” tugmasini qo‘sish orqali maqolalarni osongina import qilish.
- * GOST kabi iqtibos uslublarini o‘rnatish.
- * Loyiha ishtirokchilari bilan umumiy guruhlар yaratish va ularda manbalarni baham ko‘rish.

Mendeley shuningdek, turli ilmiy maqolalar va ma'lumotlar bazalaridan hujjatlarni avtomatik ravishda kutubxonaga import qilish imkonini beradi. Agar hujjatning PDF fayli mavjud bo'lsa, dastur uni avtomatik ravishda saqlaydi va bibliografik ma'lumotlarni ajratib olad. Agar PDF fayl mavjud bo'lmasa, veb-sahifaning nusxasini saqlaydi [4]. Bundan tashqari, foydalanuvchilar bibliografik ma'lumotlarni qo'lida ham kiritishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda EndNote dasturi ham aynan shu yo'nalishda yordamchi dastur sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Zamonaviy bibliografiya sohasida axborot texnologiyalari (AT) muhim rol oynab, axborot-kutubxona muassasalarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Quyida ushbu sohadagi AT qo'llashning asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

Elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalari: Kutubxonalar o'z fondidagi kitoblar va boshqa materiallarni elektron kataloglarga kiritib, foydalanuvchilarga qidiruv va foydalanishda qulaylik yaratmoqda. Bu usul an'anaviy kartotekalarga nisbatan tezkor va samara-liroqdir.

Axborot – kutubxona xizmatlarini asosan ikki turga bo'lishimiz mumkin: an'anaviy va noan'anaviy xizmatlar. An'anaviy xizmatlar bu kitob berish, kataloglashtirish, bibliografiya , fondni saqlash kabi xizmatlar sanalsa, noan'anviy xizmatlar safiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatishlar kiradi. Bugungi kunda noan'anaviy axborot-kutubxona xizmatidan foydalanuvchilar soni oshib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin [5].

Raqamlashtirish: Noyob va kamyob kitoblar, qo'lyozmalar va hujjatlar raqamlashtirilib, ularning electron shakllari yaratilmoqda. Bu nafaqat ularni saqlashni osonlashtiradi, balki kengroq auditoriyaga yetkazishga ham imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida"gi Farmonining 72-maqсадида: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantি-

rish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini royobga chiqarish maqsadida axborot-kutubxonaning xizmat ko‘rsatishini yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruva tizimini joriy etishning [6] natijasida bugungi kunda, oliy ta’lim tizimida kitoblar o‘quv va ilmiy adabiyotlarni raqamlashtirish yo‘nalishi boyicha elektron kutubxona platformasini joriy qilish topshirig‘i berilgan. Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi va Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqodlari markazi tomonidan ushbu platforma ishlab chiqarilib, bugungi kunda Respublika boyicha oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud 400 000 dan oshiq o‘quv va ilmiy adabiyotlarni ushbu platformaga joylab, respublikamizdagi barcha talabalar, foydalanuvchilar, professor o‘qituvchilar, tadqiqodchilar uchun sharoit yaratilganligi ham islohotlar natijasi desak bo‘ladi [7].

Zamonaviy axborot jamiyatida ilmiy tadqiqotlar va akademik faoliyat samaradorligini oshirish uchun bibliografik ma’lumotlarni taribili boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bibliografiya boshqaruvi – bu ilmiy manbalarni izlash, saqlash, ularga havola qilish va ularni tizimli ravishda boshqarish jarayoni bo‘lib, tadqiqotchilar, kutubxonachilar va talabalar uchun zarur vosita hisoblanadi. Rivojlangan texnologiyalar va avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotlar bibliografik ma’lumotlarni boshqarishni soddalashtirib, ilmiy faoliyatni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu ishda bibliografiya boshqaruvining mohiyati, asosiy vositalari va uning zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bibliografik texnologiyalar ilm – fan rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tadqiqotchilar va akademik jamoalar uchun katta qulayliklar yaratib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar ilmiy ma’lumotlarni samarali izlash, saqlash va tahsil qilish imkoniyatini berib, tadqiqod jarayonlarini tezlashtiradi va samaradorligini oshirishda katta yordam beradi. Shu bilan birga, bibliografik boshqaruva dasturlarining rivojlanishi va sun’iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi kelajakda ilmiy izlanishlar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, zamonaviy bibliografik texnologiyalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish, ilmiy rivojlanish bosqichlariga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishdagi doimiy rivojlanish ilm-fan olamingning va bibliografiya sohasining yanada yuksalishiga ulkan xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. BERDIYEVA Z., MAMATRAIMOVA H., ZOKIROVA T. Bibliografiya (Umumiy bibliografiya). – 4-nashr. – T.: O‘qituvchi, 2017. – 180 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. «2019–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»: 4354-son qaror, 07.06.2019. – <https://lex.uz/docs/-437244>
3. Asilova G. A. Ilmiy tadqiqot faoliyatasi asoslari: Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona Qo‘mitasi Bojaxona instituti, 2020. – 128 b.
4. Mendeley. Mendeley Reference Manager. – Elsevier. – URL: <https://www.mendeley.com>
5. Qosimbetova B.J. Axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy informatsion texnologiyalarning o‘rnini // Инновационные подходы в современной науке. – 2024. – №1(1). – B. 442-445. – URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-kutubxona-muassasalarida-zamonaviy-informatsion-texnologiyalarning-o-rni>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar-dagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” tog‘risidagi PF-60-sonli farmoni – <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
7. Axborot-kutubxona va axborot resurs markazlarini raqamlashirish. – 2023. – DevEdu. – URL: <https://devedu.uz/2730/>

MADANIYAT VAZIRLIGI TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYAT BOSQICHLARI

Sabina Jumayeva,

O‘zDSMI, “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 1-bosqich magistri Ilmiy rahbar: Yusupaliyeva Dilafruz siyosiy fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Madaniyat vazirligining tarixi, uning bugungi kundagi faoliyati tahlil qilingan. Sohada amalgamoshirilayotgan islohotlar, vazirlilikning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi roli, madaniy diplomatiya va xalqaro aloqalar masalalari keng ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat vazirligi, milliy madaniyat, san’at festivalari, madaniy diplomatiya, kino sanoati, teatr, xalqaro aloqalar.

Abstract: This article analyzes the history of the Ministry of Culture, its current activities. The reforms being implemented in the field, the role of the ministry in the development of national culture, issues of cultural diplomacy and international relations are widely considered.

Keywords: Ministry of Culture, national culture, art festivals, cultural diplomacy, film industry, theater, international relations.

1938-yildan O‘zSSR Xalq Maorif komissariyati, 1946-yildan O‘zSSR Madaniy-oqartuv ishlari komiteti, 1953-yildan boshlab O‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligi jumlalariga guvoh bo‘lamiz va bu ko‘pchilik manbalarda shunday qayt etilgan. Endi Madaniyat vazirligining istiqlol davrida tashkil etilishi ham bir ajib voqealikdir. Uning nomi bir necha marotaba o‘zgartirilib, ijro funksiyalari ham o‘zgarib borgan. Mustaqillik davridagi Madaniyat vazirligining rivojlanish jarayonlari quyidagicha: 1992-yil 9-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish va uning faoliyatini

yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi 360-som Farmoni qabul qilinib, bu orqali vazirlikning maqomi dastlabki marotaba takomillashirilgan va faoliyati mustahkamlangan.

1992-yil 27-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining tuzilmasi va faoliyatini takomillashtirish to‘g‘-risida”gi 207-som Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi va 58 kishi hisobida (binoni qo‘riqlovchi va xizmatchi xodimlardan tashqari) xodimlari soni tasdiqlanadi.

Mazkur qarordan keyin O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “O‘zSSR Madaniyat ministrligining faoliyatini qayta ko‘rish va uning tashkiliy strukturasini takomillashtirish chora-tadbirlari haqidagi”gi 1988-yil 15-sentabrdagi 330-som qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi. Demak, mazkur qarordan keyin O‘zSSR Madaniyat ministrligi tugatilgan.

Shu tariqa mustaqil O‘zbekistonda Madaniyat ishlari vazirligi o‘z faoliyatini boshlagan. 1992-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 305-som Qaroriga binoan “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlanadi va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1970-yil 31-avgustdagagi 444-som qarori va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979-yil 26-noyabrdagi 785-som qarorining 7-bandi o‘z kuchini yo‘qotadi.

Bu degani madaniyat sohasidagi boshqaruvi to‘liq O‘zbekiston manfaatlari uchun xizmat qilishini aks ettirardi. 2004-yil 27-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi 3491-som Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi tugatilib, ularning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil etiladi. Oradan 13 yil o‘tgandan keyin 2017-yil 15-fevralda O‘zbekiston Respublikasi

si Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4956-sen Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatildi va uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashkil etildi.

Bu vazirlik faoliyatining rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. 2022-yil 21-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 269-sen Farmoni bilan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqartirilishi sababli O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi negizida Madaniyat va turizm vazirligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №114-sen Farmoni bilan Madaniyat vazirligi tashkil etildi. Shu tariqa vazirlik nomi yana o‘zgardi.²⁰

Madaniyat vazirligi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisobi hamda 2025-yildagi istiqbolli rejalar:

Teatr va sirk yo‘nalishida: teatrлarda 10 479 ta spektakl namoyish etilib, ushbu tomoshalarga 3,6 mln nafar tomoshabin tashrif buyurganligi, shuningdek, “O‘zbeksirk”. Tomonidan 556 ta sirk tomoshalari o‘tkazilib, tomoshalarga 150 ming nafar tomoshabin tashrif buyurdi.

Konsert-tomosha yo‘nalishida: 2024-yilda 7255 ta konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilib, 10 mln 37 ming 200 nafar aholi qamrab olindi.

Madaniyat markazlari va nomoddiy madaniy meros yo‘nalishida: mamlakatimizdagi 837 ta madaniyat markazlari tomonidan joriy

²⁰ Qolqanatov A. Madaniyat vazirligi, madaniyat markazlari, madaniyat menejeri: tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan//jur. Ijtimoiy boshqaruv. – Toshkent, 2023. «Sanbook exclusive print» XK bosmaxonasi. – 136-b.

yilda jami 26 mingdan ortiq madaniy-ma'rifiy va konsert-tomosha dasturlari tashkil etilib, 2,5 mln nafar tomoshabin jalb etilgan. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati yo'lga qo'yilib, nomoddiy madaniy meros namunalarini tadqiq etish maqsadida, 13 ta mahalliy va 1 ta xorijiy folklore ekspeditsiyalar tashkil etildi va 250ga yaqin nomoddiy madaniy meros namunalarining dastlabki hujjatlari tayyorlandi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etishga qaratilgan 50 ta audiovisual asarlar yaratildi. Shuningdek, "Rubob yasash va ijrochilik an'anaları" bilan bog'liq nomoddiy madaniy meros namunasi UNESCOning xalqaro reprezentativ ro'yxatiga kiritildi.

Ijodkor yoshlar va tanlovlardan yo'nalishda, 18 ta respublika ko'rik tanlovlardan va festivallardan o'tkazildi hamda ularga 10 ming nafardan ortiq ijodkor yoshlar qamrab olinib, madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan hududlarda 14 ta "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari tashkil etilib, ularga 1 ming 400 nafardan ortiq yoshlar jalb qilindi.

Ta'lim yo'nalishida, madaniyat ta'lim muassasalaridagi 2 000 nafar pedagog kadrlar, professor-o'qituvchilar hamda rahbar xodimlar malakasi oshirildi hamda kollejlarining 2 600 nafardan ortiq pedagoglari attestatsiyadan o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-sonli "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori tasdiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-sonli "Teatrlearning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan bolalar musiqa va san'at maktablarining direktori, direktor o'rinnbosarlari, o'qituvchi va konsertmeysterlarining ish haqi miqdorlari 2025-yil 1-yanvardan boshlab 10 foizga oshirilishi belgilandi.

Millatlararo munosabatlar yo'nalishida, 6 ta yangi "O'zbekiston-Belorus", "O'zbekiston-Ispaniya", "O'zbekiston-Kanada",

“O‘zbekiston–Shimoliy Makedoniya”, “O‘zbekiston–Chexiya”, “O‘zbekiston–Ummon Sultonligi” do‘stlik jamiyatlari tashkil etilib, ularning umumiy soni 42 taga yetkazildi.

Xalqaro yo‘nalishda, 9 ta davlatda Xitoy, Ozarbayjon, Qatar, Tojikiston, Buyuk Britaniya, Gruziya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Rossiya “O‘zbekiston madaniyat kunlari” madaniy tadbirlari yuqori saviyada o‘tkazildi, 4 ta davlat Ozarbayjon, Mo‘g‘uliston, Qирг‘из Respublikasi, Qatarning madaniyat kunlari O‘zbekistonda yuqori saviyada o‘tkazildi, 8 ta davlatda Rossiya, AQSH, Avstriya, Malayziya, Belgiya, Polsha, Rossiya, Fransiya O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33-yilligiga bag‘ishlab madaniy tadbirlar o‘tkazildi, 8 ta xorijiy davlatlar Belarus, Tojikiston, Rossiya, Turkiya, Koreya, Qирг‘из Respublikasi, Qozog‘iston, Ozarbayjon bilan Anglashuv memorandumlari va hamkorlik dasturlari imzolandi. Shuningdek, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida 35 nafar madaniyat va san’at xodimlariga Toshkent shahri Yashnobod tumanidan 35 ta yangi turar joylar topshirildi.

2025-yilda amalga oshiriladigan rejalar:

– teatrler tomonidan namoyish etiladigan spektakllarga 3,8 mln hamda madaniy tadbirlar va festivallarga 10,2 mln tomoshabinlar jalb etiladi;

– Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “III Xalqaro hunarmandchilik festivali”, “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali, Xalqaro teatr festivallari o‘tkaziladi;

– Davlat konsert-tomosha muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga 10,5 mln tomoshabinlar jalb etiladi;

Qoraqlapog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ijodiy jamoalari tomonidan 14 ta hududda o‘zarolik tamoyili asosida hududlarning 50 dan “Madaniyat kunlari” tadbirlari yuqori saviyada o‘tkaziladi;

– Hududlarda mashhur xonanda, qiziqchi va boshqa ijodkorlar ishtirokida “Madaniyat karvoni” shaklida konsert-tomosha tadbirlari o‘tkaziladi;

- Respublika askiya san’ati markaziga yangi spektakllarni sah-nalashtirish va askiya va qiziqchilik yo‘nalishida 5 ta asarga davlat buyurtmasi beriladi;
- 20 ta madaniyat va san’at muassasalari davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladi;
- Madaniyat va san’at tizimidagi oliy ta’lim muassasalarining il-miy darajali va unvonli kadrlar soni qo‘s Shimcha 30 nafarga ko‘pay-tiriladi;
- Madaniyat vazirligi tasarrufidagi 325 ta bolalar musiqa va san’at maktablari Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tasarrufidagi umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati fani bo‘yicha tayan-ch ta’lim muassasasi sifatida belgilanadi;
- 7 turdag‘i milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etishni o‘rga-tish bo‘yicha qo‘s Shimcha adabiyotlar, notalar va videodarslar ishlab chiqiladi;
- Har bir tuman va shaharlarda bolalar musiqa va san’at maktab-lari hamda milliy va zamonaviy cholg‘u ansamblarining hisobot kon-sertlari byudjetdan tashqari va qonunchilikda taqilanganboshqa manbalar hisobidan yo‘lga qo‘yiladi;
- Bolalar musiqa va san’at maktablarida faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli o‘qituvchilar 55 foizga yetkaziladi;
- “Tirik tarix” turkumidagi 54 ta filmlardan 20 yaqini ishlab chiqarishga tushiriladi;
- Agentlik huzurida O‘zbekiston xalqaro kinoakademiyasi faoli-yati yo‘lga qo‘yiladi;
- Erkin iqtisodiy kinohududlar tashkil qilish chora-tadbirlari amalga oshiriladi;
- 30-iyul – Xalqlar do’stligi kuni munosabati bilan “Do’stlik” fe-s-tivali, 16-noyabr - Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlab “Bag‘ri-kenglik” haftaligi o‘tkaziladi;
- 10 dan ortiq davlatda “O‘zbekiston madaniyat kunlari” madaniy tadbirlari o‘tkaziladi;
- 5 ta davlatning madaniyat kunlari O‘zbekistonda o‘tkaziladi;

- 10 ta davlatda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33-yilligiga bag‘ishlab madaniy tadbirlar o‘tkaziladi.
- 10 dan ortiq xorijiy davlatlar bilan Anglashuv memorandumlari va hamkorlik dasturlari imzolanadi.²¹

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Madaniyat vazirligi to‘g‘risidagi qonun va qarorlari. www.lex.uz
2. Qolqanatov A. Madaniyat vazirligi, madaniyat markazlari, madaniyat menejeri: tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan//jur. Ijtimoiy boshqaruv. – Toshkent, 2023. “Sanbook exclusive print” XK bosmaxonasi. – 136-b.
3. Sayfullaev, I. (2005). O‘zbekistonning madaniy merosi va uning rivojlanishi. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Madaniyat vazirligining rasmiy veb-sayti: <https://gov.uz/madaniyat>

21 Madaniyat vazirligining rasmiy veb-sayti: <https://gov.uz/madaniyat>

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA MENEJERLIK FAOLIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jaloliddin Botirov,

O'zDSMI, "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lim yo'naliishi I-bosqich magistri.

*Ilmiy rahbar: Yusufaliyeva Dilafruz Qahramonovna
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi dotsenti.*

Gmail: jaloliddinbotirov656@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasida menejerlik faoliyatining mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari hamda ushbu sohadagi boshqaruv faoliyatining o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Madaniyat va san'at muassasalarida menejerning roli, ijodiy jarayonlar va tashkilotchilik faoliyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, menejerlik faoliyatida zarur bo'lgan kompetensiyalar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Maqola madaniyat va san'at sohasida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda menejerlarning mas'uliyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Madaniyat mmenejment, san'at menejeri, madaniy meros, menejerlik faoliyati, ijodiy boshqaruv.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность, основные задачи и особенности менеджерской деятельности в сфере культуры и искусства. Раскрыта роль менеджера в культурных и художественных учреждениях, подчёркивается его значение в обеспечении баланса между творческими профессиями и организационной деятельностью. Также обсуждаются необходимые компетенции, инновационные подходы и роль современных управленческих технологий в данной области. Статья способствует более глубокому пониманию ответственности и значимости менеджеров в формировании эффективной системы управления в сфере культуры и искусства.

Ключевые слова: Культурный менеджмент, менеджер в искусстве, культурное наследие, менеджмент деятельности, творческое управление.

Annotation: This article explores the essence, key functions, and specific characteristics of management activities in the field of culture and art. It highlights the role of managers in cultural and artistic institutions, emphasizing their importance in balancing creative processes and organizational responsibilities. The article also discusses the necessary competencies, innovative approaches, and the role of modern management technologies in this sphere. It aims to enhance the understanding of the responsibility and significance of managers in establishing an effective management system in culture and art.

Key words: Cultural management, arts manager, cultural heritage, managerial activities, creative management.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda madaniyat va san'atning tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Mazkur sohalar nafaqat milliy qadriyatlari-mizni asrash va rivojlantirishda, balki xalqning estetik tarbiyasini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, madaniyat va san'at muassasalarining samarali faoliyat yuritishi bevosita ularni boshqarish tizimiga, ya'ni menejerlik faoliyatiga bog'liq. Bu sohadagi menejerlik nafaqat ma'muriy ishlarni tashkil etish, balki ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ham o'z ichiga ola-di. Ushbu maqolada aynan madaniyat va san'at sohasida menejerlik faoliyatining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu faoliyatda zarur bo'lgan kompetensiyalar haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism

Madaniyat va san'at sohasida menejerlik faoliyati jamiyat taraqqiyotining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu faoliyat turining asosiy maqsadi – madaniy merosni saqlab qolish, estetik qadriyatlarni rivojlantirish hamda san'at bilan bog'liq jarayonlarni samarali boshqarishdan iborat. Madaniyat muassasalarining samarali faoliyat

yuritishi, ularning aholi bilan o‘zaro aloqasi, moliyaviy barqarorligi va ijodiy yondashuvi menejerlik tizimiga bog‘liqidir¹. Madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati jamiyat taraqqiyotining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu faoliyat turining asosiy maqsadi – madaniy merosni saqlab qolish, estetik qadriyatlarni rivojlantirish hamda san’at bilan bog‘liq jarayonlarni samarali boshqarishdan iborat. Madaniyat muassasalarining samarali faoliyat yuritishi, ularning aholi bilan o‘zaro aloqasi, moliyaviy barqarorligi va ijodiy yondashuvi menejerlik tizimiga bog‘liqidir. Zamonaviy menejerlar faqatgina tashkilotchilik funksiyalarini emas, balki strategik rejalashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar, marketing va raqamli kommunikatsiyalar kabi ko‘plab mas’uliyatli vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi.

Menejerlik – bu faqat boshqaruv emas, balki ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish, resurslarni taqsimlash, tashkiliy masalalarni hal qilish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish jarayonidir. Ayniqsa madaniyat sohasida bu faoliyat ko‘proq nozik yondashuvni talab qiladi. Chunki san’at sohasida ishlovchi jamoalar bilan ishslashda emotional intellekt, sabr-toqat va liderlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat menejeri ijodkorlarning imkoniyatlarini royobga chiqarish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va auditoriya bilan samarali aloqalar o‘rnatishga mas’uldir. Ular ko‘rgazmalar, kontsertlar, teatr sahnalarini, madaniy festival va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy yetakchilik qiladi. Bunda menejer marketing strategiyasini ishlab chiqadi, homiylarni jalb qiladi, moliyaviy resurslarni to‘g‘ri boshqaradi². Bundan tashqari, madaniyat va san’at sohasi menejerlari ijtimoiy mas’uliyatli faoliyat yuritishlari lozim. Ular madaniyatning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, yosh avlodga estetik tarbiya berish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishda faol ishtiroy etishlari zarur. Shu sababli madaniyat menejerlari nafaqat boshqaruvchi, balki tarbiyachi, targ‘ibotchi va jamiyatning ma’naviy yetakchilaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati murakkab, ko‘p qirrali va doimiy yangilikni talab qiluvchi sohaga aylanmoqda. Bun-

day menejerlar zamонавиј bilimlarga, ijtimoiy mas’uliyatga, kommunikatsiya madaniyatiga va ijodiy tafakkurga ega bo‘lishlari kerak.

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi madaniyat menejerlari oldiga yangi vazifalarni qoymoqda. Jumladan, onlayn platformalarda faoliyat yuritish, san’atni keng ommaga yetkazish, digital ko‘rgazmalar yoki virtual konsertlar tashkil etish kabi faoliyatlar dolzarb bo‘lib bormoqda. Bularning barchasi menejerlik salohiyati, bilim va ko‘nikmalarini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi⁴. Shunday qilib, madaniyat va san’at sohasida menejerlik nafaqat tashkiliy-texnik faoliyat, balki ijodiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham o‘z ichiga oladi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun menejer doimiy izlanishda, yangilikka ochiq va ijodiy fikrlovi-chi bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, menejerlik faoliyatining barqarorligi ham moliyaviy rejallashtirish va marketing strategiyalariga bog‘liq. Har bir madaniy loyiha yoki tashabbus auditoriya talablari, reklama kampaniyalari va iqtisodiy imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu esa madaniyat menejeridan nafaqat san’atga bo‘lgan mehr, balki analitik fikrlash, bozorni tushunish va kreativ yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati zamонавиј jamiyatda tobora dolzarb tus olmoqda. Bu kasb egasi san’atning jozibasini saqlab qolgan holda uni keng ommaga yetkazish, milliy qadriyatlarni asrash va madaniy taraqqiyotni ta’minlashda muhim rol oynaydi. Shu bois, ushbu sohaga malakali, bilimli, zamонавиј dunyoqarashga ega kadrlarni tayyorlash va ularni rag‘batlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati zamонавиј jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Bu sohada menejer nafaqat tashkiliy ishlarni olib boruvchi shaxs, balki ijodkorlik, innovation yondashuv va madaniy qadriyatlarni rivojlantiruvchi yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy muassasalar faoliyatining samaradorligi aynan menejerning bilim, tajriba, strategik fikrlash va jamoani boshqarish mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda raqamli

texnologiyalarning keng tarqalishi menejerlik faoliyatiga yangi imkoniyatlar va bir vaqtning o‘zida yangi mas’uliyatlarni yuklamoqda.

Ayniqsa san’at bilan bog‘liq jarayonlarda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish, innovatsion yondashuvni shakllantirish va auditoriya bilan barqaror aloqa o‘rnatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati murakkab, ammo sermazmun va istiqbolli soha bo‘lib, u doimo yangilikka intilish, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ehtiyojlarni chuqur anglashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov A. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 192 b.
2. Xolmatova S. Madaniyat menejmenti. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021. – 176-b.
3. Jo‘rayev D. Menejment nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 250-b.
4. Karimov F. Zamonaviy menejment asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 204-b.
5. Jalilova M. Madaniy merosni boshqarish tizimlari. – Toshkent: “Fan”, 2022. – 158-b.

YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY YUKSALISHI VA MUZEYLAR TARAQQIYOTI

Marjona Suyunova,
*O‘zDSMI “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi jarayonida muzeylarning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada muzeylar madaniy merosni asrash, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatni ma’naviy jihatdan boyitishdagi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalgalga oshirilgan muzeylar sohasidagi islohotlar va ularning natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muzey, tarixiy meros, ma’naviy yuksalish, zamonaviy muzeylar, madaniyat, eksponatlar, turizm

Annotation: This scientific article analyzes the role and importance of museums in the process of spiritual upliftment of New Uzbekistan. The article considers museums as an important factor in preserving cultural heritage, educating the younger generation, and spiritually enriching society. It also highlights the reforms in the field of museums carried out in Uzbekistan in recent years and their results.

Keywords: Museum, historical heritage, spiritual uplift, modern museums, culture, exhibits, tourism

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi — bu mamlakatning ma’naviy, madaniy va ijodiy rivojlanish jarayonidir. Mustaqillikdan so‘ng, O‘zbekiston o‘z urf – odatlarini va qadriyatlarini qayta joriy etish, tarixiy merosini o‘rganish va milliy mentalitetini rivojlantirishga, Yangi O‘zbekiston konsepsiysi doirasida ma’naviy-ma’rifiy, madaniy sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqda. Muzeylar esa, barcha bu jarayonlarning markazida turadi. Yurtimizdagi muzeylar o‘z tarixiy va madaniy merosimizni asrab-avaylab,

kelajak avlodga yetkazishga xizmat qilish bilan birgalikda, xalqimizning e'tiqod va an'analarini ham namoyon etadi.

Muzeylar – bu tarixiy meros, san'at va madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishda muhim rol oynaydigan muassasalardir. Ularning faoliyatini samarali tashkil etish va innovatsion boshqarish, yangi talablar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish bilan birga, muzeylar faoliyatini jadal rivojlantirish imkonini beradi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan islohotlar natijasida muzeylar faoliyatida tub burilish yuz berdi. Xususan, muzeylarni zamonaviylashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va zamonaviy ko‘rgazmalar tashkil etish boyicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezidentimizning 2017-yil 31-maydagি PQ-3022-sonli qarori muzeylar faoliyati takomillashuvida muhim omil bo‘ldi.

Muzeylar faqatgina tarixiy eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki madaniy va ma’rifiy markazlar sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular milliy o‘zlikni anglash kelajak avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash va xalqimizning boy tarixiy merosini keng targ‘ib qilishda muhim rol oynaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng muzeylar faoliyatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratdi. So‘nggi yillarda muzey fondlarini ko‘paytirish, yangi va innovatsion texnologiyalarni targ‘ib qilish va ularning jahon tajribasi bilan uyg‘unlashuvi boyicha zarur ishlar amalga oshirildi. Masalan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Ichan Qal’a davlat muzey-qo‘riqxonasi kabi yirik muzeylar xorij tajribalariga mos holda faoliyat yuritmoqda.

Yangi O‘zbekistondagi muzeylar xalqimizning yutuqlarini, qiyinchiliklarini va ma’naviy qadriyatlarini tarqatuvchi muhim manba sanaladi.Mamlakatimizda zamonaviy muzeylarning ochilishi, mavjud muzeylarning ta’mirlanishi va modernizatsiya qilinish jarayonlari davom etmoqda. Yurtimizda mavjud har bir muzey o‘ziga xos mavzu va maqsadga ega hisoblanib, ularning barchasi O‘zbekistonning turli jabhalardagi taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Muzeylar, yurtimizning ma’naviy rivojlanishidagi muhim muassasalardan biridir. Ular tez – tez yangilanib, o‘z yo‘nalishlarini kengaytirib bormoqda. Yurtimizda mavjud muzeylarning yuksalishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Zamonaviy va yangi muzeylarning ochilishi: O‘zbekistonda turli tematik muzeylar yaratilmoqda. Tematik ekskursiya o‘z mazmuniga ko‘ra obrazli ekskursiyalardan berilgan mavzu boyicha asosiy ma’lumotlarni izchil bayon etishi, masalalar mazmunini tinglov-chilarning siyosiy qarashlarini kengaytirish va ularda ta’sirchanlikni yanada oshirish maqsadida eksponatlar mohiyatini ochib berish, asosli tushuntirishi bilan farqlanadi. Masalan, zamonaviy san’at, tarixiy meros, ko‘chmanchi hayot va boshqalar boyicha muzeylar ochilmoqda.

2. Eksponatlarning yangilanishi: Mamlakatimizdagи muzeylarda eksponatlar yangilanmoqda, yangi arxeologik topilmalar va san’at asarlari qo‘shilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda.

3. Turizmni rivojlantirish: Muzeylar sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Shu sababli ularning rivojlanishi turizm sohasiga ham ijobiy ta’sir etib, O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar sonini os-hirishga yordam beradi.

4. Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston muzeylari tadqiqotchilar va san’atkorlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirib, kutubxonalar va arxivlар bilan tajriba almashmoqda.

Muzeylar nafaqat tarixiy merosni asrash, balki milliy ong va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim maskanlardir. Yangi O‘zbekiston sharoitida muzeylar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jamiyatning ma’naviy yuksalishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh .Mirziyoyev :“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-sон Qarori.

O'ZBEKISTON VA TURKIYA MADANIYAT MUASSASALARIDAGI INNOVATSION MARKETING USULLARINI MADANIY TA'LIM SOHASIGA OLIB KIRISH

E'zozaxon Mashrabjonova,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullarining madaniy ta'lif sohasidagi roli tahlil qilinadi. Zamonaviy marketing strategiyalarining madaniy muassasalardagi samaradorligi, ularning ta'lif jarayonlariga tasiri va innovatsion yondashuvlarning ta'lif sifati va madaniy merosni targ'ib qilishdagi ahamiyati o'r ganiladi. Shuningdek, O'zbekiston va Turkiyaning madaniyat muassasalarida qo'llanilayotgan ilg'or marketing texnologiyalari taqqoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. – Tadqiqot davomida madaniy ta'limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi marketing usullari, raqamli texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada innovatsion marketing vositalari orqali madaniy ta'lif jarayonlarini takomillashtirishga oid tavsiylar ham beriladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion marketing, madaniyat muassasalari, madaniy ta'lif, raqamli marketing, O'zbekiston, Turkiya, interaktiv ta'lif, marketing strategiyalari, madaniy meros, zamonaviy texnologiyalar.

Annotation: This article analyzes the role of innovative marketing methods applied in cultural institutions of Uzbekistan and Turkey in the field of cultural education. The effectiveness of modern marketing strategies in cultural institutions, their impact on educational processes, and the significance of innovative approaches in promoting cultural heritage and improving education quality are examined. Furthermore, a comparative analysis of advanced marketing tech-

nologies used in the cultural institutions of Uzbekistan and Turkey is conducted, highlighting their similarities and differences. The study scientifically substantiates the importance of marketing methods, digital technologies, and interactive approaches in enhancing cultural education. The article also provides recommendations for improving cultural education processes through innovative marketing tools.

Keywords: Innovative marketing, cultural institutions, cultural education, digital marketing, Uzbekistan, Turkey, interactive learning, marketing strategies, cultural heritage, modern technologies.

Аннотация: В данной статье анализируется роль инновационных маркетинговых методов, применяемых в культурных учреждениях Узбекистана и Турции, в сфере культурного образования. Рассматривается эффективность современных маркетинговых стратегий в культурных институтах, их влияние на образовательные процессы, а также значение инновационных подходов в продвижении культурного наследия и повышении качества образования. Кроме того, проводится сравнительный анализ передовых маркетинговых технологий, используемых в культурных учреждениях Узбекистана и Турции, выявляются их сходства и различия. В исследовании научно обосновывается важность маркетинговых методов, цифровых технологий и интерактивных подходов для развития культурного образования. В статье также представлены рекомендации по совершенствованию образовательных процессов в сфере культуры с помощью инновационных маркетинговых инструментов.

Ключевые слова: Инновационный маркетинг, культурные учреждения, культурное образование, цифровой маркетинг, Узбекистан, Турция, интерактивное обучение, маркетинговые стратегии, культурное наследие, современные технологии.

Kirish

Marketing insoniy va ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash hamda qondirish bilan bog‘liq faoliyatdir. Marketingning eng qisqa va aniq ta’riflaridan biri — “ehtiyojlarni foydali tarzda qondirish”. Masalan,

Google odamlar internetda ma'lumotlarni samarali va tez topishga ehtiyoj sezganini anglaganidan so'ng, qidiruv tizimini yaratib, axborotni tartibga solib, foydalanuvchilar uchun qulayroq shaklda taqdim etdi. IKEA esa odamlar sifatli va arzon mebelga ehtiyoj sezayotganini tushunib, yig'iladigan mebel ishlab chiqara boshladi. Bu ikki kompaniya marketing qobiliyatini namoyish etib, ijtimoiy yoki shaxsiy ehtiyojni foydali biznes imkoniyatiga aylantirdi.

Amerika Marketing Assotsiatsiyasi marketingga quyidagicha rasmiy ta'rif beradi: Marketing — bu mijozlar, hamkorlar va jamiyat uchun qadriyatga ega bo'lgan mahsulot va xizmatlarni yaratish, aloqa qilish, yetkazish hamda ayrboshlash boyicha faoliyat, muassasalar va jarayonlar to'plamidir. Madaniyat konsepsiya ko'ra suv ustida joylashgan aysbergdek gap, biz uning faqatgina yuzasinigina ko'ra olamiz. Aslida uning ko'rinas juda chuqur joylashgan mazmun-mohiyati mavjud. Uning bizga ko'rinaradigan tomonlari yuzaki madaniyat deb ham ataladi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, drama, oyinlar, hunarmandchilik va bayramlar sifatida belgilanadi, biroq madaniyat bundan ham ko'proq. Yerdan pastga tushsangiz,farqlar yanada mazmunli bo'ladi. Madaniy aysberg "chuqur madaniyat" yoki "ko'rinas madaniyat" deb nomlanadi. Uning zamirida madaniy an'analar,e'tiqodlar,qadriyatlar,meyorlar va ramziy ma'nolarni o'z ichiga oladi. Ushbu "chuqur madaniyat" kelajak avlodga mos ravishda yrtkazib berilishi lozim. Zamonaviy jamiyatda madaniyat muassasalarini nafaqat madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Madaniy ta'limni rivojlantirish va keng ommaga yetkazish uchun innovatsion marketing usullaridan samarali foydalanish zaruriyatga aylanmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar va interaktiv yondashuvlar madaniyat muassasalarining ta'lim jarayonlarida tutgan o'rnini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy demokratik jamiyatning tamal toshi tenglikdir. Tenglik vaadolat yonna-yon mavjud bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan tushunchalardir. Mavjud demokratik davlatlarda adolatli jamiyat Teng ta'lim imkoniyatlariga erishishning eng muhim vositasi ekanligi qabul qilinadi.

O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarini o‘ziga xos tarixiy, madaniy va ilmiy merosga ega bo‘lib, ularning ta’lim jarayonida innovatsion marketing vositalaridan foydalanish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatlarda madaniy ta’limni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan marketing strategiyalari bir-biriga o‘xshash jihatlarga ega bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos farqlarga ham ega.

Shuning uchun ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkiyaning madaniyat muassasalarida qo‘llanilayotgan innovatsion marketing usullari tahlil qilinib, ularning madaniy ta’lim jarayoniga ta’siri ilmiy asosda o‘rganiladi. Mazkur tadqiqot madaniy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi marketing strategiyalarining ahamiyatini yoritish bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayonlarini takomillashtirish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, maqolada O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarining tajribalarini solishtirish orqali samarali marketing yondashuvlarini rivojlantirish boyicha tavsiyalar beriladi. Shavkat Mirziyoyevning “Biz madaniyat va ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘ramiz. Madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni keng targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazish – muhim vazifamizdir.” Bu fikr madaniyat muassasalarining ta’lim jarayonidagi o‘rnini va innovatsion yondashuvlar orqali uni rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asosiy qism

Innovatsion marketing va uning madaniyat muassasalaridagi roli. Zamonaviy dunyoda marketing faqat tijorat sohasi bilan cheklanmay, balki madaniyat va ta’lim sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, madaniyat muassasalarida innovatsion marketing-dan foydalanish orqali madaniy ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, auditoriya qamrovini kengaytirish va milliy merosni targ‘ib qilish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar yordamida madaniy muassasalar faqat an‘anaviy tashrif buyuruvchilarga emas, balki global miqyosda keng auditoriyaga ham murojaat qilish imkoniyatiga

ega bo‘lishmoqda. Innovatsion marketing strategiyalariga raqamli platformalar orqali targ‘ibot, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish, sun’iy intellekt yordamida individual ta’lim dasturlarini shakllantirish kabi usullar kiradi.

Ushbu usullar madaniyat muassasalarining o‘z missiyasini samarali bajarishiga ko‘maklashadi hamda yosh avlodda madaniy merosga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarida marketing strategiyalarining ahamiyati. O‘zbekiston va Turkiya boy madaniy merosga ega bo‘lgan davlatlar bo‘lib, ularning madaniyat muassasalari milliy va jahon miqyosida muhim rol oynaydi. So‘nggi yillarda har ikki mamlakatda ham madaniyat muassasalarini rivojlantirish va ularning ta’limiy faoliyatini innovatsion marketing orqali takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda madaniyat muassasalari, jumladan, muzeylear, teatrler va kutubxonalar zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlanib, interaktiv xizmatlarni taklif qilmoqda. Masalan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va Temuriylar tarixi muzeyi singari yirik madaniy markazlarda virtual ekskursiyalar tashkil etilishi madaniyat sohalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali madaniy tadbirdarlarning keng targ‘ib qilinishi aholi, ayniqsa, yoshlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Turkiyada ham madaniyat muassasalari innovatsion marketing strategiyalarini faol joriy etmoqda. Xususan, Istanbul Arxeologiya muzeyi va Topkapi saroyi singari muassasalarda raqamli texnologiyalar orqali interaktiv o‘quv dasturlari tashkil qilinmoqda.

Shuningdek, Turkiya madaniyat muassasalari madaniy ta’limni ommalashtirishda blokcheyn texnologiyalari va sun’iy intellekt asosida ishlovchi xizmatlardan foydalanib, madaniy merosni yangi usullar bilan targ‘ib qilmoqda.

Madaniyat sohalarini rivojlantirishda innovatsion marketingning o‘rnii. Innovatsion marketing madaniyatni rivojlantirishda kuchli vosita bo‘lish bilan birgalikda, ta’lim jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli shaklda tashkil qilish imkonini beradi. An’anaviy ta’lim

usullariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali o‘quv-chilarning ishtirokini oshirish va ularning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish mumkin. Masalan, O‘zbekiston va Turkiyada madaniyat muassasalari tomonidan tashkil etilayotgan onlayn darslar, vebinarlar, virtual muzey ekskursiyalari va interaktiv oyinlar yosh avlodning madaniy bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, big data texnologiyalari yordamida auditoriya ehtiyojlarini tahlil qilish va ularga mos madaniy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilishini keng yo‘lga qoyish lozim. O‘zbekiston va Turkiya tajribalarini solishtirish va tavsiyalar. Har ikki davlatning madaniyat muassasalarida innovatsion marketing usullarining joriy etilishi boyicha olib borilayotgan tajribalarga nazar tashlasak, XXI asrda madaniyat muassasalari nafaqat o‘z tarixiy merosini saqlab qolish, balki uni zamonaviy texnologiyalar yordamida ommalashtirish zaruratini ham his qilmoqda. Bu borada innovation marketing usullari muhim rol oynaydi.

O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalari so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni o‘z tizimiga tatbiq etish orqali yangi yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. O‘zbekistonda madaniy merosni ommalashtirish boyicha so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, Pandemiya davridan ya’ni 2020-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi turli platformalar orqali innovatsion marketingni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqda. Muqobil yondashuvlar va misollar: Madaniy merosni Ijtimoiy tarmoqlar orqali faol targ‘ib qilish – Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi tarixiy obidalar boyicha qiziqarli qisqa videolar ishlab chiqilmoqda. Masalan, “Welcome_uzbekistan travel” hamda “Uzbekistan.Travel” Instagram sahifasi 110 mingdan ortiq kuzatuvchiga ega va muntazam ravishda interaktiv kontent taqdim etadi.

Virtual turlar – Toshkent shahridagi davlat muzeylari hamda uy muzeylarining 3D turlari joriy etilgan. Bu yondashuvlar millennial va Z avlod vakillari uchun madaniy ta’limni yanada jozibador qiladi. Shuningdek, mobil ilovalar va ijtimoiy media orqali maqsadli audito-

riyaga tezroq yetib borish imkonini beradi. Turkiya tajribasi: sun’iy intellekt va virtual reallik orqali innovatsion ta’lim: Turkiya madaniyat muassasalari innovatsion texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va virtual reallik (VR) ta’lim sohasida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. E’tiborga molik loyihamar: “MüzeKart VR” loyihasi – Turkiyaning eng yirik muzeylari, jumladan, Istanbulbulagi Topkapı saroyi va Ayasofya muzeyi uchun maxsus virtual ekskursiyalar ishlab chiqilgan.

Bu imkoniyat masofadan turib ham tarixiy obidalar bilan tanishish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’lim dasturlari – Istanbul universiteti huzuridagi madaniyat markazlari ta’lim jarayonlarida AI texnologiyalaridan foydalanmoqda. Masalan, Topkapı saroyining tarixiy ekspozitsiyalariga sun’iy intellekt yordamida interaktiv sharh berish tizimi ishlab chiqilgan. “Dijital Kültür Atlası” (Raqamli madaniyat atlasi) – Turkiyaning madaniy merosi boyicha o‘quv dasturlari yaratilgan bo‘lib, u yosh avlodga tarixiy bilimlarni o‘rgatishda innovatsion yondashuvni ta’minlaydi. Turkiyaning bu tajribasi shuni ko‘rsatadiki, madaniyat muassasalari uchun innovatsion marketing nafaqat targ‘ibot vositasi, balki madaniy ta’limning ajralmas qismi hamdir. Qiyosiy tahlil va tavsiyalar: Har ikki mamlakatning tajribasini solishtirar ekanmiz, quyidagi asosiy jihatlar e’tiborga molik: Bu solishtirish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston madaniyat muassasalari Turkiyaning VR va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimidan o‘rganishi mumkin.

Ayni paytda, Turkiya madaniyat muassasalari O‘zbekistondagi ijtimoiy media marketing va mobil ilovalar orqali interaktiv ta’lim dasturlaridan o‘z tizimida foydalanishi mumkin. Tavsiyalar: O‘zbekistonda joylashgan virtual muzeylarni kuzatish imkonini yaratuvchi sayt <https://360.vrmuseum.uz/museum1/> ayni vaqtida nosozliklar sababli o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Ushbu saytning qayta ishga tushirilishi mamlakatimizdagи ichki va tashqi turizmni rivojlanishi uchun zaruriyat tug‘diruvchi omillardan biridir. Turkiyada muzeylarning yanada yuzaga chiqib turistlarni o‘ziga jalb etishi uchun you tube platformasida hamda instagram ijtimoiy tarmog‘ida maxsus bloglar-

ning muntazam yuritib borilishi kenh yo‘lga qoyilishi lozim. Kelajakda madaniyat muassasalarining ta’limiy rolini yanada kuchaytirish uchun innovatsion marketing vositalaridan foydalanishni davom etirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Innovatsiyalar – bu shunchaki yangi texnologiyalar emas, balki madaniyat va ta’limni yanada rivojlantirishning asosiy omilidir.”

Empirik tahlil

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarida innovatsion marketing strategiyalarining madaniy ta’lim jarayonlariga ta’sirini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tahlil jarayonida har ikki davlatning madaniyat muassasalarida qo‘llanilayotgan marketing usullari, ularning samaradorligi va auditoriya qamrovi boyicha mavjud ma’lumotlar o‘rganildi. O‘zbekiston va Turkiyada madaniyat muassasalarining innovatsion marketingdan foydalanish darajasi. Empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda madaniyat muassasalari asosan ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali marketing faoliyatini rivojlantirmoqda. Masalan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan o‘tkazilgan virtual ekskursiyalar yosh avlodning madaniy ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol oynadi. Shu bilan birga, respublika kutubxonalari o‘z fondlarini raqamlashirish orqali ilmiy va badiiy adabiyotlarga erkin kirish imkoniyatini yaratmoqda.

O‘zbekistonning mashhur bo‘lgan Registon maydonining turistik jozibadorligini oshirish uchun tarixiy merosni raqamki texnologiyalar yordamida (3D modellashtirish, virtual turlar) taqdim etish, “Ichan qal’a” muzey-qo‘riqxonasi instagram sahifasida tarixiy obidalar haqidagi qisqa videoroljklar, 360° panoramalar joylashtirish orqali yosh auditoriya jalb qilish. Turkiyada esa madaniyat muassasalari sun’iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va virtual reallik (VR/AR) vositalaridan foydalanish borasida ilg‘or tajribaga ega. Masalan, Istanbul Arxeologiya muzeyi va Topkapi saroyi singari yirik madaniyat

markazlari zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’limiy dasturlarni tashkil etib, auditoriyaga innovatsion yondashuvlar taklif qilmoqda. Bundan tashqari, Turkiyada madaniyat muassasalarining rasmiy ve b-saytlari va mobil ilovalari orqali foydalanuvchilarga interaktiv xizmatlar taqdim etish yo’lga qoyilgan.

Turkiyadagi Topkapi saroyi o‘zining noyob eksponatlari haqida yuqori sifatli videolarni Youtube kanaliga joylashtirib, dunyo auditriyasini qamrab oladi. Turkiyadagi “Turkish Airlines” aviakompaniyasi o‘zining “Widen Your World” kampaniyasi orqali turli madaniy yo‘nalishlar haqida qiziqarli videolar yaratib, sayyoqlikni rag‘batlantiradi. Ta’lim samaradorligiga ta’sirini baholash. Innovatsion marketing strategiyalarining madaniy ta’lim jarayonlariga ta’sirini o‘rganish maqsadida auditoriya ishtiropi va madaniyat muassasalarining ta’limiy dasturlariga bo‘lgan talab o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv ta’lim dasturlariga qatnashgan talabalar soni 2019-yilga nisbatan 35% ga oshgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib qilingan madaniy ta’lim loyihibalariga ishtirop etgan yoshlar soni 2 barobar ortgan. Topkapi saroyida virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etilgan interaktiv ekskursiyalarga tashrif buyuruvchilar soni an’anaviy ekskursiyalar bilan solishtirganda 50% ga oshgan. Istanbul Arxeologiya muzeyining onlayn ta’lim dasturlarida ishtirop etgan auditoriya soni 2020-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda 60% ga oshgan. Bu natijalar innovation marketing vositalarining madaniyat muassasalarini tomonidan samarali qo‘llanilishi ta’lim jarayonining sifati va qamrovini sezilarli darajada oshirayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston va Turkiyaning marketing yondashuvlarini solishtirish. Yuqoridagi solishtirma tahlil shuni ko‘rsatadi, O‘zbekistonda innovatsion marketing strategiyalari hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada ortib bormoqda. Turkiyada esa bu jarayon ilgariroq boshlangan bo‘lib,

ilg‘or texnologiyalar madaniy ta’lim tizimiga yanada chuqurroq joriy etilgan. Madaniy ta’limni rivojlantirish boyicha tavsiyalar. Empirik tahlil natijalariga asoslanib, O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarida madaniy ta’limni rivojlantirish boyicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarini keng joriy etish. Muzey va kutubxonalarda raqamli ko‘rgazmalar va interaktiv ekskursiyalarini tashkil etish. Ijtimoiy media marketing strategiyalarini kuchaytirish. Yosh avlod uchun qiziqarli kontent yaratish va madaniy ta’lim dasturlarini ommalashtirish.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida tajriba almashinushi. Har ikki mamlakat mutaxassislari uchun innovatsion marketing va ta’lim metodikalari boyicha xalqaro seminar va konferensiyalar tashkil etish. Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion marketing strategiyalarining madaniy ta’lim jarayonlariga integratsiyasi madaniyat muassasalarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalari tomonidan qo‘llanilayotgan marketing yondashuvlari tahlil qilinib, ularning madaniy ta’limga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida baholandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, madaniy ta’limni rivojlantirish uchun innovatsion marketing vositalaridan keng foydalanish zarurligi aniqlandi. Kelajakda madaniyat muassasalarida innovatsion texnologiyalarni yanada keng joriy etish, yosh avlodning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish va xalqaro tajriba almashinuvini kuchaytirish orqali madaniy ta’lim sifati yangi bosqichga olib chiqilishi mumkin. Madaniy marketing strategiyalarini qo‘llash natijasida kompaniyalar quyidagi afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin. Mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish. Mahsulot va xizmatlarni madaniy xususiyatlariga moslashtirish orqali mijozlar ehtiyojlarini aniqroq qondirish mumkin bo‘ladi. Bu esa mijozlarning qoniqishini oshiradi.

Xulosa

O‘zbekiston va Turkiya madaniyat muassasalarida innovatsion marketing usullarining madaniy ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinar

ekan, ushbu strategiyalarning zamonaviy ta’lim tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovations marketing faqtgina madaniyat muassasalarining auditoriya qamrovini kengaytirish vositasi emas, balki madaniy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omildir.

Bugungi raqamli asrda madaniy ta’limni rivojlantirish uchun ijtimoiy media platformalari, sun’iy intellekt tizimlari, virtual reallik (VR/AR) texnologiyalari va interaktiv onlayn ta’lim dasturlaridan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda. O‘zbekiston madaniyat muassasalarida innovations marketing elementlari faol joriy etilayotgan bo‘lsa-da, bu borada Turkiyaning ilg‘or tajribasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Turkiya madaniyat muassasalari tomonidan marketing strategiyalarining tizimli ravishda ishlab chiqilishi va ta’lim jarayonlariga integratsiya qilinishi madaniy merosni omallashtirishda yuqori samaradorlikni ta’minlamoqda.

Shuningdek, tadqiqotdan kelib chiqqan holda, madaniyat muassasalarida innovations marketing usullarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish lozim. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini joriy etish – muzeylar va madaniyat markazlarida interaktiv ekskursiyalar va onlayn ta’lim platformalarini rivojlantirish. Raqamli marketing strategiyalarini takomillashtirish – ijtimoiy media va raqamli reklama kanallaridan samarali foydalanish orqali madaniy ta’lim loyihalarining auditoriya qamrovini oshirish. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilidan foydalanish – foydalanuvchilarning madaniy ta’limga bo‘lgan qiziqishini tahlil qilish va individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish. Ijodiy jarayon insondan bilim, tajriba va iste’dod bilan birga, shijoat, qat’iyat, chidam, mulohazakorlik, aniqlikni talab etadi.

Mana shunday jarayonda madaniyat muassasalari talabalariiga jahon madaniyat marketing faoliyatini, jumladan mamlakatimiz madaniyatiga yaqin bo‘lgan Turkiyadek raqamli marketingga ixtisoslashgan davlatning innovations marketing usullarini o‘rgatib borish samarali madaniy xizmatni tashkillashtirishga omil bo‘la oladi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Kotler, P., Keller, K. L. (2016). Marketing Management. 15th Edition. Pearson.
(Dunyo miqqosida innovatsion marketing strategiyalarining nazarriy va amaliy asoslarni yorituvchi asosiy darsliklardan biri.)
3. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper-Business.
(Innovatsiyalar va marketing strategiyalarining iqtisodiyot va ta’lim tizimiga ta’siri haqida chuqur tahliliy yondashuv berilgan.)
4. “Türkiye’de Çokkültürlü Eğitimin Gerekliliği Üzerine Bir Çalışma” Yasemin ACAR ÇİFTÇİ*Hasan AYDIN
5. Balcı, S., & Arslan, A. (2020). Cultural Heritage and Digital Innovation in Turkey. Istanbul: Koc University Press.
(Turkiya madaniyat muassasalarida innovatsion marketing yondashuvlari boyicha amaliy tadqiqotlar va real misollar keltirilgan.)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvargagi ma’ruzasi: “Ta’lim va madaniyat tizimini modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri
7. “Journal of Fundamental Dtudies”., II jild, 2-son. Toshkent. 2024.

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA RESPUBLIKA VA XALQARO FESTIVALLARNING O'RNI VA ROLI

Manzura Mamataliyeva,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti magistri*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishida Respublika va xalqaro festivallarning tutgan o'rni va roli tahlil qilinadi. Turistik festivallar nafaqat madaniy merosni keng targ'ib qilish, balki mamlakatning xalqaro maydonidagi nufuzini oshirish, xorijiy sayyoohlarni jalb qilish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlanirishda muhim omil sanaladi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda o'tkazilayotgan yirik festivallar misolida ularning turizmga ta'siri, xorijiy tajriba bilan taqqoslanishi va rivojlanirish istiqbollari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: turizm, festival, madaniy meros, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro tajriba, sayyoqlik industriyasi, xorijiy mehmonlarni jalb qilish.

Anotation: This scientific article analyzes the role and place of Republican and international festivals in the development of tourism in Uzbekistan. Tourist festivals are considered an important factor not only in the widespread promotion of cultural heritage, but also in increasing the country's prestige in the international arena, attracting foreign tourists and developing the local economy. During the study, using the example of major festivals held in Uzbekistan, their impact on tourism, comparison with foreign experience and development prospects are studied.

Keywords: tourism, festival, cultural heritage, economic development, international experience, tourism industry.

KIRISH

Bugungi kunda festivallar nafaqat madaniy va badiiy tadbirlar sifatida, balki ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda o'tkazilayotgan turli madaniy festivallar milliy an'analar va qadriyatlarni targ'iib qilishga xizmat qilsa, xalqaro festivallar esa madaniy integratsiyani rivojlantirish, turizm hamda iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga imkon yaratadi.

Tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda turizm O'zbekiston Respublikasida borgan sari tarraqqi etmoqda hamda o'zining milliy va xalqaro festivallari orqali juda ko'p xorijiy mamlakat mehmonlarini, vakillarini qabul qilib o'z navbatida yuqori saviyadagi milliy madaniyatini va san'atini ko'rsatib kelmoqda. Bunga misol tariqasida ko'p yillardan buyon o'tkazilib kelinayotgan Samarqand shahridagi Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalini, Namangan shahridagi xalqaro gullar festivali, Boysun bahori, Qo'qon shahridagi hunarmandchilik festivali hamda Surxondaryo viloyatida yaqin yillardan beri o'tkazilib kelinayotgan Baxshichilik festivali kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish boyicha bir qator qaror va farmoyishlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019-yildagi PF-5781-sonli "O'zbekiston Respublikasida Turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda turizm va madaniyatni rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi²². Ushbu hujjat xorijiy sayyoohlarni jalb qilish, madaniy tadbirlarni kengaytirish hamda xalqaro festival va ko'rgazmalarni tashkil etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro festival va tadbirlarni rivojlantirish: Farmonda turizmga oid rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar, jumladan, vizasiz rejim va charter reyslariga subsidiya berish haqida so'z boradi. Bu esa yirik

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentning (2019) "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida".

madaniy va ijodiy festivallarga xorijiy ishtirokchilar va mehmonlarni jalg qilish imkonini oshiradi.

Madaniy meros obektlari va festivallar: Festival va tadbirdilar ko‘pincha tarixiy shahar va obidalarda o‘tkaziladi. Ushbu farmon UNESCO Umumjahon merosi obektlari hududida turistik faoliyatni tartibga solish orqali madaniy festival va an’anaviy tadbirdirlarni yanada rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Rasmiy statistik ma’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma’lumotlariiga ko‘ra, 2019-yilda mamlakatga 6,7 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. COVID-19 pandemiyasi sababli bu ko‘rsatkich 2020-yilda Keskin kamaygan bo‘lishiga qaramay 2023-yilda 5,2 million sayyoh kelgani qayd etilgan²³. 2022-yilda BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan davlatimiz turizm salohiyati yuqori mamlakat sifatida e’tirof etilgan²⁴.

Respublika miqyosidagi festivallar va ularning ta’siri

Samarqandda har ikki yilda bir o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivaliga 2023-yili 30 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etgan. Bu festival orqali Samarqandga sayyoohlар oqimi sezilarli darajada oshgan²⁵.

“Ipak yo‘li” turizm festivali – Buxoroda muntazam o‘tkaziladigan festivallar sirasidandir. 2022-yilda bo‘lib o‘tgan festivalda 30 dan ortiq davlatdan mehmonlar qatnashgan va natijada shaharga tashrif buyuruvchilar soni 20%ga oshgan²⁶.

Xorazmda o‘tkazilgan “Lazgi” festivali – 2024-yilda UNESCO homiyligida tashkil etilgan va bu an’anaviy raqs turini xalqaro darajada ommalashtirishga xizmat qilgan²⁷.

²³ O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2023-yilgi turizm statistikasi.

²⁴ BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) 2022-yilgi hisoboti.

²⁵ “Sharq taronalari” festivali rasmiy sayti va OAV ma’lumotlari.

²⁶ “Ipak yo‘li turizm festivali”, 2022-yil hisoboti.

²⁷ UNESCO rasmiy hisobotlari, 2024-yil.

Xalqaro darajadagi festival va tadbirlarning ta'siri

2023-yilda Toshkentda o'tkazilgan BMT Turizm Bosh Assambleyasi O'zbekistonning xalqaro turizm nufuzini oshirishga xizmat qilgan va global miqyosdagi turistik investorlarni jalb qilishga sabab bo'lgan²⁸.

2021-yilda Buxoroda bo'lib o'tgan "Buyuk Ipak yo'li" festivallida – 15 dan ortiq davlat vakillari qatnashgan, natijada xalqaro turistik oqim oshgan va Buxoro turistik markaz sifatida yana-da e'tiborga tushgan²⁹.

Hukumat qarorlari va dasturlar

2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojllantirish strategiyasi" – bu hujjatda 2025-yilgacha xalqaro festivallar sonini oshirish va turistik infratuzilmani rivojllantirish rejalashtirilgan³⁰.

2022-yilda Prezident farmoni bilan tashkil etilgan "Turizm haftaligi" O'zbekistonda turizmni rivojlanishga qaratilgan yirik tashabbuslardan biri bo'lib, turizm sohasida yangi loyihalar va investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qilmoqda³¹.

Keling endi festivallarning turizm sohasidagi ahamiyatiga qisqacha to'xtalsak:

1. Iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Ma'lumki har bir turist sayohati davomida albatta turar joy, ovqatlanish, transport hamda mahalliy xizmatlardan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida mahalliy iqtisodiyotning rivojiga, mahalliy bizneslar, restoranlar hamda mehmonxonalar uchun ham daromad manbai bo'lib xizmat qillishi bilan bir qatorda yangi ish o'rinalarini yaratadi. Xususan, xizmat ko'rsatish sohalarida, tashkilotlar va transport kompaniyalarida:

- Pul oqimi oshadi – sayyohlar mehmonxonalar, restoranlar, transport va suvenirlar uchun pul sarflashadi. Bu esa mahalliy tadbirkorlarning daromadini oshiradi;

²⁸ BMT Turizm Bosh assambleyasi, 2023-yilgi tadbir natijalari

²⁹ "Buyuk ipak yo'li" festivali, 2021-yilgi statistik ma'lumotlar

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Turizm strategiyasi, 2019-yil.

³¹ Prezident farmoni bilan tashkil etilgan "Turizm haftaligi", 2022-yil

• Ish o‘rinlarini yaratadi – festivallar tufayli gidlar, hunarmandlar, hunarmandlar, san’atkorlar, restoran va mehmonxona xodimlari uchun yangi ish joyi paydo bo‘ladi;

• Mahalliy mahsulotlarga talab oshadi – sayyoohlar milliy hunarmandchilik mahsulotlarini, milliy taomlarni sotib olishadi. Bu esa tadbirkorlarni ko‘proq ishlab chiqarishga rag‘batlantiradi;

• Mahalliy imiji mustahkamlanadi – nufuzli xalqaro festivallar orqali O‘zbekiston dunyoga o‘z madaniyati va tarixini kengroq taniadi. Bu esa uzoq muddatga turizmni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuning uchun festivallar nafaqat madaniy tadbir sifatida balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi katta omil sifatida ham muhim sanaladi.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) statistik ma’lumotlariga ko‘ra, madaniy festivallar turistik oqimni oshiruvchi asosiy omildir³². Masalan, Venetsiya kinofestivali Italiyaga har yili 200mingdan ortiq sayyoh jalb qilar ekan.

2. Madaniy almashinuv. Xalqaro festivallar san’atkorlar va tomoshabinlarga turli xalqlarning san’ati bilan tanishish imkonini bera-di. Masalan, UNESCO tomonidan e’tirof etilgan “Sharq taronalar” xalqaro musiqa festivali turli millatlar musiqa an’analari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi³³. Yani festivallar yorda-mida sayohatchilar yangi joylarni kashf etishlari, musiqa, raqs, san’at hamda taomlar orqali mahalliy aholi bilan aloqa o‘rnatishlari mumkin. O‘zbek san’atkorlari va ijodkorlari tajriba almashadi, festivalga kelgan xorijiy san’atkorlar o‘z tajribasi bilan bo‘lishadi, yangi uslub-ler, texnikalarni o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi. Til va muloqot rivojlanadi, ya’ni festival davomida turli davlat vakillari o‘zaro suh-bat quradi, bu esa xalqaro muloqotni kuchaytiradi.

3. Madaniy diplomatiya. Davlatlar san’at festivallaridan xalqaro aloqalarni mustahkamlash uchun foydalanishadi. Misol tariqasida Xitoyning “Ipak yo‘li madaniyat festivali”ni aytishimiz mumkin,

³² Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO). (n.d). statistic ma’lumotlari

³³ UNESCO (n.d). rasmiy sayti – www.unesco.org.

yani festivaldan ko‘zlangan maqsad turli davlatlar orasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, Kann kinofestivali (bu har yili Fransiyaning Kann shahrida o‘tkaziladigan dunyodagi eng mashhur kinofestivallardan sanaladi. U 1946-yildan buyon davom etib, odatda may oyida o‘tkaziladi. Festivalning asosiy muhkofoti “Oltin palma shoxi” bo‘lib eng yaxshi filmga beriladi), “Venetsiya biennalesi”(bu dunyodagi eng nufuzli va yirik san’at tadbirlaridan biri sanalib, Italiyadagi Venetsiya shahrida har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi..Biennale: Venetsiya san’at biennalesi, Venetsiya me’mor-chilik biennalesi, Venetsiya kinofestivali, teatr, musiqa va raqs kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi), “Berlinale kinofestivali”(to‘liq nomi Berlin xalqaro kinofestivali, har yili Germaniyaning Berlin shahrida o‘tkaziladi. Festival 1951-yilda tashkil etilgan bo‘lib odatda fevral oyida bo‘lib o‘tadi. Festivalning asosiy mukofoti – “Oltin ayiq”, u eng yaxshi filmga topshiriladi) va boshqa shu kabi jahon san’ati va madaniyatining yirik hodisalarini ham davlatlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiyaga xizmat qiladi.

Yuqoridagi dalillar shuni bildiradi, Respublika va xalqaro festivallar mamlakatimizda turizmning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘s-hmoqda. Bu kabi tadbirlar nafaqat turistik oqimni oshirishga balki madaniy merosni targ‘ib qilishga ham xizmat qilmoqda.

Respublika festivallarining jamiyatga ta’siri

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan festivallar milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish, yosh avlodga an’anaviy qadriyatlarni singdirish hamda milliy o‘zlikni asrab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masala, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Lazgi” raqs festivali, Hunarmandchilik festivali, “Boysun bahori”, “Baxshichilik festivali” kabi tadbirlar milliy madaniyatni targ‘ib qilish bilan birga, turizm rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi³⁴.

³⁴ Xalqaro hunarmandchilik festivali – xalqlar madaniyatini bog’lovchi muhim ko‘prik <http://uzembassy.kz/uz>

Xalqaro festivallarning jamiyatga ta'siri

Xalqaro miqyosdagi festivallar esa madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, san'at va ijodiy tajriba almashinuvini kengaytirish imkonini beradi. Dunyoning turli davlatlarida bo'lib o'tadigan festival san'atning rivojlanishiga global nuqtai nazardan yondashish imkoniyatini yaratadi.

Respublika va Xalqaro festivallarning qiyosiy tahlili

– Respublika festivallarining maqsadi madaniyatni targ'ib qilish bo'lsa, xalqaro festivallar madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirishga yo'naltiriladi.

– Respublika festivallari asosan milliy meros va an'analarni saqlashga qaratilgan, xalqaro festivallar esa ijodiy almashinuv va san'at rivojlanishiga xizmat qiladi.

– Respublika festivallarining iqtisodiy foydasi mahalliy tadbirkorlik va turizmni rivojlanirishga yo'naltirilgan bo'lsa, xalqaro festivallar global miqyosda iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki O'zbekistonda o'tkazilib kelinayotgan Respublika va xalqaro festivallar turizmni rivojlanirish hamda milliy o'zligimizni asrab qolishda katta rol oynaydi va o'z navbatida xalqlar o'rta sidagi umummilliy yangiliklar va tajribalar almashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek mamlakatlar o'rta sidagi madaniy ko'prik vazifasini o'taydi va xalqaro jamiyatda O'zbek xalqining o'z o'miga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning (2019) “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlanirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida” <https://lex.uz./doc/-4474727>

2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2023-yilgi turizm statistikasi.

3. BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) 2022-yilgi hisoboti.

4. “Sharq taronalari” festivali rasmiy sayti va OAV ma'lumotlari

5. “Ipak yo'li” turizm festivali, 2022-yil hisoboti.

6. UNESCO rasmiy hisoboti, 2024-yil.

7. BMT Turizm Bosh assambleyasi, 2023-yil.
8. “Buyuk ipak yo‘li” festivali, 2021-yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Turizm strategiyasi, 2019-yil.
10. Prezident farmoni bilan tashkil etilgan “Turizm haftaligi”, 2022-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-iyuldagи qarori.
12. Xalqaro hunarmandchilik festivali – xalqlar madaniyatini bog‘lovchi muhim ko‘prik <http://uzembassy.kz/uz>
13. Turizmnı rivojlantirish davlat qo‘mitasi (n.d). Eng yaxshi biznes g‘oya va startaplarni moliyalashtirish <https://www.spot.uz>
14. Nauchniyimpuls.ru>index.php/ni/article/view/15708 (2023) “Festivallarning turizm istiqbolida tutgan o‘rnı” maqola M.Gulmira. Akramjon qizi.
15. UNESCO (n.d). rasmiy sayti – www.unesco.org.
16. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO).(n.d). statistic ma’lumotlari – www.unwto.org.

MDH DAVLATLARIDA MADANIYAT VA SAN'AT MARKETINGI: XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA MADANIYAT MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Shahnoza Umaraliyeva,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada MDH davlatlarida madaniyat va san'at sohasidagi marketing tamoyillari va ular asosida madaniyat muassasalarini rivojlanirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar asosida innovatsion yondashuvlar o'rganilib, ushbu yondashuvlarning madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishdagi roli yoritiladi. Maqolada zamonaviy marketing strategiyalarining madaniyat va san'at rivojlanishiga ta'siri tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tilida: madaniyat marketingi, san'at rivojlanishi, innovatsion yondashuvlar, xalqaro tajriba, madaniyat muassasalari, MDH davlatlari.

Аннотация: В данной статье анализируются принципы маркетинга в сфере культуры и искусства в странах СНГ, а также возможности развития культурных учреждений на их основе. Исследуются инновационные подходы на основе международного опыта, и раскрывается их роль в эффективной организации деятельности культурных учреждений. Рассмотрено влияние современных маркетинговых стратегий на развитие культуры и искусства с использованием аналитического подхода.

Ключевые слова: маркетинг культуры, развитие искусства, инновационные подходы, международный опыт, культурные учреждения, страны СНГ.

Annotation: This article analyzes the principles of marketing in the field of culture and arts in CIS countries and explores opportunities for developing cultural institutions based on these principles.

Innovative approaches based on international experiences are studied, highlighting their role in effectively organizing the activities of cultural institutions. The impact of modern marketing strategies on the development of culture and arts is examined using an analytical approach.

Keywords: cultural marketing, arts development, innovative approaches, international experience, cultural institutions, CIS countries.

Kirish

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida madaniyat va san'at sohasining rivoji jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, MDH davlatlarida madaniy merosni saqlab qolish va zamonaviy talablar asosida uni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu jarayonda madaniyat muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni raqobatbardosh holga keltirish hamda xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritishini ta'minlash uchun marketing strategiyalaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy marketing uslublari yordamida madaniyat muassasalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bunday yondashuvlar, nafaqat muassasalar faoliyatini optimallashtirishga, balki ularning auditoriyasini kengaytirishga, madaniy xizmatlar sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, madaniyat va san'at sohasida marketing tamoyillarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb va zaruriy vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada MDH davlatlarida madaniyat va san'at sohasidagi marketingning o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, xalqaro tajribalar asosida madaniyat muassasalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Maqolada zamonaviy marketing vositalarining qo'llanilishi orqali madaniyat va san'at sohasining jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Madaniyat va san'at marketingi boshqa sohalardan farqli ravishda, nafaqat tijorat maqsadlarini ko'zlaydi, balki jamiyatda ma'naviyatni

yuksaltirish, madaniy merosni saqlash va yangi ijodiy imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. MDH davlatlarida bu sohaning rivojlanishi ko‘p jihatdan ijtimoiy omillar, davlat qo‘llab-quvvatlashi va auditoriyaning ehtiyojlariga bog‘liq.

Shu sababli, madaniyat muassasalari marketing strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi omillar hisobga olinadi. Mahalliy va global bozor sharoitlarini tahlil qilish. San’at va madaniyatni tijoratlashtirmasdan, ularning ma’naviy qadriyatini saqlash. Marketing tamoyillari yordamida madaniyat muassasalari o‘z xizmatlarini nafaqat mahalliy, balki xalqaro auditoriyaga ham yo‘naltirishi mumkin. Buning uchun samarali kommunikatsiya strategiyalari, brending va innovation texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida madaniyat va san’at marketingi sohasidagi innovatsion yondashuvlar muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida madaniyat muassasalari o‘z faoliyatida raqamli marketing, ijtimoiy media platformalaridan samarali foydalanadi. Bunda asosiy e’tibor. Madaniyat mahsulotlarini interaktiv tarzda taqdim etish. Muzey va teatrлarda virtual ekskursiyalar tashkil etishga qaratiladi. MDH davlatlari sharoitida ushbu tajribalarni qo‘llash uchun muayyan o‘ziga xos sharoitlar mavjud. Aholining madaniyatga bo‘lgan ehtiyojini oshirish, moliyalash-tirish manbalarini diversifikatsiya qilish va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar ishlab chiqish muhimdir.

Bu borada O‘zbekistonda “Buyuk ipak yo‘li” festivali, Rossiya-da Davlat Tretyakov galereyasining raqamli loyihalari muvaffaqiyatli namuna bo‘la oladi. Bugungi kunda madaniyat muassasalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalar auditoriya bilan o‘zaro aloqani yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Quyidagilar innovatsion yondashuvlarning asosiy turlaridir. Raqamli platformalar va mobil ilovalar bu vositalar auditoriyani jalb qilish va axborot almashish jarayonlarini soddalashtiradi. Masalan, O‘zbekiston muzeylari uchun interaktiv mobil ilovalar yaratish. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari Muzey va galereyalar-

da eksponatlar bilan interaktiv aloqani ta'minlash uchun qo'llaniladi. Teatr va konsert tadbirlarini onlayn translyatsiya qilish va auditoriyani kengaytirish. Ushbu innovatsion yondashuvlar nafaqat muassasalar faoliyatini samarali tashkil etishga, balki madaniyat va san'at sohasining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Madaniyat muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Moliyalashtirishning turli manbalarini jalb etish homiylik, xayriya jamg'armalari, xalqaro grantlar va boshqa manbalar orqali moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish.

Ushbu mexanizm orqali madaniyat muassasalarini zamonaviylashtirish va ularga investitsiyalarni jalb etish. Turistlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish orqali madaniy xizmatlardan daromad olish. Bu chora-tadbirlar madaniyat va san'at sohasida faoliyat yurituvchi muassasalarining barqarorligini oshirish bilan birga, ularning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga imkon beradi. Yuqorida keltilgan yondashuvlar va strategiyalar MDH davlatlarida madaniyat va san'at sohasini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar va marketing strategiyalarining birgalikda qo'llanilishi, madaniyat muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlab, ularning auditoriyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalardan o'rghanish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, madaniyat va san'at rivojida muhim omil bo'lib qoladi.

Empirik tahlil

Madaniyat va san'at sohasidagi marketing tamoyillarini MDH davlatlarida amaliyotga tafbiq etish jarayonini o'r ganishda empirik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo'limda MDH davlatlari-dagi madaniyat muassasalarining faoliyati, ularning marketing strategiyalarini joriy etish darajasi va xalqaro tajribalarni qo'llash boyicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Empirik ma'lumotlarga asoslanib, MDH davlatlarida madaniyat muassasalarining marketing strategiyalari quyidagi yo'nalishlarda rivojlanayotganini kuzatish mumkin. Ko'plab madaniyat muassasalari auditoriya ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratmoqda. Masalan, O'zbekistonda

teatr va muzeylear yoshlarga mo‘ljallangan maxsus dasturlarni joriy etmoqda. Rossiya va Qozog‘iston davlatlarida madaniyat muassasalarini ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lib, tadbirlarni reklama qilish va auditoriya bilan bog‘lanishda ushbu vositalardan keng foydalanmoqda. Ukraina va Belarusda davlat-xususiy sheriklik asosida bir qator madaniyat loyihalari amalga oshirilgan.

Bu loyihalar muassasalar uchun qo‘srimcha moliyaviy manbalarni jalb qilishga yordam bergan. Empirik tahlil natijalariga ko‘ra, MDH davlatlarida madaniyat muassasalarining moliyalashtirilishida quyidagi manbalar ustuvorlik qilmoqda. Ko‘pchilik madaniyat muassasalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Masalan, O‘zbekistonda muzeylear va teatrlarning asosiy qismi davlat mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritadi. Rossiyada ko‘plab san’at festivallari va ko‘rgazmalar xususiy homiylar yordami bilan tashkil etiladi.

UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratilgan grantlar MDH davlatlaridagi madaniyat loyihalarini moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Moliyalashtirishning diversifikatsiya qilinmayganligi ko‘plab muassasalarning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida ularning innovatsion marketing strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari cheklanadi. MDH davlatlarida innovatsion texnologiyalarning madaniyat va san’at marketingida qo‘llanilish darajasi o‘zgaruvchan. Tadqiqotlar natijasida quyidagi holatlar aniqlangan.

Raqamlı platformalar: Rossiya va Qozog‘istonda bir nechta muzeylear va teatrlar virtual ekskursiyalarni yo‘lga qoygan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu jarayon endigina rivojlanmoqda. Rossiyadagi Davlat Ermitaj muzeyi kengaytirilgan reallik texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llagan bo‘lsa, boshqa MDH davlatlarida bunday xizmatlar cheklangan darajada joriy etilgan. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ko‘pchilik madaniyat muassasalari auditoriya bilan faol muloqot qilish vositalarini yetarli darajada qo‘llamayapti. Natijada, ularning xizmatlariga bo‘lgan qiziqish va ishtirokchilar soni past bo‘lib qolmoqda. MDH davlatlarida xalqaro tajribani o‘zlashtirish jarayonida bir qator muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, rivojlangan

davlatlarda qo'llanilayotgan innovatsion marketing uslublari MDH hududida to'liq tatbiq etilmagan. Buning asosiy sabablari. Madaniyat muassasalarida raqamli texnologiyalarning yetishmasligi. Moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi. Mutaxassislar tayyorlash darajasining pastligi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli namunalar ham kuzatilmoqda. Masalan, Qozog'istonning «Astana Opera» teatri xalqaro miqyosda muvaffaqiyat qozonib, zamonaviy marketing uslublarini faol qo'llagan holda auditoriya qamrovini kengaytirmoqda. Empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarida madaniyat va san'at marketingi sohasida sezilarli o'sish imkoniyatlari mavjud. Ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni faol o'zlashtirish lozim. Innovatsion marketing strategiyalarining muvaffaqiyatli qo'llanilishi madaniyat muassasalarining auditoriya bilan bog'lanish imkoniyatlarini oshiradi va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarida madaniyat va san'at marketingining rivoji dolzarb masala bo'lib, ushbu yo'nالishda xalqaro tajribalarni o'zlashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati mavjud. Madaniyat muassasalari faqat davlat qo'llab-quvvatlashiga tayanmasdan, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanishi zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalarini to'g'ri ishlab chiqish va amalga oshirish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin. Madaniyat muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash. Auditoriyani kengaytirish va turli yosh hamda ijtimoiy guruhlarni jalb qilish.

Madaniyat va san'at sohasining xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirish. Empirik tahlil jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xalqaro grantlarni jalb qilish va homiylik imkoniyatlarini kengaytirish orqali muassasalarining moliyaviy asoslarini mustahkamlash. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv xizmatlarni rivojlanti-

rish hamda raqamli platformalarni joriy qilish. Marketing va raqamli texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislarini tayyorlash, ular uchun o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etish. Rivojlangan mammalatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali samaradorlikni oshirish. Ushbu yondashuvlar orqali MDH davlatlarida madaniyat va san’at sohasining raqobatbardoshligini oshirish, madaniy merosni saqlash va innovatsion taraqqiyotni jadallashtirishga erishish mumkin. Natijada, madaniyat muassasalari nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro darajada ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan, iqtisodiy barqaror va innovatsion markazlarga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler, F. (2002). Marketing Management. New Jersey: Prentice Hall.
2. Чернебова, Н. В. (2018). Маркетинг в сфере культуры: современные подходы и инструменты. Москва: Культурология.
3. OECD (2019). Culture and Local Development: Maximising the Impact. Paris: OECD Publishing.
4. UNESCO (2020). Cultural Policies and Sustainable Development: International Practices. Paris: UNESCO.
5. Bekmuratova, S. (2021). Marketing Strategies in Arts and Culture: CIS Experience. Cultural Management Journal, 5(1), 15-27.
6. Андреев, И. А. (2020). Инновационные технологии в маркетинге культурных учреждений. Современные тенденции экономики и права, 4(2), 34-41.
7. Маматов, Ш. А. (2019). Маданият ва санъатда маркетинг: назарий ва амалий асослар. Тошкент: Фан ва технология.
8. Smith, J., & Taylor, J. (2017). Cultural Marketing: Strategies for Sustainable Development. London: Routledge.
9. Ross, D. (2021). Digital Marketing in Cultural Institutions: Best Practices and Case Studies. Journal of Arts Management, 12(3), 45-60.
10. Bozovic, A. (2020). Public-Private Partnership in Cultural Sector: European and CIS Perspectives. Cultural Policy Review, 8(2), 10-25.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Shahrizoda Ne'matilloyeva,

O'zDSMI, "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lif yo'nalishi 1-bosqich magistri.

Ilmiy rahbar: Sayfullo Ikromov

"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Madaniyat va san'at jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. XXI asrda globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va innovatsion yondashuvlar ushbu sohalarda boshqaruv mexanizmlari ni takomillashtirishni talab qilmoqda. Mazkur maqolada madaniyat va san'at sohasini boshqarishda innovatsion yondashuvning nazariy asoslari, uning zaruriyati va misollar bilan amaliy ko'rinishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, yashil iqtrisodiyot, moslashuvchanlik, kreativ iqtisod

Abstract: Culture and art play an important role in the socio-economic, spiritual and cultural development of society. In the 21st century, globalization, information and communication technologies (ICT) and innovative approaches require the improvement of management mechanisms in these areas. This article analyzes the theoretical foundations of the innovative approach to managing the culture and art sector, its necessity and practical manifestations with examples.

Key words: innovation, green economy, adaptability, creative economy

Innovatsion yondashuvning nazariy asoslari

Innovatsiya – bu nafaqat yangi texnologiyalarni joriy qilish, balki mavjud tizimni yaxshilash, samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishdir. Madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalar

boshqaruv mexanizmlari, ijodiy jarayonlar, hamda axborot tarqatish usullarini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu jarayonlar iste’molchilarining ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Chunki iste’molchilar butun boshli davlat hisoblanib, bu jarayon boshqa ishlab chiqarish sohasidagi maxsulotlarga ko‘ra bir muncha nozikroq masalaligi bilan ham ahamiyatlidir. Ishlab chiqarilgan masxulotni qayta ishslash yoyinki, uni takomillashtirish imkiniyati bor, ammo Madaniyat sohasida bu biroz murakkab holatdir. Xalq orasida shunday ajib bir hikmat bor: “Sahnaga tayyor bo‘lib chiq, xatо qilsang u kechirmaydi”. O‘z o‘zidan ma’lumki, bu soha olib borilayotgan har bir islohot chuqur oylashni va masalani har tomonlama to‘kis bo‘lishini talab qiladi.

Hozirgi kunda zamon tez suratlarda rivojlanib borishi bilan mehnat bozoriga yangidan yangi tushunchalar, yangi kasblar kirib kelishi o‘laroq bir bunchasi iste’moldan chiqib ketiyapti. Shunday bir tushunchalar qatoriga “Kreativ iqtisod” tushunchasini ham qo‘sishimiz mumkin. To‘g‘ri, biz avvallari “Yashil iqtisod”, “Barqaror iqtisod” kabi tushunchalarga duch kelganmiz, ammo hozirgi Kreativ iqtisod bu boshqalaridan tamomila farqlanadigan madaniyatga qaratilgan, uning tub mag‘zida inson ijodkorligi yotadigan tushunchadir.

Maqolada “kreativ iqtisodiyot” tushunchasini ko‘rib chiqish mumkin. Bu tushuncha san’at, dizayn, media va boshqa ijodiy sohalarni iqtisodiy jihatdan o‘sish, rivojlanishi va zamon talablariga moslashish imkoniyatlarini yaratib, muvaffaqiyat omiliga aylantirishni anglatadi. Juhon tajribasida Buyuk Britaniya ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirib, yillik yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini kreativ iqtisodiyot orqali ishlab chiqarmoqda.

Madaniyat va san’at boshqaruvida innovatsion yondashuvning ahamiyati

Madaniyat va san’at boshqaruvida innovatsion yondashuv quydagi asosiy masalalarni hal qilishga yordam beradi:

1. *Resurslardan samarali foydalanish.* Masalan, raqamli texnologiyalar orqali muzey va kutubxonalardagi resurslarni keng ommaga taqdim etishning eng oson va qulay usuli hisoblansa, virtual ko‘rgaz-

malar tomoshabinlarni e'tiborini tortish va ularni real hayotdan olib chiqib tarixning ming yillar oldingi bir davrini his qilishiga yordam beradi. Bu jarayon har bir kuzatuvchida o'zgacha taasurot uyg'otib-gina qolmasdan, unga o'zgacha kayfiyat ham baxsh etadi. Hattoki, "Buxoro city" Shahar loyihasi Ichida galagrammalik 3D formatdagi muzeyning tashil qilinayotgani ham bejizga emas, ma'lumotlarga qaraqanda bu muzey O'rta Osiyoda yagona bu turdag'i muzey hisoblanadi. Bu loyihalar orqali biz nafaqat qiziquvchilar sonini oshira olamiz, balki yurtimizga sayyoohlар oqimini kengaytirish uchun ham foydalaniш maqsadida ham mahalliy ham xalqaro sayyoohlarni jalb qilish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga yordam beradi.

2. *Ijodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash*. Innovatsion yondashuv san'atkorlarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida rassomlar o'z asarlarini yaratishda yangi usullardan foy-dalanishi mumkin yoki turli xildagi rang kombinatsiyalarini yaratish orqali o'zgacha usulni kashf qilish ehtimoli ham yo'q emas. Yoyinki, haykaltarosh tomonidan yaratilayotgan ijod mahsuli ham turli texnikalar yordamida yanada sayqallanishi, jozibadorlik kashf etishi , vaqt ni tejashi mumkin.

3. *Moliya va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash*. Bu eng muhim qismlardan biri hisoblanib, sohaga oid turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali biletlar savdosi va xayriya yig'imlarini onlayn platformalar orqali boshqarish soha daromadlarini sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi. Misol uchun, Netflix va Spotify kabi platformalar ijodkorlarga global auditoriyaga chiqish imkonini berdi. Bu platformalar orqali ijodkorlar o'z ijod na'munalarini keng jamoatchilikka yetkazishlari osonroq va qulayroq bo'ladi.

Misol tariqasida O'zbekistondagi so'ngi 10 yilliklarda shu soha boyicha qator tajribalar ko'zga tashlanadi, ulardan bir nechtasini kel-tirib o'tdik.

O'zbekistonda so'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasida raqamli platformalar va innovatsion loyihalar amalga oshirila bosh-

landi. Masalan, “Zamin” fondi tomonidan tashkil etilgan “Madaniyat va san’atni rivojlantirish” loyihasi yangi boshqaruv yondashuvlari ni joriy qilishga qaratilgan bo‘lib, Bundan tashqari, Toshkentda har yili o‘tkaziladigan xalqaro madaniyat festivallari turizm va iqtisodiy o‘sishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion boshqaruvning asosiy tamoyillari:

1. Moslashuvchanlik. Boshqaruv tizimi tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Ya’ni vaziyatlardan kelib chiqqan holda turli qarorlar qabul qilish. Kun voqeligi bilan qaraydigan bo‘lsak, hozir dunyo aholisining deyarli 60 foizidan ko‘pchiligidagi uyali aloqa vositalari mayjud bo‘lib, inlarning ko‘pchiligi vaqtining katta qismini turli ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishadi. Bu esa bizdan madaniyat sohasida ham turli ijtimoiy kontentlar qilishni talab qiladi. O‘z o‘zidan ko‘rinadiki, hozirda madaniyat markazi qanchalik zo‘r tashkil qilingan bo‘lmashin, uni ijtimoiy media orqali tanitmas ekan-siz, hatto o‘sha yerdan istiqomat qilayotgan aholinin ham katta qismi bundan bexabarligicha qolaveradi. Moslashuvchanlik tushunchasi nafqat vaqtga moslashish, balki zamon bilan hamnafaslikda milliylikni uyg‘unlashtira olishni nazarda tutadi.

2. Hamkorlik. Davlat va xususiy sektorning birgalikda ishlashi madaniyat va san’atni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Hamkorlik barcha zamонlarda eng muhim qadam hisoblanadi, chunki usiz rivojlanish sekin boradi. Bugungi kunda Madaniyat markazlari davlat qaramog‘idaligi qo‘pol qilib aytganda, davlat bersa ishlayman qabilida yoki shusiz ham davlat maoshimni berib turibdiku deb marsakzlarda rivojlanish va o‘sish nuqtalari deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan qaraydigan bo‘lsak, Buyuk Biritaniya, AQSh kabi dunyoning yirik davlatlarida madaniyat markazlari davlat sektoridan chiqarilib, xuxusiy sektorlarga yo bo‘lmasa, davlat birlan sherikchilik asosida shkllantirilgan aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. Bu esa o‘z navbatida kutilga natijani berib, hozirda ularning faqat 30 foizi davlat qaramog‘ida qolgani esa, davlat iqtisodiyotining ma’lum ulushlarini o‘z qo‘liga olganligi ko‘zga tash-

lanadi. Jahonda sinovdan o‘tgan bu tajribani o‘zimizda qo‘llash orqali ochiqchasiga aytganda “uyqudagi madaniyat markazlarini” uyg‘oni-shiga sabab bo‘lamiz.

3. Barqarorlik. Innovatsiyalar uzoq muddatli rivojlanishni ta’-minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, madaniyat sohasidagi innovatsiyalar o‘zini 1-2 yilda oqlab qoyolmaydi. Bu uchun ularga ancha vaqt kerak bo‘ladi. Bir madaniyat markazida yangi bir turdag'i to‘garak olib, unda o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, ta’lim berish va u o‘z samarasini berishi uchun kamida 5-7 yil vaqt talab etiladi. Shu sababli bu sohada qaydatdir innovatsion yondashuv keljakni pragnozlagan holda, makon-zamonda chegara bilmaydigan, vaqt o‘tishi bilan muhimlilik darajasini saqlab qoladigan yondashuv qilishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan madaniyat sohasida uni rivojlantirish maqsadida uzoq muddatli innovatsiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa

Madaniyat va san’at sohasida innovatsion yondashuvni amalga oshirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy boshqaruv usullari orqali sohani rivojlantirish global raqobatbardoshlikni oshiradi va madaniy merosni keng ommaga yetkazadi. Shunday ekan, madaniyat va san’atni boshqarishda innovatsion yondashuvlarni tizimli ravishda joriy qilish dolzarb masaladir.

Maqola davomida ko‘rib chiqilgan misollar va tamoyillar madaniyat va san’at sohasini boshqarishda innovatsion yondashuvning naqadar muhimligini tasdiqlaydi. Bu esa nafaqat ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, balki jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini ham yaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Arslanbayeva M.M., Nishonova J. “Yangi O‘zbekistonning madaniyat va san’at sohasidagi davlat boshqaruvining zamonaviy konseptsiyalari”. Молодые ученые, 2(2), 2024, 107-109. IN ACADEMY

2. Qurbonov D.N. “Madaniyat va san’at sohasi boshqaruvi rahbarlarning vazifalari”. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiysi, 2(04), 2023, 19-25. ZENODO
3. Toychiyeva S. “Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish”. Toshkent, 2019. ZIYONET KUTUBXONA
4. Bozorbaeva S.G. “Madaniyat va san’at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni: muammolari va yechimlari” 2023, 45-47.
5. Musaxonov R.M. “Menejmentda innovatsion yondashuv”. Tadqiqotlar.uz, 25(2), 2023, 150-153. TADQIQOTLAR
6. O’rinov S.K., Abduraxmonova X. “Madaniyat va san’at sohasidagi boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari”. Pedagog, 6(1), 2023. BESTPUBLICATION.ORG
7. Shamuratova D. “Madaniyat va san’at sohasi boshqaruvida islohotlar samaradorligini oshirishning pragmatik ahamiyati”. O‘z-MU xabarları, 1(1.1.1), 2024, 228-231.
8. Pulatova N.S., Xoliquulova Sh. “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonnda madaniyat va san’atning rivojlanish bosqichlari tarixi”. Theory and Analytical Aspects of Recent Research, 1(12), 2023.
9. Yusupaliyeva D.Q. “Madaniyat va san’at sohasi menejerlarini tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari”. Oriental Art and Culture, 5(6), 2024.

O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SANAT MENEJMENTI TALIMI; TIZIMI, MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Zarif Saidov,

O‘zDSMI, “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistri.

*Ilmiy rahbar: Ikromov Sayfullo Turg‘unovich
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”
kafedrasи mudiri dotsenti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti ta’limining mavjud holati, muammolari va ularni bartaraф etish yo‘llari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida amaliy yondashuvning sustligi, zamonaviy bozor talablariga mos bo‘lmagan dasturlar asosiy muammolar sifatida ko‘rsatilgan. Yechim sifatida xalqaro tajribani tatbiq etish va amaliyotga yo‘naltirilgan fanlarni joriy etish taklif etiladi. O‘zbekistonning madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim tizimining rivojlanishiga xalaqt berayotgan omillar va ularning bartaraф etilishi uchun zarur strategiyalar taklif etiladi. Shu bilan birga, maqolada xalqaro tajriba asosida samarali menejment yondashuvlari hamda ularni milliy tizimga joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Madaniyat menejmenti, ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash, amaliy tajriba, san’at muassasalar, xalqaro tajriba, ta’lim innovatsiyalar, pedagogik yondashuv, kadrlar malakasini, madaniyat va san’atni rivojlanтирish.

Аннотация: В статье анализируется текущее состояние, проблемы и пути совершенствования системы образования в сфере управления культурой и искусством в Узбекистане. Основными проблемами названы слабая практическая направленность обучения и несоответствие программ требованиям современного рынка. Предложены решения: внедрение международного опыта и практикоориентированных дисциплин. Рас-

сматриваются факторы, препятствующие развитию системы образования в области культуры и искусства в Узбекистане, и разрабатываются стратегии их преодоления. Также в статье обсуждаются эффективные управленческие подходы на основе международного опыта и возможности их внедрения в национальную систему.

Ключевые слова: Культурное управление, система образования, подготовка кадров, практический опыт, культурные учреждения, международный опыт, образовательные инновации, педагогический подход, квалификация кадров, развитие культуры и искусства.

Annotation: This article analyzes the current state, challenges, and solutions in the field of cultural and art management education in Uzbekistan. The main problems include a lack of practical orientation and outdated curricula that do not meet modern market demands. The article suggests implementing international experience and practice-based disciplines as solutions. It examines the factors hindering the development of the education system in the field of culture and arts in Uzbekistan and proposes strategies to overcome them. Additionally, the article discusses effective management approaches based on international experience and the potential for their implementation in the national system.

Key words: Cultural management, education system, personnel training, practical experience, cultural institution, international experience, educational innovation, pedagogical approach, personnel qualification, development of culture and art.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda madaniyat va san'at jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Har bir mamlakat o'z milliy madaniyatini asrash va uni xalqaro maydonga olib chiqish orqali o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mavqeyini mustahkamlashga intiladi. Bu borada madaniyat va san'at sohasini samarali boshqarish, ya'ni menejment tamoyillarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham mustaqillik yillaridan buyon madaniyat va san’atni rivojlantirish, bu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilib kelimoqda. Xususan, madaniyat menejmenti yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim tizimini shakllantirish orqali sohaga yangi, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar yetishtirish maqsad qilingan. Biroq, ushbu yo‘nalish bo‘yicha bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti ta’limining mavjud holati, asosiy muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti ta’limi so‘nggi yillarda izchil rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblandi. Ushbu ta’lim sohasi madaniyat muassasalarini, san’at tashkilotlari, ijodiy birlashmalarni samarali boshqaradigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi.

1. Madaniyat va san’at menejmenti ta’lim tizimi

Bugungi kunda Toshkent davlat madaniyat va san’at instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda ularning hududiy filiallarida madaniyat menejmenti yo‘nalishida bakalavriat va magistratura dasturlari joriy etilgan. Ushbu dasturlarda boshqaruv nazariyasi, madaniyat siyosati, san’at marketingi, loyihalar menejmenti kabi fanlar o‘qitiladi. Biroq, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarining ko‘philigi nazariyaga asoslangan bo‘lib, amaliy tajriba yetarli darajada berilmayapti¹.

2. Asosiy muammolar

Madaniyat va san’at menejmenti ta’limida bir qator muammolar mavjud:

Amaliy tajriba yetishmasligi. Talabalar madaniyat muassasalarida yetarlicha amaliyot o‘tay olmaydi, bu esa nazariy bilimlarni mustahkamlashga xalaqit beradi². Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida amaliyot darslari faqat rasmiy tarzda o‘tkazilib, real tajriba orttirish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyor holatda chiqmasligiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, amaliyot jarayo-

nining samaradorligi amaliyot o‘tash joyi — madaniyat muassasalari bilan uzviy hamkorlik darajasiga bog‘liq. Afsuski, hozirda ko‘plab tashkilotlar talabalarning amaliyotga jalb etilishiga e’tibor bermayapti yoki faqat rasmiy hujjat uchun qabul qilmoqda. Bu esa talabalar tomonidan loyihalash, tashkilotchilik, marketing, auditoriya bilan ishslash kabi muhim ko‘nikmalarning shakllanmasligiga olib keladi.

Muammoning yana bir jihatni — amaliyot jarayonida murabbiylik tizimining yo‘qligi yoki zaifligidir. Talabalar ko‘pincha mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishga majbur bo‘lib, bu holat ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari va madaniyat tashkilotlari o‘rtasida amaliy hamkorlik memorandumlari tuzish, har bir talabaga individual mentor biriktirish kabi tizimli yondashuvlar zarur.

Kadrlar yetishmovchiligi. Bu soha bo‘yicha malakali o‘qituvchilar soni cheklangan, aksariyat hollarda boshqa yo‘nalishdagi mutaxassislar jalb qilinadi³. Natijada ta’lim jarayonida madaniyat va san’at menejmentining o‘ziga xos jihatlari chuqur ochib berilmaydi. Boshqaruv, iqtisod, huquq yoki umumiy pedagogika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar bu soha bo‘yicha yetarli amaliy tajribaga ega bo‘lmagan sababli, talabalar menejment konsepsiyalarini real sektor bilan bog‘lay olmaydi.

Bundan tashqari, bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot faoliyati ham sust rivojlangan. Madaniyat menejmenti bo‘yicha ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar soni kam bo‘lib, mavjud kadrlar asosiy yuklamani bajarishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa ularning innovatsion metodlarni tatbiq etish, yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatini cheklaydi. Yana bir muammo — yosh kadrlarning ta’lim tizimiga jalb etilishining murakkabligi. Ko‘plab iqtidorli bitiruvchilar boshqa sohalarga yo‘naltiriladi yoki xorijga ketadi, bu esa ta’lim tizimida yangilanish va tajriba almashinuvni jarayonini sekinlashtiradi.

Shu bois, davlat darajasida madaniyat va san’at menejmenti yo‘nalishidagi professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Xalqaro tajribanining cheklanganligi. Oliy ta’lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkor-

likni yo‘lga qo‘yishda sustlik qilmoqda, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda⁴.

3. Yechimlar

O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Avvalo, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash, zamonaviy menejment va marketing bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish lozim. Bu orqali talabalar real ish muhiti bilan tanishadi, kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Madaniyat muassasalari bilan doimiy va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Talabalar amaliyotini tashkil etishda har bir oliy ta’lim muassasasi madaniyat tashkilotlari bilan memorandum asosida ishlashi, amaliyot jarayonida har bir talaba uchun alohida murabbiy biriktirilishi lozim. Bu esa nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Amaliyotga asoslangan o‘quv kurslarini ishlab chiqish va joriy etish;
- Madaniyat muassasalari bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Xalqaro grantlar asosida xorijiy tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish;
- O‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha maxsus dasturlarni tashkil etish.

Bu chora-tadbirlar nafaqat ta’lim sifati, balki kelgusida O‘zbekiston madaniyat sohasining raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti sohasida zamonaviy talablar va real ehtiyojlar o‘rtasida sezi-larli tafovut mavjud. Ta’lim tizimida kuzatilayotgan muammolar — amaliy tajribaning yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, o‘quv dasturlarining zamonaviylikdan ortda qolishi va xalqaro tajribaning cheklanganligi — ushbu yo‘nalishda sifatli ta’limni tashkil etishda jiddiy to‘siquidir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliv ta’lim muassasalari hamda madaniyat muassasalari o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yosh va iqtidorli kadrlarni tayyorlash, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini yaratish orqali O‘zbekistonda madaniyat va san’at menejmenti sohasi barqaror rivojlanish sari yo‘naltiriladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hisobotlari, 2023.
2. Turg‘unova G. “Madaniyat menejmenti asoslari”, Toshkent, 2022.
3. “O‘zbekiston oliy ta’limida mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar taqchilligi”, Ma’rifat gazetasi, 2024-yil, 17-fevral.
4. UNESCO Regional Report: “Cultural Management in Central Asia”, 2021.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Qodirova N, Axmedov S. San’at sohasi uchun kadrlar tayyorlashning dolzARB masalalari. // “Pedagogik ta’lim” ilmiy jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–51.
7. Xodjayev A. Madaniyat menejmenti asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
8. Tursunov B. Ta’lim menejmenti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
9. British Council. Creative Economy Report: Cultural policy and management in Central Asia. – London: BC, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirishga oid yurt ichidagi va xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqarilgan materiallar (UNESCO, ISESCO, British Council, 2022).
11. Cultural Management in Central Asia: Opportunities and Challenges, <https://www.unesco.org/en/cultural-diversity>, 2021.

MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH TARIXI, UNDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Zilayxa Taumuratova,
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali magistr*

Annotatsiya: Mazkur maqola Madaniyat markazlarining faoliyatini rivojlantirish tarixini, dolzarb muammolarini va ularni hal qilish yo'llarini tahlil qiladi. Madaniyat markazlari jamiyatda madaniy va ma'rify hayotni yaxshilashda muhim rol oynaydi, ammo ularning faoliyatida bir qator muammolar ham mayjud. Ushbu maqolada, markazlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy davrdagi duch kelayotgan muammolar (moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, mehnat resurslari va boshqalar) va ularning samarali yechimlari ko'rib chiqiladi. Madaniyat markazlarining samarali ishlashi jamiyatdagi madaniy merosni saqlash va rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Madaniyat markazlari faoliyat rivoji madaniy meros, jamiyat, dolzarb muammolar, resurslar, yechimlar, yoshlar tarbiyasi.

Kirish: Madaniyat markazlari jamiyatda san'at va madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash hamda madaniy xabardorlikni oshirishda muhim rol oynaydi. Ular ko'plab tarixiy o'zgarishlar va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida faoliyatidagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish uchun taklif etilgan yechimlar tahlil qilinadi.

Madaniyat markazlari faoliyatining rivojlanish tarixi

Madaniyat markazlarining rivojlanishi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahoning turli burchaklarida boshlanadi. Sovet Ittifoqi davrida, O'zbekiston kabi ko'plab davlatlarda madaniyat markazlari davlat siyosati bilan tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi madaniy hayotni boshqarish, san'at va adabiyotni rivojlantirish edi. Mustaqillikdan so'ng, O'zbekistonda madaniyat markazla-

rining faoliyati yangicha shakllarda davom etdi. Hozirgi kunda, ular nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda ham muhim rol oynaydi.

Madaniyat markazlarining dolzarb muammolari

1. Moliyaviy resurslar yetishmasligi

Madaniyat markazlari ko‘pincha moliyaviy muammolarga duch keladi. Bunday moliyaviy muammolar kopgina faoliyatlarga yuzaga keladi. Bu esa markazlarning faoliyatini rivojlantirishga tasir korsatadi.

2. Auditoriya jalb qilishdagi qiyinchiliklar

Madaniyat markazlari ko‘pincha an’anaviy san’at va madaniyat tadbirlarini tashkil etishda auditoriyani jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarni jalb qilishda zamonaviy yondashuvlar va interaktiv dasturlar yaratish zarurati mavjud.

3. Infratuzilma va texnik resurslarning yetishmasligi

Madaniyat markazlari eski binolar va texnologiyalarni qo‘llash bilan cheklangan. Bu, o‘z navbatida, markazlarning faoliyatini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yechimlar

1. Moliyaviy resurslarni kengaytirish va xususiy sektor bilan hamkorlik

Madaniyat markazlari xususiy sektor bilan hamkorlik qilish va homiylik dasturlarini rivojlantirish orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilishi mumkin. Bu, markazlarning faoliyatini kengaytirish va dasturlarini diversifikasiya qilish imkoniyatini yaratadi.

2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish

Raqamli transformatsiya madaniyat markazlarining faoliyatini yanada jozibador qilishga yordam beradi. Onlayn ko‘rgazmalar, virtual san’at dasturlari va interaktiv platformalar orqali madaniyat markazlari keng auditoriyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Infratuzilmani modernizatsiya qilish

Madaniyat markazlari eski binolarni modernizatsiya qilish va texnik resurslarni joriy etish orqali samarali faoliyat ko‘rsatishlari mum-

kin. Bu markazlarning zamonaviy ehtiyojlarga javob berish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa

Madaniyat markazlari jamiyatda madaniy rivojlanish va ijtimoiy integratsiyada muhim rol oynaydi. Biroq, ular bir qator moliyaviy, texnik va auditoriya jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari va texnologiyalarni qo'llash zarur. Madaniyat markazlarining faoliyatini rivojlantirish va yanada samarali qilish uchun xususiy sektor bilan hamkorlik qilish, raqamli transformatsiyani joriy etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mammadov, A. (2020). Madaniyat markazlarining zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari. *Madaniyat va Jamiyat*, 35(2), 45-58.
2. Karimova, N. (2021). Madaniyat markazlari va ijtimoiy rivojlanish. *Ta'lim va Madaniyat*, 42(1), 63-72.
3. Baxtiyorova, F. (2019). Madaniyat markazlarida innovatsion yondashuvlar va raqamli transformatsiy. *O'zbekiston Madaniyati*, 28(3), 77-82.

ZAMONAVIY TEATR VA KINO AKTYORLARINI TAYYORLASHDA AN'ANAVIYLIK VA INNOVATSİYA

Shaxsanem Sultamuratova,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali Madaniyat va san'at sohasi menejmenti
I-kurs magistri*

Ilmiy rahbar: A.Ayapov f.i.k.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali direktori*

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy teatr va kino aktyorlarini tayyorlashda an'anaviylik va innovatsiyaning o'zaro ta'sirini o'rGANADI. Aktyorlik san'ati tarixan Stanislavski tizimi kabi an'anaviy metodlarga asoslangan. Bu usullar aktyorning ichki dunyosini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Yangi asrda Virtual reallik (VR) va interaktiv o'qitish kabi zamonaviy texnologiyalar aktyorlik ta'limdi ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Maqolada ushbu ikki yonda shuvning uyg'unligi, ularning aktyorlik mahoratini rivojlantirishdagi ahamiyati va teatr hamda kino san'atining kelajakdagi rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: an'anaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar, Stanislavski tizimi, virtual reallik (VR), aktyorlik ta'limi, teatr san'ati, kino san'ati.

Insonning ma'naviy olami va fikrlash doyrasini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni ahamiyatlidir va beqiyosdir.

Teatr bu – shunchaki oddiy tomosha maskani bo'lmastan, balki tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, ibratxona maskani de-sak mubolag'a bo'lmaydi. Chunihgdek, teatr har qanday davrdalarida hayotiy, real, umr savdolari boyicha saboq beruvchi jonli vosita hisoblanib kelgan. Xalqning madaniyatini, ma'naviyatini yuksaltirishda teatrning roli alohida ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Zamonaviy teatr va kino san'ati doimiy rivojlanib, aktyorlik mahoratiga yangi talablar qoymoqda. Tarixan an'anaviy metodlar, xususan, Stanislavski tizimi asosida shakllangan aktyorlik ta'limi aktyorning psixologik tayyorgarligiga e'tibor qaratadi. Biroq, bugungi kunda virtual reallik (VR), raqamli effektlar va masofaviy o'qitish kabi innovatsion yondashuvlar bu jarayonni yangi darajaga ko'tarmoqda. Ushbu maqola an'anaviy va innovatsion metodlar o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilib, ularning aktyorlik san'atidagi o'zaro ta'siri va kelajak istiqbollarini ko'rib chiqadi.

An'anaviy aktyorlik metodlari teatr san'ati tarixidan kelib chiqqan va samaradorligini isbotlagan. Konstantin Stanislavskining tizimi aktyordan o'z his-tuyg'ularini tahlil qilishni va shaxsiy tajribasini rolga qo'shishni talab qiladi [1].

Bu usul dramatik ifodalarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega va ko'p teatr maktablarida qo'llaniladi. Shuningdek, Vsevolod Meyerholdning biomexanika yondashuvi jismoniy harakatlarni rivojlantirishga qaratilib, sahna ifodasini kuchaytiradi [2].

Aktyorlarga simulyatsiya orqali rollarni sinash imkonini beradi, ijodiy jarayonlarni kengaytiradi. Kino sohasida raqamli texnologiyalar yuz ifodalari va harakatlarni tahlil qilishda qo'llanilib, mahoratni oshiradi.

An'anaviy aktyorlik metodlari asrlar davomida shakllanib, san'at maktablarida asosiy ta'lim yondashuvi sifatida foydalanib kelingan. Ularning eng mashhurlaridan biri Konstantin Stanislavski tizimi boilib, bu usul aktyorlik jarayonida realistik va hayotiy ifodani yaratishga asoslanadi. Stanislavski tizimi aktyordan rolning ichki mohiyatini his qilishni va harakatlarni tabiiy ravishda bajara olishni talab qiladi. Bu yondashuv aktyorning psixologik tayyorgarligini oshirishga va ichki his-tuyg'ularini sahnaga olib chiqishga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar aktyorlik san'atida yangi yo'nalishlarni ochib berdi. Virtual reallik (VR) texnologiyalari aktyorlarga haqiqiy sahna yoki kino muhitini yaratish imkonini beradi. Masalan, aktyorlar VR yordamida real voqealar va sahnalarni sinab ko'rishlari, bu orqali o'zlarining obrazlarini shakllantirishlari mumkin. Shuning-

dek, sun’iy intellekt va interaktiv ta’lim platformalari ham aktyorlik ta’limida muhim rol oynamoqda. Masalan, sun’iy intellekt yordamida yuz ifodalari va ovoz ohanglari avtomatik ravishda tahlil qilinib, aktyorlarning ifodaviy mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ishlab chiqilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar, xususan, motion capture (harakatni yozib olish) tizimi kino va video oyin sanoatida keng qo‘llanilib, aktyorlarning harakatlarini yuqori aniqlik bilan yozib olish imkonini beradi. Bu texnologiya ayniqsa fantastik va animatsion filmlar uchun katta ahamiyatga ega.

An’anaviy metodlar va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unlashuvi aktyorlik san’atining yanada rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Masalan, Stanislavski tizimi asosida tayyorgarlik ko‘rgan aktyorlar VR yoki raqamli platformalar yordamida o‘z mahoratlarini takomillashtirishlari mumkin.

Zamonaviy teatr va kino aktyorlarini tayyorlashda an’anaviylik va innovatsiya bir-birini to‘ldiradi. Stanislavski tizimi kabi an’anaviy usullar psixologik tayyorgarlikni ta’minlasa, VR va raqamli platformalar ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish aktyorlik mahoratini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Stanislavski, K. (2015). *Aktyor va uning ishining tamoyillari. Moskva: San’at nashriyoti.
2. Meyerhold, V. (2008). Biomexanika va teatr*. Sankt-Peterburg: Teatr san’ati nashriyoti.

MUZEYLERDE JASALMA INTELLEKT: TARIYXIY EKSPONATLARDI JANLANDIRIW IMKANIYATLARI

Shingiz Abdibaev,
*ÓzMKÓMI-NF 1-kurs Mádeniyat hám
kórkem óner tarawi menedjmenti
Magistranti qánigeligi studenti*

Ilimiý basshi: *Social-gumanitar pánler kafedrası
f.i.k. docent A.Prekeeva*

Annotatsiya: *Bul maqalada mádeniyat menejmenti tarawinda innovaciyalıq texnologiyalar, atap aytqanda, jasalma intellekt hám sanlı texnologiyalardıń róli analiz qilindi. Maqala jasalma intellekt texnologiyalarınıń mádeniyat basqarıwına integraciyalaniwi nátiyje-sinde júzege keletuǵın etika, kreativlik hám dástúriy mádeniyat pe-nen baylanıslı mäselerlerdi de sáwlelendirip, keleshektegi rawajlanıw baǵdarların kórsetip beredi*

Gilt sózler: *sanlı texnologiya, muzey, eksponat, filosofiya, ontologiyaliq, barlıq, Savitskiy.*

Songı jillarda mádeniyat jónelisi texnologiyaliq ózgerisler tásirinde túpten jańalanbaqta. Ásirese, jasalma intellekt, sanlı platformalar siyaqlı texnologiyalar kórkem óner shıgarmaların jaratıw, tarqatıw hám basqarıw mexanizmlerin ózgertpekte.

“Mádeniyat hám kórkem óner iskerligindegi eń iri jónelislerdiń biri – bul muzeyler iskerligi bolıp esaplanadı”. Muzey – bul tek ǵana eksponatlar jiynaǵı emes, balkim xalq esteliklerin saqlawshısı, táriyx hám zaman ortasındaǵı tıňıshlıqtaǵı dialog bolıp esaplanadı. Ol zamańagóy insan menen ótmish ortasındaǵı kópir bolıp xızmet qıladı. Muzeylerde saqlanıp atırǵan máteriallıq mádeniy miyraslarımız bular xalqtıń miyrasın saqlap qalıw hám olardı hárbir eksponat arqalı insaniyatdı óz-ózin ańlawǵa iytermeleydi. Jasalma intellekt hám sanlı texnologiyalar rawajlanıp atırǵan búgingi dáwirde, muzeylerdiń wa-

ziypası jánede keńeymekte: olar tek óana esteliklerdi saqlap qoymay, balkim túsindiredi, qayta analiz qıladı.

“Muzeylerdiń dáslepki watamı Greciya esaplanadı. Muzalar – bul muhabbat, gózzallıq hám poeziya qudayları bolıp, olardiń húrmetine Greciyada Gelikon tawı átirapında hár bes jılda bir márte bayramlar ótkerilip, onda shayırlar, xudojnikler, müsinshilerdin óz ara jarısları bolıp turǵan. Bul jarıslarda toplanǵan dáslepki kollekciyalardı toplaw hám saqlaw maqsetinde muzeyler shólkemlestirilip baslangan.” Búgingi künde muzeylek tek óana kórkem óner hám ilim miyrasın saqlap qalıw menen sheklenip qalmastan, al olardı sanlı ortalıqqa kóshiriw, keń auditoriyaǵa jetkeriw hám interaktiv tájiriybeler jaratıw arqalı zamagóy jámiyettiń mádeniy talaplarına juwap bermekte. Jasalma intellekt hám sanlı texnologiyalar muzey eksponatların virtual ortalıqtı sáwlelendiriw, keńeytilgen reallıq arqalı áyemgi dáwirlerdi janlandırıw, sonday-aq, keliwshilerge individuallastırılǵan tájiriybeler usınıw imkaniyatın bermekte. Eger áyemgi Greciya dáwirinde muzeylek xudojnikler arasındaǵı jarıslardıń nátiyjesi sıpatında qálipesken bolsa, búgingi künde olar mádeniy tájiriybe almasıw hám bilim tarqatıwdıń alındıǵı oraylarına aylanǵan.

“Jıldan-jılǵa muzeylerge múnasibet hám adamlardıń olarǵa qoya-tuǵın talapları pútkıl dúnyada ózgermekte. Xalqaralıq sayaxatlardıń artıwı hám basqa mámleketerdegi muzeylek menen tanısıw tájriybesi, radioesittiriw arqalı muzeylek hám olardiń kollekciyaları menen kóbirek tanısıw, internet arqalı muzeylek hám olardiń xizmetlerinen shaxsiy paydalaniw imkaniyatı – bulardıń barlıǵı áhmiyetli ózgeris faktorları bolıp esaplanadı.”

Muzeylek iskerligin zamanagóy innovatsiyalar menen bayıtıw – bul mádeniyat menejmentiniń ontologiyalıq túp áhmiyetin ańlawǵa xizmet etedi. Sebebi hárbiń sanlı rekonstruksiya, hárbiń virtual ekskursiya, hárbiń jasalma intellekt tiykarındaǵı analiz – bul mádeniy miyrasqa bolǵan itibarımız, oǵan qarata sanlı jantasiwımızdıń kórinisi bolıp esaplanadı. Zamanagóy mádeniyat menejmentinde virtual haqıqat texnologiyasınıń jariyalanıwı muzeylek iskerligin túpten ózgeritiwi mümkin. Texnologiyalar arqalı insanlar muzeyege bariwı shart emes – muzeylek insanniń sanasına, yadına hám oyına keledi. Bular

bolsa, muzeylerdi virtual makanda bar bolǵan mádeniy tájriybe sıpatında jańadan analiz etiwge imkan beredi.

Filosofiyalıq kóz qarastan, bul hádiyse muzeylerdiń ontologiyalıq formasın ózgertedi. Sebebi aldınları muzeyler – bul real eksponatlar bar bolǵan orın bolsa, endi ol sanlı obrazlar arqalı da, barlıq sıpatında bar bolıwı mümkin. Mısalı: Qaraqalpaqstandaǵı Savitskiy muzeyi VR texnologiyası arqalı dýnyaniń qálegen jerinen, qálegen adamǵa “barlıq” sıpatında kórinis beredi.

Virtual haqıqat – bul mádeniyat menedjmentiniń jańa basqıshı. Ol arqalı tek ǵana bar bolǵan eksponatlardı kóriw emes, balkim joǵalǵan, buzılǵan yaki bar bolmaǵan esteliklerdi de qayta jaratiw mümkin. Sol arqalı muzeyler eskilikti tiklewshi hám qayta quriwshı innovaciyon orın sıpatında qáliplesedi.

“Adamlardıń bos waqtın ónimli shólkemlestiriwde muzeylerdiń roliniń artıwı, óz náwbetinde, ekspoziciyalıq hám mádeniy-ilimiý iskerlikke tásir etedi.” Bos waqıttı mazmunlı shólkemlestiriwde muzeylerdiń áhmiyeti artqan sayın, olar óz ekspoziciyaların jańalaw, zamanagóy texnologiyalardı engiziw hám auditoriya menen nátiyjeli baylanıs ornatıwǵa umtilmaqta. Juwmaqlastırıp aytqanda, jasalma intellekt járdeminde jekelestirilgen ekskursiyalar, keńeytilgen reallıq texnologiyaları arqalı tariyxıw waqıyalardı janlandırıw hám sanlı arxivlerdi jaratiw muzeylerdiń ilimiý-aǵartıwshılıq tásirin jáne de kúsheytedi. Usı tárizde, muzeyler bos waqıttı tek ǵana qızıqlı emes, al paydalı ótkeriw imkaniyatın támiyinlep, mádeniyat hám ilimniń rawajlaniwına tikkeley tásir etpekte.

Paydalangan ádebiyatlar

1. A.Haydarov “Madaniyat va san’at sohasını boshqarish asoslari” Toshkent-2016 B-45
2. A.A. Mavrulov, Z.A. Saidboboyev “Muzeyshunoslik” Toshkent TURON-IQBOL 2018. B-11
3. T.Ambrose, C.Paine “Museum basics” New York -2006, B-13
4. A.A. Mavrulov, Z.A. Saidboboyev “Muzeyshunoslik” Toshkent TURON-IQBOL 2018. B-71

MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJLANISHIDA MENEJMENTNING O'RNI

Bibiayim Seydullaeva,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Nukus filiali Madaniyatshunoslik mutaxassisligi

I-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada menejmentning madaniyat va san'at sohasidagi o'rni va ahamiyati haqida tahliliy sharhlar mavjud. Xususan, madaniyat va san'at muassasalari faoliyati, bu jarayonlар-dagi yetakchilarning faoliyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi.

Kalit so'zlar: menejment, madaniyat, taraqqiyot, san'at, nazarriya, jarayon, boshqaruvchi.

Annotation: this article contains analytical comments about the role and importance of management in the field of culture and art. In particular, scientific research was conducted on the activities of culture and art institutions and the activities of leaders in these processes.

Keywords: management, culture, development, art, theory, process, manager.

Аннотация: в статье содержатся аналитические комментарии о роли и значении менеджмента в сфере культуры и искусства. В частности, проведены научные исследования деятельности учреждений культуры и искусства и деятельности руководителей в этих професиях.

Ключевые слова: менеджмент, культура, развитие, искусство, теория, профессия, менеджер.

Ijodiy ishlab chiqarishni, tijorat yoki ijtimoiy-madaniy faoliyatni boshqarish, mehnat samaradorligini oshirish, foydani ko'paytirish yoki ijtimoiy taraqqiyot yo'lida ma'naviy islohotlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmui zamонавији atamalarda menejment deb ataladi. Madaniyat va san'at muassasalari ham ijodiy

ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi faoliyatdir. Madaniyat va san'at boshqaruvi – intellektual, ijodiy, badiiy va ijtimoiy-madaniy faoliyatning boshqa turlari omillaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan maqsadli intellektual va iqtisodiy muassasa bo'lib, bu yerda madaniy xizmat ko'rsatish va madaniyat tashkilotlari binolari va inshootlari, maydonlar, bog'lar va turli dam olish maskanlarini boshqarish mavjud. Madaniyat va san'atni boshqarish ko'p jihatdan xizmatlarni boshqarishga o'xshaydi. Ushbu tarmoq boshqaruvining o'ziga xos jihat shundaki, u asosan madaniyat va san'at sohasidagi davlat tashkilotlarida, shuningdek, toyxonalar, kafe-barlar, xususiy madaniyat muassasalari, diskotekalarda madaniy xizmat ko'rsatishni tashkil etadi [1].

Yangi O'zbekistonda yangi iqtisodiy aloqalar, xalqaro hamkorlik yo'lga qoyildi, madaniyat tashkilotlari va madaniy xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklik islohotlari amalga oshirildi. Masa-lan, xususiy sheriklik tizimida tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi, madaniy muhitda iqtisodiy integratsiyaning yangi jarayoni vujudga keldi. Madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruv mada-niy muhit yaratishda ham ma'naviy, ham iqtisodiy kuchga aylandi. Madaniy muhitda biznes yuritish imkoniyatlari kengaydi. Intellektual salohiyatning qadri oshdi. Chunki madaniy muhitimiz ma'naviy emas, moddiy yangi tizimga muhtoj edi. Prezident Sh. Mirziyoyev bu jarayonlarning mohiyatini quyidagicha ta'kidladi.

"Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab yetishimiz kerak: tad-birkorlikni qo'llab-quvvatlash fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishdan asosiylar maqsaddir. Binobarin, endilikda biz o'z aql-zakovatimiz, intellektual salohiyatimiz, bilim va tajribamizni oshirishimiz, bu omillar ni iqtisodiy o'sish nuqtalari va resurslar manbalariga aylantirishimiz kerak" [2]. Bu islohotlar, o'z navbatida, madaniy muhitda boshqaruvning yangi nazariy asoslariga tayanish zaruratini anglatardi. Yangi O'zbekistonda madaniy muhitning bunyodkorlik jihatlari yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Endilikda madaniyatni boshqarishning ta-biat va xususiyatlari ilmiy manbalarda ancha kengroq o'rinn egalla-

di, amaliy ko'nikmalar takomillashtirildi. XXI asr boshlariga kelib jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining oldingi davrlariga xos bo'limgan yangi tendentsiyalar paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Madaniy muhitda boshqaruvning ahamiyati eng yangi ilmiy manbalarda o'rganilib, quyidagi ilmiy ta'riflar berilgan.

Masalan, falsafa fanlari doktori, professor V.Alimasovning "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyat" asarida quyidagi ilmiy bashorat keltirilgan: "Bugungi kunda ma'naviyat-ma'rifiy muassasalar aholiga madaniy xizmat ko'rsatish orqali qo'shimcha mablag' olishga harakat qilmoqda. Kelgusida tadbirkorlik, ijara va ijara shartnomasi, maishiy hisob, individual madaniy xizmat ko'rsatish kabi jihatlar ham paydo bo'ladi. Bu usullardan qaysi birini qo'llashni mahalliy aholi, uning manfaatlari va ehtiyojlari hal qiladi. Fuqarolarning manfaat va ehtiyojlarini qondirish o'zaro manfaatdorlikka asoslanadi. Rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, odamlar mehnati va iqtidoriga qarab maosh va mukofot olsalar, ular tinimsiz mehnat qiladilar, ixtiolar qiladilar, noyob san'at asarlari yaratadilar. Binobarin, kelgusida ma'naviy-ma'rifiy sohani pragmatizm qonuniyatlari asosida rivojlantirishni e'tirof etish, uni fofia sifatida emas, balki tadbirkorlikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish zarur" [3]. Menejment odamlarni ongli mehnat va tadbirkorlikka qiziqtirish, ularning mehnatga mas'uliyatini nazorat qilish, bilim va ko'nikmalarini, mehnat faoliyatini tashkil etishda ijobjiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlashdan iborat.

Menejment ishlab chiqarish jarayonida mavjud ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yaratish va foydani oshirishga qaratilgan. Madaniy muhitda boshqaruvning roli xodimlarning mehnati bilan chambarchas bog'liq. Texnologiya zamонавиij ijod mahsullarini yaratish, tarqatish, foydalanish, sifatini oshirish, xizmatlar ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va hokazolarga qaratilgan usullar, jarayonlar, materiallar, faoliyat yoki operatsiyalar majmuasini joriy etishni o'z ichiga oladi. Aslida, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishning mazmun-mohiyati ham shundan iborat. Ijtimoiy-mada-

niy muhitni yaratishda menejer ijodkorlardan emas, balki madaniyat va san'at muassasalaridagi tomoshabinlarning faolligi va tashabbus-korligini talab qiladi. Buning uchun madaniyat muassasalari faoliyatiga yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, madaniy xizmatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va infrazilmani tizimli ravishda joriy etish zarur. Hozirgi vaqtida madaniyat muassasasi oldiga qoyilgan vazifalarni hal qilish uchun boshqaruv faoliyatining o'ziga xos texnologiyalari keng qo'llaniladi. Ijtimoiy va madaniy muhitni yaratishda menejmentning o'ziga xosligi ham shunda. Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasiga yangi fanlar kirib keldi. Ular ijtimoiy-madaniy muhitni boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirishni to'liq qamrab olishga xizmat qiladi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Haydarov A. Madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish asoslari. "Rainbow" nashriyoti. Toshkent – 2019. 192-b.
2. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent – 2021. "O'qituvchi" bosmaxonasi. 182-b.
3. Alimasov V., Manzarov Y. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy va sotsiologik tadqiqotlar). "Navro'z" nashriyoti. Toshkent 2014. 120-b.
4. Bekmurodov M., Shodiev X. "Menejment nazariyasi va amaliyoti". Toshkent – 2021. Zamon poligrafiya nashriyoti. 272-b.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Ozoda Qo‘ziyeva,

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Nukus filiali Madaniyat va san’at sohasi menejmenti
I-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning kadrlar tayyorlash siyosati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Ma’daniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashning bugungi kundagi bir nechta dolzarb muammolari shuningdek ularning yechimlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kadrlar tayyorlash, kadrlar siyosati, korxona, madaniyat va san’at sohasi, xodim, raahbariyat.

Bugungi kunda malakali kadrlar tayyorlash mamlakatni rivojlantirish yo‘lidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng kadrlar tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzlusiz ravishda amalga oshirildi. Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, hozirgi davr tablablariga to‘la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash – mamlakat buyuk kelajagining garovi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har qanday kompaniyaning asosiy boyligi va biznes vazifalarini amalga oshirishdagi asosiy resursi kompaniyaning malakali va faol xodimlari hisoblanadi. Bu yondashuv kadrlar siyosatining asosini tashkil etadi. Korxonaga istiqbolli va doimiy tarzda samarali iqtisadiy, ijtimoiy va psixologik osoyishta muhit yaratuvchi omil – ishlab chiqilgan kadrlar siyosati hisoblanadi. Kadrlar siyosatining maqsadi korxonani yuqori malakali xodimlar bilan ta’minlash, ularning samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratish, kadrlar salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, bilim va malakalarni yosh xodimlarga yetkazishdan iborat.

Korxonada kadrlar siyosatining obekti uning xodimlari bo‘lib, kadrlar siyosatining subekti esa – boshqaruv jarayonining barcha bo‘g‘inlaridagi rahbarlardan va mavjud kadrlar xizmatidan tashkil topgan boshqaruv tizimi.

Korxona rahbariyatining kadrlar holatiga ta’siri va nazorat darajasiga, xodimlarning miqdori va malakaviy shaklini prognozlashtirishga qaratilgan tartiblariga ko‘ra korxona kadrlar siyosatining quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- Passiv;
- Reaktiv
- Ogohlantiruvchi
- Faol.

Passiv kadrlar siyosatida korxona rahbariyati xodimlar bilan ish-lash boyicha aniq dasturga ega emas va allaqachon yuzaga keluvchi kadrlar muammolariga vaziyatni chuqur tahlil qilmay, ularni bartaraf etishga mavjud kuch va vaqlarini sarflab, majburiy va noiloj ravishda olib boriladi.

Reaktiv kadrlar siyosatida korxona rahbariyati yuzaga kelgan muammolarni personal bilan aniqlaydi, kadrlarning muammolari, ziddiyatlari vaziyatlarni tahlil qiladi, ularni bartaraf etish profilaktik choralarini ko‘radi.

Ogohlantiruvchi kadrlar siyosatida korxona rahbariyati kadrlar holati haqida asoslangan prognozlarga ega bo‘lib, kadrlar salohiyati belgilangan vazifalar darajasiga ko‘ra baholanadi.

Kadrlar siyosatining bunday turida korxonalarda kadrlarga talab-larni rejalashtirish qisqa va o‘rtalarda amalga oshiriladi, personalni o‘qitish boyicha vazifalar ham o‘sha muddatlarda qoyiladi.

Faol kadrlar siyosatida tashkilot rahbariyati nafaqat kadrlar programmasiga, balki kadrlar holatiga ta’sir etuvchi vositalarga ham ega bo‘lib, zarur hollarda maqsadli kadrlar dasturini ishlab chiqishi mumkin. Ushbu turdagisi kadrlar siyosatida korxonada ishlab chiqarish muhitini, personalni rag‘batlantirish monitoringi o‘tkaziladi.

So‘nggi yillarda madaniyat va sa’nat muassasalarida xizmat qilayotgan xodimlarning tarkibi, ijodiy faoliyati, imkoniyatlari, imtiyozlariga keng e’tibor berilmoqda. Bu sohalarda kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash markazlarini ochishi shu sohalarni rivojlantirishga qoyilgan muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimida Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, O‘zbekiston davlat konservatoriysi, Milliy rassomchilik va dizayn instituti va respublikaning boshqa oliv madaniyat va san’at muassasalarida mutaxassislar tayyorlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustagi “O‘zbekiston davlat konservatoriysi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida yoshlarning dunyoqarashi, madaniy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan musiqa san’atini har tomonlama rivojlantirish, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida o‘ta muhim vazifalar belgilandi.

Shunga qaramay hozirgi real holat shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash tizimida bir qator muammolar va kamchiliklar hali-hanuz saqlanib qolmoqda.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy muammolar:

1. O‘quv jarayoni zamонавиylig darajasining pastligi.

Bugungi kunda san’at va madaniyt yo‘nalishidagi ko‘plab oliv va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarini va dasturlari zamонавиy talab va texnologiyalar, xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ko‘pchiligi 2000-yillar boshidagi standartlarga asoslangan.

2. Pedagogik kadrlar malakasi va yoshlar taqchilligi.

So‘nggi 10 yilda tajribali pedagog kadrlarning qisqarishi va yosh mutaxassislarning yetishmasligi kuzatilmoqda.

3. Amaliyot va ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqlikning sustligi.

Ko‘plab madaniyat sa’nat ta’lim muassasalari amaliyot jarayonini teatr, kinostudiya, konsert va galereya kabi real muhitda emas, balki

nazariy asosda olib bormoqda. Bu esa bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

4. Moddiy-texnik baza yetishmasligi.

Hozirgi paytda 40%ga yaqin san’at ta’lim muassasalari zamona- viy texnik vositalar va ijodiy uskunalar bilan to‘liq ta’minlanmagan. Ayrim ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida esa hozirgacha raqamli grafik, media texnologiyalar, 3D-modelllashtirish boyicha asbob- uskunalar mavjud emas.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishdagi dolzarb vazifalar.

- O‘quv dasturlarini modernizatsiyalash.

O‘quv rejalarini va dasturlarini YUNESCO, ISESCO, IFTA kabi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida yangilash. Zamonaviy san’at va madaniyatda dolzarb bo‘lgan yo‘nalishlarni o‘quv jarayoniga kiritish

- Pedagoglar malakasini oshirish va yoshlarni jalb etish.

Har yili pedagoglar uchun zamonaviy san’at va madaniyat metodologiyasi boyicha malaka oshirish kurslarini tashkil qilish. Xalqaro san’at akademiyalari va universitetlari bilan hamkorlikda o‘qituvchilar uchun stajirovkalar va ijodiy safarlarni yo‘lga qoyish.

- Amaliyot va ijodiy hamkorlikni kengaytirish.

Teatrlar, kinostudiylar, san’at galereyalari, xalqaro loyihalar bilan hamkorlikda talabalar uchun amaliyot va ishlab chiqarish tajriba-sini tashkil etish.

- Texnik va infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish.

Madaniyat va san’at ta’lim muassasalarining texnik jihozlarini yangilash va zamonaviylashtirish.

- Xalqaro hamkorlik va kadrlar almashinushi.

Xalqaro san’at va madaniyat sohasidagi yetakchi ta’lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlar, grant va stajirovkalarni yo‘lga qoyish. Iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish.

Yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar orqali raqobatbardosh va zamonaviy bilimga ega bo‘lgan kadrlar safi kengayadi, yangi avlod o‘qituvchilari shakllanib, dars berish sifatining oshishiga erishila-

di. Shuningdek bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlari va amaliy ko‘nikmalari sezilarli ravishda yaxshilanadi.

Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish – bu nafaqat ta’lim tizimi, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotini ta’minlovchi strategik yo‘nalishdir. Ta’limda innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, xalqaro tajriba va milliy an’analarni uyg‘unlashtirish orqali bu sohada yirik natijalarga erishish mumkin. Kelgusida madaniyat va sa’nat sohasi uchun zamonaviy, fidokor va malakali kadrlar tayyorlash O‘zbekistonning madaniy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1.B.Umurzaqov, G.Abdurahmanova, S.Xolmuratov. Korxonada kadrlar siyosati. Toshkent – 2019.

2.S.Toychiyeva. Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Toshkent – 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va san’at vazirligi hisobotlari, 2023-yil.

4.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, “Madaniyat va san’at sohasi tahlillari”, 2023-yil.

SHAMURATOVA UY MUZEYI

Bibinaz Majitova,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali magistri

Ilmiy rahbar: Saparbaeva Gulshira Abatbaevna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali dotsenti

Annotatsiya: maqolada Ayimxon Shamuratova hayoti haqida, amalga oshirgan ishlari, teatrda yaratgan obrazlari, ikkinchi jahon urishi davrida kórsatgan xizmatlari, Qoraqalpoq Madaniyatiga qo‘sghan hissasi, Ayimxon Shamuratova uy muzeyi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, Amudaryo, havaskorlik jamoasi, Moskva Konservatoriysi, koncert

Abstract: in the article about the life of Ayimkhan Shamuratova, the work he did, the characters he created in the theater, his servuces during the Second World War, Contribution to Karakalpak culture, Ayimkhan Shamuratova House Museum

Key words: cultural, Amudaryo, amateur team, Moskva Koncervatoriya, koncert

XX asr boshlarida Qoraqalpoqston Madaniyatini rivojlanishi uchun katta hissa qo‘sghan, o‘zining sehrli ovozi va ijro etgan rollari bilan dunyoga tanilgan, Qoraqalpoq xalqining birinchi aktrisasi, Qoraqalpoqston tarixida teatr saxnasiga chiqqan ilk ayollardan biri, ikki yuzdan oshiq qo‘shiqlarni jonli ijro etgan, yoqimli, xush xovoz sohibi Ayimxon Shamuratova Turimbet qizi Qanliko‘l va Qong‘iroq oralig‘idagi ovullarning birida dunyoga kelgan. Uning otasi baxshi bo‘lib, dutor chalgan paytda Ayimxon qo‘shiq aytadigan bo‘lgan, shu tariqa keng dashtu yoylovlarda qo‘shiq aytib, qo‘shiqchilik qobilayati shakillanib borgan. Shu tariqa sañatga qiziqishi ortib borib, u To‘rtko‘l tumanida havaskorlik jamoasi ochilganini eshitib u yerga

boradi, shu yerda to‘garaklarga qatnasha boshlaydi. 14 yoshida sax-naga birinchi qadamini qo‘yib rollar ijro eta boshlaydi. 1932-yildan boshlab u teatrda rol ijro eta boshladidi. 1934-yil Qoraqalpoq davlat muzikali drama va komediya teatrda ish boshlaydi. 1939-yil Moskva Konservatoriyasiga malaka oshirishga boradi. Ayimxon Shamuratova 100 dan ziyod bosh rollarda o‘ynadi. U har-xil madaniy tadbirdorda konsert xonandasidagi sifatida ham qatnashgan.

Ikkinchisi jahon urishi davrida frontda koncert jamoalari bilan xizmatda bo‘lgan, undan tashqari ovullarda konsertlar berib, shu davrlarda bir samolyotning pulin yig‘ib frontga yuboradi. Bunday katta ishdan keyin javob tariqasida Stalin unga telegramma jo‘natadi. Urushdan keyingi davrlarda Ayimxon Shamuratova Qoraqalpoq davlat muzikali drama va komediya teatrda ish boshlaydi. Urushdan keyingi davrlarda yetishmovchiliklar bo‘lgan. Teatr jamoasi bir pessani saxnalashtirgannan keyin unga mos kiyimlar topishi kerak edi uni tik-tirishlariga esa xali pul yetarlimas bo‘lgan, shunday o‘g‘ir vaqtarda teatr aktyorlari xalq orasidan o‘ziga toq oilalardan kiyimlar olib turgan va har xil sahnalar uchun kiyimlarni almashib kiygan.

Ayimxon Shamuratova nafaqat aktrisa, qo‘schiqchi bo‘lmasdan u deputat bo‘lib ham ishlagan. Deputatlilik davrida ko‘pgina odamlarga yordam bergen, uysizlarga uy olishda va boshqa ishlarda ham. Ishsizlarga ish topishda yordam bergen. U shunday mard, oqko‘ngil, yaxshi odam bo‘lgan, uning mehnatlarini odilona baholab Ayimxon Shamuratovaga Qoraqalpog‘iston Xalq aktisti, O‘zbekiston Xalq artisti, SSSR Xalq artisti unvonlariga sozavor bo‘lgan.

Uning umrlik yo‘ldoshi Amet Shamuratov (1912–1953) yozuvchi, shoir va dramaturg bo‘lib. Amet Shamuratova har doim Ayimxon Shamuratovani turmush qurgannan keyin ham qo‘llab-quvvatlab turgan, unga ijro etishi uchun ajoyip qo‘schiqlar yozib bergen. Unga har doim “sen xalqqa keraksan, sen xalqqa ibrat bo‘ladigan rollarni ijro etishin kerek”, – deb har doim aytgan. Ammo beshavqat o‘lim hesh kimni ayab o‘tirmaydi, Amat Shamuratov 41 yoshida vafot etadi. Ayimxon yolg‘iz o‘zi ham ota, ham ona bo‘lib bolalarini tarbiyalab, o‘qitib, jamiyatga foydasi tegadigan, komil farzandlar qilib voyaga

yetkazadi. 1993-yil mohoratli aktrisa, xush ovoz sohibi bo‘lgan aktrisa bu dunyoni 76 yoshida tark etdi. Dona xalqimizda shunday gap bor: “yaxshidan bog‘, yomondan dog‘ qoladi” – deb bekorga atymagan Ayimxon Shamuratova o‘zidan yaxshi bog‘ qoldirdi desak yanglish aytgan bo‘lmaymiz. Sababi qanchadan-qancha qo‘shiqlarni maromiga yetkizib aytgani, ko‘plab rollarda ijro etib, xalq ko‘ngliga kirib borgani va o‘zidan keyin yaxshi qobilyatli shogirtlarni tayyorlagani bularning hammasi uning ortidan qolgan yaxshi ishlari. Amet Shamuratova va Ayimxon Shamuratova XX asrdagi qoraqalpoq madaniyatining rivojida muhim o‘rin egalladi. Amet va Ayimxon Shamuratova larning xususiy uy muzeyi ularning farzandlari tomonidan 1999-yil tashkil qilingan, Muzey kolleksiyasida ularning shaxsiy buyumlari dan: kitoblari, qolyozmalari, fotosuratlari, Ayimxon Shamuratova sahna liboslari va o‘tmishga oid buyumlardan tashkil topgan. Muzeyda Ayimxon Shamuratova tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlari ham bor, eski plastinkada yozilgan. Shuningdek, muzeyda Qoraqalpog‘istonning mashxur yozuvchilarining, artistlarning, davlat arboblarining fotohujjatlari va mashhur rassomlar: F.Madgazin, R.Matevosyan, K.Berdimuratovlar va boshqalarning asarlari saqlanadi. Hozirda uy muzeyi direktori Amet va Ayimxon Shamuratovaning eng kenja qizi Ayimgul Shamuratovadir. Qoraqalpoq xalqi hesh qachon bunday ulug‘ insonlarni unutmaydi. Har doim ularning o‘lmas qo‘shiqlarini eshitadi, kitoblarini o‘qiydi.

Bu muzey hozirgacha o‘z faoliyatini olib bormoqta va chet eldan har oyda ko‘plagan mehmonlar tashrif buyuradi. Mehmonlar uchun juda qulay sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://en.wikipedia.org/Ayimkhsn_Shamuratova
2. “Ayimkhan Shamuratova kulture” (<https://portal-kultura.ru>)
3. “Biography of Ayimkhan Kazymbetovoy (Shamuraova)” (<http://shamuratova.uz/biography-ayymkhan.html>). Shamuratov. Retrieved 6 January 2023.

MÁDENIYAT HÁM KÓRKEM ÓNERDIÍN JÁMIYETTEGI ÁHMIYETI (MOYNAQ RAYONI MÍSALÍNDA)

Ulbosin Abdullaeva,

*Ózbekstan mámleketlik kórkem – óner hám mádeniyat instituti
Nókis filiali magistranti*

Annotaciya: *Bul maqalada mádeniyat hám kórkem ónerdiíń jámiyet rawajlanıwındaǵı áhmiyeti tallanadı. Moynaq rayoni misalında mádeniy ilajlar, kórkem óner túrleri hám olardıń jergilikli xaliqqa tásırı üyreniledi. Sonday-aq, mádeniyat hám kórkem óner jaslar mánaviyatın qálidestiriwde áhmiyetli qural ekenligi kórsetiledi.*

Gilt sózler: Mádeniyat, kórkem óner, jámiyet, ruwxıylıq, milliy qádiriyatlar, Moynaq rayoni, mádeniy ilajlar, sociallıq rawajlanıw.

Mádeniyat hám kórkem óner hár qanday jámiyettiń ruwxıy rawajlanıwın belgileytuǵın tiykarǵı faktorlardan esaplanadı. Olar insan turmısınıń ajıralmas bólegi bolıp, millettiń tariyxıy miyrası, dástúrları hám ulıwma insanyılıq qádiriyatların saqlaw hám rawajlandırıwǵa xızmet etedi. Hár qanday jámiyette mádeniy-aǵartıwshılıq ortalıqtı qálidestiriw insan ruwxıylıǵı hám mánawiyatın bayıtılwda úlken áhmiyetke iye. Sonlıqtan mádeniyat hám kórkem ónerdi rawajlandırıw tek ǵana dóretiwshilik tarawlar ushın emes, al jámiyettiń barlıq qatlamları ushın da áhmiyetli.

Mádeniyat – keń qamtıwlı túsinik bolıp, ol jámiyettiń ruwxıy-ádep-ikramlılıq kórinisin, sociallıq qatnasiqların hám turmıs tárizin bildiredi. Kórkem óner bolsa insan oy-pikiri hám sezimlerin estetikalıq tárizde kórsetiw quralı bolıp, muzika, teatr, súwretlew óneri, kino hám basqa túrlerdi óz ishine aladı. Mádeniyat hám kórkem óner arqalı adamlar óz-ara baylanıсадı, tájiriybe almasadı hám ózleriniń ishki dýnyası menen bólisedi.

Mádeniyat hám kórkem óner – bul jámiyettiń ruwxıy, mánawiyat hám estetikalıq bagdarın kórsetiwshi, bir-biri menen baylanıslı, biraq

bir-birinen parıqlanıwshı túsinikler. Tómende bul túsiniklerdi kenirek talqilaymız:

Mádeniyat jámiyettiń tariyxı, sociallıq, ádebiy, ilimiý, diniy, antropologiyalıq hám basqa tarawların óz ishine algan keń túsinik esaplanadı. Ol xalıqtıń kelbetin, turmıs tárizin, dástúrlerin, úrp-ádetlerin hám qádiriyatların óz ishine aladı. Mádeniyat arqalı bir jámiyettiń ózine tán pikir hám talantları, tálım-tárbiya, mádeniy miyras hám tatiwlıq sáwlelenedi.

- Mádeniy miyras hám tariyxı bólimler:

Mádeniyat insanlardıń uzaq tariyxı dawamında qáliplesken miyras esaplanadı. Bul miyras, xalıqtıń ótmishte júz bergen waqiyalar, úrp-ádetler, dóretiwshilik nátiyjeler túrinde saqlanıp qalgan. Bul miyras zamanagóy jámiyetlik qatnasıqlardı qáliplestiriwde, milliy hám ulıwma insanyılıq qádiriyatlardı saqlawda áhmiyetli faktor bolıp esaplanadı.

- Mádeniy ózgeshelik hám sociallıq birlik:

Mádeniyat jámiyet agzalarınıń birligin támiyinlewde, olardıń ulıwma tariyxı, qádiriyatları hám úrp-ádetleri arqalı bir-birine baylanısın bek kemleydi. Bul, óz gezeginde, milliy identiklikti, mádeniy birge islesiwdi hám sociallıq birlikti kúsheytedi.

Estetikalıq kórinisler:

Kórkem óner – insan sezimlerin, túsiniklerin hám pikirlerin estetikalıq tárizde kórsetiw quralı esaplanadı. Ol ayaq oyın, muzika, teatr, súwretlew óneri, kino hám basqa kóplegen túrler arqalı kórsetiledi.

Kórkem óner arqalı insan óziniń ishki dúnyasın, ruwxıy jaǵdayın hám dóretiwshilik talantların jáne de keńirek kórsete aladı.

- Jańa qırlardı ashıw:

Kórkem óner insanlardıń pikirlew, sóylew hám kóriw sheńberin keńeytedi. Ol jańa intuciya, kózqaras hám dóretiwshilik qatnasılder qáliplestiriwde, adamlardıń dúnyaǵa kózqarasların bayıtıwda úlken áhmiyetke iye. Hár bir kórkem óner tuwrı yamasa úlgisi, insanniń ómirge bolǵan múnásibeti, ózine tán estetikalıq sezgirliǵı hám dóretiwshilik imkaniyatların sáwlelendiredi.

- Terapevtik hám sociallıq tásir:

Kórkem óner tek óana estetikalıq qanaatlanıwshılıq emes, al psixologiyalıq terapiya hám sociallıq baylanıs quralı sıpatında da áh-miyetli rol atqaradı. Mádeniyat hám kórkem óner ilajları arqalı insanlar óz ishindegi mashqalalardı jeńiw, ruwxıy turaqlılıqqa erisiw hám jámiyetlik qatnasiqlardı bekkemlew imkaniyatına iye boladı.

Mádeniyat hám kórkem ónerdiń óz ara baylanısı.

- Bir-birin tolteriw:

Mádeniyat hám kórkem óner bir-birin tolıqtıratuǵın, yaǵníy mádeniy miyras kórkem óner dóretpeleri arqalı ámelge asırılǵanda, ol jáne de bay hám mazmunlı qunǵa iye boladı. Mádeniy dástúrler, tariyxıy waqiyalar hám xalıq aldındıǵı qádiriyatlar kórkem óner arqalı qayta islenedi, jańa dóretiwhilik formalarda kórinedi.

- Zamanagóy dóretiwhilik hám innovaciyalar:

Házirgi kúnde kórkem óner hám mádeniyat tarawları zamanagóy texnologiyalar hám innovaciyalıq kózqaraslar menen bayıp barmaqta.

Rawajlandırıwshı kórkem óner úlgileri, multimediali installyaciyalar, virtual hám qosımsha reallıq texnologiyaları arqalı mádeniy miyrasti jáne de keńirek hám zamanagóy formada qayta tiklew imkanıyatı jaratılıp atırǵanı názerde tutıldı.

- Jámiyettegi roli hám tásiri:

Mádeniyat hám kórkem óner jámiyyette sociallıq tınıshlıq, awızbırshilik hám qarım-qatnastı támiyinlewde áhmiyetli qural esaplanadı. Olar xalıqtıń ruwxıy dúnýasına tásir kórsetip, túrlı sociallıq qatlamlar arasındaǵı ayırmashılıqlardı jumsartıwǵa, bir-birine bolǵan múnásibetlerdi jaqsılawǵa járdem beredi. Sonday-aq, mádeniy ilajlar hám kórkem óner shıgarmaları xalıqtıń dóretiwhilik potencialın rawajlanırdırıwda da úlken áhmietke ie.

Moynaq rayonında mádeniyat hám kórkem ónerdin' rawajlanıwi

Moynaq rayonında mádeniyat hám kórkem óner tarawları tariyxıy rawajlanǵan. Bir waqtıları teńiz boyı qalalarının biri bolǵan bul ay-maqta xalıq awızekи dóretiwhiliqi, qosıqshılıq, ayaq oyın, ónermencilik keń tarqalǵan edi. Házirgi kúnde bolsa ekologiyalıq mashqalalar

sebepli ayırım mádeniy dástúrlerge bolǵan qızıǵıwshılıq tómenlegen bolıwı mümkin, biraq bul jerde milliy qádiriyatlar hám kórkem óner túrlerin saqlaw hám qayta tiklewge bolǵan háreketler dawam etpekte.

Rayon mádeniyat úyleri, teatrlar, muzeyler hám mádeniyat orayla-rı arqalı óziniń ruwxıy baylıqların saqlaw hám rawajlandırıwǵa háre- ket etpekte. Máselen, jergilikli ónermentler tárepinen milliy kiyimler hám dástúriy ónermenchilik buyımları tayaranadı, bul bolsa jergilikli xalıqtıń sociallıq hám ekonomikalıq rawajlanıwına da úles qosadı.

2022– jıl 23-fevral kúni Moynaq qalasında bolıp ótken sapar dawamında, mámlekетимиз basshısı Moynaq xalqınıń turmısı hám sharayatlarına bolǵan itibardı jáne de kúsheytiw maqsetinde óz pi- kirlerin bildirdi. Prezidentimiz Sh.Mirzyoyev tómendegi sózlerdi ay- tip ótken edi, **«Sońǵı bes jilda kóp nárseni úyrendik, aldın isenil- megen nárselerge isendik. Men birinshi kelgenimde «mádeniyat Moynaqtan baslanadı» degen edim. Sonday bolıp atır. Mine usı aeroport ta bir misal. Endi Tashkent – Moynaq – Nókis aviaqat- nawı jolǵa qoyıladı.»**

Bul pikirler mámlekетимиз basshısınıń Moynaq xalqınıń rawaj- laniwına bolǵan jetik hám tiyisli itibarin, sonday-aq, aymaqtaǵı transport kommunikacyaları hám infrastrukturani jaqsılaw boyıns- ha alıp barılıp atırǵan dóretiwshilik jumislardıń áhmiyetin kórsetedi. Prezidenttiń bul sózleri Moynaqtan baslap, mámlekettiń túrli shek- lewlerindegi turmis sharayatların jaqsılaw, mádeniyat hám kórkem ónerdiń áhmiyetin arttıriwǵa qaratılǵan keń kólemlı qádemler haqqıñ- daǵı kózqarastı bildiredi.

Moynaq rayonı misalında mádeniyat hám kórkem ónerdiń jámiyet rawajlanıwındaǵı ornınıń kóp qırılı hám quramalı ózgeshelikleri qayta kórip shıǵıldı. Mádeniyat – bul tek ǵana xalıqtıń ótmish miyrasın, qádiriyatlardı hám dástúrlerde saqlaw quralı emes, al olar arqalı milliy identiklikti, sociallıq birlikti hám zamanagóy dóretiwshilik qatnaslar- dı qáiplestiriw instrumenti bolıp esaplanadı.

Kórkem óner bolsa insan sezimlerin estetikalıq sáwlelendiriw hám dóretiwshilik potencialdı kórsetiw arqalı jeke hám jámiyetlik je- tiklikke erisiwde áhmiyetli rol atqaradı.

Moynaq rayonında ámelge asırılğan reformalar hám infrastrukturani jańalaw jumısları, sonıń ishinde, transport kommunikaciyaların jaqsılaw hám aeroportti modernizaciyalaw, jergilikli xalıqqa jaǵımlı hám qolaylı sharayatlardı usınıw, sonday-aq, mádeniyat hám kórkem óner tarawlarındaǵı baslamalardı xoshametlew boyınsha alıp barılğan háreketlerdiń úlgisi bolıp xızmet etedi. Mámlekетimiz basshisınıń bul aymaqtığı jumıslardı turaqlı baqlap barıwı hám óziniń saparları arqalı xalıqtıń áhmiyetine itibar qaratıwı, bul xalıqqa berilgen ulken imkańiyat.

Juwmaqlap aytqanda, mádeniyat hám kórkem ónerdi rawajlan-dırıw biziń milliy ruwxıy qádiriyatlarımız, tariyxımız, dóretiwshilik potencialımız hám keleshekke gózlengen strategiyalıq rejelerimizdiń ajiralmas bólegi bolıp esaplanadı. Hár bir aymaqtığı, ásirese alıs hám kem rawajlanǵan regiondaǵı, bul tarawlardı qollap-quwatlaw, modernizaciyalaw hám innovaciyalardı engiziw, milliy rawajlanıwdıń turaqlılıǵıń hám jámiyetlik tınıshlıqtı támiyinlewe de úlken áhmiyetke iye. Mámlekетimiz basshisınıń Moynaqtığı saparları hám usı baǵdar-da ámelge asırılğan baǵdarlamalar, keleshekte jáne de keńirek, turaqlı hám dóretiwshilik qatnaslardiń tiykarın qurayıdı.

Paydalanylǵan adebiyatlar

1. Mansur Bekmuradov, Nargiza Yusupova “Madaniyat sotsiologiyası” – Toshkent: 2010.
2. A. Mavrułov, I. Dehqonov “Madaniyat tarixi” Toshkent-2007.

JADIDLAR – MILLATNI UYG‘OTGAN MA’RIFAT ELCHILARI TIMSOLIDA YOSH AVLODNING YURAKLARIDA MANGU YASHAYDI!

Barno Ravshanova,

O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xolmo ‘minov Mo ‘minmirzo
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’rifat elchilari bo‘lgan jadid bobolarimizning faoliyati hamda ibratlari so‘zlarining tahlili qisqacha bayon etilgan. Jadid bobolarimiz – o‘zbek xalqi tarixida ijtimoiy va ma’naviy yangilanishni targ‘ib qilgan insonlardir. Ular ta’lim, ilm, madaniyat, milliy o‘zlikni tiklash va rivojlantirish yo‘lida faoliyat olib borganlar. Ushbu faoliyatga necha zamon bo‘lgan bo‘lsada, ular, ilm va ma’rifatni, milliy va zamona viy qadriyatlarni birlashtirishda davom etgan qadimiy fikr yetakchilaridir. Jadid bobolarimizning maqsadi Islom dinimizni ilm bilan yangilash, g‘oyasi esa zamon bilan hamnafas bo‘lib, millatni yangilash bo‘lgan. Jadidlarning o‘zgarishlari nafaqat bilim, balki milliy ruhni yangilashga ham xizmat qilgan. Jadid bobolarimiz o‘z millatining o‘ziga xosligini saqlab qolish musulmon dunyosini yangilash va mustaqil bo‘lishni maqsad qilganlar. Ular diniy fanlarni ilmiy asosda o‘rganishni targ‘ib qilganlar. O‘zgarishlarni yoshlar orasida boshlashga qaror qilishgan, ularni, yangi fikrlar va bilimlar bilan tarbiyalash orqali, jamiyatda ijtimoiy – siyosiy yangilanishlarini amalgalash oshirgan.

Kalit so‘zlar: Din va dunyo, ibrat, targ‘ib, ta’lim, ma’naviyat, erkinlik, maktab, haqiqat, yoshlar, Vatan, ilm-fan, tarbiya, jadid, faoliyat, fidokorlik.

Bugun o‘zbek millatining erki qo‘lida. Bugun otayotgan tongimiz va cho‘kayotgan tunimiz osoyishta, ko‘ngillarimiz xotirjam. Jannat-

makon yurtimizning har bir fuqorosi o‘z so‘ziga, o‘z fikriga va shaxsiy qaroriga egadir. Yoshi, irqi, millatidan qat‘iy nazar bilim olish huquqiga ega. Bugun Yangi O‘zbekiston deya talqin qilinayotgan diyorimizda keksalarimiz uchun dam olish maskanlari, yoshlarimizning ilm olishi, ta’lim-tarbiyasi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Mana shunday xotirjamlikni, ma’naviy o‘sishni, oilaga, vatanga muhabbatni his qilar ekanmiz, shu o‘rinda, mudroq qalblarni uyg‘otgan, xalqni ma’rifatga chorlagan, qator-qator ibrat maktablarini tashkil etgan, ilm maskanlarini barpo qilgan, bizning bugunimiz va ertamiz uchun kechagi kunning hunin tortgan, ilmsizlikni mutloq qoralagan va shu yo‘lda o‘zlarini fido qilgan Jadid bobolarimizni yod olish, bizning burchimizdir.

Jadid bobolarimiz – o‘zbek xalqi tarixida ijtimoiy va ma’naviy yangilanishni targ‘ib qilgan insonlardir. Ular ta’lim, ilm, madaniyat, milliy o‘zlikni tiklash va rivojlantirish yo‘lida faoliyat olib borganlar. Ushbu faoliyatga necha zamon bo‘lgan bo‘lsada, ular, ilm va ma’rifatni, milliy va zamonaviy qadriyatlarni birlashtirishda davom etgan qadimiy fikr yetakchilaridir. Jadid bobolarimizning maqsadi Islom dinimizni ilm bilan yangilash, g‘oyasi esa zamon bilan hamnafas bo‘lib, millatni yangilash bo‘lgan. Jadidlarning o‘zgarishlari nafaqat bilim, balki milliy ruhni yangilashga ham xizmat qilgan. Jadid bobolarimiz o‘z millatining o‘ziga xosligini saqlab qolish musulmon dunyosini yangilash va mustaqil bo‘lishni maqsad qilganlar. Ular diniy fanlarни ilmiy asosda o‘rganishni targ‘ib qilganlar. O‘zgarishlarni yoshlar orasida boshlashga qaror qilishgan, ularni, yangi fikrlar va bilimlar bilan tarbiyalash orqali, jamiyatda ijtimoiy – siyosiy yangilanishlarini amalga oshirgan.

Jadidlar harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy “Turkiston” gazetasini nashr etib, jadidchilar g‘oyalarini ommaga keng yoyishda muhim rol oynagan insonlardan biri bo‘lgan. Gasprinskiyning “yangi maktablar”, ya’ni jadidlar maktabini ochishga bo‘lgan harakatlari va modern ta’lim tizimlarini rivojlantirishga alohida urg‘u berishi uning haqiqiy elparvar ekanidan yaqqol dalolatdir. Jadidlarning adabiy va ijtimoiy harakatlaridagi muhim adiblardan biri hisoblangan Abdulla

Qodiriy, o‘zining asarlari va “O‘tkan kunlar” romani orqali xalq-ni, milliy uyg‘onish va zamonaviy jamiyatni anglashiga katta hissa qo‘shgan.

“Vatanni sevish, avvalo, uning rivojlanishi uchun mehnat qilishdir”, “Yaxshi o‘qituvchi nafaqat ilm beradi, balki qalbni ham tarbiyalaydi”, “Har bir millat o‘zining ma’naviy boyligini saqlagan holda rivojlanishi mumkin”, ushbu iboralar jadidchilik harakatining yana bir mashxur vakili Abdulla Avloniyga tegishli bo‘lib, u, shu qatori juda ko‘plab aforizmlar yaratgan va shu orqali o‘zining g‘oyalilarini ifodalagan. Xalqni uyg‘onishga, ilm olishga va taraqqiyotga undagan. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ta’limning ahamiyatini, ilm – fan va madaniyatning rivojlanishidagi o‘rnini doimiy ravishda ta’kidlagan. U millatni faqat ilm orqali taraqqiy etishga, yangiliklarni o‘zlashtirishga va dunyo bilan hamnafas bo‘lishga chaqirgan.

Jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan yana biri Abdulhamid Cho‘lpon haqida so‘z borganda, avvalo, uning xalqga qilgan murojati va xalqga bergen ta’svir hamda talqinlari ongimizda gav-dalanadi. Xususan, “Xalq dengizdir – xalq to‘lqindir” iborasi uning ijtimoiy – siyosiy qarashlarini chuqur ifodalaydi va shu orqali xalqning kuchini, uning jamoaviy harakatini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, xalq birlashganda uning qudrati yanada oshadi, imkoniyatlari dengizdek kengayib, shijoati to‘lqindek mavjlanadi. Dengizda bo‘ron ko‘tarilganda uni to‘xtatishning imkonи bo‘Imaganidek, xalqning bir maqsad yo‘lida qo‘zg‘alishi ham jilovsiz kuch demakdir. “Xalqning qudrati – uning ongida” Cho‘lpon xalqni faqat jismoniy kuch sohibi sifatida emas, balki uning ma’naviy va intellectual salohiyatini ham ta’kidlaydi. Xalqning bilim va ongli qarorlari uni maqsadlariga erishishida yordam berishini, shuning uchun, xalqning ongini uyg‘otish, uning fikrini shakllantirish juda muhim deya hisoblagan. Cho‘lponning xalq haqidagi fikrlari jamiyatda yuz beradigan o‘zgarishlarga va erkinlikka intilish, xalqni faqat passiv tomondan ko‘rmay, uni faol ishtirokchi, jamoa sifatida ko‘rib, Cho‘lponning o‘z davridagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni anglab yetgan va xalqni mustahkamlash, uni o‘z

kelajagini yaratish imkoniyatini berish g‘oyalarini ilgari surganligini ko‘rish mumkin.

“Birinchi qadam – ozod fikr qilishdir”, deya ta’kidlaydi, jadidchilik mabkabida o‘zining falsafiy va ijtimoiy, erkin hamda ozod fikrlariga ega bo‘lgan ma’rifatparvar bobolarimizdan yana biri Abdurauf Fitrat. Uning harakati, o‘zbek milliy uyg‘onishining bir qismi sifatida, turli sohalarda islohatlar amalga oshirishga intilgan. Fitrat, milliy mustaqillikni, milliy o‘zlikni tiklashni va o‘zbek tilining rivojlanishini qo‘llab – quvvatlagan, o‘zbek xalqining madaniy, adabiy va ilmiy jihatdan rivojlanishi uchun mehnat qilgan elparvarlarimizdan biri bo‘lgan desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, o‘zbek jamiyatida adolatli va erkin jamiyat barpo etish maqsadida ijtimoiy islohatlarni talab qilgan, u, ayniqsa, ta’lim tizimi, adabiyot va san’atni yangilashni muhim deb hisoblagan. Musulmon dunyosida zamonaviy g‘oyalarni joriy qilishni, ilm – fan va tehnologiyalarni o‘rganishni targ‘ib, hamda jamiyatda diniy tushunchalarni va qadriyatlarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirishga va o‘zbek xalqining siyosiy erkinliklarini himoya qilishga intilgan.

Shu singari yana ko‘plab jadid bobolarimiz, jumladan, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Is’hoqxon Ibrat, Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Mahmudxo‘ja Behbudiy va yana ko‘plab bobolarimiz shular jumlasidandir. Ular haqiqiy vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilarini va rahnamolari bo‘lishgan. Ularning yuksak jasorat bilan amalga oshirgan ishlari o‘zlarini zulmiga duchor qilgan bo‘lsada, ammo, bizning bugungi kunimizni, kela-jagimizni nurafshon va ziyoli bo‘lishiga shart – sharoit hamda keng imkoniyatlar yaratilishiga sabab bo‘lgani ayni haqiqatdir.

Aynan, jadidlarning millat ongini uyg‘otishdagi say-harakatlari tufayli bugun bizning ilm yo‘lidagi qadamlarimiz shiddatli, ma’naviy tafakkurimiz uyg‘oq, ko‘ngillarimiz hamisha bilimga chanqoqdir va shunday bo‘lishi ham kerak. Ularning yorqin xotirasini ulug‘lash,

bizga qoldirgan ilmiy – adabiy merosini qadrlash va ulardan unumli foydalanish, jadidlarimiz nomini abadiylashtirib, kelajak avlodga bekami-ko’st yetkazish har birimizning burchimiz va vazifamizdir. Zotan, “Millatning boyligi uning tarixiga, tiliga, adabiyotiga va madaniyatiga bog‘liq”, deya ta’kidlagan edi elparvarlarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Darhaqiqat, bugun bizning buyuk tariximiz bor, o‘zbek tilimiz, ne-ne allomalarimiz va ulug‘ mutafakkirlarimizning adabiy merosini o‘zida mujassam etgan adabiyotimiz va o‘lmas madaniy boyligimiz, urf – odatlarimiz, qadriyatlarimizni avloddan – avlodlarga o‘tkazuvchi milliy madaniyatimiz bor. O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda jadid bobolarimiz nomlarini abadiylashtirish, tarixini chuqur o‘rganish maqsadida juda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, “Qataq‘on qurbanlari” myzeyini tashkil etilishi, ularning xotirasiga monumentlar qoyish, jadidlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy – amaliy konfrensiyalar, tadbirlar tashkil etish va ularning faoliyatiga bag‘ishlangan “Jadid” gazetasining tashkil etilishi shular jumlasidandir. Shu o‘rinda ayтиб o‘tish joizki, Prezidentimiz tomonidan joriy 2025 – yilda Turkiston jadidchilik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi qarorni imzolanishi, jadidchi bobolarimizning yorqin xotirasiga qaratilgan yuksak e’tiboring yana bir dalilidir. Mutafakkir hayotiga oid ijodiy uchrashuvlar, ilmiy konferensiyalar va tanlovlар o‘tkazilib, Qarshidagi ko‘chalarning biriga uning nomi berilishi taxsinga loyiq jarayondir.

Toshkent shahridagi Adiblar hiyobonida adibimizning haykali o‘rnatalishi, Samarqand shahrida uy muzeyini tashkil qilinishi, iste’dodli dramaturqlarimiz uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofotni ta’sis etilishi, buyuk noshir va pedagog Behbudiy bobomizning faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgani ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan jarayonlardir. Joriy yil mobaynida amalgaloshiriladigan chora – tadbirlar dasturi sirasiga quyidagi masalalar, ya’ni:

- adibning “Tanlangan asarlar” to‘plami, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy – ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish;
- Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiy publitsistik filmlarning ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;
- Badiiy akademianing markaziy ko‘rgazmalar zalida adib hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari ning faoliyatiga oid tasviriy san’at asarlari ko‘rgazmasini uyishtirish;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, ijod maktablari o‘quvchilar, “Temurbeklar maktabi” kursantlari hamda oliv ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Mahmudxo‘ja Behbudiy saboqlari” mavzusida insholar tanlovin o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash;
- barcha bo‘g‘indagi ta’lim muassasalari, kutubhonalar, mehnat jamoalar, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilish;
- zamonaviy raqamli va targ‘ibot tehnalogiyalari asosida Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarini yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirish;
- shuningdek, Samarqand shahridagi Mahmudxo‘ja Behbudiy uy – muzeyi hududi obodonlashtirilib, muzey ekspositsiyasi boyitilishi hamda internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo‘ljallangan audiovisual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni e’lon qilish kabilar reja qilingan.

Behbudiy bobomizning bundan ham ko‘proq e’torof va e’tiborga loyiq ko‘rsak aslo xato bo‘lmaydi. O‘zbekiston tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davri bo‘lgan 20 – asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanib, u milliy ozodlik harakatining buyuk namoyondasi sifatida ilm – fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqning ongu – tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan. Mohir publitsist sifatida o‘z

davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan qator salmoqli asarlar va ko‘plab maqolalar yaratgan va shu bilan birga, “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina” jurnaliga asos solgan. 1914-yilda “Turon” teatrida sahnalashtirilgan “Padarkush” pesasi orqali teatr san’atining tamal toshini qoygan.

“Taraqqiyotning yo‘li – ilm va ma’rifatni yoyishda”deya ta’kidlaydi Behbudiy bobomiz. Darhaqiqat, ularning so‘zлari, har bir fikri bizning bugungi kunimiz va ertangi taraqqiyotimiz yetakchisidir. Yangi O‘zbekistonning kelajagini buyuk ko‘rmoqlig uchun, kechagi O‘zbekistonning tarixini anglamog‘imiz, ajdodlar xotirasini yod olmog‘imiz, ular qoldirgan ilmiy merosni asramog‘imiz, qalblarimizni yoritgan ma’rifat chiroqlarini o‘chirmagan holda kelajakka yetkazmog‘imiz darkordir. Xalqning ma’naviy ongini uyg‘otish va ma’rifat yo‘lida o‘zlarini fido qilgan Jadir bobolarimizning ruhi shod qilmoqlig uchun, bizning qiladigon vazifamiz faqat o‘qish, izlanish, mamlakat rivoji uchun yangiliklar yaratish va o‘rganganlarimizni o‘zgalar bilan o‘rtoqlashishdir.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. “Jadidlar” – G‘ulom Zafariy: risola O.Ulmonov – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 – 156-bet.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy: risola./Z.Abdirashidov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 – 156-b.

OMMAVIY BAYRAMLAR TARIXIDAN

Jaxongir Sobirjonov,

*O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xolmo ‘minov Mo ‘minmirzo
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrasi dotsenti v.b*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy bayramlarning qaydara-jada vujudga kelishi, tarixi, Yunoniston va Rim bayramlarining farqli jihatlari, ommaviy bayramlarning o‘tkazilish tartibi o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Ijodiy jarayon, kompozitsion yaxlitlik, ilmiy qarashlar, Dionis bayramlari, katta triumflar.

Ommaviy bayramlar deganda, biz yurtimizda o‘tkaziladigan katta katta bayram tomoshalari Navro‘z bayrami, Bahorgi sayillar, Buyuk Ipak yo‘li hunarmandchilik bayramlarini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Ommaviy bayramlarni o‘tkazishda ikki muhim jihatni e’tiborga olish zarur. Birinchisi, bayram tadbirlarini tashkil qilishdagi ijodiy yondashuvlar, Ikkinchisi, bayramlarning tashkilotchilik qobiliyatla-ri. Farhod Ahmedovning “Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari” kitobida ommaviy bayramlarning jamiyatda tutgan o‘rnini, tarbiya-viy ahamiyati haqida biz yoshlar uchun juda muhim ma’lumotlar berilgan.

Kitobda shunday muhim fikrlar qayd etilganki, ommaviy bayramlarning xalqchil bo‘lishi uchun juda katta amaliy mahorat talab etilishi, bayram va tadbirlarni tashkillashtirishda eng avvalo sahna-lashtirishda har bir jarayonga alohida ahamiyat berilishi talab qili-nadi.

Umuman, ommaviy bayramlarning shakllanib borish tarixiga na-zar soladigan bo‘lsak, bu Qadimgi Yunoniston va Rimda ilk kurtak-

lari bilan namoyon bo‘lgan. Albatta, Qadimgi Yunoniston va Rimda o‘tkazilgan tomosha va bayramlar davrigacha ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to‘g‘ri keladi, lekin bular bayram emas, ko‘proq marosimga o‘xhash kichik kechalar edi. Urug‘ va qabila bo‘lib yashash mobaynida qadimgi odamlar ovga chiqish oldidan yoki ovdan o‘lja bilan qaytgach butun qabila buni nishonlab bayram qilishgan, lekin bu bayramda ma’naviy , intelektual, ifodaviy shakllari sodda bo‘lib, bayramning asoslaridan biri bo‘lgan kompozitsion yaxlitlik umuman bo‘limgan.

Bu qadimgi davlatlarda o‘sha davrda bayramlarning umumiy ko‘rinishlari vaqt o‘tishi bilan rivojlanib bordi. Keyingi davrlarda esa ommaviy bayramlar yagona bir ssenariy asosida shakllanib bordi. Yunonistonning ko‘p sonli bayramlari ichida— bog‘dorchilik xudosi Dionisga bag‘ishlangan bayramlar alohida o‘rin egallaydi.

Dionis bayramlarida asosan, quyidagi qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Dionisga atab qurbanlik qilish.

Yugurish, kurash, qo‘sish, raqs boyicha fuqarolar musobaqalari va professional mimlar, jongiyorlar, qiziqchilar tomoshalarini o‘z ichiga olgan. Qadimgi Rim bayramlari haqida fikr yuritganda katta maydonlarda o‘tkazilgan jang tomoshalari va boshqa ko‘plab tomoshalar ko‘z oldimizga keladi.

Shuningdek, Qadimgi Yunon va Rim tomoshalari bir biridan tubdan farq qilgan. Rimdag‘i tomoshalar turlariga g‘alabaga bag‘ishlangan katta va kichik triumflar, dengiz janglari kabi tomoshalarni kiritish mumkin. Ommaviy bayramlar haqida so‘z borar ekan, o‘rta osiyo va yurtimizda vujudga kelgan Navro‘z bayrami hozirgi kunga-cha yurtimizda va qardosh xalqlar orasida keng nishonlanadi. Navro‘z bayrami haqida ilk afsonalar Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchraydi. Bu afsonalar ilmiy qarashlarni rad etmaydi shubxasiz. Navro‘z bayrami yangi hayot, tun bilan kun tenglashishi ya‘ni yangi kun demakdir.

O‘zbekistonda navro‘z bayrami xalqimizning say harakatlari evaziga, milliy g‘ururi himoyasida sobitligiga qiyin davrlar bo‘lishi-

ga qaramay ushbu bayram yurtimizda muntazam nishonlanib kelin-gan. 1970–1990-yillarda, undan tashqari 1970–1978-yillarda Navro‘z bayramini katta sayil ko‘rinishida turli bellashuvlar, musiqiy yig‘inlar , kurash musobaqlari shaklida o‘tkazilishi umuman tantana bilan nishonlanishi albatta xalqimiz tashabbusi bilan bo‘lganligi bizga sir emas.

Xulosa qilib aytganda , Ommaviy bayramlar ma’naviy dunyoqarashni shakllantiradi va insonlar qalbida yaxshi orzu va maqsadlarni uyg‘otadi. Shuningdek, ommaviy bayramlarni tashkil etishda juda ko‘plab jihatlarga alohida yondashuv kerak bo‘ladi. Bunga ommaviy bayramlarning joy va muhitining o‘rni ham mavjud.

Ushbu jarayonning to‘liq va o‘z o‘rnida kechishi omma uchun bayram va tomoshalarni muhitini yaratishda yordam beradi.Ommaviy bayramlar haqida so‘z ketar ekan biz teatrlashtirish va sahnalaشتirish qonuniyatlarini alohida inobatga olishimiz albatta biz uchun yordam beradi. Teatrlashtirish bu sahna dramaturgiya qonuniyatlariga asoslangan holda yozilgan yoki yaratilgan asarlar majmuidir.

Ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlar shunga muvofiq bir nechta turlarga bo‘linadi.

Bular:

- Ko‘rik tanlov va festivallar;
- Debatlar;
- Adabiy, ijodiy kechalar;
- Sport musoboqlari.

Teatrlashtirilgan konsertlar va shu kabi katta va ommaviy tadbir-larni ham kiritishimiz mumkin.

Mizanssenalar ham ommaviy bayramlar ko‘rinishini yanada bo-yitadi.Mizanssena bu tadbir ishtiropchilarining tomoshabinga nisba-tan sahnada joylashishidir. Mizanssenalar sahnada plastik harakatlar orqali boyitiladi. Plastik harakatlarning sahnadagi mohiyatini ish-tirokchilarning qo‘l oyoq harakatlari, umumjamoja raqslar va jamoa-ning temporitmda bir bo‘lib harakat qilishi tomoshabinni o‘ziga jalb qiladi va madaniy tadbirlar tub mohiyatini ochib beradi. Ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlar xalqimiz qadriyatlari ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayev B.S., Rustamov V.Q. “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 184 b.
2. Qoraboyev U.X. “Madaniy tadbirlar”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2006. – 152 b.
3. Mamatqosimov J.A. “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi”. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent: Lesson Press, 2019. – 272 b.

IJTIMOY MADANIY FAOLIYATDA MARKETING VA MENEJMENTNING O'RNI

Muqaddas Abdullayeva,

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: Xolmo 'minov Mo 'minmirzo
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti v.v.b*

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy madaniy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda marketing va menejmentning ahamiyati ta'kidlanadi. Undan tashqari marketing va menejmentning o'zaro uyg'un ishlashining ijtimoiy madaniy faoliyatda muvaffaqiyatni ta'minlashdagi o'rni haqida ma'lumotlar va atroflicha fikrlar keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Madaniyat, menejment, marketing, faoliyat, tajriba, iqtisodiyot, muhit, jamiyat.

Abstract: The article emphasizes the importance of marketing and management in the successful implementation of socio-cultural activities. In addition, information and detailed thoughts are provided about the role of the harmonious interaction of marketing and management in ensuring success in socio-cultural activities.

Keywords: Culture, management, marketing, activity, experience, economy, environment, society.

Аннотация: В статье подчеркивается значение маркетинга и менеджмента в успешном осуществлении социальной и культурной деятельности. Кроме того, представлены информация и общие мнения о роли слаженной работы маркетинга и менеджмента в обеспечении успеха в социальной и культурной деятельности.

Ключевые слова: Культура, менеджмент, маркетинг, деятельность, опыт, экономика, окружающая среда, общество.

Ijtimoiy madaniy faoliyat sohasida marketing va menejmentning o‘rni juda katta. Ushbu ikki soha bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga mustahkamlovchi jarayonlardir. Marketing, asosan, madaniy va ijtimoiy tashabbuslarni keng ommaga tanitish, ularni targ‘ib qilish va odamlarning ehtiyojlari va talablariga javob berish uchun ishlatiladi. Menejment esa tashkilotning barcha resurslarini samarali boshqarish, ijtimoiy madaniy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruriy strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Madaniy va ijtimoiy faoliyatni muvaffaqiyatlil olib borish uchun marketing va menejmentning uyg‘un ishlashi zarur. Shu bois, ijtimoiy madaniy tashkilotlar va loyihalar o‘z maqsadlariga erishish uchun bu ikki sohaga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Yurtimizda madaniyat, ma’naviyat hamda ma’rifatga qaratilayotga ishlarning samarasini ko‘zga ko‘rinarli tarizda amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu borada ijtimoiy-madaniy faoliyat haqida to‘xtalib o‘tmaslikning iloji yo‘q. Ijtimoiy madaniy faoliyat bu madaniy qadriyatlarni saqlash va uzatish, shuningdek, ushbu qadriyatlarni tanishtirish orqali shaxs va guruhni rivojlantrish, o‘zini tasdiqlash va o‘zini anglashga qaratilgan faoliyatdir. Odatda bu faoliyat bo‘sht bilan bog‘liq. Mutaxassislar madaniy tadbirlarni tashkil etish bilan shug‘ullanish, oilada va boshqa har qanday sohada qiyinchiliklarga duch kelganda, hech ikkilanmay chiqib keta olish mumkin deb takidlashadi. Bunday faoliyat juda muhim, chunki u individual ijtimoiy muammolarni hal qilishga va jamiyatning madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Hozirgi sharoitda madaniyatni ma’naviy amaliyot yig‘indisi sifatida iqtisodiy tajriba va ijtimoiy-tarixiy jarayon bilan bog‘lab o‘rganishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, uning mohiyatini bilish, ichki tuzilishi, yashab turishi, mayjudlik shakllari, jamiyat hayotining boshqa sohalari rivojlanishiga ta’siri, ayni vaqtida, ularga bog‘liqligi masalalari keng o‘rganilmoqda. O‘zbek madaniyatshunoslik ilmida madaniy meros, ma’naviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, mustaqillikning ma’naviy-axloqiy asoslarini ta’minlashda bu omillarning mavqeini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, yaqin o'tmishda partiyaviylik, sinfiylik, kommunistik mafkuraviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik kabi g'ayri ilmiy tamoyillar ta'sirida bir yoqlama o'rganilgan milliy madaniyatimizni xolisona tahlil etish, milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan qarab chiqish o'ta dolzARB masaladir [1].

Ijtimoiy madaniy faoliyat – bu shaxsning o'z muhitida keng tarqal-gan meyor va an'analarni qabul qilishi orqali ijtimoiy muhitga kirish jarayoni. Ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida sotsializatsiya insonning butun hayoti davomida o'zining ijtimoiy muhitidagi madaniy sharoitlarni o'zlashtirish qobiliyatiga, shuningdek, ushbu madaniy sharoitlarni saqlab qolish yoki ularni o'zgartirish orqali jamiyatda amalga oshirilishiga asoslanadi.

Ijtimoiy madaniy faoliyat shaxsning jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi uchun zarurdir. Ijtimoiy o'zaro munosabatlar meyorlari, kundalik xatti-harakatlar xususiyatlari, mafkura, mentalitet, axloqiy qadriyatlar va madaniy merosning o'zlashtirilishi insonning ijtimoiy jarayonlarga qo'shilishini va jamiyatda shaxsning yanada shakllanishini belgilaydi.

Ijtimoiy madaniy faoliyat bosqichlari quyidagicha ajratilgan:

- moslashish – jamiyat tomonidan to'plangan tajribani o'zlashtirish, taqlid qilish;
- identifikatsiyalash – shaxsning o'zini o'zi aniqlash, ajralib turish istagi;
- integratsiya – shaxsning ijtimoiy jarayonlar ishtirokchisi sifatida shakllanishi;
- mehnat faoliyati bosqichi – olingan bilim va ko'nikmalarni amalga oshirish, ijtimoiy muhitga ta'siri;
- mehnatdan keyingi faoliyat bosqichi – ijtimoiy tajribani keyingi avlod vakillariga o'tkazish;

Menejment tushunchasi esa jamiyat hayotini ta'minlovchi turli ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beruvchi boshqaruv faoliyati tizimini anglatadi. Bular tijorat va notijorat biznes, fan va siyosat, ta'lif va boshqalar.

Madaniyat va san'at sohasidagi menejmentni faqat insonning ijtimoiy madaniy ehtiyojlarini qondiradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan tashkilotlarga nisbatan ko'rib chiqaylik. Bunday faoliyat turli bo'limlarga kiruvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Ularning mansubligi davlat yoki munitsipal bo'lishi mumkin. Madaniyat va san'at sohasida faoliyat yurituvchi xususiy tashkilotlar mavjud. Ularning barchasi turli xil mulk shakllariga ega bo'lishi yoki jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilishi mumkin.

Madaniyat sohasidagi menejmentning eng muhim xususiyatlari shundan iboratki, ushbu sohani moliyalashtirish, qoida tariqasida, homiylar, xayriya tashkilotlari, byudjet mablag'larini taqsimlovchi davlat organlari va boshqalardan pul mablag'larini jalg qilish natijasidir va umuman tijorat faoliyati emas. Hatto taniqli shou-biznesda ham chiptalarni sotishdan olingan daromad yo'qsayohat byudjetining 15 foizdan oshadi. Qolgan barcha mablag'lar homiylar tomonidan ajratiladi. Sayohatlarning o'zi esa ko'pincha yangi albom yoki diskni targ'ib qilish uchun tashkil etiladi [2].

Madaniyat va san'at sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda bu sohaning rivojida marketing va menejmentning ham o'rni va roli katta desak adashmagan bo'lamiz.

Madaniyat va san'at sohasi menejmentining dastlabki ko'rinishlaridagi faoliyati hisoblangan madaniyat va san'at sohasi menejmentining yuqori bosqichi odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo'shimcha kasblar, hunarlarni o'rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to'garaklarda faoliyat yuritish singari mashg'ulliklar tarzida amal qila boshladi. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasi menejmenti turmush tarzini bezash, an'ana va urf-odatlarni o'tkazish, diniy marosimlarni, tabiat va rasmiy bayramlarni nishonlash shaklida ham namoyon bo'la bordi. Shu tariqa madaniyat va san'at sohasi menejmentining odamlar hayotida mustahkam joylashganligining asosiy omillari oydinlashdi [3].

Insonning madaniy an'analarni o'zlashtirish jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir.

Madaniyat inson dunyoga kelishi bilan paydo bo‘lib u bilan birgalikda yashaydi. U keng qamrovli soha bo‘lib, faqatgina bir sohada emas, barcha sohada o‘zining o‘rniga ega. Inson dunyoga kelar ekan u atrofni tanishi, ota onasini bilishi, tilga kirishi, tabassum qilishi, ilk qadamlarini bosishi bularning barchasi madaniyat aslida. Shunday ekan biz madaniyat haqida bilmaganlarimiz anchagina.

Menejmentning samaradorligini ko‘proq darajada ilmiy yonda-shuvlar va tamoillardan foydalanish bilan belgilash mumkin.

Umuman olganda ijtimoiy madaniy faoliyatda marketing va menejmentning o‘rni beqiyosdir. Marketing, madaniy va ijtimoiy ta-shabbuslarni keng jamoatchilikka tanitish va ommaga taqdim etishda muhim rol oynaydi, menejment esa barcha jarayonlarni boshqarib, resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlaydi. Marketing va menejmentning uyg‘un ishlashining natijasida ijtimoiy madaniy loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va kengroq auditoriyaga yetib bora-di. Shu bilan birga, marketing va menejment faoliyatining natijalarini o‘lchash va takomillashtirish hamda yangi g‘oyalarni amalga oshirish jarayonida dolzarb ahamiyatga ega. Umuman olganda, marketing va menejment ijtimoiy madaniy faoliyatda mustahkam asosni yaratadi va jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodov M, Umarov A, Qoraboyev U, Haydarov Z. Madaniyatshunoslik asoslari. “Ma’naviyat” nashryoti. 2016-yil 336-bet
2. uz.techconfronts.com
3. S. Shermatov. San’at va madaniyat menejmenti (boshqaruva san’ati) haqida ilmiy yondashuvlar va uning zamонавиј klassifikatsiyasi. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. SJIF 2022:5.947

SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

Baxtiyor Samiyev,

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim*

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

"Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi" sohibi

Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'mminmirzo

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti v.v.b*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi madaniyat va san'at sohasi taraqqiyoti hamda erishilgan yutuqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan va atroficha fikrlar bildirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, madaniyat va san'at, informasion texnologiyalar, milliy qadriyat, to'garak, studiya, badiiy xavaskorlik jamoalari.

Abstract: In this article, information about the development and achievements of the culture and art sphere in Surkhandarya region is presented and some general comments are made.

Keywords: Artificial intelligence, culture and art, information technology, national value, circle, studio, artistic amateur groups.

Basharning globallashuv asri bo'lmish – XXI asrda sun'iy intellekt barcha sohalarda oldingi o'ringa chiqib, intellektual salohiyat ijtimoiy hayot mezonini belgilovchi darajaga aylandi. Informatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi esa, insonlarni jonli hodisalardan biroz uzoqlashtirib, ma'naviy tahdidlarning ko'payishiga va salbiy illatlarning ildiz otishiga sabab bo'ldi. Mohiyatan ham, mazmunan ham yangi islohotlar barcha sohalar singari madaniyat va san'at sohasi eshigini ham taqillatib keldi. Yangi O'zbekiston oldida turgan yangi vazifalar ichida madaniyat va san'at sohasini yanada yuksak

pog‘onaga ko‘tarish, xalqimizning ma’naviy intellektual darajasini rivojlanishga alohida e’tibor berildi.

Joriy yilda yurtimizda 72 ta sohil bo‘yi dam olish maskanlari, tunu kun ishlaydigan 154 ta turizm va gastronomik ko‘chalar, 62 ta istirohat bog‘i zamonaviy qiyofaga keltirilib, xalqimizga madaniy xizmat ko‘rsatishga shay maskanga aylantirilgan. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva va Toshkent shahrida o‘tkazilgan xalqaro konsert va madaniy festivallar sabab madaniyat va san’at muassasalari soni orrib, madaniy xizmat ko‘rsatish indikatorlari ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda.

Ayniqsa, bo‘s sh turgan madaniyat va san’at muassasalarini tadbirkorlarga imtiyozlar orqali berish, xususiy sektorga o‘tkazilayotgani ham sohadagi islohatlardan biri bo‘ldi. Bu tizim madaniyat va san’at muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratishdagi omillardan biri ekanligini soha olimlari bot-bot takrorlamoqda. Sababi, madaniyat va san’at muassasalari binolarini qurish va ta’mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi ishlar talab darajasida emas edi.

Madaniyat va san’at muassasalarini xususiy sektorga o‘tkazishning jarayonining afzalliklari shundaki, xususiy sektorda innovasion yondashuv, yangi kreativ g‘oya va metodlarni qo‘llash imkonini beradi. Mazkur islohotlar haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “O‘tgan yili 15 ta madaniyat markazi xususiy sektorga berildi. Tadbirkorlar 86 milliard so‘m investisiya kiritib, 1,5 mingdan ziyod madaniy tadbir tashkil qildi”, – deya ta’kidlab o‘tgan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ham madaniyat va san’at sohasini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ham bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Barcha hududlar singari Surxondaryo viloyatida ham madaniyat va san’at sohasida qisqa fursat ichida olamshumul islohatlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Endi, ko‘nglimdagи bitta gapni aytsam. Agar yana bir-ikki yil birgalikda qattiq ishlasak, Surxondaryoda juda katta rivojlanish, o‘sish bo‘ladi” – deya Surxondaryoda aholisiga katta ishonch bildirib, ruhlantirgan edi. O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-apreldagi 240-son “Surxondaryo viloyatida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida” qarori qabul qilindi. Qisqa vaqt ichida qaror ijrosi yuzasidan Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan 15 ta namunaviy madaniyat markazlarida ta’mirlash ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda viloyatdagi madaniyat markazlaridagi jami to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari soni 463 tani, ishtirokchilar soni 4993 nafarni tashkil etmoqda. Mazkur madaniyat markazlari qoshida 60 ta “Xalq havaskorlik jamoasi” va “Namunali bolalar jamoasi” unvonga ega havaskorlik jamoalari hamda folklor-etnografik, ashula va raqs ansambllari (19 ta ashula va raqs ansambli, 26 ta folklor-etnografik jamoasi, 9 ta havaskorlik teatri, 4 ta dorbozlik guruhlari va 1 ta maqom hamda 1 ta cholg‘u ansambllari) faoliyat ko‘rsatib, ulardagi qatnashchilar 1016 nafarni tashkil etadi. Mazkur jamoalarning barchasi shtat birliklari bilan ta’minlangan. 5 ta muhim tashabbus doirasida viloyat yoshlari o‘rtasida kitobxonlik an’anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e’tibor qaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan say-harakatlar diqqatga sazovordir. Har bir tuman markazlarida kitob do‘konlari, kutubxonalar ochildi va yangi asarlar bilan boyitilib kelinmoqda.

Bugungi kunda aholining kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish bo‘yicha bolalar va kattalar uchun boshqarma tasarrufidagi 15 ta madaniyat markazlarida 26553 ta kitob fondiga ega bo‘lgan kutubxonalar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 2-maydagi 240-son buyrug‘iga asosan joriy yilning oxiriga qadar qo‘sishmacha 7 ta madaniyat markazlarida yangidan kutubxonalar tashkil etish hamda ularni adabiyotlar bilan ta’mirlash yuzasidan tegishli tashkiliy ishlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2024-yil 27-fevraldagagi “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayillarini o‘tkazish to‘g“risidagi 104-son buyrug‘i ijrosini ta’mirlash maqsadida Surxondaryo viloyati madaniyat boshqarmasining 2024-yil 5-martdaggi 11-sonli buyrug‘i ishlab chiqilgan. Maz-

kur vazifalar ijrosini taminlash maqsadida joriy yilning mart oyida Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlarida, viloyat madaniyat muassasalarida “Milliy qadriyatlar oyligi” munosabati bilan turli tadbirdilar va xalq sayllari o’tkazildi. “Baxshichilik” yo‘nalishi bo‘yicha madaniyat markazlarida 4 ta to‘garak hamda bolalar musiqa va san’at maktablarida 19 ta sinflar tashkil etilgan. Mazkur to‘garak va sinflarda 16 nafar xalq unvoni, orden va medallar sohibi bo‘lgan baxshilar saboq bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini viloyatda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida Surxondaryo viloyati madaniyat boshqarmasining 2024-yil 29-yanvardagi “Viloyatda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada kengroq qo‘llab-quvvatlash dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i va viloyatda nomoddiy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada kengroq qo‘llab-quvvatlash 2024-yil fevraldagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Noyob va yo‘qolib ketishi xavf ostida bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo‘yicha nomoddiy meros namunalarini saqlovchi va keyingi avlodga yetka-zish bilan shug‘ullanadigan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot institutiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda o‘sib kelayotgan avlodning ongi va tafakkurini salbiy illatlardan himoya qilish ma’nosida ularda ma’naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ongiga aj-dodlarimizdan meros bo‘lib qolgan azaliy qadriyatlar – e兹gulik, odamiylik, bag‘rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda madaniyat va san’at sohasining o‘rni beqiyosdir.

Bu kabi islohatlar bejiz emas. Aynan Vatanimiz tarixini, ayniqsa, uning madaniyati va san’atini chuqur anglash orqali o‘sib kelayotgan avlod nafaqat shonli o‘tmishimizni, balki Yangi O‘zbekistonning tom mazmunini, istiqbolining mohiyatini yanada teran tushunib yetadir. Ijodiy, madaniy-ma’rifiy faoliyat, boy madaniy merosimiz asrlar

davomida xalqimizning ma’naviy timsoli sifatida hamisha jahon ahliining e’tiborini tortib kelishiga ishonaman. Amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimizga yanada targ‘ib qilishda esa, mukammal ta’mirlangan va jihozlangan, shinam va ko‘rkam madaniyat va san’at muassasalari ham o‘z ijodiy ishlari bilan xizmat qilaveradi. Sababi mazkur muassasalarda yaratib berilayotgan imkoniyatlar va ijodiy salohiyat kundan-kunga ortib boraveradi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. 2025-yil 7-fevraldagi Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yil uchun asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7863>.
2. 2023-yil 13-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokidagi Termiz shahrida Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining sessiyasidagi nutqi.
3. Samiyev B. “Farzand orzusi”. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2025-yil 21-fevral 37-soni.
4. Surxondaryo viloyati Madaniyat boshqarmasining rasmiy telegram kanalidagi ma’lumotlar. <https://t.me/surxonmadaniyati>.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI BOSHQARUVIDA YOSH RAHBAR KADRLARGA XOS FAZILATLAR VA QOYILADIGAN TALABLAR

Zarina Nurullayeva,

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" ta'lif
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'minmirzo
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti v.v.b*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh rahbarlarning madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruvda qanday muhim fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini, shuningdek, ular uchun qoyiladigan talablari haqida ma'lumotlar keltirilgan va atroflicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat va san'at, liderlik, boshqaruvchanlik, rahbar, natija, personal, prinsip, ijtimoiy faoliyat, mas'uliyat.

Abstract: This article provides information and detailed opinions on the important qualities that young leaders should have in the management of culture and art, as well as the requirements for them.

Keywords: culture and art, leadership, management, leader, result, personnel, principle, social activity, responsibility.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важных качествах, которыми должны обладать молодые лидеры в управлении культурой и искусством, а также требования, предъявляемые к ним, и приводятся развернутые мнения.

Ключевые слова: культура и искусство, лидерство, менеджмент, лидер, результат, персонал, принцип, социальная активность, ответственность.

Madaniyat va san'at sohasi jamiyatning eng muhim tarmoqlariidan biri bo'lib, ular xalqning milliy o'zligining, tarixining va qadri-

yatlarining aks etgan shakllaridir. Madaniyat va san’at sohasi nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda ham muhim rol oynaydi. Shu sababli, bu sohada samarali boshqaruv va rahbarlik qilish o‘ta mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Madaniyat va san’at sohasi boshqaruvida yosh rahbarlarning roli alohida ahamiyatga ega, chunki ular yangi g‘oyalar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy qarashlarni kiritish orqali sohani rivojlantirishga katta hissa qo‘sishlari mumkin. Biroq, bu muvaffaqiyatga erishish uchun yosh rahbarlarda bir qator muhim fazilatlar va malakalar bo‘lishi lozim.

Tadqiqotlarga ko‘ra tajribali yosh rahbar kadrlarning kirishimlilik masalani tez va oson hal qilishi, xarakteridagi hazilkashlik va hozir-javoblik ishga nihoyatda ijobjiy ta’sir qilar ekan. Chunki xodimlarni qaysidir ma’noda ayab muomila qilish, bir og‘iz so‘z bilan ruhiyatlariga ta’sir qilish yoki beg‘araz hazllashib o‘tib ketish ham xodimning toliqqanini yodidan chiqib ketishiga sabab bo‘lar ekan. Shunday ekan har qanday yosh kadr rahbarlar turli xil fazilatlar egasi, hamda ishining ustasi bo‘lishi kerak. Deylik katta muassasaga yosh rahbar saylandi. Albatta saylanishdan oldin 5 oliy fazilatga ega bo‘lmog‘i kerak. Jumladan:

1. Yetakchilik qobiliyati. Bu faqat yosh rahbar uchun emas, balki oliy bo‘g‘inning hamma katta-yu kichik rahbarlari uchun ham mutlaqo zarur bo‘lgan xislat hisoblanadi. Rahbar xodimlarni yutuqlarga, vazifasini suistemol qilmaslikka va jamoa a’zolari manfaatlarini hurmat qilishga ruhlantirishi kerak.

2. Strategik fikrlash va rahbarlik. Bu oldindan ko‘ra bilish, fikrlash doirasining kengligi, kompaniya faoliyatini boshqara bilish, bularning hammasi rahbarlik lavozimida muvaffaqiyatli ishslash uchun juda zarur bo‘lgan fazilatlar.

3. Texnik va texnologik malaka. Eng ko‘p talab qilinadigan rahbarlik fazilatlari ichida texnik malakalar uchinchi o‘rinda tilga olinadi.

4. Munosabatlar o‘rnatish va jamoa tashkil qilish qobiliyati. Zamonaviy rahbar o‘zining manfaatlariga emas, balki jamoa manfaatlariga moslashishi kerak.

5. O‘zini ko‘rsata olish va muloqot qilish. Mutaxasislar fikri-cha mukammal rahbar, ishontira olishi, o‘zini va o‘z fikrlarini ko‘r-sata olish, eng katta doiradagi manfaatdor shaxslar bilan intelektual muloqotda bo‘la olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Yuqorida sanab o‘tganlarim har qaysi yosh-u katta rahbarda namoyon bo‘lib turishi kerak. Rahbar qachon el-yurt ishonchini, e’tiborini qozona oladi? Qachonki, yuragi, qo‘li toza, ko‘ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo‘lsa tabiatda qat’iyatlilik bilan bilim, talabchanlik bilanadolat uyg‘un bo‘ladi. U o‘zi boshqaradigan odamlarning g‘am tashvishlari ni o‘z qalbidan o‘tkazishga qodir bo‘ladi.

Har qanday rahbar, ayniqsa, madaniyat va san’at sohasida keng va chuqur fikrlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu soha estetik va kreativ yondashuvlarni talab qiladi, shuning uchun rahbar san’atni tushunishi, zamonaviy g‘oyalar va qadimiy an‘analar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashi zarur. Shu bilan birga, rahbar chaqqon, ud-daburon va harakatchan bo‘lishi ham kerak. Madaniyat va san’atni boshqarishda tezkor qarorlar qabul qilish va amaliyotga kirishish zarur. Fikr va harakat bir vaqtning o‘zida roy berishi lozim, chunki san’at va madaniyat sohasida yangi g‘oyalar va uslublar tez-tez paydo bo‘lib turadi.

Madaniyat va san’at sohasida rahbarning harakati va tafakkuri bir-birini to‘ldirishi kerak. Boshqaruvda fikrlash va harakatning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Rahbar nafaqat mantiqiy xulosalarga kelishi, balki ularni amalga oshirish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim. Madaniyat va san’at sohasini boshqarishda ijodiy qarorlar tezda amalga oshirilishi kerak, bu esa rahbarning chaqqonligi va shijoatini talab qiladi. Ijodkorlar bilan o‘zaro munosabatda, rahbar amaliy yordam ko‘rsatish va ularning fikrini inobatga olishda muhim rol oynaydi.

Madaniyat va san’at sohasini boshqarish faqat ijodiy qobiliyat bilan cheklanmaydi, balki rahbar iqtisodiy, huquqiy bilimlarga ham ega bo‘lishi lozim. Sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va huquqiy asoslarni tushunish, axborot texnologiyalaridan samarali

foydalanimish va chet tillarini bilish rahbarning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida sohani yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Rahbarning vazifalaridan biri qarorlarni o'z vaqtida va to'g'ri qabul qilishdir. Madaniyat va san'at sohasida bu, ayniqsa, ahamiyatlidir. Chunki qarorlar faqat rahbar tomonidan qabul qilinishi kerak, ammalular amalga oshirilishi uchun jamoaning barcha a'zolari fikri va hamkorligi kerak bo'ladi. Sohani rivojlantirishda rahbar faqat o'z qarorini emas, balki jamoaning fikrini ham hisobga olishi zarur. Tashkilotning muvaffaqiyati va kelajagi jamoa bilan birgalikda ishlashga bog'liq bo'ladi. Undan tashqari madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida yosh rahbarlar nafaqat chuqur fikrlash, balki tezkor va samarali harakat qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Boshqaruvida ijodiy va mantiqiy qarorlar o'rtasidagi uyg'unlik muhimdir. Rahbarlar o'z sohalariga oid bilimlarni kengaytirib, iqtisodiy, huquqiy va texnologik ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, jamoaning fikrini inobatga olgan holda to'g'ri qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishga katta e'tibor qaratish kerak. Madaniyat va san'atni rivojlantirishda rahbarning ko'rsatayotgan rahbarlik yondashuvi va uning faoliyatini boshqarishdagi muvaffaqiyati jamiyatning madaniy kela-jagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida yosh rahbarlarga yuqori liderlik qobiliyatları, ijodkorlik, strategik fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar zarur. Ular san'at va madaniyat sohasidagi yangi yondashuvlarni amalga oshirishda, resurslarni samarali boshqarishda va jamoa bilan samarali ishlashda o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari uchun, juda muhimdir. Shu bilan birga, yosh rahbarlarning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni hisobga olishlari, madaniy merosni asrab-avaylash va jamiyat ehtiyojlariga javob berishlari muhimdir. Ular bu talablarga javob berish orqali, nafaqat o'z sohasini, balki jamiyatni ham rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Xojiev E. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari. // Toshkent. – “Yangi kitob”, 2017. 257-bet.
2. Haydarov A. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. – “Kamalak” nashriyoti, 2019. 192-bet
3. Xolov A. Boshqaruv qarorlari ijrosini ta’minlashda rahbar mas’uliyati. // – Toshkent: “Akademiya”, 2014, – 124-bet.
4. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent, – “Yangi asr avlod” 2016, 132-bet.
5. Mardiev, Shahbozxon Abdusamat O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. “BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAHBARLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH.” *Oriental Art and Culture* 3.3 (2022): 164–168.
6. Ashiraliyeva, Malikaxon Qaxramon Qizi, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. “BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAHBARLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH.” *Oriental Art and Culture* 3.3 (2022): 41–44.

MENEJMENTNI O'RGANISH...

Barno Ravshanova,

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'minmirzo
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ayrim tadqiqotlar menejment kishilardan nafli samaralar olish san'ati, deb hisoblashadi. Faoliyatning ilg'orligi, izlanishga moyillik, oddiy tuzilma va kam sonli hodimlar; iste'molchilar bilan yaqinlik, unumdorlikni ta'minlashda insonning hal qiluvchi o'rni, tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi, asosiy faoliyat turiga birlamchi e'tibor, hammadan ko'ra yaxshiroq tanish bo'lgan sohaga kirishish hamda erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo'llash yuqori toifa va mukammal menejmentga xos belgilari sanaladi.

Kalit so'zlar: Nazariya, faoliyat, menejment, prinsp, tajriba, tehnika, Teylorizm, konsepsiya, tadqiqot, samara, rag'bat, mehnat, boshqaruv.

Abstract: Some studies consider management people to be the art of obtaining customs. The development of activity, research, simple structure and low-incocal, and the solution to the main focus of the main focus, and the use of freedom and strong control are characteristic of the main focus, and the perfect management is characteristic of a better use of freedom and powerful management.

Keywords: Theory, activity, Management, Prinsp, Experience, Technology, Table, Concept, Resolution, Activities, Labor, Management.

“Menejment alohida faoliyat turi bo ‘lib, tashkil etilmagan betarib ommani bir maqsadga yo ‘naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o ‘zgarishlarni rag ‘batlantiruvchi element hisoblanadi.”

Piter Druker

Nima uchun menejmentni o ‘rganishimiz kerak? U bizga nima beradi?

Ayni paytda qay sohaga nazar solmaylik uni zamonaviy texnika va tehnalogiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qoyish, har bir sohaga yangicha yondashuv, kreativ g‘oyalarni maqsadga aylantirish va ularni aynan kreativ usulda amalga oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim sanalgan masaladir. G‘arb mamlakatlaridan kirib kelayotgan yangicha ish tajribalari, tehnika – tehnalogiyalar qatorida ayrim sohalarning yangicha nomlari ham kirib kelmoqda. Jumladan, “Menejment” atamasi ham xozirgi zamon talabi bilan , nafaqat bir soha sifatida, balki darslik qo‘llanmasi sifatida ham yurtimizda keng ommalashdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Menejment fanining mazmuni boshqaruvi tizimi va boshqaruvi obekti orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san’ati sirlarini o‘rganishdan iborat. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasini hamda ishchi kuchining sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Menejment so‘zi inglizchadan tarjima qilinganida – boshqarish, tashkil etish, maxsus boshqarish faoliyati, ya’ni boshqarish to‘g‘risidagi fandir. Boshqarish – tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan va eng avval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog‘liqidir. Menejment fanining nazariy asoslарini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi va ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiylar, nazariy g‘oyalilar, ish prinsiplari hamda uslublari ishlab chiqilgan. Biz o‘z tariximiz-

ga nazar solsak, boshqarish usullari va uning asosiy tamoyillari haqidagi 14–15-asrlarda yashab o‘tgan buyuk sarkarda, sohibqiron bobomiz Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari” asarida davlatni boshqarish, qo‘losti mulozimlarni, qo‘shinni boshqarish va boshqaruv san’ati to‘g‘risidagi o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergen.

Shu jumladan, sharqning buyuk allomalari, mutafakkir – donolari bo‘lgan bobolarimiz Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi yana ko‘plab ajdodlarimizning ushbu sohaga oid o‘z qarashlari va yozib qoldirgan asarlari talaygina. Menejment sohasining tarixi necha asrlarga borib taqalsada, ammo alohida fan-soha sifatida menejment 19-asrga kelib shakllana boshlagan.

Menejment atamasi haqida so‘z borganda, amerikalik olim va muhandis Teylor nomini aytib o‘tmaslikning iloji yo‘q. Teylor ilk bor ishlab chiqarishni boshqarish, mehnatni tashkil etish, moddiy rag‘batlantirish hamda biznes samaradorligi nazariyasi haqida, Telorizm – ya’ni, menejment nazariyasining bir yo‘nalishi sifatida ushbu sohani fanga olib kirdi. U mehnatni ratsional tashkil etish qonuniyatlariga asoslangan qat’iy ilmiy bilimlar tizimini taklif etdi.

Ayrim tadqiqotlar menejment kishilardan nafli samaralar olish san’ati, deb hisoblashadi. Faoliyatning ilg‘orligi, izlanishga moyillik, oddiy tuzilma va kam sonli hodimlar, iste’molchilar bilan yaqinlik, unumtdorlikni ta’minlashda insonning hal qiluvchi o‘rni, tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi, asosiy faoliyat turiga birlamchi e’tibor, hammadan ko‘ra yaxshiroq tanish bo‘lgan sohaga kirishish hamda erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo‘llash yuqori toifa va mukammal menejmentga xos belgilar sanaladi. Menejment sohasida ko‘plab nazariyalar va amaliy usullar mavjud bo‘lib, soha tashkilotlarni samarali boshqarish, resurslarni optimal taqsimlash, qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi. Menejmentni ko‘plab qismlarga bo‘lish mumkin, shu jumladan;

– Strategik menejment – tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari ni aniqlash va ularga erishish uchun reja tuzish.

– Amaliy menejment – kundalik operatsiyalarni va resurslarni boshqarish. Masalan, vaqtini boshqarish, hodimlar bilan ishlash va hakozo.

– Moliyaviy menejment – tashkilotning moliyaviy resurslarini boshqarish, byudjet tuzish va investitsiya qarorlarini qabul qilish.

– Ishchi kuchi menejmenti – xodimlarni tanlash, ularni malakaviy faoliyatini oshirish va motivatsiya berish.

– Liderlik va motivatsiya – tashkilot samaradorligini oshirish uchun yetakchilik qiluvchi va xodimlarni rag‘batlantirish usullarini qo‘llash.

Shu o‘rinda menejer va lider o‘rtasidagi farqni anglab olish joizdir. Bu ikkisi orasidagi farq ko‘pincha ular o‘z vazifalarini qanday amalga oshirishi bilan bog‘liqdir.

Menejer, ya’ni rahbar – odatda aniq maqsadlar va jarayonlar asosida ishlaydi. U boshqaruv va tashkilotning samarali ishlashini ta‘minlash uchun resurslarni boshqaradi. Rahbarlik ko‘proq nazorat, rejalashtirish, tartibni yaratish va muammolarni hal qilishga qaratilgan. Uning asosiy vazifasi – tizimni to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash. Rahbar – jamoaga yo‘naltirilgan, lekin ko‘proq amaliyot va boshqaruv tamoyillariga e’tibor qaratadilar.

Lider – odamlarni ilhomlantirish, ularni maqsadga yo‘naltirish va motivatsiya qilish orqali o‘zgarishlarga erishishga intiladi. Liderlar ko‘proq yangiliklar yaratishga, o‘zgaruvchan muhitda innovatsiyalar ni amalga oshirishga e’tibor qaratadilar. Ular o‘z jamoalarini yuksak idealarga erishishda yordam beradi va ko‘pincha izchil tarzda ijtimoiy va emotsiyal yondashuvni qo‘llaydilar. Shu bilan birga, rahbar va lider orasida o‘zaro farq va yaqinlik mavjud, chunki ba’zi rahbarlar liderlik xususiyatiga ham ega bo‘lishi mumkin. Yuqorida aytilgani-dek, rahbarning vazifasi ko‘proq ishni boshqarish bo‘lsa, liderning vazifasi hodimlarni o‘z maqsadlariga yo‘naltirish va ilhomlantirishdan iboratdir.

Menejment sohasida ishslash uchun yuqori darajadagi tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ijobiy qarorlar qabul qilish qobiliyati kerak bo‘ladi. Bu soha, odatda, turli sanoatlar va tashkilotlarda, jumla-

dan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va boshqa bir qator sohalarda keng qo'llaniladi. Menejment sohasini rivojlantirish tashkilotning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim sanaladi. Rivojlantirishning asosiy yo'nallishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– Texnologiyalarni joriy etish: menejment sohasida yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellect, katta ma'lumotlar (big data) va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida jarayonlarni yaxshilash mumkin. Bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

– Ta'lim va malaka oshirish: menejerlarning doimiy ta'lim olishi va yangi metodologiyalarni o'zlashtirishi tashkilotning rivojlanishiga yordam beradi. Menejment kurslari, seminarlari va treninglari orqali menejerlarning nazariyi va amaliy bilimlarini yangilab boorish zarur.

– Innovatsion yondashuvlar: menejmentda innovatsiyalarni joriy etish, yangi ish usullarini ishlab chiqish, mahsulot va xizmatlarni yaxshilash orqali tashkilot o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Bu kreativlik va ijodkorlikni rag'bathlantirishni talab qiladi.

– Resurslarni samarali boshqarish: rivojlanayotgan tashkilotlar resurslardan moliyaviy, insoniy va moddiy tomonidan maksimal darajada foydalanishga intilishlari kerak. Masalan, resurslarni qisqartirish va optimal taqsimlash orqali xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish mumkin.

– Liderlikni rivojlantirish: yaxshi menejerlar va yetakchilar tashkilotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Liderlikni rivojlantirish, hodimlar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularga motivatsiya berish menejment sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur hisoblanadi.

– Qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish: tez va samarali qarorlar qabul qilish uchun tizimli yondashuvlarni joriy etish muhimdir. Analitik metodlar, shuningdek, risklarni hisobga olish va prognoz qilish usullari qarorlar sifatini yaxshilaydi.

– Korxona madaniyatini shakllantirish: tashkilot ichidagi ijobiy madaniyat, ishonch va hamkorlikni rivojlantirish, hodimlarning o'z

ishiga bo‘lgan ma’suliyatini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, umumiy samaradorlikka ta’sir qiladi.

Menejment sohasini rivojlantirishda tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlari, sanoat sharoitlari va global iqtisodiy tendensiyalarni inobatga olish zarur. Eng muhim, rivojlanish jarayoni doimiy ravshda kuzatilib, kerakli o‘zgarishlar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda ish dunyosi tez o‘zgarib turadi. Mamlakatimizda ham kun sayin yangicha ish metodlari, zamonaviy ofeslar, tehnika – tehnologiyalar o‘zgarishlari jadallashgan tarzda tus olgan. Yangi O‘zbekiston ravnaqi va taraqqiyoti uchun xozirgi kunda har bir sohani rivojlantirish maqsadida ayni damdagи zamon talabiga mos va shu zamon bilan ishlay oladigan zamonaviy menejerlarni tayyorlash ta’lim tizimidagi ustuvor masalalardan biridir. Oliy ta’lim muassasalarida malakali kadrlarni yetkazib berish borasida bir muncha chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda, zamonaviy menejerlar qanday bo‘lishi kerak? degan savol paydo bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy menejerlar – o‘z jamoasini ilhomlantirishi va ular bilan samarali ishlashi, jamoa a’zolarini o‘z maqsadlariga erishishiga undab, motivatsiya yaratishi lozim. Zamonaviy menejerlar – yangi tehnologiyalarni, asosan raqamli vositalarni samarali qo‘llay olishi zarur. Bu ular uchun operatsiyalarni mukammal amalga oshirish, kommunikatsiya va ma’lumotlarni boshqarishda yordam beradi, qolaversa, innovatsiya va tehnologiyalarga oid bilim zamonaviy menejer uchun suv va havodek zarurdir.

Menejerlar uchun ahamiyatlari xislatlardan yana biri, bu moslavchchanlikdir. Bu borada menejer, o‘z jamoasini tezda o‘zgarishlarga moslashtirishi va yangi vaziyatlarga to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam berishi kerak. Emotsional aql bilan ish ko‘rish, o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishi hamda boshqarishi menejer fazilatlaridan biri sanaladi. Bu unga jamoasidagi nizolarni hal qilish va samarali ish faoliyatini o‘rnatish imkonini beradi. Strategik fikrlash uning ish faoliyatini asosiy qismidir, chunki, uzoq muddatli rejalashtirish, jarayonni baholash, samarali va maqsadli qarorlar qabul qilishda menejerlar uchun ayanan strategik fikrlash juda muhimdir.

Rejalarni amalga oshirishda vaqt kutib turmasligini ular doim yodida tutishi kerak, zarur bo‘lganda tez va o‘zgarmas qarorlar qabul qilishlari ish unumdorligini oshirishi mumkun, chunki ko‘plab sohalarda vaqt juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy menejerning ko‘nikmalaridan yana biri, samarali muloqot va tushunishdir. Ular nafaqat o‘z jamoasiga, balki boshqa bo‘limlar yoki tashqi hamkorlar bilan ham yaxshi aloqalar o‘rnata olishlari kerak. Shuningdek, zamonaviy menejerlar o‘zlarining professional o‘sishlariga, o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishga katta e’tibor qaratishlari lozim. Shunday qilib zamonaviy menejerlar, menejment fanini chuqur o‘zlashtirishi, ish faoliyatida kreativ yondashuvlar, maqsadli g‘oyalar asosida sohani rivojlantira olishlari zarur.

Menejment qamrovi – bu tashkilotning barcha faoliyatlarini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishni ta’minlovchi tizimdir. Ushbu tizim, malum bir sohani barcha jabhalarini qamrab olib, strategik maqsadlar va kundalik faoliyatini samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Menejment haqida turli olimlar va mutaxassislar turlicha fikrlarni bildirib o‘tishgan. Ularning asarlari va qarashlari menejmentning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, Henri Fayolning fikricha, “boshqaruva prinsiplari orasida “muvofiglashtirish”, “avtoritet va ma’suliyat”, “hodimlarning motivatsiyasi” kabi tamoyillar mavjudligi hamda menejmentni rejalashtirish, tashkil etish, buyurish, nazorat qilish va koordinatsiya qilish kabi funksiyalarni o‘z ichiga oladi” deb ta’kidlaydi. Elton Mayoning fikriga ko‘ra, “ishchilarining ehtiyojlarini, motivatsiyasini va o‘zaro munosabatlarini hisobga olish boshqaruva samaradorligini oshiradi”, ya’ni Mayo, inson omili muhimligini, ishchilarни jamiyatda va mehnat muhitida psixologik omillar, rag‘batlantirish, guruh ishlari va ijtimoiy aloqalar ta’sir etishini ta’kidlagan. “Menejment” – bu kutilgan natijalarni amalga oshirish uchun boshqaruva va hodimlarni samarali yo‘naltirish” deydi Peter Drucker. Shu va bir qator olimlarning fikrlari menejmentni yanada rivojlantirish va tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Har bir nazariya va yondashuv o‘z vaqtida hamda sharoitda samarali bo‘lgan va xozirgi menejment uslublariga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Menejmentning turli jihatlari, boshqaruvning ahamiyati va odamlar bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlarini yorituvchi aforizmlar:

“Menejerlar boshqalarni boshqarish o‘rniga, ularga imkoniyat yaratadilar.” – Tom Peters

“Boshqaruv – bu odamlar orqali ishlarni bajarish san’ati.” – Peter Drucker

“Jamoa yutug‘i – bu rahbarning muvaffaqiyatidir.” – John C. Maxwell

“Menejment – bu ishni to‘g‘ri bajarish, liderlik esa to‘g‘ri ishni qilishdir.” – Peter Drucker

“Ishni muvaffaqiyatli boshqarish uchun, jamoaning imkoniyatlariga ishonish kerak.” – Henry Ford

“Yaxshi menejerlar odamlarning kuchini birlashtiradi, eng yaxshi menejerlar esa ularga o‘z kuchini topishlariga yordam beradi.” – Steve Jobs

“Rahbarlik – bu odamlarni to‘g‘ri yo‘nalishga olib borish san’ati.” – Warren Bennis

“Menejer – bu ishonchni yaratadigan va davomiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan asosiy turtki.” – Jack Welch

“Odamlarni boshqarish oson emas, lekin ular bilan birga ishlashni o‘rganish zarur.” – Bill Gates

“Menejerlar yaxshi strategiyalarni yaratadilar, lekin ularga amal qiluvchi jamoa kerak.” – Michael Porter

Umumiy xulosa qilib aytganda, menejment sohasini rivojlantirish uchun yaxshi menejerlar zarurdir. Xozirgi zamon bilan hamnafas holda “menejment”ni o‘rganamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. N.Ziyaviddinova, Y. O‘rinov, Sh.Hayitov: “Menejment” – T.; 2012.
2. N.Q. Yo‘ldoshev, M.M.Azlarova, G.Y.Xo‘djamuratova: “Menejment va marketing asoslari” Toshkent – Iqtisodiyot – 2012.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Sojida Pardaboyeva,
O'zDSMI Nukus filiali

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo'nalish 2-bosqich talabasi.

*Ilmiy rahbar: Saparbaev Gulshira Abatbaeva .
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
Madaniyat faoliyati kafedrasi mudiri, dotsent.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Madaniyat va san'at sohasida-gi kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari haqida ma'lumotlar kiritilgan. Hozirga davrda kadrlarni rivojlantirishga ehtiyoj sezadigan holatlar haqida va boshqa masalalar bo'yicha ma'lumotlar bor.

Kalit so'zlar: kadrlar siyosati, madaniy soha, zamonaviy kadrlar, globallashuv.

Innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha sohalariga keng tatbiq qilinayotgan hozirgi sharoitda har bir rahbar – ish beruvchi yuqori malakali kadrlar bilan ishlashni ko'proq xohlaydi. Yuqori malakali kadrlar belgilangan vazifalarni tez va sifatli hal qilishning kafolati.

hisoblanadi. Hozirgi ota globallashgan zamonda kadrlarning noto'g'ri tanlanishi korxonalar (firmalar) uchun ko'p yo'qtishlarga sabab bo'ladi. Korxona (firma) rahbari yoki bevosita kadrlar (personal) bilan ishlovchi mutaxassisning kadrlarni tanlashda e'tiborga olishi muhim bo'lgan jihat – insonning avval nima qilganini emas, balki endi nima qila olishi mumkinligini bila olishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytiril-

gan majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlanganidek, “lavozimlarga samara-li ishni ta’minlaydigan, munosib kadrlarni tanlash bo‘yicha oldimizda muhim vazifa turibdi”. Shu ma’noda, kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish, boshqarish va salohiyatidan unumli foydalanish jarayonida jahoning turli kompaniyalarida qo‘llab kelinayotgan.

Texnologiyalarni tadqiq etib, ulardan milliy iqtisodiyotimizda foydalanish yo‘nalishlarini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib . Kadrlar siyosati – mamlakatimizning kadrlar sohasida azaldan qo‘llangan tushuncha, bu tashkilotning xodimlarga munosabati va aniq maqsadlarga erishish niyatida unga ta’sir ko‘rsatish usullari majmui deb tushuniladi. “Kadrlar siyosati” tushunchasining zamonaviy ma’nosи quyidagilardan iborat.

Birinchidan, korxonaning zamonaviy kadrlar siyosati ishlayotgan har bir xodimning vazifalari va strategik maqsadlaridan mantiqiy kelib chiqadi va faoliyatning aniq natijalari hamda korxonaning umumiyy rivojlanish istiqbollariga moslashadi. Kadrlar siyosatining quayligiga, egiluvchanligiga yuqori talablar va uning ichki (boshqarish va rahbarlik uslubi, ichki tashkiliy madaniyat va hokazo) va tashqi muhit (mehnat bozori, iqtisodiy inqiroz sharoitida – moliya faoliyatini maqsadli olib borish xususiyatlari, qonunchilikning rivojlanishi, takomillashishi) ko‘p omilli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, kadrlar siyosatining g‘oyalarini korxonadagi yuqori savyadagi rahbarlar (ta’sischilar, mulkdorlar, top-menejerlar) ishlab chiqadilar.

Uchinchidan, kadrlar siyosatini asosan oliy va o‘rta darajali boshqaruv bo‘g‘inida mehnat faoliyatiga ega funksional rahbarlar, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan bo‘ladilar.

To‘rtinchidan, kadrlar siyosatini amalga oshirishda yuqori profesional malakaga ega kadrlar xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. U maslahatchi, uslubchi, rahbar yordamchisi, kadrlar siyosati monitoringini amalga oshiruvchi koordinator vazifasida namoyon bo‘ladi, uning faoliyat samarasи, zarurat tug‘ilganda esa bevosita yangilash tashabbuskorи sifatida ham yuzaga chiqadi [2:12]. Xodimlarning sifat tarkibi odatda ish tajribasi, kadrlar malakasini oshirish va boshqa

omillarni hisobga olgan holda oliy, o‘rtalik maxsus, o‘rtalik va boshlang‘ich kasb-hunar ma’lumotiga ega bo‘lgan xodimlarga bo‘linadi. Kadrlar almashinuvi darajasi korxonaning kadrlar siyosatining eng aniq mezonlaridan biridir. Albatta, kadrlar almashinuvini ham ijobjiy, ham salbiy hodisa sifatida ko‘rish mumkin.

Madaniyat sohasida kadrlar siyosatining dolzarb masalalari deb quydagilarni aytish mumkin:

- Madaniyat sohasida malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘z vaqtida ta’minalash, sohaga salohiyatlari kadrlarni jalb etish;
- Yosh kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va statistik ma’lumotlarni shakkantirish;
- O‘zbekiston Respublikasi va xorijiydagи madaniyat markazlari va kurslarida xodimlar kasbiy mutakassislari doimiy oshirib borishlari uchun sharoit yaratish;
- Madaniyat va san’at muassasalari mutaxassislari uchun xorijiy madaniyat va san’at institutlari yetakchi mutaxassislari ishtirokida yangi metodlar yaratish;
- Soha xodimlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan briefing, seminarlar va boshqa uchrashuvlar tashkil etish;
- xodimlarning yanada samarali ishlashiga erishish, ularning mehnat muhofazasini ta’minalash.

Ish beruvchi, xodim va kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan imzolangan jamoatchilik shartnomasi asosida samarali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda. Yangi jamiyat sharoitida ta’lim-tarbiya, ayniqsa, milliy tarbiya jarayonini takomillashtirish faqat sog‘lom ijtimoiy muhitdagina amalga oshiriladi. Busiz jamiyatimiz rivojining biror-bir sohasini o‘zgartirishga qodir emas edik.

Korxonaning kadrlar xizmati aniq kadrlar bilan bog‘liq strategiyalar loyihalari, ssenariyalar, vaziyatlar va kadrlar siyosati talablari bajarilishiga yordam beruvchi personal texnologiyalar mexanizmini ishlab chiqaradi. Professional kadrlar xizmati ham anglab va izchilik bilan mujassamlashtirib, amalda korxona kadrlar siyosatining turli ta’riflari mavjud (personalni boshqarish siyosati, inson resurslarini boshqarish siyosati, inson kapitalini boshqarish siyosati). Ulardan ba’zilariga o‘z ta’rifimizni berishimiz zarur:

- Korxonaning kadrlar siyosati – korxonaning xodimlar faoliyatini bilan bog‘liq umumiy qoida, tamoyil, munosabat va ustuvorliklar tizimi orqali ushbu korxonada amalga oshirish uchun asosiy va majburiy deb e’tirof etilgan va hokazo boshqaruv tizimida qo‘llanuvchi qadriyat mo‘ljallari, usullari, shakllari, ko‘p yillik an’analar majmuasi, baholash usullaridan iborat.

- Korxona kadrlar siyosati – rahbariyat tomonidan belgilanuvchi va jamoaning mavjud tashqi muhit sharoitda uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga eng samarali

Tarzda erishish imkonini beruvchi, xodimlarni boshqarish jarayonida qo‘llanuvchi mavjud subektlar, ularning xatti-harakat qoidalari, prinsiplar tizimi.

- Korxona kadrlar siyosati – xodimlar vazifalarining umumiy yo‘nalishi, korxonaning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda doimiy o‘zgarib borayotgan bozor talablariga o‘z vaqtida moslashish qobiliyatiga ega mas’uliyatlari, yuqori malakali uyushgan jamoani tuzish maqsadida kadrlar salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiy inqiroz xavfi sharoitida jamoaning bir maromda ishslash talablarini saqlashga yo‘naltirilgan maqsad, ishlab chiqish jarayonining tashkiliy mexanizmi, usullari, shakl va tamoyillari yig‘indisidir.

- Korxona kadrlar siyosati keng ma’noda mehnatni tashkil qilish prinsiplari, normalari, qoidalari tizimi, uning asosida xodimlarni boshqarish bo‘yicha faoliyatning (saralash, tanlab olish, ishga yollash, o‘qitish, lavozimini ko‘tarilish) asosiy yo‘nalishlari oldindan rejalashtiriladi va jamoaning umumiy maqsad va vazifalarini belgilash hamda barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlari bilan muvofiqlashtirish, tor ma’noda esa – inson va korxona o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlardagi o‘ziga xos qoidalari, majburiyatlar va cheklar majmuidir.

Hozirga davrda kadrlarni rivojlanirishga ehtiyoj sezadigan holatlar:

- iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida turli bozorlardagi jiddiy raqobat;

- yangi axborot texnologiyalarini jadal rivojlanishi;

- tashkilot faoliyatining yagona dasturi asosida inson resurslarini boshqarish masalalarini tizimli, kompleks hal etish va barcha strategik vazifalarni bajarish;

- tashkilotning strategiyasi va tashkiliy madaniyatini rivojlantirish zaruriyat;

Kadrlar rivojlantirish zarurati anglab yetgan korxona va tashkilotlar kadrlarni rivojlantirish va bu sohani takomillashtirish orqali ishlab chiqarishning o'sishiga, mutaxasislar malakasining oshishiga va raqobatbardoshlikning ortishiga va korxona daromadining ko'payishiga erishiladi. Shu bilan birgalikda, ish vaqtining qisqarishiga, kadrlar qo'nimsizligining pasayishiga va resurslar sarfining kamayishiga sabab bo'ladi. Kadrlarni rivojlantirish chora-tadbirlari yangi xodimni yangi ish joyiga tezda moslashishi, yangi vazifalarni o'z vaftida va samarali bajarish, yangi texnoligiyalar va yangi sharoitlarda xodimlarning o'z vazifalarininng operativ tarzda bajara olishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda oldindan mavjud vazifalarga yangicha yonda-shuv orqali bajarish natijasida samaradorlikning oshishiga erishiladi [8:18]. Madaniyat sohasida kadrlar siyosatining dolzarb masalalari dan biri motivatsiya tizimni takomillashtirishdir. Bunda madaniyat markazlari taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi xodimlarni rag'batlantirish va mansabini ko'tarish kerak. Madaniyat sohasi xodimlarining tarkibini optimallashtirish, uslubiy ishlar darajasini oshirish va xodimlar bilan ishslash strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. D.A'zamov. Personalni tanlash va ishga yollashda innovatsion texnologiyalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.
2. B.Umurzakov, G.Abdurahmanova, S.Xolmuratov. Korxonada kadrlar siyosati. Toshkent. ToshDIU. 2019. – 190 b.
3. M.I. Raxmatillayeva, D.Y. Ismailova Yoshlar tarbiyasining milliy-ma'naviy xususiyatlari va istiqbollari. "XXI asr – intellektual yoshlar asri" Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari (2018-yil 30-mart). Toshkent: O'zR FA, 2018.
4. Bekberanova M. Tashkilotda kadrlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish. Toshkent-2018. O'zMU. 84-b.

MUZEYLARNING INKLYUZIVLIGI: NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR UCHUN MADANIY MUHITNI KENGAYTIRISH MASALALARI

Gavhar Normatova,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va san'at menejmenti"

kafedrasi dotsenti Ikromov Sayfulla Turg'unovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning nogironligi bor shaxslar uchun inklyuzivligi masalasi ko'rib chiqiladi. O'zbekiston va dunyo miqyosidagi tajribalar tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, qonunchilik asoslari, statistik ma'lumotlar va xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida qanday integratsiya qilish mumkinligi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: muzeylar, inklyuzivlik, nogironligi bor shaxslar, madaniy muhit, huquqiy asoslar, xalqaro tajriba, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В статье рассматривается проблема инклюзивности музеев для людей с ограниченными возможностями. Будет проанализирован опыт Узбекистана и мира, а также выделены существующие проблемы и пути их преодоления. Также даются рекомендации по интеграции законодательной базы, статистических данных и зарубежного опыта в условия Узбекистана.

Ключевые слова: музеи, инклюзия, люди с ограниченными возможностями, культурная среда, правовая база, международный опыт, цифровые технологии.

Abstract: This article examines the issue of inclusiveness of museums for people with disabilities. The experiences of Uzbekistan and

the world are analyzed, existing problems and ways to overcome them are highlighted. Also, recommendations are given on how to integrate legislative frameworks, statistical data and foreign experiences into the conditions of Uzbekistan.

Key words: museums, inclusiveness, people with disabilities, cultural environment, legal frameworks, international experience, digital technologies.

“Madaniyat insoniyatning eng yuksak ifodasidir va har kimning unga erkin kirish huquqi bo‘lishi shart.”

Nelson Mandela

Muzeylar milliy madaniyat va tarixni asrab-avaylash, targ‘ib qilish va ommaga yetkazishning muhim vositasidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 1 milliarddan ortiq kishi nogironlik bilan yashaydi va ularga madaniy muassasalariga kirish imkoniyatlari yetaricha ta’minlanmagan. O‘zbekistonda esa nogironligi bor shaxslarning madaniy hayotga jalb qilinishi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008) va “Nogironlarni reabilitatsiya qilish davlat dasturi” (2017) asosida amalga oshirilmoqda. Ammo amaliyotda bu borada ko‘plab muammolar mavjud.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda 750 mingdan ortiq nogironligi bor shaxslar mayjud bo‘lib, ularning aksariyati jamoat joylariga, xususan, muzeylarga tashrif buyurishda qiyinchiliklarga duch keladi. 2021-yilda O‘zbekiston Madaniyat vazirligi tomonidan o‘tkazilgan taddiqot shuni ko‘rsatdiki, mamlakatdagi 50 dan ortiq muzeylarning faqat 30%ida nogironlar uchun maxsus yo‘laklar mavjud, eshitish va ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar uchun esa maxsus eksponatlar deyarli yo‘q.

Maqolada muammo analizi, xalqaro tajribalarni o‘rganish, statistik ma’lumotlar tahlili va amaliy takliflar ishlab chiqish usullari qo‘llaniladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning inklyuziv muzeylarni rivojlanтирish bo‘yicha yondashuvlari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlari tavsiya etiladi.

Muzeylar jamiyatning barcha qatlamlari uchun ochiq bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim madaniy muassasalardir. Biroq, nogironligi bor shaxslar uchun mavjud infratuzilma va xizmatlarning yetarlicha rivojlanmagani ularning madaniy muhitga to‘liq qo‘shilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 1 milliarddan ortiq nogironligi bor shaxslar mavjud bo‘lib, ular madaniy muassasalardan foydalanishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar. O‘zbekistonda esa rasmiy statistikaga ko‘ra, 750 mingdan ortiq nogironligi bor shaxslar bor, ularning ko‘pchiligi jamoat joylariga, jumladan, muzeylarga tashrif buyurishda muammolarga duch keladi.

Mavjud muammolarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Jismoniy inklyuzivlik muammolari

- Ko‘pchilik muzeylarda nogironlar aravachasi uchun moslashtirilgan yo‘lak va liftlar mavjud emas.
- Nogironligi bor tashrif buyuruvchilar uchun maxsus o‘rindiqlar, dam olish joylari va to‘siksiz harakatlanish imkoniyatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

2. Axborot va sensorli inklyuzivlik yetishmovchiligi

- Ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun Braille yozuvli eksponatlar va audiotavsiflar deyarli mavjud emas.
- Eshitish qobiliyati cheklangan tashrif buyuruvchilar uchun imo-ishora tarjimonlari yoki subtitrlangan materiallar taqdim etilmaydi.

3. Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyaning pastligi

- Virtual eksponatlar va onlayn muzeylar O‘zbekistonda keng rivojlanmagan.
- Nogironligi bor shaxslar uchun maxsus mobil ilovalar va interaktiv xizmatlar yetishmaydi.

4. Kadrlar tayyorlash va ijtimoiy ong yetishmovchiligi

- Muzej xodimlarining inklyuziv madaniyat bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tmagani ularga xizmat ko'rsatishda qiyinchilik tug'diradi.
- Nogironligi bor shaxslarning madaniy muhitga jalb etilishi bo'yicha targ'ibot ishlari yetarli emas.

Xorijiy tajriba va uning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi. Buyuk Britaniya tajribasi misolida.

Tate Modern muzeyi barcha tashrif buyuruvchilarga ochiq bo'-lishi uchun maxsus liftlar, audiotavsifli eksponatlar va maxsus ekskursiyalarni yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston sharoitida ham yirik muzeylarda maxsus ekskursiyalar va audiotavsiflarni joriy qilish mumkin.

Fransiya tajribasi. Luvr muzeyi ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar uchun 3D eksponatlar va sensorli tur ekskursiyalarini joriy qilgan.

O'zbekiston muzeylari ham interaktiv eksponatlar yaratish orqali ushbu tajribani o'zlashtirishi mumkin.

AQSh tajribasi. Smitson Instituti muzeyi maxsus onlayn eksponatlar yaratgan bo'lib, bu nogironligi bor shaxslarning muzey eksponatlari bilan masofadan tanishish imkoniyatini kengaytirgan.

O'zbekistonda ham virtual muzeylar va 3D eksponatlar orqali nogironligi bor shaxslarning madaniy tajribasini kengaytirish lozim.

Germaniya tajribasi. Germaniyada barcha yangi muzey loyihalarda inklyuzivlik talab sifatida belgilangan. O'zbekiston hukumati ham yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan muzeylarda inklyuzivlik standartlarini joriy etishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar: O'zbekiston muzeylarida nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyatlarni kengaytirish jamiyatda teng huquqlilik tamoyilini mustahkamlashda muhim qadamdir. Inklyuziv muzeylar nafaqat nogironligi bor shaxslar uchun, balki barcha tashrif buyuruvchilar uchun qulaylik yaratadi.

Inklyuzivlikni oshirish uchun bir qator muhim choralar amalga oshirilishi lozim:

1. Jismoniy infratuzilmani yaxshilash

- Muzeylarda to'siqsiz yo'laklar, liftlar, maxsus o'rindiqlar va dam olish joylarini tashkil etish.
- Nogironlar aravachasi uchun moslashtirilgan yo'laklarni kengaytirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash.

2. Axborot va kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish

- Ko'rish va eshitish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun maxsus eksponatlar, audiotavsiflar va subtitrlangan materiallar yaratish.
- Braille yozuvi va imo-ishora tarjimonlarining mavjudligini ta'minlash.

3. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish

- Virtual muzeylar va onlayn eksponatlarni ishlab chiqish.
- Nogironligi bor shaxslar uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqish va interaktiv xizmatlar yaratish.

4. Muzey xodimlarini maxsus tayyorlash

- Nogironligi bor shaxslar bilan ishlash bo'yicha maxsus trening va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.
- Muzey xodimlarining inklyuziv madaniyat bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.

5. Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashni oshirish

- Inklyuziv infratuzilmani rivojlantirish uchun grantlar ajratish.
- Yangi muzey loyihibarida inklyuzivlik talablarini majburiy qilish.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv muzeylarni rivojlantirish nogironligi bor shaxslarning madaniy hayotga to'laqonli qo'shilishi uchun zarur. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni moslashtirish orqali inklyuzivlikni oshirish nafaqat nogironligi bor shaxslarga, balki jamiyatning barcha a'zolariga foya keltiradi. Ushbu choralar orqali madaniy muhitni yanada ochiq va adolatli qilish mumkin.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. “Nogironligi bor shaxslar uchun madaniy muassasalar infratuzilmasini yaxshilash dasturi”, 2021.
3. World Health Organization. “Disability and Culture”, 2020.
4. Tate Modern. “Inclusive Museum Design: Case Studies”, 2019.
5. The Smithsonian Institution. “Digital Accessibility in Museums”, 2021.
6. UNESCO. “Cultural Inclusion Policies Worldwide”, 2022.

MUNDARIJA

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich. Kirish so‘zi	3
Viktor Alimasov. Ijtimoiy hamkorlik va birlik: milliy-lokal va global jihatlarining ijtimoij-falsafiy tahlili	5
Abdusalom Umarov, Doston Xamidov. Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yo‘llari	13
Манзура Юлдашева. Особенности цифровизации в современных музеях	23
Dilafruz Yusupaliyeva. Teatrler faoliyatida marketing	30
Munisa Mavruslova. Jamiyat taraqqiyotida qadriyat va xarakter uyg‘unligi masalasi	39
Muqaddas Axmetjanova. Zamonaviy tomoshabin va teatrning funksional tizimi	44
To‘rabek Fayziyev. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti	52
Vahobjon Rustamov. O‘zbekistonda havaskorlik teatr jamoalari faoliyati taraqqiyoti	58
Саида Эргашева. Рол менеджеров в создании культурно-художественной среды	65
Ma’murjon To’rayev. “Gamlet” obrazini talqin etishda Abror Xidoyatov va Olim Xo‘jayevning o‘ziga xos ijro uslubi va mahorati	68
Sayfulllo Ikramov. Madaniy-ommaviy tadbirlar orqali yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirishning tashkiliy-madaniy jihatlari	76
Shohrux Abdurasulov. Zamonaviy o‘zbek teatrinda jadid dramaturgiyasi va ma’rifatparvarlari obrazi talqini	88
Gulshira Saparbaeva. Mádeniyat hám kórkem óner tarawinda jaslar tárbiyasiniń aktual máseleleri	94
Rahima Yusupova, Zarina Nurullayeva. Madaniyat va san’at sohasida kreativ pedagogikadan foydalanish – kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim mezoni sifatida	97
Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. Madaniyat markazlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish	102

Qurbanmurot Amonqulov. O‘zbekiston Respublikasida madaniy xizmatlar strategiyasini ishlab chiqish: tizimli yondashuv va tahlil	108
Marhamat Murodova. Yangi O‘zbekistonda madaniyat markazlari ni rivojlantirish (Toshkent shahar misolida)	120
Хафиза Абдуллаева. Узбекская модель социально-культурного развития сельской местности	125
Nodira Mamatqosimova. Madaniy tadbirlar ssenariysida kompozitsion tuzilish masalalari	132
Javlonbek Tojiyev. Rahbarni kasbiy motivatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari	135
Элеонора Ганиева. Репрезентация национального телевидения Узбекистана в мировом медиа пространстве (на примере взаимодействия с мировыми социальными сетями и мессенджерами)	145
Umid Todjidanov, Madina Abdusattarova. Madaniy merosni obyektlarini saqlash va targ‘ib etish tamoyillari	152
Dilnoza Qurbonova. Jamiyatning ma’naviy yuksalishida ayollarning o‘rni	162
Axmedov Farrux. O‘zbekistonda madaniyat siyosatini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari	167
Shamshod O‘rinov, Nilufar Qosimova. Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlash tizimi muammolari	176
Muhammad Rustamov. San’at va madaniyat sohasini ilmiy o‘rganilishning dolzarb jihatlari	181
Xayitboy Sotiboldiyev. Iqtisodiyot transformatsiyalashuv jarayonida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati	187
Kamola Sadullayeva. Klassik asarga zamonaviy yondashuv (Bahodir Yo‘ldoshevning ilk rejissyorlik ishi misolida)	194
Jo‘rabek Toychiyev. Yangi ma’naviy makonni yaratish orqali jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash masalalari	200

Mahira Xudayberganova. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat sohasi malaka oshirish tizimining ahamiyati	204
Nasiba Abdullayeva. Madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari	210
Nargiza Asatova. Malakali kadrlar soha tayanchi	215
Madina Pardayeva. Musiqa industriyasida prodyusserlik va san’atkorlarning huquqlari: muammo va yechimlar	220
Барно Мирвалиева. Кадровий потенциал в сфере культуры: современные тренды и перспективы	224
Feruza Raxmatova. Boshqaruv jarayonida rahbarlik faoliyati	230
Nilufar Maratova. Fandrayzing tushunchasi, mohiyati va uning turlari	238
Naima Boyqobilova. Milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning rivojida madaniyat markazlarining o‘rni	246
Shahlo Karimova. Zamонавиј библиографик технолоџијалар ва ularning ilm – fan rivojidagi o‘rni	252
Sabina Jumayeva. Madaniyat vazirligi tarixi va uning bugungi kundagi faoliyat bosqichlari	261
Jaloliddin Botirov. Madaniyat va san’at sohasida menejerlik faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari	268
Marjona Suyunova. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi va muzeylar taraqqiyoti	273
E’zozaxon Mashrabjonova. O‘zbekiston va turkiya madaniyat muassasalaridagi innovatsion marketing usullarini madaniy ta’lim sohasiga olib kirish	276
Manzura Mamataliyeva. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda respublika va xalqaro festivallarning o‘rni va roli	288
Shahoza Umaraliyeva. MDH davlatlarida madaniyat va san’at marketingi: xalqaro tajribalar asosida madaniyat muassasalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar	296

Shahrizoda Ne'matilloyeva. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida innovatsion yondashuvning nazariy asoslari	303
Zarif Saidov. O'zbekistonda madaniyat va sanat menejmenti talimi: tizimi, muammolari va yechimlari	309
Zilayxa Taumuratova. Madaniyat markazlari faoliyatining rivojlanish tarixi, undagi dolzarb muammolar va yechimlar	315
Shaxsanem Sultamuratova. Zamonaviy teatr va kino aktyorlarini tayyorlashda an'anaviylik va innovatsiya	318
Shingiz Abdibaev. Muzeyleerde jasalma intellekt: tariixiy eksponatlardi janlandiriw imkaniyatlari	321
Bibiyim Seydullaeva. Madaniyat va san'at rivojlanishida menejmentning o'rni	324
Ozoda Qo'ziyeva. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari	328
Bibinaz Majitova. Shamuratova uy muzeyi	333
Ulbosin Abdullaeva. Mádeniyat hám kórkem ónerdiń jámiyettegi áhmiyeti (Moynaq rayoni mísalında)	336
Barно Ravshanova. Jadidlar – millatni uyg'otgan ma'rifat elchilari timsolida yosh avlodning yuraklarida mangu yashaydi!	341
Jaxongir Sobirjonov. Ommaviy bayramlar tarixidan	348
Muqaddas Abdullayeva. Ijtimoiy madaniy faoliyatda marketing va menejmentning o'rni	352
Baxtiyor Samiyev. Surxondaryo viloyatida madaniyat va san'at sohasi taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilmoqda	357
Zarina Nurullayeva. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida yosh rahbar kadrlarga xos fazilatlar va qoyiladigan talablar	362
Barно Ravshanova. Menejmentni o'rganish	367
Sojida Pardaboyeva. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari	375
Gavhar Normatova. Muzeylarning inklyuzivligi: Nogironligi bor shaxslar uchun Madaniy muhitni kengaytirish masalalari	380

**“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida
madaniy islohotlarni amalga oshirishning
dolzarb masalalari” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 16-aprel

Muharrir

T. Mirzayev

Badiiy muharrir

D. Mulla-Axunov

Sahifalovchi

G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to‘g‘risidagi xabarnoma
6.11.2023-yil qabul qilingan, tasdiqnomalar № 156149.
Bosishga 2025-yil 15-aprelda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 24,5.
Adadi 20 nusxa. Buyurtma raqami № 012/M-25.

“Donishmand ziyosi” nashriyotida nashrga tayyorlandi
va matbaa bo‘limida chop etildi.
Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.